Annotation. This article deals with the tradition of writing gazelles with the same rhythm in the poetry of Turkic peoples. The famous Azerbaijan poet Fuzuli, the great poets of our nation, Shermuhammad Munis, Amiri, and Agahi, are revealed with the tradition and originality of the gazelles with the same rhythm.

Kalit soʻzlar: anʻana, oʻziga xoslik, radif, Fuzuliy, Munis, Amiriy, Ogahiy.

Ключевые слова: традиция, своеобразие, радий, Фузули, Мунис, Амирий, Огахи.

Key words: tradition, originality, radif, Fuzuli, Munis, Amiri, Agahi.

Turkiy gʻazalnavislikda bir xil radifli gʻazallar yozish anʻana tusiga kirgan. “Kerakmasmu sanga” radifi haqida ham shunday deyish oʻrinli. Turkiy sheʼriyatda nomdor boʻlgan Muhammad Sulaymon oʻgʻli Fuzuliy sheʼriyatida “Kerakmasmu sanga” radifli badiiy jihatdan puxta gʻazal bor. Bu gʻazalga Shermuhammad Munis, Amir Umarxon, Ogahiyilar oʻxshatmalar bitishgan. Yuqorida nomlari qayd qilingan ijodkorlar Fuzuliy anʻanasini davom ettirgan boʻlsalar-da, ifodada, yangi fikr aytishda oʻziga xoslikka erishishgan.

Fuzuliy gʻazalining ilk bayti quyidagicha:

Gʻamzasin sevdin, koʻngul, joning kerakmasmu sanga,

Tigʻa urding, jismi uryoning kerakmasmu sanga.¹

Ushbu baytda shoir koʻngilga murojaat qilar ekan, yorning gʻamza, nozin sevdin, senga joning kerakmaydimi, deydi. Chunki maʼshuqaning gʻamzasi jon oluvchidir. Sen yorning gʻamzasin sevib, oʻzingni tigʻga urding. Nahotki, senga yalangʻoch jising kerakmas, deydi.

Munis gʻazalining birinchi bayti esa quyidagicha:

Istading, ey dil, koʻzin, joning kerakmasmu sanga,

Kufri zulfin sevdin, imoning kerakmasmu sanga.²

Fuzuliy koʻngilga murojaat qilib, yorning gʻamzasin sevdin, degan boʻlsa, Munis ham dilga murojaat etadi va sen maʼshuqaning koʻzini istading, joning kerakmaydimi, kufrga botgan sochini sevdin, imoning kerakmasmi, deydi.

Amiriy gʻazalining dastlabki bayti quyidagicha:

Xat chiqording, laʼli xandoning kerakmasmu sanga?

Xizra verding, obi hayvoning kerakmasmu sanga?³

Ushbu baytda maʼshuqaning lablari ustidagi xat xususida soʻz boradi. Sen lablaring ustiga, xat chiqarding, laʼli xandoning kerakmaydimi, sen uni Xizrga berding, tiriklik suvi oʻzingga darkor emasmi, deya lutf qiladi.

Ogahiy esa quyidagicha oʻxshatma qiladi:

Oshiq oʻldin, ey koʻngul, joning kerakmasmu sanga?

Oʻtga kirdin, jismi uryoning kerakmasmu sanga?⁴

¹ Fuzuliy. Asarlar. Ikki jildlik. Devon. Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968, 56-bet (Bundan keyin tahlilga tortiladigan Fuzuliy baytlari shu kitobdan olinadi).

² Munis. Saylanma. Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1980, 25-bet (Bundan keyin tahlilga tortiladigan Munis baytlari shu kitobdan olinadi).

³ Amiriy. Devon. “Tamaddun”, Toshkent, 2017, 49-bet (Bundan keyin tahlilga tortiladigan Amiriy baytlari ushbu kitobdan olinadi).

⁴ Ogahiy. Taʼviz ul-oshiqin. Toshkent, “Mumtoz soʻz”, 2014, 48-bet (Bundan keyin tahlilga tortiladigan Ogahiy baytlari ushbu kitobdan olinadi).

Bu o‘rinda Ogahiy ham ko‘ngilga murojaat qiladi. Sen oshiq bo‘lding, joning kerakmasmu, oshiqlik esa o‘tga kirganday gap, yalang‘och tanang darkor emasmi, deydi shoir. Ko‘rinadiki, Fuzuliy, Munis, Ogahiy to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘ngil, dil, deya murojaat etadi. Biroq Amiriyda murojaat qilinuvchining nomi qo‘llanilmaydi. Mazmunan, u ham ko‘ngilga murojaat etgani bilinadi.

Fuzuliy g‘azalining ikkinchi baytida bog‘bonga murojaat qilinadi. Ohimning otashi bilan meni bog‘ingga taklif qilasan, ey bog‘bon, ochilgan gulbarglaring senga kerakmasmi, deydi shoir.

Otashin ohim-la aylarsan manga taklifi bog‘,

Bog‘bon, gulbargi xandoning kerakmazmi sanga?

Munis g‘azalining ikkinchi baytida yorga malohat ganji, deya murojaat etiladi. Sen mening ko‘ngul koshonamni dard-u g‘am seli bilan buzdin, endi senga ana shu vayrona kerakmaydimi, deydi lirik qahramon. Ushbu mazmunni ifodalagan bayt esa quyidagicha:

Dard-u g‘am seli bilan buzdin ko‘ngul koshonasin,

Ey malohat ganji, vayroning kerakmasmu sanga?

Amiriy esa ma‘shuqaga g‘am tirnog‘i bilan ko‘ksim dog‘ini tozalading, yod qilmaysan, esga ol-maysanki, dard tirnashidan hosil bo‘lgan gulistoning kerakmaydimi, deya yozg‘iradi:

Toza qilding noxuni, g‘am birla ko‘ksim dog‘ini,

Yod qilmassan, gulistoning, kerakmasmu sanga?

Ogahiy g‘azalining ikkinchi baytida ham ko‘ngilga murojaatda davom etadi: Sen ul yuz tomosha-sini istab, ko‘zdan dam-badam qon to‘kasan, atrofga giryon boqqan ko‘zlaring darkor emasmi, deya oh uradi shoir:

Istabon ul yuz tamannosini ko‘zdin dam-badam,

Qon to‘karsan, chashmi giryoning kerakmasmu sanga?

Fuzuliy o‘z g‘azalining uchinchi baytida pariga qarata sochlaringni shamolga berma, sochilgan, parishon zulfing kerakmasmi, desa, Munis ham uchinchi baytida yorning parishon sochlari haqida yozadi. O‘tlug‘ ko‘ngillarni jam‘ etib asir qilding, sochilgan zulfingni halqasi kerak emasmi, deydi.

Amiriy g‘azalining uchinchi baytida o‘zini it, deb ataydi. Ag‘yor uchun meni huzuringdan quvma, ey yaxshilar, shohi, darvozunga qo‘riqchi lozim emasmi, deydi shoir. Ogahiy esa uchinchi baytda ham ko‘ngilga, o‘z-o‘ziga murojaatni davom ettiradi va sen yorning kofir ko‘zlarining boqishlarini hamisha orzu qilasan, sen bundan hazar qil, naqd imoning darkor emasmi, deya imonga chorlaydi.

Minis, Amiriy, Ogahiy o‘z g‘azallarini Fuzuliyga tatabbu‘ tarzida yozgan bo‘lsalar-da, shoirlar bir-birining fikrlarini aynan takrorlashmaydi. To‘g‘ri, har to‘rtala g‘azal ham ishqiy mavzuda. Biroq ifodada, fikrda, badiiyatdagi o‘ziga xoslik g‘azallarda ko‘zga tashlanadi.

Quyidagi jadvalda har to‘rtala shoirning “Kerakmasmu sanga?” radifli g‘azalidagi o‘xshash va farqli ji-hatlar ko‘rsatib beriladi:

№	Ijodkorlar	Fuzuliy (1498–1556)	Munis (1778–1829)	Amiriy (1787–1829)	Ogahiy (1809–1822)
	G‘azal haqida ma‘lumot				
1	Baytlar soni	7	6	10	7
2	G‘azalning qofiyalari	joning, uryoning, xandoning, parishoning, paykoning, raxshoning, iymoning, giryoning	joning, imoning, vayroning, parishoning, paykoning, raxshoning, ilhoning	xandoning, hayvoning, gulistoning, darboning, mehmoning, ayvoning, parishoning, giryoning, iymoning, osmoning, devoning	joning, uryoning, giryoning, imoning, hayroning, ehsoning, xonavayroning, davroning
3	Baytlardagi murojaatlar	ko‘ngul, bog‘bon, pari, kamonabru, osmon, so‘fi, Fuzuliy (o‘z-o‘ziga)	dil, malohat ganji, gardun, gul,	nakular (go‘zallar) shohi, diyda, falak, oyina, ko‘ngul, charx, Amir (o‘z-o‘ziga)	ko‘ngul, shohi husn, Ogahiy (o‘z-o‘ziga)

4	Oshiqning nimasi qalamga olinadi?	joni, jismi uryoni, chashmi giryoni.	joni, imoni.	gulistoni (qon ko'ksi), imoni, devoni	joni, jismi uryoni, chashmi giryoni, naqd imoni
5	Ma'shuqaning nimasi qalamga olinadi?	zulfi parishoni, paykoni	vayronasi, zulfi parishoni, paykoni, dilkash ilhoni	la'li xandoni, obi hayvoni, darboni, zulfi parishoni	zor-u hayroni, lutf-u ehsoni, xonavayroni, shoiri donoyi davroni
6	Osmon, gardun, falak, charxning nimasi tasvirlanadi?	xurshidi, raxshoni	xurshidi, raxshoni	qasri ayvoni, osmoni	-
7	So'fining nimasi qalamga olinadi?	imoni	-	-	-

Fuzuliy g'azaliga bog'langan Munis, Amiriy, Ogahiyning yuqorida fikr yuritilgan tatabbu'lari tatabbu'navislikning go'zal namunalaridir. Ma'lumki, tatabbu'navislik she'riyatdagi an'anani davom ettirish, izdoshlik va qayta yaratish demakdir. Adabiyotshunos B.Fayzullayev: "Tatabbu'navislik an'ana, yaqinlik va mahorat uchligi bilan bog'liq faoliyatdir",¹ deya baholagan edi.

Xullas, yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, turkiy she'riyatda an'anaviylik kuchli. Biroq bu an'anaviylik taqlidchilik emas. Fuzuliy she'riyatidan ta'sirlangan Munis, Amiriy, Ogahiy badiiy tasvirda, ifodada, yangi fikr aytishda o'ziga xoslikka qo'l urganlar. O'zlarining badiiy mahoratlarini namoyon qilib, yangi qofiya topishda, ishqiy mavzu ifodasiga ijtimoiy mazmun-mohiyat ham qo'shib, gardunga, falakka, so'figa murojaat orqali yangilikka qo'l urganlar. Har bir shoir o'z g'azalini kutilmagan tarzda xulosalab, badiiy iqtidori yuksak ekanligini ko'rsatganlar. Bir so'z bilan aytganda, an'anaviylikdan o'ziga xoslik tomon bora olganlar.

¹ Файзуллаев Б. Ўзбек шеърлятида татабуу тарихи ва маҳорат масалалари. Филология фанлари номзоди диссертацияси автореферати, Тошкент, 2002.

Yusupov Ibragim Mirsaydaliyevich (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti Umumiy biologiya kafedrası dotsenti), Usmonova Gulshodaxon Ikromjon qizi (biologiya yo‘nalishi II bosqich magistranti)
TUPROQDA ERKIN YASHOVCHI ANAEROB AZOTOFIKSATOR BACCILLACEAE OILASIGA KIRUVCHI CLOSTRIDIUM PASTEURIANUM BAKTERIYASINING TUPROQDA INDIKATORLIGI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqola dehqonchilikda tuproqdagi organik moddalar, ulardagi mikroorganizmlarning roli, ularning faoliyati, tuproqda boradigan mikrobiologik jarayonlar, tuproqda uchraydigan azot to‘plovchi mikroorganizmlar va ularni o‘rganish usullari, erkin yashovchi azotofiksator mikroorganizmlardan *Clostridium pasteurianum* bakteriyasini elektiv kulturasini olish yordamida tuproqning unumdorlik xususiyatini organish keng yoritilgan.

Аннотация. В данной статье широко освещаются органические вещества почвы в земледелии, роль в них микроорганизмов, их деятельность, микробиологические процессы, протекающие в почве, азотфиксирующие микроорганизмы, встречающиеся в почве, и методы их изучения, изучение плодородного характера почвы с помощью селективного культивирования бактерий *Clostridium pasteurianum* из свободно живущих азотфиксирующих микроорганизмов.

Annotation. This article discusses the role of organic substances in the soil in farming, the role of microorganisms in them, their activity, microbiological processes going on in the soil, nitrogen-accumulating microorganisms found in the soil and methods of their study, the study of the fertility property of the soil with the help of obtaining an elective culture of the bacterium *Clostridium*.

Kalit so‘zlar: mikroorganizmlarning faoliyati, tuproq mikroorganizmlari, azotofiksatsiya jarayoni, azot moddalarning biologik o‘zgarishi, erkin yashovchi azotofiksatorlar, molekular azotning fiksatsiyalanish mexanizmi, nitrogenaza fermenti, azotofiksatsiyaning ahamiyati, moy kislotali bijg‘ish jarayoni.

Ключевые слова: активность микроорганизмов, почвенные микроорганизмы, процесс азотфиксации, биологические изменения азотистых веществ, свободно живущие азотфиксаторы, механизм фиксации молекулярного азота, фермент нитрогеназа, важность азотфиксации, процесс брожения жирных кислот.

Key words: activity of microorganisms, soil microorganisms, process of Azotofixing, biological change of nitrogen substances, Free-Living azotofixators, mechanism of fixation of molecular nitrogen, nitrogenase enzyme, importance of azotofixation, oil acid fermentation process.

Kirish. Dehqonchilikda ham mikroorganizmlar muhim rol o‘ynaydi, chunki ularning faoliyati natijasida tuproqda o‘simliklar uchun zarur bo‘lgan oziq moddalar to‘planadi, natijada tuproqning unumdorligi ortadi, ekinlarning hosili ham yuqori va sifatli bo‘ladi.

Dehqonchilikda azotofiksatsiyaning ahamiyati. Mikroorganizmlar tomonidan atmosfera azotining o‘zlashtirilishi, Yer yuzida biologik yo‘l bilan to‘planadigan hosilning umumiy miqdoriga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun atmosfera azotining biologik yo‘l bilan o‘zlashtirilishini o‘rganish dehqonchilik va biologiya uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muammolardan biridir.

Yer yuzidagi o‘simliklarning azotga bo‘lgan yillik ehtiyoji katta bo‘lib, taxminiy hisoblarga ko‘ra, Yer yuzidagi o‘simliklar bir yilda 100–110 mln. tonna azotni talab qilar ekan. Mineral o‘g‘itlar bilan esa atigi 30% azot tuproqqa tushar ekan. Agarda Yer yuzida bir yilda 110 mln. tonna azotli o‘g‘itlar ishlab chiqarilgan bo‘lsa, hosildorlik ikki marta ortgan taqdirda, hosil bilan tuproqdan 200 mln. tonna azot chiqib ketadi. Shuning uchun ham bunda mikrobiologik jarayonlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolaveradi.

Mishustin hisoblashlariga ko‘ra, sobiq Ittifoq hududida dukkakli o‘simliklar bir yilda 2,3 mln. tonna, azot to‘plovchi bakteriyalar esa 3,4 mln. tonna azot to‘playdi. Shunday qilib, biologik yo‘l bilan to‘planadigan jami azotning miqdori 5,7 mln. tonnani tashkil etadi. Yashil o‘simliklar bog‘lagan azot va ugle-roddan o‘z tanasining oqsil va boshqa kerakli moddalarni sintez qiladi. O‘simlikni hayvonlar iste‘mol qiladi. Nobud bo‘lgan o‘simlik va hayvon qoldiqlari bakteriyalar tomonidan chiritiladi va NH₃ hosil bo‘ladi. Ammiakning bir qismi o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilsa, qolgan qismi nitrifikatsiyaga uchraydi.

Azot to‘plovchilarning o‘zi ham atmosfera azotini o‘zlashtirib, oqsillar sintezlaydi. Bu oqsillar, o‘z navbatida, chirituvchi bakteriyalar tomonidan parchalanadi. Denitrifikatorlar nitratlarni parchalab, atmosferaga azotni qaytaradi. Shunday qilib, azot tabiatda aylanib yuradi [1].

Biz Yusupov Ibragim Mirsaydaliyevich usuli bo'yicha Clostridium pasteurianum bakteriyasi yordamida tuproqning o'simliklar uchun qanchalik unumdor holatdiligini aniqlashda indikator sifatida foydalanish mumkin ekanligini o'rganish maqsadida ilmiy ishlarimizni ikki yil davomida olib bordik.

Yusupov Ibragim Mirsaydaliyevich usuli. Buning uchun molekulyar azotni o'zlashtiruvchi klostridium pasteurianum (Clostridium pasteurianum)ni aniqlash uchun 1 g glukozaga eritilgan 50 ml suvga 100 g tuproq qo'shib, loy holga kelguncha aralastiriladi. Bu aralashma kurakcha yordamida Petri idishiga solinib, ustini silliqlab qopqoq bilan bekitiladi, so'ngra 30°C li issiq termostatda bir necha hafta saqlanadi. Keyin Petri idishining qopqog'ini ochib, aralashma hidlab ko'riladi. Agar undan yoqimsiz hid kelsa, aralashmada moy kislotaga hosil bo'lganligini bildiradi. Moy kislotali biyog'ish jarayonida gazlar (CO₂, H₂) ajralganligi sababli loy ko'piklanib turadi. Klostridium spora hosil qiluvchi tayoqchasimon batsilla bo'lib, spora hosil qilish bosqichida uning vegetativ hujayrasi dukka o'xshab qoladi. U anaerob sharoitda moy kislotali biyog'ish jarayonini qo'zg'aydi. Bu usulni ikki xil tarkibli, ya'ni, uzoq yillar davomida faqat organik o'g'it solingan va faqat mineral o'g'it solingan tuproqlarda o'rgandik. Natijada juda ishonchli dalillar olindi. Ya'ni, faqat organik o'g'it qo'llangan tuproqda biyog'ish jarayoni kuchli amalga oshdi [2.3]. Ammo faqat mineral o'g'it qo'llangan tuproqda, aksincha, biyog'ish jarayoni juda kuchsiz o'tganligini ko'rish mumkin edi (1-rasm).



1-rasm. “Loy tayyorlash” usulida Klostridium pasteurianum (Clostridium pasteurianum)ni aniqlash: a–minerallashmagan tuproqda biyog'ish jarayoni kuchli borgani uchun loy ko'piklanib turibdi; b – minerallashgan tuproqda jarayon kuchsiz borgani uchun ko'pik yo'q.

Tabiiy sharoitda moy kislotaga hosil bo'lganligini 1814-yilda nemis olimi Shevrel aniqlagan [4]. Moy kislotali biyog'ish jarayonida moy kislotaga hosil bo'lishida tirik organizmlar ishtirok etganligini va bu biologik jarayon ekanligini 1861-yili Lui Paster isbotlab berdi [5]. Bu jarayon quyidagi tenglama asosida boradi:



Bulardan tashqari, moy kislotali biyog'ish jarayonida sut va sirka kislotalar, etil va butil spirtlar, atseton va metan (CH₄) ham ajralib chiqadi.

Moy kislotali biyog'ishni qo'zg'ovchi bakteriyalarning ko'pchiligi tashqi muhitga kuchli fermentlar ishlab chiqaradi. Bu fermentlar ta'sirida kletchatka gidrolizlanadi (parchalanadi). Kletchatka va kraxmalning parchalanishi natijasida hosil bo'lgan oddiy shakarlarni, yuqorida ko'rsatilgan formula asosida, moy kislotali biyog'ishni qo'zg'ovchi bakteriyalar biyog'itadi.


Moy kislotali biyog'ishda qatnashadigan bakteriyalar kislorodli sharoitda yashay olmaydi, ya'ni ular anaerob bakteriyalar guruhiga kiradi. Bu bakteriyalar tabiatda keng tarqalgan bo'lib, iflos suv, sut, pishloq, tuproqda va boshqa turli muhitda uchraydi. Ular spora hosil qilish xususiyatiga ega bo'lib, sporalari 1–2 soat qaynatilganda ham hayot faoliyatini saqlab qoladi.

Moy kislotali biyog'ish jarayoni, bir tomondan, foydali bo'lsa, ikkinchi tomondan, zarar keltiradi. Foydali tomoni shundaki, bu jarayon yordamida yog' kislotalar, butil va etil spirtlar, atseton va boshqa mahsulotlar olinadi. Bakteriyalarning ba'zi bir turlari, jumladan, klostridium pasteurianum (Clostridium


pasteurianum) molekular azotni o'zlashtiradi (2-3-4-rasmlar). Bu jarayon qishloq xo'jaligi o'simliklari uchun zarur bo'lgan azot birikmalarining to'planishida juda katta rol o'ynaydi. Zararli tomoni, agar sariyog', pishloq, sut va boshqa mahsulotlarga moy kislotali bijg'ishni qo'zg'ovchi bakteriyalar tushib qolsa, ularda hosil bo'lgan moy kislota va boshqa birikmalar ta'sirida mahsulotlarning sifati pasayadi. Moy kislotali bijg'ish jarayonining bu shakli xalq xo'jaligi uchun juda zararlidir [6].



2-rasm. Moy kislotali bijg'ish jarayonini qo'zg'ovchi Klostridium pasteurianum.



3-rasm. Vegetativ hujayralar ko'k rangda, sporalar esa qizil yoki pushti rangda [7].



4-rasm. Electron mikroskopda ko'rinishi [7].

Yusupov Ibragim Mirsaydaliyevich usuli yordamida Usmonova Gulshodaxon Ikromjon qizi fermer dalasi tuprog'ini o'rganish bo'icha ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqda. Olingan natijalar quyidagi 1-6-raslarda ko'rsatilgan. Fermerning 5 ga yer maydonidan "Diagonal" usuli bo'yicha bir xil masofada 5 ta joyidan olingan tuproq namunasi o'rganilgan.



1-rasm. Nazorat-organik o'g'itli tuproq.



2-rasm. 1-namuna-organik o'g'itlsiz tuproq.



3-rasm. 2-namuna-organik o'g'itlsiz tuproq.



4-rasm. 3-namuna-organik o'g'itlsiz tuproq.



5-rasm. 4-namuna-organik o'g'itlsiz tuproq.



6-rasm. 5-namuna-organik o'g'itlsiz tuproq.

Nazorat–organik o'g'itli tuproq (1-rasm) tashqi ko'rinishidan I.M.Yusupov usuli bo'yicha tuproqda bijg'ish jarayoni kuchli amalga oshgan. Qolgan namunalar (2-6-rasmlar)da bijg'ish jarayoni, umuman, amalga oshmagan.

Xolosa, fermerning namunalar olingan dalasida organik moddalar juda kam ekanligi aniqlandi. Bu yerda mikrobiologik jarayonlar amalga oshmaydi, tuproqning nam saqlash xususiyati pasayib ketadi, tuproqda o'simliklar uchun zarur bo'lgan oziq moddalar to'planmaydi, natijada tuproqning unumdorligi pasayib, ekinlarning hosildorligi kam va sifatsiz bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupov Ibragim Mirsaydaliyevich. Umumiy mikrobiologiya. Biologiya o'qitish metodikasi. Darslik, T., 2020, 148 – 149-betlar.
2. Юсупов И.М. Тупроқнинг минераллашганлиги муаммоси ва уни яхшилаш йўллари. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги, Муқимий номидаги Қўқон Давлат Педагогика институти, Қўқон Ўрмон хўжалиги. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Қўқон ДПИ илмий кенгаши йиғилишида нашр қилишга тавсия этилган. Қўқон, 26 июнь 2010 йил, 159 – 162-бетлар.
3. Юсупов И.М. Тупроқнинг минераллашганлиги ва уни аниқлаш усуллари. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Фарғона Давлат унверситети “Ҳозирги замон тупроқшунослик ва деҳқончилик муаммолари”. Республика илмий анжумани материаллари тўплами. 16-октябрь 2019, 223–226-бетлар.
4. <https://www.britannica.com/biography/Michel-Eugene-Chevreul>
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Louis_Pasteur
6. Yusupov I.M. Umumiy mikrobiologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlari. Biologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun. O'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan. Toshkent, 2022, 42-bet.
7. <https://www.slideserve.com/winda/clostridium-pasteurianum>

**Xaydarova Aqida Xurram qizi (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
O‘zbekistonda rivojlantirish strategiyasi Fuqarolik jamiyati kafedrasini assistenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: aqi_93@bk.ru)**

VIRTUAL REALLIK ONTOLOGIYASINING O‘ZIGA XOS JIHLATLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada virtual reallik turlari, uning ijtimoiy-tarixiy davrlarni umumlash-tirish va ularni qayta tiklashning ilmiy asosi hisoblanishi, bu holat ilm-fan uchun katta ahamiyatga ega-ligi, virtual reallikda turli konsepsiyalar tizimlashishi, mazkur konsepsiyalarni asoslash uchun begona makon loyihasining ontologik va falsafiy mohiyatini asoslangan.*

***Аннотация.** В данной статье рассмотрены виды виртуальной реальности, ее научная основа для обобщения общественно-исторических эпох и их реставрации, большое значение данной ситуации для науки, систематизация различных понятий в виртуальной реальности, онтологическая и философская природа чуждого пространства. проект по обоснованию этих концепций.*

***Annotation.** This article discusses the types of virtual reality, its scientific basis for the generalization of socio-historical epochs and their restoration, the great importance of this situation for science, the systematization of various concepts in virtual reality, the ontological and philosophical nature of alien space project to substantiate these concepts.*

***Kalit so‘zlar:** borliq, virtual reallik, sinergetika, dialektika, attraktor, bifurkatsiya, fluktuatsiya, ra-qamli texnologiyalar, texnologik taraqqiyot, individualizm.*

***Ключевые слова:** бытие, виртуальная реальность, синергетика, диалектика, аттрактор, бифуркация, флуктуация, цифровые технологии, технический прогресс, индивидуализм.*

***Key words:** being, virtual reality, synergetics, dialectics, attractor, bifurcation, fluctuation, digital technologies, technical progress, individualism.*

XX asrning ikkinchi yarmida jahon hamjamiyati ilmiy-texnika sohasida olamshumul yutuqlarga erishdi, sanoatlashishning yangi bosqishiga qadam qo‘yildi. Oxirgi o‘n yillikda «virtual», «nano» atamalari kirib keldi. Texnologiyalarni falsafiy tahlil etish va uning ontologik jihatlari baho berish tafakkur inersiyasini bartaraf etish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bilish metodologiyasini takomillashtirishni talab qiladigan murakkab hodisalar, jumladan, borliqni anglash borasidagi imkoniyatlarni kengaytiradi.

Virtual reallik turli ijtimoiy-tarixiy davrlarni umumlashtirish va ularni qayta tiklashning ilmiy asosi hisoblanadi. Bu holat ilm-fan uchun katta ahamiyatga ega, chunki virtual reallikda turli konsepsiyalar tizimlashadi. Mazkur konsepsiyalarni asoslash uchun begona makon loyihasining ontologik mohiyatini tadqiq etish va uning falsafiy mohiyatini asoslashga harakat qilamiz. Shu konsepsiyalardan biri tarixiy davr haqida kichik muhitni yaratish tarixiy davr va makon haqida tasavvurni shakllantirish, ularni izohlash, o‘zaro aloqasini tushuntirish yangi ijtimoiy makonni yaratish imkonini beradi. Shu ma’noda, E. Kassirerning «simvolik shakllar falsafasi nazariyasini asosli», deb hisoblaymiz, zero, bu konsepsiyada virtual reallik simvollarning ehtimoliy natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu g‘oya A.Shyutsning «Turli ehtimoliy realliklar», T.Xoyurning «Hayot modeli», R.Burduyening «Belgilar maydoni» kabi konsepsiyalarida davom etadi.

B.To‘rayevning fikricha, «Borliqning biz uchun mavjud qismi real borliq, deyiladi. Real borliqni naqd borliq ham deyish mumkin. Ammo borliqning shunday bir qismi ham borki, uning bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Borliqning bunday qismi ehtimoliy mazmunga ega. U hali reallikdan uzoqda. Mana shunday mazmundagi borliq virtual borliq deyiladi» [1]. Shu nuqtayi nazardan, biz virtual realliklar borliqning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi turli shakllarning namoyon bo‘lishi, deb hisoblaymiz. Zero, inson ish, o‘yin, muloqot, uyqu kabi turli realliklarda hayot kechiradi, ularning har biri voqealar ketma-ketligi, mantiqiyligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi yangi makonlarni yaratuvchi – inson tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Inson o‘z ijtimoiy tabiatidan kelib chiqqan holda sodir bo‘layotgan voqealarga ma’no beradi. Axborot texnologiyalari paydo bo‘lishidan oldin shakllangan virtual reallik va real borliq haqidagi g‘oyalarning ehtimoliy reallik sintezi sifatidagi ma’nosi texnik tizimlar tufayli paydo bo‘ldi. Virtual va real borliq metamorfozasi ehtimoliy reallikni taqozo etadi, ularni yaratuvchi sabab va oqibat dialektikasi ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shundan so‘ng virtuallik haqiqiy borliqqa parallel ravishda mavjudligini da’vo qiladi.

Bizning fikrimizcha, sof borliq g'oyasi va genetik ontologiya nazariyasiga tayanadigan bo'lsak, virtual borliq kategoriyalardan farq qiladi. Ayni paytda, ular virtual borliqning nazariy asosi hisoblanadi. Biz N.Shermuhamedovanning «Virtual voqelikning belgilari u dolzarb voqelikka mosligini, ya'ni zamon, makon, harakat, rivojlanishni o'z ishiga olishini qayd etishning o'zi kifoya emas» [2], degan fikrida texnologik taraqqiyot imkoniyatlarining himoyasi kuzatiladi deb hisoblaymiz. Zero, informatika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi odamga, haqiqatan ham, real voqelikdan farq qiluvchi dunyoning muqobil ko'rinishini idrok etish imkoniyatini beradi. Bu imkoniyat, o'z navbatida, virtual reallikni anglash bilan bog'liq dunyoqarash shakllanishiga ta'sir etadi. Biz zamonaviy fanda lotincha «virtus» so'zi birgina kompyuterlar dunyosi bilan bog'liq emas, balki bir nechta ma'nolarga egaligi haqidagi fikrlarni asosli, deb hisoblaymiz. Virtual reallikning ontologik mohiyati potensial-ehimoliy borliq, amaldagi haqiqat bilan bog'liq.

Virtual reallikning ontologik maqomiga nisbatan «loyihalashuv» sifatida yondashuvlar bu turdagi borliq faqat reallikning muayyan turi sifatidagina amal qilishini namoyon etadi. Zero, bu jarayonda tarqoqlashgan jamiyatning ontologik chegaralari imkoniyatlari, subyektning uni tushunish darajasi va tafakkur imkoniyatlari chegarasi bilan taqozolangan, ushbu holat virtuallik konsepsiyasining evristik mohiyati orqali aniqlandi. Bizning fikrimizcha, ba'zan virtual borliqning ontologik mohiyati makon, vaqt dialektikasining ijtimoiy jarayonlardagi mohiyatida namoyon bo'ladi. Bunda sinergetikaning fluktuatsiya tamoyili yuqori darajada amal qiladi, ya'ni, virtual reallik faqat fluktuatsiyalar bilan emas, balki bifurkatsiya omili bilan ham taqozolangan. Fluktuatsiya real borliqning muayyan hodisalarini ifodalasa, virtual reallik noreal jarayonlar haqidagi illuziyalarning ifodasidir. Bu jarayonda o'z sifatini yo'qotgan narsaning mohiyati ham o'zgaradi. Dissarativ tizimlarning virtual reallikda namoyon bo'lishi tashqi omillar ta'sirini ba'zida inkor etadi, ba'zida unga muvofiq ravishda rivojlanadi, bu ijtimoiy makonga nisbatan tashqi, unga bog'liq bo'lmagan muayyanlikdir. Attraktor virtual reallik jarayonidagi miqdorning me'yori sifatida amal qiladi. Borliqdagi barcha jarayonlar umumiy birlikka ega bo'lgani kabi attraktorlar shu umumiy birlikni bir-biridan farqlovchi me'yor vazifasini bajaradi. Bu nomuvoziy holatlardagi muvoziylikni ifodalaydi. Virtual reallik inson tafakkurining tushuncha, hukm va xulosasi kabi fikrlash uslubining birgalikdagi faoliyati natijasi sifatida amal qiladi. Virtual reallik insonga unga kirish va o'zgartirish imkonini beruvchi reallik hisoblanib, olti erkinlik darajasi hamda u orqali harakatlanish va uni haqiqiy o'lchovda kuzatishga imkon beradigan hodisa hisoblanadi. Chunki bu fikrda virtual reallikning o'ziga xos xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan, lekin ularning tafakkur bilan bog'liq umumiy jihatlari hisobga olinmagan. Bu quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1) virtual reallikni real borliqdan farqlovchi muhim omil virtual reallikning ijtimoiy borliqda amal qilishi hisoblanadi. Masalan, virtual o'yinda ijtimoiy jarayonlar namoyon bo'ladi;

2) virtual reallikda narsa va hodisalarning o'lchov birligi o'zgarishi mumkin, lekin real borliqda voqea va hodisalar kechayotgan jarayonlarning o'lchov birligi o'zgarishga xossalarga ega. Masalan, virtual muzeyda jarayonlarni tezlashtirish, aksincha, susaytirish, predmetlarni kattalashtirish yoki kichraytirish mumkin, reallikda esa bunday imkoniyatlar yo'q;

3) real borliqdagi voqea va jarayonlar makon va vaqtda cheklangan, virtual borliqda esa cheksiz va uni o'zgartirish imkoniyati yo'q, real borliqda esa jarayonni to'xtatish va davom ettirish mumkin.

Shu ma'noda, hozirgi davrda virtual reallik imkoniyatlari deyarli barcha sohalarida eng yuqori darajada foydalaniladi. Bu jonsiz tabiatning rivojlanish evolutsiyasini o'rganishning prototipi vazifasini bajaradi. Virtual reallikning ushbu xossalari uning quyidagi me'zonlari bilan taqozolanadi: ratsional bilim, psixologik idrok, texnik imkoniyat, ijtimoiy tajriba. Biz bu yondashuv ilmiylik me'zonlariga mos deb hisoblaymiz. Shuningdek, tadqiqotchi M.Normamatovanning Karl Rorrer ta'limotidagi uchinchi dunyo nazariyasini [3] tahlil qilib, «Virtualistika nuqtai nazaridan olib qaraganda, Poppening ikkinchi va uchinchi olamlari ham konstant, ham virtual reallik ma'nolarini o'zida saqlaydigan (kodlashtirilgan) epistemologik tushunchalardir», degan fikrini yetarli asoslanmagan, deb hisoblaymiz. Chunki bizning fikrimizcha, K. Popper virtual reallikning modellashtirilgan dunyoni ifodalovchi xossalari mavhum tushunchalarda ifodalaydi, ularni uchinchi dunyo interfaol dunyodagi funksiyalarini prognozlashtiradi. 3-dunyo individual tafakkur mahsuli bo'lib, u faqat individual subyektning bilimi mahsuli sifatida amal qiladi, obyektning ahamiyatlilik darajasiga qarab foydalaniladi. Shunday ekan, bizning fikrimizcha, K.Popper konsepsiyasi doirasidagi virtual reallikni «to'rtinchi dunyo» deb tan olish zarur.

Shuningdek, tahlillar natijasida virtual reallikning quyidagi shakllarini farqlash mumkin:

1. Ruhiy tushkunlik holatida tush ko'rish ta'sirida subyekt psixikasidagi o'zgarish natijasida shakllanuvchi reallik. Bunda ongli va ongsiz holatlarning o'zaro metamorfozasi ta'minlanadi, narsalarni ang-

lashda mavhumlik namoyon bo'ladi. Ongdagi o'zgarishlar natijasida super ta'sirchanlik holati shakllanadi; favqulodda vaziyatlarga moslashuvchanlik holati shakllanadi. Biz ong holatidagi favqulodda o'zgaruvshanlikni tadqiq etgan N.A.Nosov g'oyalari asosli, deb hisoblaymiz. Psixik virtual reallik atamasi olim tomonidan birinchi bo'lib qo'llangan [4]. Psixik virtual reallik insonning yuqori emotsionalligi va tushkunligini o'zida namoyon etadi.

2. Ezoterik reallik o'ziga xos diniy psixologik jarayon bo'lib, unda, asosan, yuqori ruhiy ekstaz holati namoyon bo'ladi. Bu gallutsinasiyalar, jazava holatidagi hushsizliklarni qamrab oladi. Bu ruhiy tushkunlik holatida reallikka nisbatan xavfliroq bo'lib, bunday holatlarni nazorat qilmaslik salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ezoterik reallik tashqi ta'sirlarga bog'liq bo'ladi, bu tashqi ta'sir inson ruhini o'zgartiradi, inson tafakkurida o'ziga xos vaziyatga moslashuvchanlikni shakllantiradi.

3. Subyektning dunyo haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi, narsalar modellarini yaratadi. Bu V. Budko virtual reallikka san'at deb baho bergan [5]. Darhaqiqat, san'at inson, tabiat va jamiyat obrazlari modellarini yaratadi. Mohiyatiga ko'ra, tafakkur o'yini deb baho berish mumkin. Demak, tasviriy san'at realligi virtual reallikning ontologik prototipi va u bilan mos keluvchi fenomen hisoblanadi. Bizning fikrimizcha yuqorida qayd etilgan barcha fenomenlar o'zida yaratilganlik, avtonomlik, dolzarblik xususiyatlarini saqlab, virtual reallikka ontologik jihatdan mos tushadi. Ammo bu reallik to'laqonli interfaol bo'la olmas ekan, ularni baribir virtual emas, deb hisoblaymiz.

4. Virtual reallikning texnologik shakli kompyuter texnikasi bilan bog'liq bo'lib, unda asosan virtual reallikning dasturiy ta'minoti amal qiladi. Kompyuter virtual realligining 2 turi mavjudligi haqidagi g'oyalarga qo'shilamiz. Birinchi tur, «immersiv» – mohiyatan sun'iy yaratilgan dunyoga ko'nikish jarayoni. Unda sodir etilayotgan harakatlar haqiqiy yoki haqiqiyga yaqin sifatida qabul qilinib, u virtualizator sezgilariga ta'sir o'tkazadi. Natijada virtualizator u bilan o'zaro ichki aloqa qurishadi. Ikkinchi tur, «kompyuter tarmog'ining virtual realligi» kompyuter tarmoqlari orqali sodir bo'luvchi insonlararo aloqa ma'nosida keladi. Bundan tashqari, mazkur tur o'ziga ma'lumotlarni izlash yoki yaratish jarayonini ham qamrab oladi.

5. O'yin virtual realligi kompyuter o'yinlaridir. Kompyuter o'yinlarining virtual realligi boshqa virtual realliklar, masalan, kompyuterlashmagan virtual realliklar, immersiv virtual realliklarga qaraganda ontologik o'ziga xoslikka ega emas. Bizning fikrimizcha, kompyuter o'yinlarining jalb etuvchi elementi ularning emotsional vaziyatni hosil qila olish qobiliyatidir. Demak, kompyuterlashgan o'yin virtual realligi mavjud va uning ontologik o'ziga xosligi kompyuterlashgan virtual reallikning tirlarini ajratib beradi.

6. Bizning fikrimizcha, virtual reallik kommunikasiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual kommunikasiyalar maqsadni aniq ifodalash, shu maqsadlilikni amalga oshirish imkonini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot orqali elektron subyektga murojaat qilish imkonini beradi. Aynan shunday faollashuv tizim mustahkamligini ta'minlaydi. Shu kabi tizimlarni rivojlantirish talabi bor ekan, u mavjud bo'ladi va lokal virtual makonni hosil qilish imkonini beradi. Ma'lumotlar tuzish va qidiruv jarayonida hosil bo'luvchi lokal virtual borliq kompyuter tarmoqlarida qayta yaratilish, dolzarblik, avtonomlik va interfaollik kabi o'ziga xosliklarni yuzaga keltiradi. Bizning fikrimizcha, kommunikativ virtual reallik o'zaro aloqa jarayonida faollashadi. Ammo bu aloqa atrofdagilar bilan emas, balki virtual makonning boshqa foydalanuvchilari o'rtasida mavjud. Kommunikativ virtual realliklar tirlarga ajralgani kabi, salmoqli foydalanuvchisiga ega bo'lgan virtual realliklar ham tirlarga ajratiladi. Ularda kommunikatsiya (muloqotga kirishish, aloqa o'rnatish) amalga oshadi. Ko'p foydalanuvchilarga ega bo'lgan virtual realliklar holatida muloqotga kirishish tashqi maqsad bo'lib, uni amalga oshirish uchun muloqotga kirishiladi yoki bu jarayon virtual realliklarning o'zi belgilab olgan maqsaddir.

Demak, kommunikativ virtual reallikda boshqa virtual realliklarda mavjud bo'lmagan o'ziga xoslik – anonimlik, obrazlilik, individuallik xos. Virtual reallikning o'ziga xos xarakteristikasi virtual reallikda foydalanuvchining psixologik mohiyati transformasiyasi holatini o'rganishning boshlang'ish nuqtasi hisoblanadi. Virtual muloqot esa XXI asrning eng muhim yangiligi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, biz virtual reallikning kommunikatsiya vositasi sifatida muhim jihatlarni farqlashimiz mumkin. Shu sodda muloqot, u har qanday yoshda o'zining yuqori ahamiyatlilik bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turayev B.O. Borliq. Samarqand – Toshkent, 2022, 234-bet.
2. Shermuhamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi. Toshkent, "Aloqachi", 2008, 192-bet.
3. Normamatova M. Virtualistikada postnklassik epistemologiya g'oyalari. Diss avtoreferati, Samarqand, 2019, 39-bet.

4. Nosov N.A. Virtualistika. M., 1993, 1-t, 344-bet.
5. Будко В.В. Философия науки. Харьков, 2016, с.153

Usmanov Muhridin Abdimuratovich (O'zMU Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrasini o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: usmanov.muhridin@mail.ru)
DUNYONING MIFOLOGIK MANZARASI

Annotatsiya. Jamiyat paydo bo'lishining dastlabki bosqichlarida odamlar o'z qarashlarini inson tafakkuri orqali oqilona asoslash uchun yetarli bilimga ega emas edilar. Ushbu maqolada dunyoning zamonaviy mifologik surati o'rganiladi va tahlil qilinadi. Xususan, empirik tafakkur qadimgi odamlarning amaliy hayoti bilan izohlanadi. Asarning falsafiy mohiyati voqelikni ularning ongida to'g'ri aks ettirish usullari, tevarak-atrofdagi olam haqidagi ma'lum bilimlarga asoslanadi.

Аннотация. На ранних этапах возникновения общества людям не хватало знаний, чтобы рационально обосновать свои взгляды посредством человеческого мышления. В данной статье изучена и проанализирована современная мифологическая картина мира. В частности, эмпирическое мышление, объясняющееся практической жизнью древних людей. Философская сущность работы основана на том, что показаны элементы правильного отражения действительности в их сознании, определенные знания об окружающем мире.

Annotation. In the early stages of the emergence of society, people did not have enough knowledge to rationally justify their views through human thinking. In this article, the modern mythological picture of the world is studied and analyzed. In particular, empirical thinking is explained by the practical life of ancient people. The philosophical essence of the work is based on the fact that the elements of the correct reflection of reality in their minds, certain knowledge about the world around them.

Kalit so'zlar: borliq, mif, mifologiya, afsona, zoomorfizm, sivilizatsiya, madaniyat, Vedalar.

Ключевые слова: бытие, миф, мифология, легенда, зооморфизм, цивилизация, культура, Ведды.

Key words: being, myth, mythology, legend, zoomorphism, civilization, culture, Vedas.

Dunyoning mifologik manzarasi qadimgi odamlar, ularning dunyo yaralishiga nisbatan qarashlarining birinchi shakllaridan biri sifatida rivojlangan va hozirgi davrda yangi g'oyalar tizimi sifatida qayta tiklanmoqda. Qadimgi dunyoning mifologik manzarasi dunyoning diniy manzarasi bilan uzviy bog'liq, biroq ular aynan bir xil emasligining tan olinishi ularning dunyo manzarasining o'ziga xos shakllari ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, dunyoning diniy manzarasi borliqning ikki jihatdan tushunilishini ilgari surgan. Jumladan, u, bir jihatdan, abadiy borliq, boshqa jihatdan, yaratuvchi va yaratilgan borliq sifatida ta'kidlab kelingan.

Qadimgi dunyoning mifologik manzarasi uchun ibtidoiy tafakkurning parchalanmaganligi, insonning atrof-muhitdan ajratilmaganligi, dunyo haqidagi illuzor-fantastik tasavvur xos. Shu ma'noda, dunyoning mifologik manzarasiga oid g'oyalarni tasniflashga harakat qilamiz. Xususan, qadimgi Misr sivilizatsiyasi dunyo mifologik manzarasining dastlabki asosi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi Misr mifologiyasining o'ziga xos xususiyati undagi axloqqa oid g'oyalarning hozirgi kunda ham dolzarb ahamiyatga egaligi bilan belgilanadi. N.Shermuhamedova ta'kidlaganidek, "Qadimgi Misr mifologiyasi arxaik tafakkurning dastlabki shakli sifatida dunyoni bilishning o'ziga xos metamorfozasi sifatida amal qiladi" [1]. Zero, Qadimgi Misr mifologiyasi eng qadimgi insoniyat dunyoqarashining dastlabki dunyoni anglashning o'ziga xos uslubi bo'lganligini aytish mumkin.

Qadimgi Misr mifologiyasida 30 mingdan ortiq yozma matnlar bo'lgan, ulardan 14 tasi hozirgi davrgacha yetib kelgan. Qadimgi Misr mifologiyasida Tot donishmandlik Xudosi sifatida Xudolarning Xudosi vazifasini bajargan, Quyosh Xudosining o'zi uchta obrazda, choshgoh Xudosi – Ra, sahar xudosi – Atmu va oqshom Xudosi – Xepera obrazlarida namoyon bo'ladi. Osiris Xudosi dehqonchilik, hosildorlik Xudosi bo'lsa, Maat adolat Xudosi bo'lgan. Qadimgi Misr mifologiyasida xudolar yarmi odam va yarmi hayvon obrazida bo'lgan, bu fan tilida "zoomorfizm" deb nomlanadi. Qadimgi Misr mifologiyasining eng muhim manbalaridan biri "Marhumlar kitobida 42 ta axloq qoidalar" [2] belgilangan va har bir odam tirikligida shu qoidalarga amal qilishi lozim bo'lgan, insonning vafotidan keyin uning yuragi olinib, adolat tarozisida bir tomonga adolat Xudosi Maatning haykali, ikkinchi tomonga mayitning yuragi qo'yilib, 42 ta axloq qoidasi o'qib eshittirilgan va yurak yengil tortganida mayitning boshi timsohga yem qilingan. Shu bois odamlar vafotidan keyin kallasi timsohga yem bo'lishidan qo'rqib, tirikligida 42 ta axloq qoidasiga rioya qilishga harakat qilgan.

Bizning nazarimizda, hozirgi davr odamlari konstitutsiyaning moddalari va o'zi ishlayotgan tashkilotning ichki tartib-qoidalarini bilmaganligi uchun turli darajadagi qonunbuzarliklarga yo'l qo'yadilar. Shu bois qonunlarni bilish, ularga rioya qilish nuqtayi nazaridan, Misr mifologiyasi hozirgi davrda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Qadimgi Xitoy mifologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, miflarning shunchaki, uydirma emas, balki hayot haqiqatlarining dinamikasini ifodasi ekanligi bilan izohlanadi. Qadimgi Xitoy mifologiyasidagi asosiy obrazlar Quyosh Xudosi – Yan, yaralish Xudosi Shaoxao, yomonliklarga qarshi Xudo Syunsi, Sariq dengiz Xudosi Chiyu kabilar faoliyati bilan izohlanadi. Xitoy mifologiyasidagi eng muhim obrazi tog'dan og'zida alanga bilan tushib keluvchi Ajdaho obrazidir. Uning qiyofasi uch xil bo'lib, yuzi insonniki, tanasi ilonniki, terisi qizil bo'lib, uzunligi ming kilometrga teng, uning ko'zlari zaytunga o'xshagan, u ko'zlarini yumganida ularda ikkita chuqur g'or paydo bo'lgan, u ko'zlarini ochishi bilan yorug'lik paydo bo'lgan, bu mifda kun va tunning almashishi ajdahoning ko'zlari bilan qiyoslangan. Shu ma'noda, Misr mifologiyasidagi zoomorfizm Xitoy mifologiyasida davom etadi, deb ta'kidlash mumkin. “Qadimgi Xitoy miflarida, asosan, olamning yaxshilik va yomonlik kuchlari bilan kurashi ifodalanadi” [3].

Qadimgi yunon mifologiyasining o'ziga xos xususiyati, xudolarning o'zaro kurashi bilan izohlanadi. Yunon mifologiyasi olamning cheksiz kaosdan paydo bo'lishi g'oyasiga asoslanadi. Yer xudosi Geya osmon Xudosi Uranga turmushga chiqishi olamda harakatning boshlang'ich asosi deb izohlanadi, odamlar orasidagi ziddiyatlar qadimgi yunon mifologiyasida xudolar orasidagi ziddiyatlar bilan bog'lanadi. Masalan, Kronas otasi Uranni taxtdan ag'daradi va xudolarning xudosi maqomiga ega bo'ladi, keyinchalik, Zevs o'z otasi Kronasni taxtdan ag'dargan. Biror kun u o'z o'g'li tomonidan o'ldirilishi va taxtdan ag'darilishini ham bilgan. Shu nuqtayi nazardan, qadimgi yunon mifologiyasi antropomorfizm bilan almashadi va xudolar inson obrazida namoyon bo'lishi bilan Misr va Xitoy mifologiyasidan farq qiladi.

Bizning davrimizgacha yetib kelgan eng qadimgi Hind mifologiyasi manbasi Rigveda (Madhiyalar kitobi) bo'lib, unda eramizdan oldingi II asrda Hindiston ariy qabilalarining madaniyati va mifologiyasi o'z ifodasini topgan. Bu hind-yevropa xalqlarining eng qadimgi manbasi bo'lib, unda hind-yevropa xalqlarining birligi davriga xos matnlar o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, unda yaqin Sharqning mifologiya manbasi “Avesto”dagi g'oyalar bilan uyg'unlikda ko'zga tashlanadi.

Qadimgi ariylarda antik mifologiyadagi kabi boshqa barcha xudolarni boshqaruvchi Xudo ota obrazi ilgari patriarx boshqaruv ustuvor bo'lganligidan dalolat beradi. Masalan, yunonlarda u Zevs bo'lsa, ariylarda Dyaus osmon va osmon jismlari xudosidir. Bu Xudolarning nomlari bir xil asosga ega. Dyaus – ota, Zevs ham – ota. Dyaus nomi va ona xudo Pritxiviv nomi Rigvedalarning dastlabki matnlarida ko'p uchraydi. Mifologik matnlarda Dyaus va Pritxiviv Osmon va Yer barcha tirik jismlarning otasi va onasi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, Rigvedaning keyingi matnlari tahlili jarayonida Dyausning nomi sekin yo'qolib borgani va Xudolar qatorida o'z o'rnini yo'qotganini kuzatish mumkin. Keyingi matnlarda Varuna odamlarning gunohlari uchun jazolovchi xudo obraziga alohida e'tibor qaratilgan, keyinchalik, uning obrazi ham o'z o'rnini Indraga bo'shatishi kuzatiladi. Indra dunyoni yutib va uni yo'qotib yuborishga dag'dag'a qilgan Vritha ajdahosini mag'lub etgan, bu bilan antik mifologiyadagi Zevs, slavyanlar mifologiyasidagi Peruna, Litva mifologiyasidagi Pekunas, skandinavlarining Tora xudolari bilan o'xshashlikni namoyon etadi. Rigveda mifologiyasida ulug'lanadigan boshqa Xudolar Agni-olov xudosi va Soma-sharob xudolari keyingi miflarda asosiy o'rinlar egallagan. Rigvedalardagi xudolarga qarshi Asura Xudosi o'zining antropomorf xossalari bilan namoyon bo'lgan. Rigvedalar qadimgi miflarning o'ziga xos shakli bo'lib, unda tabiiy stixiyalar ilohiylashtirilgan va animizm rivojlangan. Uning mazmuni Yadjurveda (qurbonliklar kitobi), Atxarveda (nasihatlar kitobi)da eramizdan oldingi – VI asrlarda davom etgan.

Markaziy Osiyo mifologiyasining asosini “Avesto” kitobining g'oyalari tashkil etadi. Unda Axurazma yaxshilik Xudosi, Arximan yovuzlik Xudosi sifatida gavdalanadi va abadiy kurash o'z ifodasini topgan. “Avesto” kitobida “Samarqand quyosh va issiqlik shahri sifatida ta'riflanadi”.¹ Kitobda dunyoning paydo bo'lishi olov bilan qiyoslanadi, olov quyosh bo'lib, u dunyoni yorituvchi va harakatga keltiruvchi stixiya sifatida amal qiladi. Buxoro shahrining paydo bo'lishi haqidagi mif Kaykovusning “Shohnoma” dostonidagi Quyosh shahrida o'z ifodasini topgan. Undan hozirgi Buxoro shahrining ko'rki bo'lib turgan arkning qadimiy ildizlari Suhrobning malika Farangiz uchun

¹ Джульматов Т. Легенды, мифы, факты востока. Ташкент, ИПТД, 2018, 4 с.

qurgan qasri ekanligi ma'lum bo'ladi. Markaziy Osiyo miqlarining o'ziga xos xususiyatlari Tohir Djulmatovning "Sharq afsonalari, miqlari, dalillari"¹ kitobida miqlar va afsonalar farqlarining falsafiy, tarixiy jihatlar va bu jarayonlarning ontologik asoslari, gnoseologik omillari asoslangan. U "eramizdan avvalgi 600–500-yillarda Orol ko'li (ilgari Shoychista ko'li) bo'yida yashagan qabila boshlig'i Alp Er To'ng'a jasorati, vatanparvarligi va mayda qabilalarni birlashtiruvchi kuch" sifatidagi faoliyatiga baho bergan (4).

Markaziy Osiyo hududlarida To'maris, Shiroq, Go'ro'g'li, Alpomish, Dada Ko'rkut kabi dos-tonlar mifologik epik xususiyat kasb etadi. Zero, ularda real hayotdagi qahramonliklarga mifologik chizgilar yuklanadi. Hozirgi davrda avliyo Doniyorning hoki haqidagi miqlar milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, odamzodda 18 metrlik oyoq yo'qligini biz bilganimiz holda, uning borligiga ishonch bilan dunyodan sayyohlarni o'ziga jalb qilayotgan Samarqand yodgorligi haqida turli afsonalar xalq ijodi mahsuli sifatida og'izdan og'izga o'tib, yangilanib borishda davom etmoqda. Markaziy Osiyoda Amir Temur, Sayid Baraka, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Ibn Sino haqidagi afsonalar o'z faoliyati bilan xalqning e'tirofiga sazovor bo'lgan shaxslarning hayot yo'lini ilohiylashtirilishining namunasi bo'lsa, qirq qiz yig'layotgan qoya mifologiyaning namunasidir.

Bizning fikrimizcha, qadimgi dunyoning mifologik manzarasi va diniy manzarasi o'rtasida farq mavjud. Turli ildizlarga ega bo'lgan holda mifologiya va din umumiy bir jihat – xayoliy havaslarni ifodalovchi jihatga ega. Aynan shu jihat rivojlanishning ilk bosqichlarida mifologik tasavvurlarning din sohasiga qamrab olinishiga imkoniyat yaratgan. Mifologik-diniy tasavvurlarda sodir bo'luvchi hodisalar uzoq o'tmishga tegishli "mifologik davr"dir (5). Dinning mifologik tarkibiy qismini, shuningdek, buyuk faylasuf ham alohida ta'kidlab o'tgan. Uning so'zlariga ko'ra, "Afsona din emas, biroq din afsonaviy ijod va hayotdir. Mifologiya dinga nisbatan keng qamrovli. Din o'ziga xos mifologiya, ya'ni aynan... afsona sifatidagi hayotdir" [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sherмухамедова Н.А. Qadimgi Misr sivilizatsiyasida germetik falsafaning vujudga kelishi. Falsafaga kirish. Toshkent, "Noshir", 2013, 6-bet.
2. Ибн Баджа. Египетская мифология. Москва, "Наука", 1999, с. 199.
3. Юан Хе. Мифы древнего Китая. Москва, "Наука", 1987, с. 487.
4. Джулматов Т. Легенды, мифы, факты востока. Ташкент, 2018, с. 4.
5. Токарев С.А. Мифы народов мира. Энциклопедия в 2-х т. Т. 1. 2-ое изд. Москва, Российская энциклопедия, 1994, с. 161 – 164.
6. Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. Москва, политиздат, 1991, с. 99.

Arzimatova Inoyatxon Madimarovna (Fag'ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi) RAHBAR KADRLARNING AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING ASOSIY KOMPONENTLARI VA ULARNING O'ZARO ALOQADORLIGI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida boshqaruv sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, boshqaruv organlari va rahbar kadrlar faoliyatini takomillashtirish, boshqaruv kadrlari faoliyatida axloqiy va estetik madaniyatning o'rni, rahbar kadrlarning axloqiy-estetik kamolotga erishuvidagi ma'naviy omillar haqida so'z boradi.

Аннотация. В статье говорится о реформах, проводимых в сфере управления на современном этапе развития Узбекистана, совершенствовании деятельности органов управления и управленческого персонала, роли этико-эстетической культуры в деятельности управленческого персонала, духовных факторах в достижении нравственной и эстетической зрелости управленческого персонала.

Annotation. The article talks about the reforms carried out in the field of management at the present new stage of development of Uzbekistan, improving the activities of governing bodies and managerial personnel, the role of ethical and aesthetic culture in the activities of managerial personnel, spiritual factors in achieving moral and aesthetic maturity of managerial personnel.

¹ Shu manba. 169 c.

Kalit so'zlar: islohotlar, davlat boshqaruvi, taraqqiyotning yangi bosqichi, xalq manfaatlarini, halol-pok kadrlar, axloqiy va estetik madaniyat, yuksak ma'naviy fazilatlar, ma'naviyat, axloqiy-estetik kamolot, mehnatsevarlik, jamoaviylik, ijtimoiy faollik, ma'naviy yuksaklik.

Ключевые слова: реформы, государственное управление, новый этап развития, интересы народа, честные кадры, нравственно-эстетическая культура, высокие нравственные качества, духовность, нравственно-эстетическая зрелость, трудолюбие, коллективизм, общественная активность, нравственное совершенство.

Key words: reforms, public administration, a new stage of development, the interests of the people, honest personnel, moral and aesthetic culture, high moral qualities, spirituality, moral and aesthetic maturity, diligence, collectivism, social activity, moral perfection.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish bilan uzviy bog'liq ekanligi kelib chiqmoqda. Shu bois so'nggi yillardagi tub islohotlar negizida davlat boshqaruvi, boshqaruv organlari va rahbar kadrlar faoliyatini takomillashtirish, yangicha yondashuvlarni olib kirish va xalq manfaatlarini ustuvorligiga qaratilgan boshqaruv tuzilmasini yaratishga doir ko'plab huquqiy asoslar, bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Zero, «hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochib berishni talab etmoqda» [1]. Mazkur talablar «islohotlarimizning maqsad-muddolarini yaxshi anglaydigan, xalqimizning Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishga chin dildan yordam beradigan, halol-pok kadrlarni tarbiyalash vazifasi»ni yanada dolzarblashtiradi [2].

Boshqaruv kadrlar faoliyatida axloqiy va estetik madaniyatlilik muhim sifatlardan biri hisoblanadi. Axloqan barkamol, bilimli va tajribali, ilm asoslarini chuqur egallagan, adolatparvarlik, insonparvarlik e'tiqodi kuchli rahbar shaxslar yuksak ma'naviy fazilatlarining sohibi bo'la oladilar. Bu fazilatlarining barchasi birgalashib, jamiyatning dunyoqarashi, e'tiqodi, xalqning milliy ongi shakllanishiga, mustahkamlanib, rivojlanishiga olib keladi. Ma'naviy kamolot, uning barcha qirralari o'zaro bog'liqligi, bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sir etib turishi asosida davom etadi. Inson, jumladan, rahbar shaxs kamolotini ma'naviyatning yuqoridagi tomonlaridan birortasiz to'liq tasavvur etish mumkin emas. Uning mohiyati ham shu sifatlarning mushtarak birligi asosida shakllanadi va kamol topib boradi. Ma'naviy kamolot jamiyat taraqqiyotining inson faoliyati, ongi bilan bog'liq bo'lgan subyektiv omillari tobora kengayib, chuqurlashib, rivojlanib borishini bildiradi.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida qaror topib borayotgan yangi ma'naviy ruh rahbar shaxslar ma'naviyati g'oyasini ham kun tartibiga qo'ydi. Rahbar shaxs ma'naviyati qanday bo'lishi kerak? Uning asosini qanday g'oyalar tashkil qiladi? Fikrimizcha, rahbar shaxs ma'naviyatida, avvalo, mas'uliyat hissi yuksak bo'lishi lozim. Bu hisni nimalar tashkil qiladi? Uni "inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlarini oliy qadriyat" deb bilish tashkil qiladi [3]. Shu ma'noda rahbar shaxs ma'naviyati g'oyasining birinchi elementi insonni qadrlashdir. Bu ulkan mas'uliyat hissini paydo qiladi.

Davlat xizmatchilari tafakkurini yangilash ikki tomonlama jarayondir. U, bir tomondan, yangi, zamonaviy davlat xizmatchilariga xos fazilatlarini maxsus, ilmiy asosda shakllantira borishini talab qilsa, ikkinchi tomondan, hamon o'z ta'sirini ko'rsatayotgan, sobiq sho'ro kadrlar siyosatida "sinalgan" korporativ-byurokratik psixologiyani siqib chiqarish talab qilinadi. Bu ikki jarayonni parallel olib borish zarur. Aks holda, yangi, sog'lom tafakkur eski, "sinalgan" tafakkurga "urilib", chekinishi mumkin. Masalan, davlat manfaatini o'z manfaatidek ko'rish – davlat xizmatchisi faoliyatining yetakchi tamoyili ekanligi e'tirof etilsa-yu, boshqaruvda uchrab turgan korrupsiya, poraxo'rlik, ma'muriy buyruqbozlik, mahalliy-chilikka qarshi kurashilmasa, ana shunday holat ro'y berishi mumkin. Ma'lumki, shaxsiy manfaatlar, nafs ustuvorligiga qurilgan birlashish, uyushish kuchli bo'ladi. Chunki shaxsiy manfaat ustuvorligi davlat organlariga suqilib kirib olgan xudbin, yulg'ich, ustamon, laganbardor, iqtidorsiz shaxslarni birlashtiradi. Sobiq sho'ro tizimida bu birlikning tamoyili – shaxsiy sadoqat, "men sizga, siz menga, davlatni esa qo'ya turing" tarzida namoyon bo'lib keldi. Shaxs – davlatdan, davlat – shaxsdan, shaxs – o'z mehnati mevalaridan uzoqlashdi, begonalashdi. Shu sababli murossasiz tanqid ostiga olingan shaxsiy, guruh, mahalliy, qon-qarindoshchilik manfaatlarini davlat manfaatidan ustun qo'yish kabi sobiq sho'ro tizimidan qolgan zararli meros ba'zi hollarda hamon o'zini eslatib turibdi.

Rahbar kadrlarning axloqiy-estetik kamolotga erishuvda ko'plab ma'naviy omillar qatorida uning estetik madaniyatini qaror toptirish ham muhim o'rin tutadi. Boshqacha aytganda, har tomonlama kamol topgan shaxsni uning estetik madaniyatisiz tasavvur etish mumkin emas. Shuning uchun rahbar kadrlar-

ning axloqiy-estetik kamolotining asosiy komponentlari va ularning o'zaro aloqadorligi masalasini ilmiy-falsafiy tahlil etish, bu sohada amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Ayni davrda estetik omillar shaxs kamolotiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatib, unda yuksak ma'naviyatni qaror toptiradi. Shundan kelib chiqib, rahbar kadrlarning axloqiy-estetik kamolotini shakllantirish va boyitish, rivojlantirishining yetakchi omillarini asoslash muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuksak ma'naviy fazilatlar sohibi bo'lgan inson nafs xuruji, lazatlarga moyil ojizlikni yenga oladigan zotdir; odamni komillik va mukarramlilik martabasiga ko'tarish uning ma'naviyatini yuksaltirish demakdir. Har qanday jamiyat tayanuvchi ma'naviy qadriyatlar umuminsoniylik ruhi bilan qanchalik sug'orilsa, shuncha umrboqiy bo'ladi. Odam qanday xulq, axloqiy, madaniy fazilatga ega bo'lsa, shunday faoliyat tarzini namoyon etsa, uning qadr-qimmatini shuncha yuksak bo'ladi.

Modomiki, kamolotning eng yuksak mezonlari odob va ma'naviyatdan iborat ekan, bunda aqliy, axloqiy, estetik, madaniy, jismoniy faoliyat uning muhim jihatlari bo'lib, o'z ichiga bir qator sohalarni qamrab oladi. Deylik, jismoniy faoliyat, avvalambor, kasb-hunar bilan shug'ullanishni taqozo etadi, hunar ham, ilm ham odamning martabasini ko'taradi, obro' keltiradi. Ilm sohiblari to'g'risida ham shunday deyish mumkin. Yoshlarimizning chuqur ilmiy dunyoqarash, zamonaviy bilim, muayyan kasb egasi bo'lishida uyg'unlikka erishish kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ruhiga singdirilganligining boisi – shunda.

Rahbar kadrlarning axloqiy-estetik madaniyati ularning mehnatsevarligi, avvalambor, uning jamoaviyligi, ijtimoiy faolligi, ma'naviy yuksakligi bilan bog'langan, komillik sifatlaridan eng asosiysidir. Mehnatsevarlik faoliyat turi va natijalaridan qat'iy nazar, insonning bu jarayonga maqsadga muvofiq va ongli qo'shilishi, jon-jahdi bilan kirishishi, axloqan qoniqishi demakdir. Binobarin, mehnat falsafiy ma'noda individning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyatidir [4], axloqiy hodisa sifatida esa unga o'zini ma'naviy baxshida etishi, kuch-quvvatini sarflashidir [5]. Shunday qilib, inson mehnat jarayonlarini o'zlashtirib, jismoniy va ma'naviy kuchlarini moddiylashtirishga intiladi. Ta'kidlash lozimki, o'z oldiga qanday maqsadlar qo'yishdan qat'iy nazar, mehnat muayyan axloqiy ma'noga ega bo'ladi. Shu bois mehnat etikasi degan tushuncha qo'llaniladi. Bu tushuncha mehnatning ijtimoiy funksiyasi ta'sirida uning ma'nosiga putur etish xavfi tug'ilganda alohida ahamiyat kasb etadi. Aqliy va estetik mehnat jamiyatda o'z qadrini topmaganda, ularni himoyalashda mehnat etikasining ahamiyati yuksalib boradi.

Rahbar kadrlarning axloqiy-estetik kamoloti uning o'zi mansub xalq va millatdan faxrlanish tuyg'usi bilan uzviy bog'langandir. Bu fazilat milliy g'urur tushunchasida o'z aksini topadi. Darhaqiqat, milliy o'zligining ma'naviy negizlaridan bexabar yoki undan ajrab qolgan insonda milliy g'urur bo'lmaydi. Binobarin, millatning o'z-o'zini anglashi ta'sirida tug'iladigan botiniy-ruhiy ko'tarinkilikning ifodasi bo'lgan milliy g'urur "ona zamin, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan oddiy, ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulushlaridan, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissiyotidan iborat.

Shu ma'noda haqiqiy milliy g'urur rahbar kadrlarning axloqiy-estetik kamolotining ma'naviy omillaridan biri sifatida milliy ong, milliy ma'naviyat, milliy manfaat, milliy mafkura, milliy mentalitet, milliy ruhiyat, milliy salohiyat, milliy til, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyat, milliylik kabi ko'plab tushunchalar negizida qaror topadi va shaxsning insoniy mohiyatini ifodalaydi. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslanadigan milliy g'urursiz komillikni insonda shakllantirib bo'lmaydi, uning "milliy takabburlik, milliy manmanlik, milliy kekkayish kabi g'ayriinsoniylik"ni anglatuvchi milliy kalondimog'lik bilan hech qanday aloqasi yo'qdir [6].

Biz yuqorida inson estetik kamolotining ijtimoiy mohiyati bilan uzviy bog'langan mehnatsevarlik, jamoaviylik, ijtimoiy faollik, milliy g'urur haqida qisqacha to'xtab o'tdik. Bu omillar eng asosiy tushuncha va insonni inson qilib turgan yuksak ma'naviylikni qaror topmaydi. Binobarin, inson hayoti va faoliyatiga xos bu fazilatlar yuksak ma'naviylikni qaror toptiradi, zero, ma'naviyatsiz insonning estetik kamoloti o'z mohiyatini yo'qotadi.

Rahbar kadrlarda ma'naviylik asosini uning iymon-e'tiqodi tashkil etadi. Iymon-e'tiqod inson ma'naviy kamolotining mahsuli va ayni paytda uni shakllantiruvchi omil hamdir. Inson o'zining yaratuvchan qobiliyati, kuch va imkoniyatlariga sidqidildan ishonsa, o'z kasb-kori (fan, san'at, siyosat, din va boshqalar)ga e'tiqod qo'ysa, jiddiy yutuqlarga erishishi va shaxs sifatida kamol topishi mumkin. Binobarin, haqiqiy shaxs mustahkam iymon-e'tiqod, insoniy fazilat sohibi, go'zallik qonunlari asosida olamni qayta yaratuvchi insondir.

Rahbar kadrlarning axloqiy-estetik madaniyatini kasbiy faoliyatda namoyon bo'lishini quyidagicha xulosalash mumkin.

Birinchiidan, rahbar kadrlarning axloqiy-estetik kamolotini tarbiyalashda uning ijtimoiy qiyofasini shakllantiradigan, insoniylik mohiyatini belgilaydigan omillar uyg'unligi, avvalambor, uning ma'naviy qiyofasida gavdalanadi.

Ikkinchiidan, bu fazilatlar o'z-o'zicha yuzaga chiqmaydi, ulardan yuksak ong, dunyoqarash, mas'uliyat, amaliy faollik talab qiladi.

Uchinchiidan, shaxs kamolotining tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorlik, yaxlitlik, bir butunlik orqali yuz ko'rsatadi, inson omili orqali ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchiidan, bu qismlarning mazmuni, ularning o'zaro aloqadorlik munosabatlari harakatdagi zulksiz jarayon bo'lib, rahbarni axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalashda yangidan yangi muammolarni keltirib chiqaradi, ularning yechimini topishni dolzarblashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2021, 88-бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2021, 92-бет.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2018, 13-модда.
4. Большой энциклопедический словарь. Философия, социология, религия, эзотеризм, политэкономия. Главн. науч. ред. и сост. С.Ю.Солодовников. Мн: МФЦП, 2002, с. 848; Ўлмасов А., Абдурахмонов К. “Меҳнат”, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2003, 5 том, 630-бет.
5. Философский энциклопедический словарь. М., ИНФРА, М., 1999, с. 463.
6. Фалсафа. Комусий луғат. Тошкент, “Шарқ”, 2004, 267-бет.

Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna (Samarqand davlat Chet tillar instituti gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasida tadqiqotchisi (PhD))

VATANPARVARLIKNING MA'NAVYIY-AXLOQIY MADANIYAT BILAN ALOQADORLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada vatanparvarlik tarbiyasi maqsadlariga erishishda oldingi avlodlarning ma'naviy-axloqiy tajribasiga tayanish o'tmishning bugungi kun bilan uzviyligi va davomiyligini ta'minlash milliy va umuminsoniy qadriyatlarini asrab-avaylashga xizmat qilish bu orqali har bir xalq o'zining ma'naviy, etnik psixologiyasi, an'analari, urf-odatlarini va an'analri haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

Аннотация. *В данной статье в достижении целей патриотического воспитания опираются на духовно-нравственный опыт предыдущих поколений. Обеспечение преемственности и преемственности прошлого с сегодняшним днем, служение сохранению национальных и общечеловеческих ценностей посредством чего каждый народ излагает свои представления о духовной, этнической психологии, традициях, обычаях и традициях.*

Annotation. *In this article, relying on the spiritual and good experience of previous generations in achieving the goals of patriotic education to ensure the continuity of the past with the present, to serve the preservation of national and universal values through which each nation expresses its spiritual, ethnic psychology, traditions, customs and traditions.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, madaniyat, axloq, millat, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhi, ta'lim, tarbiya, yoshlar.*

Ключевые слова: *духовность, культура, нравственность, нация, национальные ценности, патриотический дух, образование, воспитание, молодежь.*

Key words: *spirituality, culture, morality, Nation, national values, patriotic spirit, education, upbringing, youth.*

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin tarixan qisqa vaqt ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarida juda katta o'zgarishlar yuzaga keldi, yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu mamlakatimizda barpo etilayotgan adolatli fuqarolik jamiyatini qurish konsepsiyasi bilan bog'liqdir.

Jumladan, 2021-yil 26-mart kuni “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi qarorni imzoladi.¹ Ushbu qaror “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g'oyisini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; oila, ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi qarori. Toshkent, “Xalq so'zi” gazetasi, 26-mart, 2021.

tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviylikini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Mamlakatimizda bugungi kunda qurilayotgan fuqarolik jamiyatining o'ziga xos tomonlaridan biri – dunyo bo'ylab kechayotgan globallashuv jarayonida paydo bo'layotgan ma'naviy tahdidlarni, global muammolarni hal etishda ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy me'rosga, xalqimizning o'ziga xos urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlariga tayanish va ulardan keng foydalanishga asoslangandir.

Bugun Yangi O'zbekiston jamiyatida asosiy e'tibori, bir tomondan, milliy qadriyatlarga tayanishi, ikkinchi tomondan, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi bilan belgilanadi. O'zbekistonning strategik maqsadi yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalashdir. Ushbu maqsad salbiy, destruktiv illatlarni bartaraf etib, ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish uchun zarur ijobiy, yaratuvchanlik omillarini ko'paytirishga undaydi. Zero, bugungi jamiyatimizda o'ziga xos ma'naviy-axloqiy madaniyatga ega bo'lgan vatanparvar shaxsni tarbiyalashga ehtiyoj sezmoqda.

Bugungi globallashgan jamiyatda ma'naviy-axloqiy madaniyatli vatanparvar shaxsga bo'lgan ehtiyoj quyidagilar bilan izohlanadi: *birinchidan*, vatanimizda barcha islohatlar natijasida har taraflama rivojlanib borgani sari, ma'naviy va mafkuraviy tahdidlar ham kuchayib bormoqda, *ikkinchidan*, globallashuv jarayoning salbiy ta'siri natijasida ayrim manfaatdor kuchlar tomonidan «ommaviy madaniyat» niqobi ostida axloqiy tubanlik illatlarini targ'ib qilish va bu bilan odamlarning axloqiy ongini aynitishga intilish, *uchinchidan*, din niqobida mutaassiblik va missionerlikka da'vat etish; *to'rtinchidan*, milliy turmush tarzimiz va mentalitetimizga yot bo'lgan g'arbona hayot tarzini g'arazli niyatda tiqishtirish, *beshinchidan*, milliy axloq asoslariga zarba berishga urinishlar mavjud. Bularning barchasi «mafкура poligonlarida kurash hamon davom etayotgan»ligini ko'rsatadi va bu salbiy holatlarni bartaraf qilish uchun jamiyatimiz mafkuraviy muhitini yanada takomillashtirish, ma'naviy-axloqiy madaniyatni yuksak vatanparvar shaxs tarbiyasidagi ahamiyatini oshirish lozim bo'ladi.

Yuksak ma'naviy-axloqiy madaniyat esa o'z navbatida xalqimizda yuksak vatanparvar shaxslarni tarbiyalashning deterministik xususiyatini namoyon qilmoqda. Ma'naviy, axloqiy madaniyat, ilmiy dunyoqarash, ma'rifat inson gnoseologik izlanishlarining natijasi hisoblanadi. Inson o'tmish ajdodlar merosini o'rganish, retrospektiv tahlil bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyatda, yon-atrofida bo'layotgan voqeahodisalarning ahamiyatini, ijtimoiy munosabatlarning genezisi va evolyusiyasini, o'zining va farzandlarining, vatanining kelajagini bilishga intiladi. Inson uchun kundalik kuzatishlarni o'zi etarli emas, shuning uchun inson empirik kuzatishlarini ratsional anglashga, ilmiy tajribalar orqali baholashga, umumlashtirib ma'lum bir sxemalar, qoidalar va qonunlar ishlab chiqish orqali, avvalo, o'zi va uni urab turgan borliq, ayniqsa, o'zi istiqomat qilib turgan vatani haqida o'z dunyoqarashini shakllantirib boradi.

Faylasuf olim A.Erkayev "Ma'naviyatshunoslik" nomli ikki jildli kitobida ma'naviyat, axloq va vatanparvarlik tushunchalarini rivojlanishidagi deterministik xususiyatini asoslab bergan. Olimning fikricha, insoniyat hayotida ma'naviyatning rivojlanishi umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasining qonuniyatlariga bog'liqdir. Bunda umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasi insonlarning dunyoqarashiga, tafakkuriga ta'sir etib, natijada mavjud jamiyatda o'z bahosiga munosabatini ilm-fan, adabiyot, madaniy saviyasi orqali namoyon etadi. Buning asosida esa qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar qaror topib, jamiyat faoliyatida rivojlanishning umumiy qonuniyati, moddiy va ma'naviy mushtaraklik o'zaro bog'liq tarzda shakllanadi.¹

Globallashuv sharoitida turli qarama-qarshiliklar, xalqaro terrorizm va ekstremizm kabi xavf-xatarlar vatanparvarlikni mustahkamlovchi ratsional, pragmatik xususiyatlari bilan birga uni emiruvchi deviantlik, marginallashuv, lyupenlashuv, kosmopolitik g'oyalarni tahlil qilishni taqozo qiladi. Bu yoshlarda yuksak vatanparvarlikni shakllantirib, unga salbiy ta'sir qiluvchi omillarning oldini oladi. Vatanparvarlikning Vatan xavfsizligini ta'minlashning muhim omili sifatida baholanishi uning axloqiy asoslari, uni shakllantirishning modellari, tamoyillari, texnologiyalarini o'rganishni talab qiladi. Vatanparvarlikni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish orqali jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashning mexanizmlari nazariy jihatdan takomillashtirish mumkin. Vatanparvarlik ta'limining yangi modelini yaratishning ilmiy-nazariy asosini ma'naviy-axloqiy madaniyat tashkil etadi. Bu borada ta'lim tizimida vatanparvarlik ta'limi, tarbiyasi va targ'ibotiga munosabatni tubdan o'zgartirishga qaratilgan ma'naviy-mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlari, uni amalga oshirishning amaliy mexanizmlarini yanada takomillashtirish, «O'zbekiston fuqarolarida vatanparvarlik tarbiyasini mustahkamlash» bo'yicha davlat strategik dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish taqozo etiladi.

¹Эркаев А. Маънавиятшunoslik. 1-китоб. Маънавият онтологияси феноменологияси. "Маънавият", 2018, 305-бет.

Vatanparvarlikni shakllantiruvchi axloqiy madaniyat va qadriyatlarning tahlili masalaning ontologik, gnoseologik, aksiologik, xususan, axloqiy zamonaviy konseptual yondashuvlar doirasida aniqlashni talab qiladi. Vatanparvarlik borasidagi e'tirof etilgan yondashuvlar birlashganida masalaning ob'ektiv mohiyatini bilish, vatanparvarlikni rivojlantirish va qonuniyatlarni amalga oshirish mumkin. Bu esa tadqiqotda «O'zbek xalqi milliy qahramonlarining vatanparvarlik» fenomeni hamda milliy-axloqiy idealni shakllantirishning xususiyatlarini ochib berish imkonini berdi.

Vatanparvarlikni targ'ib qilishning texnik va texnologik vositalar imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish tizimini yo'lga qo'yishda turli jamoat tashkilotlari va tuzilmalar, madaniyat, san'at va sport sohalari bilan muntazam faoliyat olib boruvchi, qat'iy tizimga asoslangan korporativ hamkorlikni yo'lga qo'yishning nazariy asoslarini ishlab chiqish lozim.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning boy madaniy va ma'naviy merosini o'rganish ham yangi milliy falsafiy tafakkur rivojlanishining xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli davlatimiz tashabbusi bilan qadriyatlar, urf-odatlar, avlodlar qoldirgan merosni o'rganish va targ'ib etish uchun keng yo'l ochildi.

Shuningdek, yoshlarni barkamol, vatanparvarlik, etuk qilib tarbiyalashda, ma'naviy immunitetini mustahkamlashda, tafakkurining teran uyg'onishida, o'tgan tuzumdan meros bo'lib qolgan ijtimoiy illatlardan xoli tarbiyalashda milliy falsafamizning o'rni beqiyosdir. Bu muammolar yechimini topishda Abu Nasr Forobiyning milliy falsafiy merosimiz durdonalaridan biri hisoblangan "Madinatul-fozila" asariga murojaat qilamiz. Forobiy bu asarida "Fozillar shahrining ziddini johillar, benomuslar, ayriboshlovchilar, adashgan, zalolatdagi odamlar shahridir,¹ deb izohlaydi. Johillar shahrining aholisi o'z vatanini his qilmasdan, baxt-saodatga intilmasdan yashaydi, vatan nimaligini bilmay o'tadi, chunki jaholat hech qachon baxt-saodatga olib kelmaydi. Jaholatdagi odamlar nazarida baxt, davlat bo'lib ko'rinadigan o'tkinchi, yuzaki narsalar, mol-dunyo, jismoniy lazzatlar, hirs-u shahvat, obro', amal, shon-shuhrat haqiqiy farovonlikdir. Shularning har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdagi maqsad, baxt-saodat bo'lib ko'rinadi.

Insonlar ma'naviy-axloqiy yoki vatanparvar qahramonlar timsolidagi ideallarga bo'lgan ehtiyojni ajdodlarimizning merosidan, orzu-istaklari va kelajak haqida gipotetik qarashlaridan izlashga harakat qilishadi. Chunki falsafa fanlari doktori S.A'zamxodjayeva yozganidek, ideal "bir tomondan, inson (guruh, jamiyat) ning ijtimoiy borliqni bilishga, idrok etishga qaratilgan gnoseologik tajribalarini, izlanishlarini, ikkinchi tomondan, amaliy faoliyatini yo'naltiruvchi hayotiy maqsadi, orzusi, gipotetik tasavvurlarini, uchinchi tomondan, ijtimoiy muhit, jamiyat bilan munosabatlarini ifoda etadi. Bu o'rinda ijtimoiy idealda zaruriy bilan tasodifiyning yonma-yon kelishini kuzatamiz".² Xullas, "ideal ertaga yoki bir oy, bir yildan keyin erishiladigan maqsad emas, balki u inson va jamiyatning taraqqiyotini belgilab beruvchi, ular mohiyatini ifoda etuvchi maqsaddir".³ Ijtimoiy-falsafiy tafakkur ushbu ideal va maqsadning ijtimoiy mohiyatini, ularni ijtimoiy borliqqa, kishilar dunyoqarashiga, jamiyat ma'naviyatiga joriy etish muammolarini o'rganadi va ularni hal etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi. Ma'lumki, haxsning shakllanishi u yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, madaniy va axloqiy muhitning ta'sirida kechadi. Jamiyatda yuksak ma'naviy-axloqiy madaniyatni rivojlantirish orqali yuksak vatanparvar shaxsni tarbiyalash ilmiy tadqiq etish quyidagi dolzarb masalalar yechimi bilan belgilanadi.

Birinchidan, hozirgi zamon etikasida ham yangilanish va o'zgarishlar jarayoni kechmoqda. Bu borada ham ikki yo'nalishni kuzatish mumkin: *birinchisi*, jahon axloqshunosligida g'oyaviy sayqallanish, prinsipial takomillashish va ilmiy-nazariy hamda metodologik jihatdan yangilanish jarayoni kechayotganligi. *Ikkinchisi*, milliy ma'naviy-axloqiy kamolotning tadrijiy rivojini ta'minlash, uning g'oyaviy asoslarini takomillashtirish va amaliy jihatdan faollashtirish. Bu borada, eng avvalo, Sharq va G'arb faylasuflarining ijtimoiy axloqqa oid ma'naviy merosi va g'oyalarini yangicha talqin qilish,

Ikkinchidan, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhiti yangi davlat va jamiyat qurilishi sharoitida shaxsning ijtimoiylashuvida muhim asos vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, jamiyat ijtimoiy qiyofasining shakllanish jarayoni ma'naviy-axloqiy muhit ta'siri doirasidagi axloqiy ong, Insoniyat taraqqiyotining har bir davrida ma'naviy barkamollik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan, chunki aynan ma'naviy-axloqiy kamolot insonning ruhiy poklanishi, axloqiy ong va axloqiy hissiyotlarga ega bo'lishi, halol va pok yashashi, mustahkam e'tiqodga ega bo'lishiga sabab bo'ladi.

¹ Форобий. Фозил одамлар шахри. А.Қодирий номли халқ мероси нашриёти, Т., 1993, 162-бет.

² Аъзамходжаева С. Ижтимоий идеал ва маънавий ҳаёт. Тошкент, Фалсафа ва ҳуқуқ нашриёти, 2007, 7-бет.

³ Ўша асар. 14-бет.

To'rtinchidan, mazkur muhitni yaratishda shaxsning axloqiy faolligini ta'minlash ijtimoiy ong shakllari va ijtimoiy taraqqiyot uyg'unligiga xizmat qiluvchi fuqarolik institutlari faoliyatini kuchaytiradi.

Beshinchidan, uning qiyofasi va ijtimoiy taraqqiyotning yo'nalishlarini belgilab beradi hamda uni harakatlantiruvchi omil bo'ladi.

Oltinchidan, ma'naviy-axloqiy muhitni takomillashtirishning zamonaviy omillarini yaratish jamiyat taraqqiyotini kafolatlovchi mustaqil tafakkurli shaxslar kamolotiga xizmat qiladi

Vatanparvarlik tarbiyasi maqsadlariga erishishda oldingi avlodlarning ma'naviy-axloqiy tajribasi katta ahamiyatga ega. O'tmishning bugungi kun bilan uzviyligi va davomiyligini ta'minlash milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qiladi, bu orqali har bir xalq o'zining ma'naviy, etnik psixologiyasi, an'analari, urf-odatlari va xarakterini takrorlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, Vatanni sevish va asrash tuyg'ularini shakllantirish ma'naviy-axloqiy ehtiyojga aylandi.

Yaxyaeva Sojida Abdurahimovna (Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o'qituvchisi (PhD))
YOSHLARDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY MASALALARI

Annatsiya. *Maqolada estetik madaniyat rivojlanishida yoshlarning tutgan o'rni va ularning xalqimiz ma'naviy merosi, falsafiy tafakkuri rivojida innovatsion g'oyalar asosida ijtimoiy hayotda amalga oshirilayotgan islohotlarga ijobiy ta'siri masalalari yoritilgan.*

Аннотация. *В статье описывается роль молодежи в развитии эстетической культуры и ее положительное влияние на реформы в общественной жизни, основанные на новаторских идеях в развитии духовного наследия и философского мышления нашего народа.*

Annotation. *The article describes the role of youth in the development of aesthetic culture and its positive impact on reforms in public life, based on innovative ideas in the development of the spiritual heritage and philosophical thinking of our people.*

Kalit so'zlar: *estetik madaniyat, milliy qadriyatlar, falsafiy meros, innovatsion g'oya, an'ana, diniy va dunyoviy bilim, estetik immunitet, mafkura, zavqiy munosabat.*

Ключевые слова: *эстетическая культура, национальные ценности, философское наследие, новаторская идея, традиция, религиозное и мировоззренческое знание, эстетический иммунитет, мировоззрение, наслаждение.*

Key words: *aesthetic culture, national values, philosophical heritage, innovative idea, tradition, religious and philosophical knowledge, aesthetic immunity, worldview, enjoyment.*

Kishilik jamiyat tarixida estetik madaniyat ajdodlarimizning yuksak falsafiy tafakkuri, ma'naviy dunyosi, noyob adabiy-estetik asarlari va milliy qadriyatlarni yaratishi natijasida shakllangan. Bunda qadimdan asrlar osha kelajakka yetib kelgan diniy e'tiqodlar yangi dinlarning vujudga kelishi bilan o'z o'rnini yangisiga bo'shatib berishi, ya'ni, asrlar davomida xalqning eski e'tiqoddan yangisiga amal qilishi asosida o'zgarib borishini tarix ko'rsatadi. Shu kabi xalqning ma'naviy olamidagi boy meroslar, milliy qadriyatlar zamonaviy qadriyatlarga parallel ravishda rivojlanishga intiladi.

Yoshlarning estetik madaniyati shakllanishida jamiyatda ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar asosiy rol o'ynaydi. Har bir davr oralig'ida xalqning orasidan yetishib chiqqan ulamolar, donishmand va mafkurlar zamonaga mos ravishda inson kamolotiga xizmat qiladigan estetik ehtiyojlar va ma'naviy ne'matlarni yaratib, kelajak avlodlar uchun qoldiradi. O'zbekistondagi estetik tafakkur tarixida ham bobolarimizning boy falsafiy durdonalari, ularning milliy qadriyatlar, mafkuraviy qarashlardagi roli ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

O'zbekistonda yoshlarning zamonaviy falsafiy tafakkurini shakllantirish borasida ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarda doimiy izlanishlar olib borilishi yo'lga qo'yildi. Jamiyatning ma'naviyat sohasidagi islohotlarda o'sib kelayotgan farzandlarimizning ong-u tafakkurida voqelikning real hodisalariga asoslanish ko'zda tutildi. Har bir sohadagi milliy taraqqiyot yo'nalishlaridagi singari, bu borada ham Harakatlar strategiyasiga muvofiq yoshlarning ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda estetik idealni qaror toptirish muhim estetik obyekt sifatida tanlandi. Tafakkur rivojida "estetik ideal inson, shaxs va jamiyatning estetik tajribasidan vujudga keladi. Inson dunyoni ana shu tajriba vositasida estetik idrok etadi. Shu sababli estetik ideal go'zallik, ulug'vorlik, mo'jizaviylik va boshqa estetik xususiyatlarni belgilovchi mezon sifatida yuzaga chiqadi"[1]. Bu jarayonda ajdodlarimizning asrlar davomida sinovdan o'tgan falsafiy dunyoqarash va mafkuraviy immunitetga e'tibor qaratildi.

Yoshlarning estetik madaniyatini tadqiq etish masalasi yurtimizda ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning innovatsion g'oyalari asosida rivojlanishiga yo'l ochib berdi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy taraqqiyot rivojiga ta'sir etuvchi inson omilini zavqiy munosabatlar negizida voqelikdagi narsa va hodisalarga ta'sir ko'rsatishga chorladi. Insonlarning tashqi olamga bo'lgan intilishlarida ezgulik, go'zallik, komillik kabi tuyg'ular bilan yashashga, insoniyatning izlagan idealini topishida ijobiy g'oyalarga tayanish dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqdi. Chunki jahonda bo'layotgan yoshlar o'rtasidagi ayrim mafkuraviy tazyiqlar, millatlar o'rtasidagi xunuklik kasb etuvchi noodatiy urflar, milliy qadriyatlarga qarshi qaratilgan egoistik dunyoqarash estetik madaniyatni chuqur tadqiq etishni talab etmoqda.

“Estetik madaniyat” tushunchasini falsafiy tadqiq etish jarayoni ilmiy bahslarga sabab bo'lib, turlicha tarzda ta'riflar berib kelingan. Estetikshunos olim M.Abdullayev fikricha, “estetik madaniyatga ijtimoiy subyekt sifatidagi insonning estetik ehtiyoj va qobiliyatlarini moddiy, sotsial, siyosiy va ma'naviy sohalarida ro'yobga chiqarishning tarixan shakllangan va doimo rivojlanuvcha xilma-xil shakllari deb ta'rif berish mumkin” [2]. Bunda estetik madaniyatga asosan qadriyatlar yig'indisi nuqtayi nazaridan yondashilgan bo'lib, inson estetik ehtiyojlariga nisbatan vorisiylik asosida zavqiy munosabat aks etgan. Jamiyatning voqelikka o'zaro aloqadorlik negizida turli-tuman ijtimoiy holatlarning uyg'unlashuvi sifatida moslashishi, yangicha ijod jarayonining rivojlanuvchi hodisalar bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

Falsafiy fanlar tizimida estetik madaniyatga xilma-xil yondashishlar negizida ta'riflar berilgan. Jumladan, «Estetik madaniyat – estetik qadriyatlar, ularni yaratish va iste'mol qilish usullarining majmuyi» [3]. Ushbu ta'rifning asosida aksiologik qarashlar ishlab chiqarish munosabatlari bilan uzviylikda ifodalangan. Bu esa estetik madaniyatning doimiy ravishda yangilanib, tabiatning inson tomonidan o'zlashtirilishi asnosida yangicha zavqiy munosabatlar paydo bo'lishiga olib kelishi, milliy qadriyatlarining zamon bilan parallel ravishda go'zallik qonuniyatlarini keltirib chiqarishiga sabab bo'lishini ko'rsatib bergan.

Bu tushunchaga o'zining ta'rifini berishda har bir tadqiqotchi o'ziga xos ilmiy qarashlarni ilgari surgan. Ushbu ta'rifda “estetik madaniyat bu muayyan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilarning voqelikdagi narsa va hodisalarga nisbatan hissiy-emotsional va zavqiy munosabatda bo'lib, ularni ma'naviy-estetik qadriyat sifatida baholashining ifodasidir. Shuningdek, estetik madaniyat, inson va jamiyat moddiy-ma'naviy darajasi, ijtimoiy-siyosiy omillar, shaxsiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-tarixiy hodisadir”[4], deb talqin etilgan. Estetik madaniyatga bunday yondashuvda inson omilining ustunligi aks etib, tashqi muhitdagi go'zallikka nisbatan his-tuyg'ularning nozik jihatlari ochib berilgan. Insonning real voqelikka nisbatan zavqiy munosabatda bo'lishiga olib keluvchi ma'naviyat olamining roli mantiqiy izchillik bilan ifodalangan. Go'zallikni keltirib chiqaruvchi obyekt sifatida tarixiy jarayonda shakllangan qadriyatlarga falsafiy munosabat bildirilgan.

Ushbu ta'riflarda estetik madaniyatning umumiy belgilari, jamiyat rivojidadagi ma'naviy jihatlari ochib berishga qaratilgan. Lekin bu tushunchaning ilmiy mohiyatini teranroq tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bu ta'riflarni o'rgangan holda mazkur tushunchaga falsafiy-estetik ta'rif berish lozim. Jumladan, estetik madaniyat bu insonlarning voqelikka zavqiy munosabatlarini o'zida ifodalovchi estetik qiymatga ega bo'lgan ma'naviy, mafkuraviy, diniy, axloqiy, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni rivojlantirib boruvchi innovatsion yondashuvlar tizimidagi go'zallik elementlari yig'indisidir.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida estetik madaniyat o'zini ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon etib boradi. Bunda yoshlar estetik madaniyatiga nazariy-metodologik yondashuv asosida o'ziga xos xususiyatlar shakllanadi.

Birinchiidan, yoshlar estetik madaniyati jamiyatning kichik hujayralari sifatida ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga va qatlamlariga kirib borib, hodisaning mohiyatini chuqur anglashga xizmat qiladi. Hatto yoshlarning tabiiy xususiyatlari madaniylik bilan uyg'unlashib, ularni bir-biridan ajratish qiyin bo'lib boradi. Estetik madaniyat jamiyatning barcha sohalariga kirib borishi universal madaniy hodisa o'ziga xos ma'naviy-mafkuraviy omillarni vujudga keltiradi.

Ikkinchiidan, estetik madaniyat jamiyatda polifunksionallik vazifasini bajaradi. Bunda yoshlarni zamonaviy milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, tabiat va jamiyat o'rtasidagi go'zallik olamida zavqiy munosabatlarni shakllantirish, insonga lazzat baxsh etish, tarixiy taraqqiyotda erishilgan tajribalarni ma'naviy meros sifatida kelajak avlodlarga yetkazib berish kabilar aks etadi. Masalan, estetika – go'zallik va san'at falsafasi, etika – axloq falsafasi, aksiologiya – qadriyatlar falsafasi, gnoseologiya bilish falsafasi sifatida polifunksional hodisalar.

Uchinchiidan, estetik madaniyat yoshlarni borliqda, tabiat va jamiyatda zavqiy munosabatini shakllantiradi. Shu boisdan estetik madaniyatning tabiat va jamiyat bilan bog'liqligi umumfalsafiy xarakterga

ega bo'lib, insonning voqelikdagi mohiyatini ochib beradi. Yoshlar nafasat olamida mavjud go'zal his-tuyg'ularni anglab etishi asosida borliqdagi narsa va hodisalarga nisbatan estetik tafakkuri kamol topadi.

To'rtinchidan, estetik madaniyat yoshlar valeoestetik tarbiyasi bilan uzviy ravishda hayotning metodologik mohiyatini ifodalaydi. Inson faoliyatining nazariy jihatlarini amaliyotga tatbiq etishda falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi. Insonning hayotda tug'ilishdan maqsadning mohiyati, nafasat olamida yashashi, voqelikda o'z o'rnini topishi, qanday go'zal amallar bilan nom qoldirishi kabi falsafiy estetik mu-lohazalarni keltirib chiqaradi. Bularning barchasi madaniyatning ishtirokisiz mavjud bo'lmasligi va mu-ammoni yechish yo'llari tavsiya etiladi.

Beshinchidan, estetik madaniyat jamiyatda o'zini qadriyatlar ko'rinishida yaxlit fenomen sifatida namoyon qiladi. O'z navbatida, jamiyatning universal atributi sifatida aksiologik muammolarni yechishga xizmat qiladi. Bunda estetik madaniyat boshqa ijtimoiy fanlar bilan parallel ravishda qadriyatlarni tadqiq etadi, ularning obyektiv va subyektiv tomonlarini ochib beradi.

Oltinchidan, estetik madaniyat falsafa bilan uyg'unlashgan holda nafasat olamidagi dialektik jara-yonlarni vujudga keltiradi. Shu asosda borliqdagi narsa va hodisalarning uyg'unligi va mukammalligini shakllantiradi.

Faylasuf olimi M.Nurmatova estetik qadriyatlarning obyektiv olamda ijtimoiy-tarixiy jarayonlar bilan uzviyligini ta'kidlaydi. Uningcha, "estetik qadriyatlar ikki munosabatga ko'ra obyektiv xarakterga ega.

Birinchidan, estetik qadriyatlar o'zida voqelikdagi narsa-hodisalarga xos bo'lgan umumiy xususi-yatlarni namoyon qiladi.

Ikkinchidan, estetik qadriyatlar inson va jamiyat uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar (g'urur, iftixor, sha'n, nomus kabi tuyg'ular) asosida vujudga keladi" [5]. Demak, voqelikka estetik yon-dashuv negizida insonning qadriyatlari sayqallanib, zamonaviy qiyofa kasb etib boradi. Bunday estetik dunyoqarash asosida barcha millat va elatlarning qadriyatlarini e'zozlash, ularga nisbatan bag'rikenglik va ixlosmandlik tuyg'usini qaror toptirish ham dialektik aloqadorlikda bo'lishi lozim.

Yoshlar estetik madaniyatini tadqiq etishda zamonaviy milliy qadriyatlarni o'zlashtirish, shaxs xulq-atvoridagi ruhiy-estetik holatlarni go'zallik me'yorlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bun-day faoliyatda yangi estetik qadriyatlar yaratilmaydi, mavjud estetik madaniyatlar muayyan tizimga soli-nib, shaxsning ehtiyojlariga qaratiladi. Jamiyatda zamonaviy qadriyatlarni yaratishda ijodiy faoliyat aso-siy rol o'ynaydi. Ayniqsa, an'anaviy madaniyatlarining ijtimoiy tuzilishlari adabiy jarayonlarda ko'proq namoyon bo'ladi. Rus olimi V.S.Stepinning fikricha, ularda an'analar, afsonalar, tafakkurning bir qolipga tushgan usullari ifodalanadi [6]. Bunday ijodiy faoliyatda yangi qadriyatlar ijtimoiy guruhlarning estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Masalan, haykaltaroshlik san'atida yaratilgan haykallarning jami-yatga mos bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Masalan, Toshkent shahrida 2020-yilda barpo etilgan "G'alaba bog'i" va "Adiblar xiyoboni" yodgorlik majmualaridagi manzaralar o'tgan asar va bugungi kun voqeligi o'rtasidagi uyg'unlikni aks ettiradi.

Biz xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarini yoshlar estetik olami bilan bog'liqligini tadqiq etarkanmiz, nafaqat o'zbek milliy qadriyatlarini, balki umuminsoniy qadriyatlarining ham yurtimizda keng miqyosda rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shu boisdan zamonaviy milliy qadriyatlarining yaratilish jarayoni bevosita ijtimoiy hayotdagi real voqelikka asoslanishi, innovatsion g'o-yalarining mahsuli sifatida vujudga kelishi, nafasat dunyosiga bo'lgan zavqiy munosabatning boyib bori-shida namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy qadriyatlarni har bir o'sib kelayotgan yosh avlod-ning ongiga milliy va diniy qadriyatlar ko'rinishida singdirib borish uchun ham amaliy, ham nazariy, ham mafkuraviy jihatdan xizmat qilishiga olib keladi.

Estetik madaniyatning shakllanishida jamiyatdagi siyosiy bilim, huquqiy madaniyat, axloqiy ideal va ma'naviy omillar muhim hisoblanadi. Bunda yoshlarning harakatchanligi va intilishlari muayyan bi-limlar negizida yangilanib, ularning innovatsion rivojlanishiga ishlab chiqarish, adabiyot, san'at, madani-yat, ma'naviyat orqali ta'sir etadi. Bularning estetik madaniyatning ma'naviy-mafkuraviy asoslarini shakllantirishda, ma'rifat g'oyalarini yaxshiroq tushunishda muhim rol o'ynaydi.

Madaniyatning ma'naviy asoslari qadimdan insoniyatning turmushi, estetik faoliyati, g'oyaviy ola-mi uchun xizmat qilib, asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelgan badiiy-estetik tafakkur namu-nalaridir. O'tmishda ota-bobolarimiz, oqila onalarimizning badiiy ijodi, teran aql-zakovati, o'ziga xos fal-safiy dunyoqarashi va hayot falsafasi tarixning sinovlaridan o'tib, ajdodlardan kelajak avlodlarga xalq mafkurasi, ma'naviyati, ma'rifati va axloqiy-estetik ideallari sifatida etib kelgan. Yuksak estetik madani-yatning ma'naviy asoslari "mohir ajdodlarimiz uzoq tarix davomida yaratgan ajoyib obidalar shu kunga-

cha etib kelibgina qolmay, ular ajoyib iste'dodli ijodkorlar tomonidan rivojlantirilgan" [7]. Demak, barchamiz joylarda aholi turmush tarzi, milliy an'analarini aholi o'rtasida yangicha falsafiy dunyoqarash va estetik ideallar asosida matbuot, televideniye, san'at va madaniyat muassasalari orqali kuchaytirishimiz lozim.

Jamiyatda estetik madaniyatning milliy-etnomadaniy jihatlarini turli etnik guruhlarning muayyan madaniyatlarni birgalikda rivojlantirishida yangilanib boradi. Mana shunday jarayonlar quyidagilarda aks etadi:

–muayyan jamiyatda yashayotgan turli millat va elatlarning bir maqsad yo'lida birlashib, shu asosda xalqning, jumladan yoshlarning axloqiy-estetik ideallarini o'tmish tarixiy-madaniy meros bilan boyitishi, milliy qadriyatlarini zamon bilan hamnafas rivojlantirishida namoyon bo'ladi;

– biror hudud aholisining etnik jihatdan ko'pchilikni tashkil etishiga qaramasdan, shu joyda boshqa millat va elatlarning urf-odatlarini, an'analarini, madaniyatini va qadriyatlarini hurmat qilishi hamda jamiyatda barchaning haq-huquqlari teng qo'yilishi asosida milliy-etnomadaniyat omillarining erkin amalga oshishiga asoslanadi;

– jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan estetik dunyoqarash rivojida yoshlarning bag'rikenglik madaniyatiga alohida e'tibor qaratish va ulardan tug'ilib o'sgan yurtga nisbatan yuksak umuminsoniy tuyg'ularning kamol topganligi bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston yoshlarining bugungi axloqiy qiyofasi va estetik madaniyati ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardagi estetik idrok, his-tuyg'u, kechinma, zavqlanish, did kabi tushunchalar, ayni chog'da, ijtimoiy hayotning falsafiy-axloqiy tomonlarini, mohiyatini, ma'nomazmunini ham ifodalaydi. Yoshlarning estetik tafakkuri qotib qolgan va mavhum ma'naviy meros bilan chegaralangan emas. Ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar, barcha islohotlar va ularning natijalari yoshlarning axloqiy qiyofalari, estetik ongi va tasavvurlarida ham o'zgarish yasaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sher A. Go'zallik yog'dusi. Toshkent, "Faylasuflar", 2017, 52-bet.
2. Abdullayev M. Estetik madaniyat: nazariy-metodologik jihatlar. Toshkent, "Fan", 2007, 32-bet.
3. Falsafa. Qomusiy lug'at. Toshkent, "Sharq", 2004, 466-bet.
4. G'aybullayev O. Estetik madaniyat. Monografiya, Toshkent, "Navro'z", 2020, 9-bet.
5. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. T., "Universitet", 2009. 57-bet.
6. Степен В.С. Россия и Запад. Вопросы философии, 1992, № 6, с. 4.
7. Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. Toshkent, "O'zbekiston", 2012, 316-bet.

Jo'raxolova Bahora Qurbonboyevna (O'zDJTU ilmiy tadqiqotchisi)
KONSEPTUAL METAFORA NAZARIYASI

Annotatsiya. *Konseptual metaforalar inson kognitiv tizimining va muloqotning markaziy qismidir. Ushbu maqolada konseptual metaforalarning tizimlili va tuzilishi hamda ularning til va nutqda qanday namoyon bo'lishi muhokama qilinadi. Maqola konseptual metaforalarning ma'no va tushuncha yaratishdagi rolini va ular bizning dunyo haqidagi tushunchamizni qanday shakllantirishini o'rganadi. Maqolada, shuningdek, tilni o'rganish, kognitiv jihatdan uni qayta ishlash va tilga asoslangan bilimlarni shakllantirish uchun konseptual metaforalarning tizimlili natijalari o'rganiladi. Nihoyat, maqolada konseptual metaforalarning tizimlili bo'yicha keyingi amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadqiqotlardan takliflar ham keltiriladi.*

Аннотация. *Концептуальные метафоры занимают центральное место в когнитивной системе человека и общении. В статье обсуждается систематичность и структура концептуальных метафор и то, как они проявляются в языке и дискурсе. В статье исследуется роль концептуальных метафор в создании смысла и понимания и то, как они формируют наше понимание мира. В статье также рассматриваются результаты систематизации концептуальных метафор для изучения языка, когнитивной обработки и формирования языковых знаний. Наконец, в статье предлагаются предложения для дальнейшего исследования системности концептуальных метафор.*

Annotation. *Conceptual metaphors are central to the human cognitive system and communication. This article discusses the systematicity and structure of conceptual metaphors and how they manifest in language and discourse. The article examines the role of conceptual metaphors in creating meaning and understanding and how they shape our understanding of the world. The article also examines the results of the systematicity of conceptual metaphors for language learning, cognitive processing, and language-based knowledge formation. Finally, the article offers suggestions for further research on the systematicity of conceptual metaphors.*

Kalit so'zlar: *konseptual metafora nazariyasi, tushuncha, metafora, konseptual metafora, o'z ma'no, ko'chma ma'no, domen, konseptual xarita.*

Ключевые слова: *теория концептуальной метафоры, концепт, метафора, концептуальная метафора, собственное значение, переносное значение, домен, концептуальная карта.*

Key words: *theory of conceptual metaphor, concept, metaphor, conceptual metaphors, source domain, target domain, conceptual map.*

Kirish. Konseptual metafora – mavhum tushunchalarni tushuntirish uchun ishlatiladigan metafora turi. Ulardan mavhum tushunchalar orasidagi munosabatlarni tushuntirish uchun qo'llaniladi, ko'pincha, adabiyotda va nutqda qo'shimcha ma'no yaratish uchun ishlatiladi. Konseptual metaforalar dunyoni aniqroq anglashimiz uchun muhim va odamlar, obyektlar va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, vaqt tushunchasini daryo metaforasi yordamida tushuntirish mumkin, bunda vaqt doimo oldinga siljidi xuddi daryo oqimi bo'ylab oldinga siljigani kabi. Konseptual metaforalardan tilning tuzilishini va undagi fikr va tushunchalarni ifodalash usullarini tushuntirish uchun foydalanish mumkin. Misol uchun, hikoyaning tuzilishini tushuntirish uchun sayohat metaforasi ishlatilishi mumkin, bu yerda hikoya boshidan oxirigacha yo'lni bosib o'tadi. Xuddi shunday, metaforik xarita ham tilning tuzilishini tushuntirish uchun ishlatilishi mumkin, bu yerda ma'lum bir tushunchani tushuntirish uchun ma'lum so'zlar yoki iboralar ishlatilishi mumkin. Konseptual metaforalardan kognitiv jarayonni tushuntirish uchun foydalansa bo'ladi. Maqolada metaforalar dunyo haqidagi fikrlarimiz va tushunchalarimizni tushuntirish uchun ishlatilishi mumkin.

Konseptual metafora nazariyasining asosiy tushunchalari va rivojlanishi. Konseptual soha inson tajribasining har qanday aqliy tashkiloti bo'lishi mumkin. Turli tillarda bir xil metaforalarni qo'llash muntazamligi, ko'pincha, idrok etish asosida, konseptual sohalar o'rtasidagi xaritalash miyadagi neyron xaritalarga mos keladi degan gipotezaga olib keldi [3.25], [1.39]. Ba'zi tadqiqotchilar uning empirik to'g'riligiga shubha qilishsa-da, bu nazariya keng e'tibor qozondi [15.41].

Ushbu g'oya va asosiy jarayonlarni batafsil o'rganish birinchi marta Jorj Lakoff va Mark Jonson tomonidan 1980-yilda "Biz yashayotgan metaforalar" asarida keng tadqiq qilingan. O'shandan beri kognitiv tilshunoslikning kengroq intizomi doirasida metafora tadqiqotlari sohasi tobora rivojlanib bormoqda.

Bir necha yillik ilmiy konferensiyalar, ilmiy jamiyatlar va tadqiqot laboratoriyalari ushbu sohaga hissa qo'shadi. Jerar Stin kabi ba'zi tadqiqotchilar metafora tadqiqoti uchun empirik tadqiqot vositalarini, jumladan, metafora identifikatsiyalash protsedurasini yoki MIPni ishlab chiqish ustida ishladilar.[12.27]. Psixologiyada kichik Raymond V.Gibbs bir qator psixologik eksperimentlar orqali konseptual metafora va uning timsolini o'rganib chiqdi [5.42].

Konseptual metafora – bu ikki domen o'rtasidagi tizimli uyg'unliklar to'plami. Bu “bir ma'noni boshqa ma'no nuqtayi nazaridan tushunish” deganidir. Uni boshqa atama bilan “Konseptual xarita” deb nomlasak ham bo'ladi. Buning sababi shundaki, konseptual xaritada ba'zi elementlar va ular o'rtasidagi munosabatlar asl ma'noni ko'zlangan ma'noga yo'naltirishga xizmat qiladi. Quyida konseptual xarita “G'azab bu olov” konseptual metaforasi misolida qanday ishlashi ko'rsatilgan. Ushbu metaforani tashkil etuvchi tizimli konseptual xaritalarni taqdim etishdan oldin keling. Konseptual metaforani o'zbek tilida namoyon bo'ladigan leksik usul bilan olingan ba'zi lingvistik metaforalarni ko'rib chiqaylik:

Bu g'azablantiruvchi so'zlar edi.

Quloqlaridan tutun chiqayotgan edi.

U g'azabdan yonardi.

Ko'zlari olov bo'lib yondi.

Bunday misollarni hisobga olgan holda, quyidagi konseptual xaritalar ro'yxatini taklif qilish mumkin:

Olov – g'azab.

Olovning shiddati – g'azabning shiddati.

Yonayotgan odam – g'azablanayotgan odam.

Olovli ko'zlar – g'azabli ko'zlar.

Ushbu xaritalar yordamida biz yuqorida sanab o'tilgan metaforik iboralar qanday ishlashini tushuntira olamiz, masalan, nega yonish g'azabni qo'zg'atishni anglatadi yoki nima uchun kuyish, olov bo'lib yonish va g'azabdan alanganish g'azabning yuqori intensivligini ko'rsatadi, ehtimol, ular o'rtasida shiddatli farqlar mavjuddir.

Ushbu xaritalar to'plami tizimli bo'lib, u olov bilan tasvirlangan g'azabning izchil ko'rinishini oladi, masalan, biror-bir buyumni misol qilib olaylik. Qandaydir hodisa yong'inni keltirib chiqaradi va oddiy holatdagi buyumning yonishiga sabab bo'ladi. Olov turli darajadagi intensivlik darajasida yonishi mumkin. Xuddi shunday g'azabni tasvirlash uchun oddiy holatdagi bir kishini misol qilib olishimiz mumkin. Qandaydir hodisa kishining g'azablanishiga olib keladi va u kishi g'azablanadi. G'azabning intensivligi o'zgaruvchan bo'ladi.

Konseptual xarita yong'in ma'nosidagi elementlar bilan g'azab ma'nosidagi elementlar o'rtasidagi munosabatlarni moslashtiradi. Darhaqiqat, konseptual xaritada, yong'in ma'nosi biz ko'rgan olov nuqtai nazariga nisbatan g'azabga sabab bo'ladigan narsalarni keltirib chiqarishi kerak. Bu ma'lum bir so'z bilan boshqa bir ma'noni tasvirlash uchun ishlatilishini anglatadi.

Shu nuqtada muhim savol bo'lishi mumkin: barcha narsani bir ma'nodan boshqasini ifodalashi mumkinmi? Albatta, yo'q. Muayyan konseptual metaforani hisobga oladigan bo'lsak, asl ma'nodan ko'chma ma'noga o'tkazish mumkin bo'lmagan ko'p narsalar mavjud. Masalan, nazariyalar bu binolar deb hisobga olsak, xonalar soni yoki binoning yerto'lasini yoki chodiri bor-yo'qligi xaritada ko'rsatilmaydi. Manbadan uzatilishi mumkin bo'lgan bilimlar miqdorini cheklash uchun bir nechta misollar bor. Ulardan biri Lakoff tomonidan ishlab chiqilgan “invariantlik gipotezasi”dir [13.39–74]. Bu shuni anglatadiki, asl ma'no ko'chma ma'noning tasvir-sxematik tuzilishiga zid kelmaydigan ma'zmunini ifodalashi mumkin. Gredining fikriga ko'ra [11.267], asl ma'noning “asosiy metafora”ga asoslangan qismlarini xaritada ko'rsatish mumkin. Nihoyat, Kövecses manbaning asosiy ma'no fokusiga tegishli bo'lgan konseptual materialarni xaritalashini taklif qildi [8.38]. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan uchta fikr ham bir-biridan metaforaning qaysi qismiga bog'liqligi bilan farq qiladi. Masalan, birinchi fikr ko'zlangan ma'noga, ikkinchi fikr asl va ko'zlangan ma'no o'rtasidagi bog'liqlikka, uchinchi esa manba xususiyatlariga tayanadi.

Ko'rib turganimizdek, konseptual metafora nazariyasi “o'z ma'no” va “ko'chma ma'no” o'rtasidagi farqlarni izohlaydi. Asl ma'no aniqdir, ko'chma ma'no esa mavhum. Masalan, “Hayot bu Sayohatdir”, bu yerda “Sayohat” so'zi ko'chma ma'noda mavhumlikni, o'z ma'nosida esa aniqlikni aks etmoqda. Ushbu nazariya hozirgacha adabiyotlarda uchragan va tahlil qilingan yuzlab konseptual metaforalarni (masalan, Hayot – Sayohat, G'azab – Olov, Nazariyalar–Binolar) tekshirishga asoslangan. Ko'pgina konseptual metaforalar o'z ma'no sifatida ko'proq jismoniy domenlarni va ko'chma ma'no sifatida ko'proq mavhum

domenlarni o'z ichiga oladi, degan taxmin juda intuitiv ma'noga ega. Misol uchun, hayot tushunchasi murakkabligi tufayli aniqlab olish qiyin, g'azab – biz uchun, asosan, yashirin bo'lib qoladigan ichki tuyg'u, nazariya – murakkab aqliy tuzilma. Albatta, ularning barchasi tushunilishi oson emas, shuning uchun ham ko'chma ma'no yanada aniqroq tushunilishi mumkin bo'lgan manba tushunchasi nuqtayi nazaridan konsepsiyalangan.

Kognitiv tilshunoslar Jorj Lakoff va Mark Jonson konseptual metaforalarning bir-biriga o'xshash uchta toifasini aniqladilar [12.89].

Orientatsion metafora yuqoriga-pastga, kirish-tashqariga, yoqish-o'chirish yoki old-orqa kabi fazoviy munosabatlarni o'z ichiga olgan metaforadir.

Ontologik metafora – bu mavhum narsaga konkret narsa proyeksiya qilingan metafora.

Strukturaviy metafora–bu metaforik tizim bo'lib, unda bitta murakkab tushuncha (odatda, mavhum) boshqa (odatda, aniqroq) tushunchalar nuqtayi nazaridan taqdim etiladi.

Masalan:

Siz mening vaqtimni behuda sarf qilyapsiz.

Ushbu gadjet sizga soatlarni tejaydi.

Sizga berishga vaqtim yo'q.

Shu kunlarda vaqtingizni qanday o'tkazyapsiz?

O'sha yassi shina menga bir soatga tushdi.

Men unga ko'p vaqt sarfladim.

Vaqtingiz tugayapti.

Bu vaqtingizga arziydimi? [13.67]

Bizning frazeologik olamni tushunishga intilayotganda, konseptual jihatdan ushbu aniq yo'nalishda harakat qilishimiz mantiqiyroq bo'ladi, ya'ni, kognitiv jihatdan kamroq tushunilishi mumkin bo'lgan domenlarni osonroq tushunilish mumkin bo'lgan domenlar nuqtayi nazaridan konsepsiyalash. Sayohatni hayot, olovni g'azab yoki binolarni nazariya sifatida metaforik tarzda teskari konseptualizatsiyalashga urinish qanchalik g'alati va tushunarsiz bo'lishi har bir kishining e'tiboridan chetda qolmaydi. Ushbu konseptual xaritada sayohat, yong'in yoki binolar kabi tushunchalarni teskari konseptualizatsiyalash to'g'ri, chunki ular biz uchun hayot, g'azab va nazariyalar kabi tushunchalardan ancha aniqroq va tushunarliroq. Bu konsepsiyaning teskari yo'nalishi hech qachon sodir bo'lmaydi degani emas. Bu konseptualizatsiyaning teskari yo'nalishi sodir bo'lishi mumkin, lekin sodir bo'lganda ham, she'riy, stilistik, estetik va shu kabi ta'sir sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Dastlab, metaforalar fikrda yuzaga keladi. Konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, metafora nafaqat tilda, balki fikrlash jarayonida ham mavjud. Biz metaforalardan nafaqat dunyoning ayrim jihatlari haqida gapirish, balki ular haqida fikr yuritish uchun ham foydalanamiz. Yuqorida ko'rganimizdek, konseptual metafora nazariyasi lingvistik metaforalar (metaforali lingvistik iboralar)ni konseptual metaforalar (fikrlash jarayonimizda namoyon bo'ladigan, kundalik hayotimizda foydalaniladigan konseptual shakllar)dan farqlaydi. Misol uchun, "Hayot – sayohat" kabi metaforalar hayot haqidagi fikrimizni boshqarishi mumkin. Sayohat uchun puxta rejalar tuzamiz va tayyorgarlik ko'ramiz, hayotda ham erishmoqchi bo'lgan maqsadlarni qo'yamiz hamda ularga erishish uchun qo'limizdan kelganini qilamiz. Sayohatimiz davomida ko'plab to'siqlarga duch kelishimiz mumkin. Avtomobil g'ildiragi teshilishi yoki samalyotdan qolib ketishimiz va shu kabi katta kichik muammolar, hayotda ham har xil qiyinchiliklarga duch kelamiz. Sayohatimizdagi sheriklarimiz esa hayotimizdagi oilamiz, qo'ni-qo'shni, do'st-u birodarlarimizdir. Shu kabi o'xshash fikrlar yuritganimizda, biz hayot haqida "Hayot–bu sayohat" konseptual metaforasi nuqtayi nazaridan o'ylaymiz. Shunday qilib, biz hayot haqida gapirish uchun sayohat tilidan foydalanishimiz mumkin.

Har safar biror-bir so'z turli ko'chma ma'nolarda qo'llanilsa, ya'ni, manba domeni turli xil maqsad domenlari bilan ifodalanganda bizdagi ana shu manba domeni haqidagi qarashlarimiz va fikrlarimiz boyitiladi. Bundan tashqari, ko'pincha, mavhum tushunchalarning dastlabki konsepsiyasi ularning etimologiyasida aks etadi. Nihoyat, agar metafora konseptual tizimning bir qismi bo'lsa, konseptual metaforalarni ushbu tizimni ifodalashning har qanday usulida ham uchratish mumkin bo'ladi [2.485]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tilda aniqlangan konseptual metaforalar imo-ishoralarda, tasviriy suratlarda (masalan, mult-filmlar), tasviriy san'atda (masalan, rasm) va boshqalarda ham uchraydi. Garchi ushbu ifoda usullarida uchraydigan metaforalar kundalik til va tafakkurdagi metaforalar bilan bir xil bo'lmasa-da, lekin ularning ko'p qismi bir-biriga o'xshashdir [4. 462–482].

Nima uchun ba'zi so'zlarning asl ma'nosi ma'lum bir maqsadli domen bilan bog'liq, degan savol tug'iladi. Bu savolga ikki narsa yoki hodisa o'rtasida o'xshashlik va uyg'unlik borligi javob bo'la oladi. Adabiyotda o'xshashlikning bir nechta turlari tan olingan: obyektiv real o'xshashlik (yonoqlardagi atirgullardagi kabi), idrok etilgan o'xshashlik va umumiy darajadagi tuzilishdagi o'xshashlik. Idrok etilgan o'xshashlikka misol qilib hayotdagi muayyan harakatlar va ularning oqibatlarini o'yinda g'alaba qozonish yoki yutqazish natijasi sifatida qaraladigan holatni olishimiz mumkin, ya'ni Hayot – O'yin. Yana boshqa misol keltiradigan bo'lsak, "Inson hayotining shakllanishi–o'simlik hayotining shakllanishi"ni konseptual metafora qilib olishimiz mumkin. Ushbu misoldagi ikki domen ham umumiy darajadagi tuzilishga ega bo'lib, ularni quyidagicha ifoda etishimiz mumkin. Har ikkisida ham vujudga keladigan borliq borki, u o'sib boradi, o'z rivojlanishining eng kuchli nuqtasiga yetganda pasaya boshlaydi, nihoyat, borliqdan g'oyib bo'ladi. Ushbu umumiy tuzilishga asoslanib, o'simlik domeni inson domeni uchun manba domen sifatida ishlashi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, o'xshashlik ushbu maxsus manbaning ko'zlangan ma'no bilan bog'lanishini izohlaydi; ya'ni metafora o'xshashlikka asoslangan, garchi o'ta mavhum bo'lsa ham.

Biroq, boshqa ko'p hollarda, bu izoh to'g'ri deb hisoblanilmaydi: manbani hech qanday tarzda nishonga o'xshatib bo'lmaydi. Konseptual metafora nazariyasi ushbu metaforalarning paydo bo'lishi uchun boshqa izoh yoki asoslarni ham taklif qiladi. Misol uchun, "Intensivlik–issiqlik" konseptual metaforasini olaylik. Bu metafora bir qator konseptual metaforalarning umumiy darajadagi shaklidir, masalan, G'azab – o't, g'ayrat–o't, ziddiyat–o't va hokazo. Muayyan tushunchalar issiqlik sifatida metaforik tarzda konseptiyalangan intensivlik o'lchovini taqsimlaydi. Bir qarashda, issiqlik tushunchasi intensivlik tushunchasi bilan hech qanday bog'liq emasdek tuyuladi. Issiqlik – biz tanamiz bilan boshdan kechiradigan narsalarning jismoniy xususiyati, intensivlik esa juda mavhum subyektiv tushunchadir (maqsad, qiyinchilik yoki o'xshashlik bilan teng). Bu yerda intensivlik uchun domen sifatida issiqlik tushunchasidan foydalanishda konseptual metafora nazariyasi intensivlik va issiqlik o'rtasidagi bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Ko'pincha, biz yuqori intensivlikdagi faoliyat bilan shug'ullanganimizda (u jismoniy yoki hissiy bo'lsin), tanamiz tana haroratini rivojlantiradi. Shu ma'noda, intensivlik issiqlik bilan bog'liq va intensivlik so'zi ko'chma ma'noda issiqlik so'zi bilan ifodalanmoqda. Umumiy darajadagi konseptual metafora intensivlik issiqlik hissiy tajriba va mavhum subyektiv tajriba o'rtasidagi bog'liqlikka asoslangan deb hisoblanishi mumkin.

Ushbu turdagi konseptual metafora Lakoff va Jonson tomonidan "asosiy metafora" deb nomlangan [12.225], ular bu atamani Jo Grediyning ilmiy ishida ham uchratishimiz mumkin [7.268]. Grediy o'z dissertatsiyasida [10.128] bir qator shunday metaforalarni tahlil qilgan, jumladan, o'xshashlik–yaqinlik, va Lakoff va Jonsonning dastlabki asaridagi [12.49] bir nechta konseptual metaforalarni xuddi shu yo'nalish bo'yicha qayta tahlil qilgan (masalan, maqsadlar–manzillar). Bundan tashqari, u "qo'shma metaforalarni" yaratish uchun bir nechta asosiy metaforalarni birlashtirishni taklif qildi. Masalan, maqsadli hayot – sayohat metaforasida maqsadlar – manzillar, qiyinchiliklar – to'siqlar va boshqalar birlamchi metaforalarga asoslanadi [12.34]. Ko'pgina konseptual metaforalar (ham o'xshashlikka asoslangan, ham asosiy metafora) "tasvir sxemalari"ga asoslanadi. Bular bizning takroriy dunyo tajribalarimizdan kelib chiqadigan mavhum, prekonseptual tuzilmalardir [13.25]. Bunday skelet prekonseptual tuzilmalariga konteyner, manba–yo'l–maqsad, kuch, vertikallik va boshqalar kiradi. Masalan, "davlatlar konteynerlardir" birlamchi metaforasi konteyner tasviri sxemasidan, "hayot bu sayohat" metaforasi manba–yo'l–maqsad sxemasidan, "hissiyatlar – kuchlar" metaforasi kuch sxemasidan va hokazo. Birlamchi metafora bo'yicha tadqiqotlar tafakkurdagi metaforalarni o'rganishni kuchaytirdi. Lakoff [12.17–38] "metaforaning neyron nazariyasini" taklif qildi. Unda miyadagi individual neyronlar "tugunlar" deb ataladigan neyron guruhlarini hosil qiladi. Tugunlar orasida har xil turdagi neyron zanjirlar bo'lishi mumkin. Metaforani tavsiflovchi "xaritalash sxemasi"da manba va maqsad domeniga mos keladigan ikkita tugunlar guruhi mavjud. Ikki guruh tugunlari orasidagi sxema xaritalash yoki yozishmalarga mos keladi. Birlamchi metaforalarda tugunlarning bir guruhi miyadagi sensorimotor tajribani, ikkinchisi esa mavhum, subyektiv tajribani ifodalaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, konseptual metaforalar mavhum tushunchalarni, turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi munosabatlarni, tilning tuzilishini, kognitiv jarayonni tushunishning muhim vositasidir. Ular bizga dunyoni mazmunliroq anglashni shakllantirish usulini taqdim etadi. Quyidagi fikrlar va mulohazalarni umumlashtirib shunday xulasaga kelishimiz mumkin, metafora faqat tilga, ya'ni oddiy so'zlarga bog'liq emas. Biz, aksincha, insonning fikrlash jarayonlari, asosan, metafora bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaymiz. Insonning konseptual tizimi metaforik jihatdan tuzilgan va ta'riflangan deganda shuni nazarda tutamiz. Metaforalar lisoniy iboralar sifatida juda muhim bo'lishi mumkin, chunki inson konseptual tizimi metaforalarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Castel B. (2015) Pattern Activation. Recognition Theory of Mind. Frontiers in Computational Neuroscience. Lausanne, EPFL, 9.
2. Cienki A. and Müller C. (2008). Metaphor, gesture, and thought. In R.W.Gibbs Jr. (ed.) The Cambridge Handbook of Metaphor and Thought, p. 483–501, Cambridge: Cambridge University Press.
3. Feldman J. and Narayanan S. (2004). Embodied meaning in a neural theory of language. Brain and Language.
4. Forceville C. (2008). Metaphors in pictures and multimodal representations. In R.W.Gibbs Jr. (ed.), The Cambridge Handbook of Metaphor and Thought, p. 462 – 482, Cambridge: Cambridge University Press.
5. Gibbs R.W. and Cameron L. (2007). Social-cognitive dynamics of metaphor performance. Cognitive Systems Research, 9, p. 64–75.
6. Goatly, Andrew. (2008). Washing the Brain. Metaphor and Hidden Ideology. Amsterdam: John Benjamins.
7. Grady J. (1997a). Foundations of meaning: primary metaphors and primary scenes' unpublished PhD, diss. Department of Linguistics, University of California at Berkeley.
8. Kövecses Z. (1995). American friendship and the scope of metaphor. Cognitive Linguistics, 6, p. 315–346.
9. Kövecses Z. (2000a). The scope of metaphor. In A.Barcelona (ed.) Metaphor and Metonymy at the Crossroads, p. 79–92, Berlin, Mouton.
10. Kövecses, Z. (2002) Metaphor. A Practical Introduction, Oxford and New York: Oxford University Press.
11. Lakoff G. (1987). Women, Fire, and Dangerous Things, Chicago. The University of Chicago Press.
12. Lakoff G. and Johnson M. (1999). Philosophy in the Flesh, New York, Basic Books.
13. Lakoff G. and Turner M. (1989). More Than Cool Reason. A Field Guide to Poetic Metaphor, Chicago: The University of Chicago Press.
14. Musolff A. (2004). Metaphor and Political Discourse: Analogical Reasoning in Debates about Europe, Basingstoke, U.K., Palgrave Macmillan.
15. Steen G, et al. (2007). MIP: A method for identifying metaphorically used words in discourse. Metaphor and Symbol, 22–1; 1–39.

Begmatova Ra'no Faxridinova (O'zDJTU dotsenti)

MADANIYATLARARO MULOQOTDA KOOPERATSIYA TAMOYINING REALLASHUVIDA LISONIY VA NOLISSONIY VOSITALAR

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslikning kommunikatsiya yo'nalishida olib borilgan bo'lib, turli millat vakillari kommunikatsiyaga kirishishganda suhbatdan ko'zlangan maqsadga–kooperatsiyaga erishish uchun verbal va noverbal vositalar, aynan, tolerantlik, konvensiya, ko'z aloqasi singari strategiya va taktikalar tahlili yoritiladi.

Аннотация. Предметом данной статьи является коммуникационный процесс, а именно обеспечение принципа кооперации в процессе межкультурной коммуникации посредством различных стратегий и тактик. В данной статье обсуждаются лингвистическая толерантность, конвенция в обеспечении кооперации как вербальное средство, а как невербальное зрительный контакт между коммуникантами.

Annotation. The process of communication is the subject of this article, with a focus on ensuring the cooperative principle when engaging in cross-cultural communication using a variety of strategies and tactics. This article discusses linguistic tolerance and convention in providing cooperation between communicators as a verbal mean and as non-verbal – eye-contact.

Kalit so'zlar: kooperatsiya, tolerantlik, konvensiya, ko'z aloqasi, strategiya, taktika.

Ключевые слова: кооперация, толерантность, конвенция, зрительский контакт, стратегия, тактика.

Key words: cooperation, tolerance, convention, eye-contact, strategy, tactic.

Nemis va o'zbek tillari sohiblari orasida kechadigan madaniyatlararo muloqotda lisoniy kooperatsiyani yuzaga keltirishda va uni saqlashda lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida ma'lum strategiya va taktikalar asosida yuzaga chiqadi.

Ma'lumki, kooperatsiya muloqot davomida yoqimli muhitni yuzaga keltiradi, ko'zlangan maqsadga erishishni tezlashtiradi va potensial agressiyani yumshatadi hamda yuz berishi mumkin bo'lgan nizoning oldini olishga yordam beradi. Kooperatsiya suhbatda muvozanatga erishish sanalib, qachonki, ularning o'xshashligi, qadriyatlarini o'xshash bo'lsagina, kooperatsiyaga erishiladi. Kooperatsiyaga erishish uchun muloqot manipulyativ faktordan xoli bo'lishi kerak. Ma'lumki, umumiy maqsadlarga erishining

yo'li kooperatsiya sanaladi. Kooperatsiyaga erishishning yo'li esa o'zaro pozitivizm, ya'ni ijobiyat ustiga qurilgan interaktsiyadir.

Maqolamiz davomida biz muloqot jarayonida kooperatsiyaga verbal vositalar orqali erishilishini misollarda kuzatamiz.

1-misol.

M.: Hallo, Entschuldigen. Darf ich Sie was fragen?

R.: Ja, klar.

M.: Was wissen Sie über Usbekistan?

R.: O, sehr gute Frage. Nicht viel aktuell.

M.: Allgemein?

R.: O. Ich bin nicht informiert, tatsächlich.

M.: Ok, ja Wissen Sie, wo sich das Land befindet?

R.: Also, ganz grob würde ich vermuten unterem Bereich Asien, Richtung östlicher Bereich Europa.

M.: Genau. Ja wie viele? Ja, welche Nachbarländer haben wir da? Ich komme aus Usbekistan. Zum Beispiel. Was denken sie?

R.: Richtung Pakistan, Iran in der Nähe.

M.: Ja, wissen Sie schon was. Was passiert ist Usbekistan gerade? Was glauben Sie?

R.: Ich denke, wahrscheinlich angespannte Lage vielleicht wie Drum Rum. Ich meine, wir haben jetzt aktuelle Entwicklungen in Afghanistan gehabt. Wirkt sich vielleicht auf Usbekistan aus.

M.: Nicht wirklich. Viele denken in Afghanistan Krieg. Vielleicht Usbekistan auch. Keine Ahnung. Ja, deswegen.

R.: Nee, genau. Ich bin leider nicht informiert bin, was die Richtung aniert.

M.: Sie kommen aus Stuttgart?

R.: Vom Dorf.

M.: Vielen Dank. Chao, Chao.

Ushbu misol internet tarmog'ining yutyub platformasidan yozib olingan bo'lib, videomaqola muallifi tomonidan dekodlashtirilgan. Bunda o'zbek vloger yigiti – Mirzoning *“Germaniyaliklar O'zbekiston haqida nima bilishadi?”* deb nomlangan ijtimoiy so'rov loyihasi doirasida Germaniyaning Shtutgart shahri markaziy ko'chalaridan birida, nemis xalqi vakillariga O'zbekiston haqida savollar berishi tasvirga olingan. Biz ushbu dialogning lisoniy kooperatsiyaga erishilganligini va uning mukammallik darajasi ta'minlanganligini tahlil qilamiz. Ushbu dialogda vloger ochiq chehra bilan salomlashib, savol berishi uchun ruxsat so'rayotganligining guvohi bo'lamiz. Ruxsat so'rash chog'ida ochiq yuz bilan, kulib turganligi kooperatsiyaga erishish maqsadida noverbal vositalarni qo'llayotganidan darak beradi.

Nemis va o'zbek millatlari orasida bo'lib o'tgan suhbatda o'zbek vlogeri o'z maqsadi bo'lgan *“Was wissen Sie über Usbekistan?”* savoliga javob olish uchun yuqorida qo'llagan kooperatsiyaga erishishning noverbal vositalarni qo'llaganligiga (ochiq yuzlilik, muloyimlik bilan savol berish) javoban nemis intervyu beruvchisi, o'zbek vlogeriga pozitivizm strategiyasining maqtovtaktikasini qo'llamoqda. O'zbek vlogerining salomlashish va savol berishga ro'xsat so'rashda namoyon bo'lgan kooperativligiga javoban nemis retpienti *“O, sehr gute Frage...”* deya, savolga javob beradi. Uning bu javobida kichik maqtovt izhor qilayotganligini kuzatish mumkin. Bu kichik maqtovt orqali u maqtovtaktikasini qo'llamoqda. Ushbu taktika orqali o'zining O'zbekiston haqida ma'lumoti kamligini yumshatish va ma'lumotga ega emasligiga ijobiy reaksiyaga erishish uchun qo'llamoqda.

Biz maqtovt so'zi izohiga to'xtalar ekanmiz, shunga amin bo'ldikki, maqtovt bu biror shaxsning yaxshi tomonlarini va fazilatlarini ko'rsatishni¹ anglatishi bilan birga u yaxshi qilib ko'rsatmoq va boshqalarga o'rnak bo'lish uchun yutuqlari va xulqi uchun izhorini anglatadigan xatti-harakatdir.

Maqtovttaktikasini o'rgangan olimlar sarasiga T.Ahler, O.S.Issers, T.V.Larina, Z.F.Galimova, O.A. Agarkova, V.S.Anoxina va boshqalarni kiritish mumkin.

Bizning tahlillarimizda esa pozitivizm taktikalaridan biri sifatida ochib beriladi. Foydali ish qilgan shaxsni va jamoani og'zaki taqdirlashdir va uning asosiy maqsadi, kimningdir ishiga ijobiy baho berishlar. Kompliment esa boshqa insonga o'zining yaxshi his-tuyg'ularini va simpatiyasi borligini yetkazish.² Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, maqtovtvni kompliment bilan almashtirmaslik lozim. Komplimentda sub-

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том, 1981, 456-бет.

² Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. Моногр., М., 2006, с. 176.

yektivizm, ya'ni ko'ngil ishi mavjud. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ko'ngil oq bo'lishi va qora ko'ngilli bo'lishi mumkin. Maqtov esa obyektivligi bilan ajralib turadi. Maqtov taktikasi, odatda, suhbatdoshga ta'siri mavjudligi bilan bilan birga, rag'batlantiruvchi xususiyatga ham egadir. Maqtov va kompliment ma'qullashga xizmat qiladi. Agar so'zlovchi komplimenini qo'llasa, u eshituvchiga yaxshi ijobiy baho berish orqali uning emotsional holatiga ta'sirini o'tkazish uning asosiy maqsadi sanaladi. Insonlararo muvozanatni muvozanat holatiga keltirishdir. Shuningdek, tinglovchini o'ziga iydish va uning simpatiyasini uyg'otish maqsadlariga ham xizmat qiladi.

Demak, madaniyatlararo muloqotda umumiy kommunikatsiya jarayoniga aloqador xususiyatlar uchraydi. Aynan ustanovka sanaladigan kooperatsiyani ta'minlash uchun maqtov taktikasidan ham o'rinni foydalanish zarurati mavjud. Pozitivizm strategiyasi yuzaga chiqaruvchi taktikalardan biri bu maqtov taktikasi. Shuningdek, kooperatsiyaga erishishning noverbal vositasi sifatida vloger yigit Mirzo suhbatdoshiga gavdasini engashtirib gapirishi ham o'zining u bilan ekanligini, uni jon qulog'i bilan eshitishga tayyorligini, uning muloqot boshqaruvchisi rolini nemis suhbatdoshiga uzatishga tayyor ekanligini keltirish mumkin.

Demak, ushbu dialogda kooperatsiya nafaqat verbal, balki noverbal vositalar yordamida ham yuzaga chiqmoqda. So'zlovchi gavda harakatlari orqali ham hamjihatlikni ta'minlash imkoniyatiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

2-misol.

M.: Machst du deine Maske wegmachen. Kommst auch oder nicht? Ach, ja. Was weißt du über Usbekistan?

E.: Überhaupt nix.

M.: Überhaupt nichts? Okay Usbekistan ist ein Land.

E.: Ja, okay.

M.: Ja, was vermutest du, wo befindet sich dieses Land ungefähr?

E.: Da... wo... keine Ahnung...

M.: Ja, viele Länder mit -istan

E.: Ja, keine Ahnung. Ich weiß es nicht.

M.: Wie heißt du?

E.: Emma.

M.: Emma, wie alt bist du?

E.: 11.

M.: Okay, du gehst dann in eine fünfte Klasse.

E.: Ja, also die sechste jetzt gekommen.

M.: Ok. Magst du keine Geographie?

E.: Nein, ich habe gern.

M.: Hast du schon mal über Zentralasien gehört?

E.: Nein, also Asien schon, aber Zentralasien nur nicht.

M.: Ja was denkst du? Welche Länder gibt es in Asien also.

E.: Also Vietnam vielleicht.

M.: Vietnam? Ja, auch.

E.: Ja, ich weiß nicht.

M.: Asien ist sehr groß ja.

E.: Also wahrscheinlich als das Land was sie gesagt haben Usbekistan?

M.: Ja.

E.: Ja, kann man sagen so.

M.: Ja, ich weiß nicht.

E.: Alles Gute!

M.: Danke schön, Tschüss!

E.: Chao, Chao.

Mazkur spontan dialog ishtirokchilari sanalgan loyiha muallifi Mirzo va 11 yoshli Emma orasidagi muloqotda so'ssiz konvensiya, ya'ni shartlashuv yaqqol namoyon bo'lmoqda. Emmada savollarga javob bo'lmasligiga qaramasdan, u dialogni to'xtatishni hurmatsizlik deb biladi va muloqotni to'xtatishga harakat qilmaydi. Shunga qaramasdan, unda kooperatsiyani mukammallikka chiqarish istagi bor, bunga savolning javobini bilmasligini aytmoqda.

Bizning fikrimizcha, Emmaning soʻzlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, qiz oʻziga nisbatan majburiyatni his qiladi. Uning fikricha, savol beryapdimi, demak, javob berishligi lozim. Bu holat konvensiyadan darak beradi. Insonlar oʻrtasida maʼlum bir tilga chiqmaydigan bitim mavjud. Emma unda maʼlumot etmasligiga qaramasdan, suhbatni choʻzish oʻrniga suhbat qanday kechishi tanlovini boshlovchiga qoldirmoqda. Xususan, suhbatda dominant boʻlgan Mirzoga tashabbusni uzatayotganligining guvohi boʻlamiz. Muloqot tugugandan soʻng nima boʻlishini tahmin qilar ekanmiz, Emma uyiga borib ota-onasidan, yoshi kattalardan yoki maktabda oʻqituvchisidan Oʻzbekiston haqida soʻrashiga imonimiz komildir. Chunki, fikrimizcha, unda oʻzi bilmagan, oldin eshitmagan davlat haqida oʻrganish qiziq. Nemis millati vakillarida refleksiya kuchli ekanligi maʼlum, ular oʻz individual xayotida nima sodir boʻlsa albatta uyiga borib qaytaradi, maʼlumot yigʻadi, qiziq voqealarni aytib beradi.

Tahlilimiz davomida, kooperatsiyani taʼminlanishda lingvistik tolerantlikning oʻz oʻrni mavjudligini aniqladik va buni quyidagi misol orqali isbotlaymiz.

3-misol.

M.: Jawohl, Ja, Servus mein Lieber Gerhard!

G.: Ja, grüße Gott! Sagt man bei uns in Bayern, lieber Mirso! Bayrische Männer sagen so! Ich freue mich, dass du heute hier bist in München.

M.: Danke.

G.: Dass du uns besuchst.

M.: Danke, vielen Dank! Für diese Gastfreundschaft oder so was.

G.: Wir freuen uns ja, dass du da bist.

M.: Danke, Ja, lieber Gerhard. Wir haben uns in Usbekistan kennengelernt. Es ist schon zwei Jahre vorübergegangen. Es war am 2016 Jahr ja?

G.: Ja, richtig.

M.: Es war Praesidentenauswahl.

G.: Genau

M.: Und ich habe ein Paar Fragen. Wann waren Sie zum ersten Mal eigentlich in Usbekistan? Ich denke damals war nicht zum ersten Mal. Oder?

G.: Nein, das war schon ein bisschen später. das stimmt. Meine erste Reise war im September 2011. Das ist schon ein bisschen länger her gewesen meine private Reise zu Freunden nach Usbekistan. Nach Taschkent.

M.: Ok

G.: Und diese Reise hat mich so beeindruckt, dass ich bis heute ein großer Fan von Usbekistan bin. Ich habe dieses Land kennengelernt mit so großer Freude und Dankbarkeit gebe ich das zurück.

M.: Wie viele Male waren sie in Usbekistan eigentlich. Schon achtmal oder. Was haben sie bekommen, mitbekommen, mitgenommen in Usbekistan?

G.: Das besondere war für mich die Große Gastfreundschaft.

M.: Ja. ...

Ushbu dialogda nemis millatiga mansub suhbatdoshning (Gerhard) ona tilisi nemis tili boʻlmagan suhbat sherigining nutqida xatolar mavjudligiga koʻz yumganligining guvohi boʻldik. Masalan: Mirzo nemis suhbatdoshiga birinchi marta Oʻzbekistonga u qachon kelganligini soʻradi va oʻzi tezlik bilan javob berdi: “Siz, prezident saylovlari boʻlganda kelgansiz”, ammo prezident saylovlari jumlanisini nemis tilida yanglish ifodaladi “Es war Praesidentenauswahl”, yaʼni *wahl* soʻzining oʻrniga *auswahl* soʻzini ishlatdi. Ushbu soʻzlar maʼno jihatdan bir-biriga yaqin boʻlganligi va tushunishga imkoniyat mavjudligi sababli, nemis soʻzlovchisi xatoni toʻgʻirlamadi, va suhbatni davom ettirib ketdi. Bu uning oʻzbek suhbatdoshi oʻzi xohlagandek nemis tilini bilish darajasi oʻta yuqori boʻlmasligi va bu qoʻrqinchli holat emasligini anglagan holda, tolerantlikni namoyon qilayotganining guvohi boʻlamiz.

Biz quyida yuqorida uchratgan tolerantlik strategiyasini yoritib oʻtishni lozim topdik. Tolerantlik atamasi jamiyatshunoslikda boshqa insonning dunyoqarashiga, hayot tarziga, hulq-atvoriga va urf-odatlariga boʻlgan sabrlik, chidamlilik, bardoshlilikni anglatadi. Ammo, tolerantlik loqaydlik, beparvolikka tengmasdir. U boshqa insonning dunyoqarashini, hayot tarzini qabul qilish degani emas, balki ularga oʻzlarining dunyoqarashidan kelib chiqib yashashga qoʻyib berishdir.

Tolerantlik madaniyatlararo muloqotda kooperatsiyani yoʻlga qoʻyishda katta oʻrin tutadi. Madaniyatlararo aloqalarda boshqa madaniyatlarning urf-odatlarini, hulq-atvori, va boshqa jihatlarida oʻz halqinikidan oʻzgachaliklari mavjudligi, ularga nisbatan tolerantlikni oʻzida tarbiyalashni taqozo etadi. Chunki, tolerantlik oʻziga, oʻzining pozitsiyasi mustahkamligiga boʻlgan ishonchdir, oʻz dunyoqarashining bosh-

qalarniki bilan solishtirishdan qo‘rqmaydigan va ma’naviy raqobatdan qochmaydigan, mafkuraviy oqimlar uchun ochiqliqning belgisidir.

Madaniyatlararo muloqotda boshqa insonning nutqiga, undagi xatoliklarga ko‘z yuma olish, vaqti kelganda, tug‘irlab ketish kooperatsiya jarayonini silliq, uzliksiz kechishini ta’minlovchi omillardan biridir. Tilshunoslikda tolerantlik lingvokulturologik, sotsiolingvistik va kommunikativ kategoriya sifatida o‘rganiladi. Lingvistik tolerantlik deganda shaxsning o‘zidan farqlanadigan boshqa insonlar bilan muloqotida verbal va nonverbal nutq vositalar to‘plamining qo‘llashi tushuniladi. Tolerantlik muloqot muvaffaqiyatli kechishining asosidir. Tolerantlik inson o‘zini tutishining ma’lum bir paradigmasini yaratganligi sababli unga regulativ vazifani bajarish xosdir.

Tolerantlik kommunikativ kategoriya sifatida tasniflanar ekan, uning kognitiv, pragmatik va etik asoslarga qurilishi aniqlangan.¹ Bunda kognitiv asos deganda “begonalilik” kategoriyasi, ya’ni, “svoychujoy”ni qarama-qarshi qo‘yish va “identichnost”ni namoyon bo‘lishi tushuniladi. Bunda, kommunikant tomonidan “o‘zining davrasi” boshqa davralardan ajratiladi, chegaralanadi va bu *biz*, *bizniki* – *siz*, *sizniki*, *ular*, *ularniki* olmoshlarini qo‘llash orqali amalga oshadi. O‘zini boshqalardan qo‘pol tarzda, jiddiy olib chegaralash, muloqotda keskinlikni paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Tolerantlikning pragmatik asosi deganda suhbat ishtirokchilarining muloqot jarayonida o‘zini tutishi, xatti-harakatlari tushuniladi. Tolerantlikning etik asosi deganda esa motivatsiya angalashiladi.

Shunday qilib, madaniyatlararo muloqotda, kooperatsiya tamoyiliga amal qilish maqsadida, lingvistik tolerantlikdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Nutqda kooperatsiyani ta’minlashning nonverbal taktikalaridan biri sifatida ko‘z kontaktini saqlashdir. Nemis xalqi bilan so‘zlashganda ko‘z aloqasini saqlash zarurati mavjud.

**Sagatova Muborak Payziddinovna (English teacher at the Uzbekistan State World Languages University),
Raxmonova Marxabo Ag‘zam qizi (2-year master at the Uzbekistan State World Languages University)
THE SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK INTERROGATIVE PRONOUNS**

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi so‘roq olmoshlarining semantik xususiyatlari borasida so‘z boradi. Muallif so‘roq olmoshlarini to‘rt leksik-grammatik guruhga ajratib tasniflaydi. Shuningdek, kim? va nima? so‘roq olmoshlarining semantik xususiyatlari misollar bilan yoritib beriladi.

Аннотация. В статье рассматривается семантическая структура английских и узбекских вопросительных местоимений. Автор представляет четыре лексико-грамматические группы вопросительных местоимений. Кроме того, семантическая структура вопросительных местоимений кто? и что? поясняется примерами.

Annotation. The semantic structure of English and Uzbek interrogative pronouns is discussed in this article. The author presents four lexical grammatical groups of interrogative pronouns. Moreover, the semantic structure of the interrogative pronouns who? and what? is explained with examples.

Kalit so‘zlar: so‘roq olmoshlari, semantik xususiyatlar, vazifa, tavsif, turlar, leksik-grammatik, so‘roq.

Ключевые слова: вопросительные местоимения, семантическая структура, функция, характеристика, разряды, лексико-грамматический, вопросительный.

Key words: interrogative pronouns, semantic structure, function, characteristics, category, lexical-grammatical, question.

Interrogative pronouns, just as the term suggests, are pronouns that express information of interrogations. They are the important means of transmitting enquiring information and the study of interrogative pronouns is now playing a decisive role in the linguistic field.

Interrogative pronouns are the most basic means of forming interrogative sentences in all languages, including English. They have a very general abstract meaning, like other words belonging to the pronoun group. Interrogative pronouns, like other types of pronouns, do not directly name things-objects, signs-characteristics, etc., which make up different specific elements of reality, but refer to them in a general way. However, interrogative pronouns differ from other types of pronouns in that they refer to things, objects, signs, etc. Ex: what did you buy from the supermarket? In the sentence, the interrogative pronoun “what” not only refers to some subject in a general way, but also structurally and semantically indicates a

¹ Вацковская И.С. Понятие «толерантность» в лингвистике. Развитие современной науки: теоретические и прикладные аспекты. 2018, № 26, с. 156 – 159.

question. In this case, the goal of the adjuster is to identify the unknown subject indicated by the interrogative pronoun “what” and to get information about it from the listener. This unknown subject is identified by the listener’s response:

The interrogative pronouns used to form an interrogative sentence are divided into the following groups according to their lexical and grammatical characteristics:

- interrogative pronouns of noun character;
- interrogative pronouns of adjective character;
- interrogative pronouns of number character;
- interrogative pronouns of adverb character.

Each of these groups will have all the characteristics of the group of words:

- 1) the interrogatives that characterizes nouns are: who? kim? what? nima?
- 2) adjectives interrogative pronouns: what? qanday? qanaqa?
- 3) Interrogative pronouns characterising number category are: how many? necha? nechanchi? how much? qancha?
- 4) Interrogative pronouns characterising adverbs are: how? qanday? how, where? qayerda? Qayerga? when? qachon? why? nimaga? nima uchun?

Therefore, interrogative pronouns, due to their character, perform the function of a definite clause in an interrogative sentence and are considered a necessary element of this interrogative sentence. Therefore, they are considered the most suitable lexical tool for forming interrogative sentences.

Sometimes, not one but several interrogative pronouns take part in the composition of interrogative sentences. At this time, the speaker asks the listener to provide information about a number of unknown things. For example: who has a good friend (Abdaluna. 188). When are you going to the university? (Skill up. p. 12). Why do you go there? (Kaishanisky. 189).

Depending on the type of interrogative pronouns, their semantic-grammatical features, the communicative-grammatical meaning and structure of interrogative sentences are different. Special questions are those questions that ask for details. Special questions are also called Wh-questions as most of them start with “wh”. For example: What? Which? When? Where? Why? Whose? Other special questions include: How? How many? How much? Special questions require inversion, like general questions. Where are you from? Answer: I am from India. What are you wearing on your head? Answer: I’m wearing a hat or It’s a hat!

Interrogative pronouns singly or combined with other words perform the function of the definite article of interrogative sentences (possessive, participle, determiner, complement, case). Ex: What is your father? He is a doctor. What did the student do yesterday? How did it happen, Sam? What do you read? What is it? What is this? What does she do? What is her profession? What is going on here?

As to their structure English and Uzbek interrogative pronouns are almost the same: Who?- kim? They are the same. Whom is an object form of the who. A little difference here is in the Uzbek language whom has 4 forms. They are: kimni, kimga, kimda, kimdan. Whose? – kimning? – there is no difference between them. Because they are in a genitive case. What? – nima? They are the same as to their structure in both languages. Which?- qaysi?- they are the same as to their structural types.

About the semantic types of the interrogative pronouns, they are the same in the compared languages. For example, the word which asks the subject of the action is who? In the Uzbek language, kim? is used for asking subject of the sentence. Who left the door opened? Kim eshikni ochiq qoldirdi? Whom? gives the same meaning as kimni, kimda, kimga, kimdan. Whom do you like the most? Kimni eng ko’p yoqtirasiz? Whose? also the same as to their semantic: Whose car is that? Bu kimning mashinasi? Which is also similar to qaysi?: Which is your friend? Qaysi biri sizning do’stingiz? So, they are similar to each other as to their semantic features.

The interrogative pronoun who is used only for people. The interrogative pronoun who has the category of agreement and is used in three agreements:

- a) in the nominative case;
- b) in possessive case (possessive case);
- c) in the objective case.

So, the remaining of the interrogative pronoun who in the sentence shows that some person is unknown to the adjuster. The purpose of the interrogative sentence is to identify this unknown person. This unknown person becomes concrete through the answer of the listener. Ex: –Who is this girl? Who is an actor? Who are doctors? -Who is ready for the lesson? (V.L.Kaushanskya. p. 102).

The pronoun *who*, being an interrogative pronoun in the form of a noun, is classified as a noun. This condition ensures that it is connected with other words in the sentence and can appear in the sentence in different syntactic functions.

Interrogative sentences formed using the pronoun *who* can serve to identify the following unknown elements of thought.

It is aimed at identifying the subject of an action or characteristic. In this case, the pronoun *who* acts as a possessor. The participle of such interrogative sentences can be expressed by a verb or a noun. If the participle is expressed by a verb, the interrogative sentence expresses a question about the person performing the action understood from the participle. Ex: *who gave you this interesting book? Who made you go there so late?* (E.M.Gordon. 302).

Interrogative sentences formed using the pronoun “*what*” are distinguished among interrogative sentences with pronouns in terms of their function and structure. This case is determined by the feature of the pronoun *what*. Interrogative sentences formed using the pronoun “*what*” can express questions not only about an unknown object or event, but also about the reason, purpose, etc. of the action. Depending on this feature, there are several types of interrogative sentences formed using the pronoun *what*.

Asks about an unknown object to the adjuster:

What was the plan? (The Adventures of Tom Sawyer).

Such interrogative sentences are used to identify the following unknown elements of thought.

It remains to identify the subject of an action or feature. In such interrogative sentences, the pronoun “*what*” functions as possessor. Their part can be expressed by a verb or a noun. If the part of the sentence is expressed by a verb, the purpose of the question is to determine the subject-subject performing the action understood by the part of the verb. For example:

“What are so many people doing?” Kecakpolvon asks (T.Malik. Shaytanat. p. 121) – What is under the water? Mermaid (from a fairy tale).

If the part of the sentence is expressed by a noun, the purpose of the question is to determine the subject-subject that has the characteristics understood from the part of the noun. Ex: -What is bad and what is good?

It remains to determine the object of the action. In such interrogative sentences, the pronoun *what* acts as a complement. Ex: *What are you afraid of? What's your address there?* (Th. Dreiser). *What will she do for me?* (R. Kipling). “What is your line”, asked Harry (Th. Dreiser). “What's the matter, Carrie”, said Hurstwood after a while, noticing her quiet, almost moody state. “That's what I want to know” (H.I. Wells).

In conclusion interrogative pronouns take part in the composition of interrogative sentences with pronouns. Therefore, first of all, general and specific aspects of interrogative pronouns were classified.

Interrogative pronouns are the most basic means of forming interrogative sentences in all languages, including English. They have a very general abstract meaning, like other words belonging to the pronoun group. Interrogative pronouns, like other types of pronouns, do not directly name things-objects, signs-characteristics, etc., which make up different specific elements of reality, but refer to them in a general way. However, interrogative pronouns differ from other types of pronouns in that they refer to things, objects, signs, etc. For example, *what did you buy from the market?* In the sentence, the interrogative pronoun “*what*” not only refers to some subject in a general way, but also structurally and semantically indicates a question. In this case, the goal of the adjuster is to identify the unknown subject indicated by the interrogative pronoun “*what*” and to get information about it from the listener.

References:

1. Gordon E.M., Kirilova I.P. A grammar of Present-day English. M., 1974.
2. Рестан П. Синтаксис вопросительного предложения. Осло, “Публишер”, 1972, 880 с.
3. Сергеева Т.А. Риторические вопросы как эмоциональные высказывания в немецкой диалогической речи. Дисс... канд. филол. наук, Саранск, 1993, 196 с.
4. Kaushanskaya V.L., Kovner R.L. A grammar of the English language. M., 1973, 20 p.
5. Хонназарова М.М. Сурок гапларда шакл ва мазмун номувофиклиги. Номз.дис., Тошкент, 1999, 156 бет.
6. Бердник Л.Фю. О семантике вопросительного предложения. Проблемы грамматической семантики. Ростов-на-Дону, изд-во Ростовск. гос.уни-та, 1978. с. 30 – 36.
7. Бўронов Б.Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. “Ўқитувчи”, Т., 1973, с. 283.

Jo'rayev Jamoliddin Aminjonovich (Jizzax davlat Pedagogika universiteti O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

HAYDAR XORAZMIYNING MIRZO ULUG'BEKGA ATAB YOZGAN QASIDASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Haydar Xorazmiy tomonidan Mirzo Ulug'bekga atab yozilgan bir qasidasi o'rganilgan. Qasida Eron milliy kutubxonasida saqlanadi. Qasidani turkiyalik olimlar tomonidan bir necha marta o'rganganlar. Biz shoir qasidasi bilan Sakkokiy va Shayxzoda Abdurrazzoq baxshilarning qasidalari bilan qiyoslagan holda tadqiq etdik.

Аннотация. В данной статье исследуется ода, написанная Хайдаром Хорезми Мирзо Улугбеку. Касида хранится в национальной библиотеке Ирана. Поэма несколько раз изучалась турецкими учеными. Дается сравнительный анализ оды поэта с одами Саккоки и шейхзаде Абдулраззака Бахши.

Annotation. In this article, an ode written by Haydar Khorezmi to Mirzo Ulugbek is studied. The qasida is kept in the National Library of Iran. The poem has been studied several times by Turkish scholars. We compared the poet's ode with the odes of Sakkoki and Shaykhzada Abdurrazzaq Bakhshi.

Kalit so'zlar: qasida, mavlono, turkiy, baxshi, sakka, minbar, shoirlar, turk, g'azal.

Ключевые слова: касида, мавляна, турецкий, бахши, сакка, трибуна, поэты, турк, газели.

Key words: qasida, maulana, Turkish, bakhshi, sakka, minbar, poets, gazelle.

Temuriylar davrida fan va madaniyatning taraqqiy etishining adabiyot sohasida ham ko'rinadi, adabiyot va san'atning yuksak cho'qqiga chiqishida Mirzo Ulug'bekning hissasi biqiyosdir.

XV asrda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, adabiyot, san'at va madaniyatning XII–XIII asrlarga nisbatan keng taraqqiy etishi tasodifiy bir hol emas edi. Chunki Amir Temur tomonidan asos solingan temuriylar davlatining poytaxti Samarqandga dunyodagi o'z kasbining mohir usta va naqqoshlari, shoir va xattotlari yig'ildi hamda keyingi davrlar uchun ham bu manba vazifasini o'tadi. Shuning uchun ham Samarqandda, keyinchalik, ikkinchi poytaxt sifatida tashkil topgan Xurosonning Hirot shahrida san'at va adabiyot sohalarining eng mashhur namoyandalari yetishib chiqdi.¹

Bu davrda Samarqand va Hirotda Amir Temur an'analari davom ettirilib, bu poytaxt shaharlarda olim-u fuzalolar, shoir-u bastakorlar, me'mor-u binokorlar va naqqosh-u moxir hunarmandlarning kattagina guruhi to'plangan edi. Movarounnahrda, xususan, Samarqandda ilm-fan va san'atning taraqqiyotida zamonasining madaniy muhitida tarbiyalanib, yoshligida mashhur olim saroyida shuhrat qozongan Ulug'bekning o'rni va hissasi nihoyatda buyuk bo'ldi.²

XIV–XV asrlarda turkiy adabiyotining namoyandalari Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy Gadoyi kabi buyuk shoirlar yashab ijod qilganlar. Ular to'g'risida Alisher Navoiy o'z asarlarining turli o'rinlarida ma'lumot va ijodi xususida fikrlarini yozib qoldirgan. Jumladan, "Muho-kamat ul-lug'atayin"da: "To mulk arab va sort salotinidin turk xonlarg'a intiqol topti, Huloguxon zamonidin sultoni sohibqiron Temur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh Sultonning zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar va ul Hazratning avlod va ahfodidin ham xushtab' salotine zuhurga keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoyideklar".³

Haqiqatdan ham, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytdagda, zuhurga kelgan turkiyo'y shoirlar ichida Mavlono Sakkokiy alohida o'ringa ega. Sakkokiy XIV asrning oxirgi choragi va XV asrning birinchi yarmida Movarounnahda yashab ijod etgan turkiyo'y shoirlaridandir. Shoirning yashagan davri, asosan, Movarounnahrda Xalil Sulton (1405–1409) va Ulug'bekning (1409–1449) hukmronlik qilgan davrlariga to'g'ri keladi.

Sakkokiyning hayoti to'g'risida to'liq ma'ulmot yo'q. Uning asarlarining mazmuniga qarab uning qaysi davrda yashaganini bilish mumkin. Sakkokiyning qasida yozish darajasiga ko'tarilganiga qarab, uni

¹ Хасанова М. XV аср туркий шеърятда қасида жанри. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, 2018, 83-бет.

² Суёнов С.Х., Суёнова К.С. Мирзо Улуғбек мактабининг комил инсонни шакллантиришдаги ўрни. "Мирзо Улуғбекнинг жаҳон илм-фани ривожига қўшган ҳиссаси" номли Мирзо Улуғбек таваллудининг 615 йиллиги ва 2009 халқаро астрономия йилига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари, Ўзбекистон Фанлар академияси "Фан" нашриёти, 2009 йил, 99-бет.

³ Аlisher Navoiy. Muho-kamat ul-lug'atayin. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. Тошкент, 2000, 25-бет.

XIV asrning oxirgi choragida tug‘ilgan deb taxmin qilish mumkin. Xalil Sulton davlat tepasidan chetlatilgandan so‘ng Sakkokiy Ulug‘bek saroyida ijod qilgan”.¹ Uning Xalil Sulton va Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlab yozgan qasidaları mashhur.

Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayin”da ta‘riflagan ijodkorlardan yana biri Haydar Xorazmiydir. Uning mumtoz turkiy adabiyotda o‘zining “Gulshan ul-asror”, “Gul va Navruz” hamda “Me‘rojnoma”si va bir qasidasi bizgacha yetib kelgan.

Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror”, “Me‘rojnoma” va “Gul va Navro‘z” nomli asarlari borligi ilmiy jamoatchilikka ma‘lum va mashhurdir. Ammo uning Sakkokiyning Mirzo Ulug‘bekga atab yozgan qasidasiga nazira tarzida o‘ttiz baytli qasidasi kam o‘rganilgan. Xususan, M.Hasanovanning “XV asr turkiy she‘riyatda qasida janri”² mavzusidagi dissertatsiyasida Haydar Xorazmiyning mazkur qasidasi borligi aytib o‘tgan. Turkiyalik olimlar tomonidan qasidaning bir necha jihatlari tadqiq etilib, kitob va to‘plamlarda nashr qilingan. Jumladan, qasida ilk bor Kamol Eraslan tomonidan Sakkokiy devonini tadqiqiga oid asari “Mevlana Sekkaki divani” nomli kitobiga kiritilgan. Keyinchalik, Ayshagul Setqoyaning “Shayhzade Abdurrazak bahshi hayati va eserlari” nomli tadqiqot ishiga Haydar Xorazmiyning mazkur qasidasi matnini kiritgan. Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi asli Movorounnahrlik ijodkorlardan bo‘lib, Usmonli turk davlatida u “Baxshi”, “Baxshi qul”, “Turkiston baxshisi” va “Baxshiyi Turkistoniy” nomlari bilan mashhur bo‘lgan. U Istanbulga borib, Fotih Sulton II Mahmud va uning o‘g‘li Boyazid saroyida kotiblik ishlari bilan shug‘ullangan va ijod qilganligini Ayshagul Sertqoyaning tadqiqotlaridan ma‘lum. Ayshagul Sertqoyaning yozishicha: “Shayx Abdurazzoq Baxshi, Fotih Sulton II Mahmud va uning o‘g‘li Boyazidning saroyida yashagan, ularga maktub (bitig) va farmon (yorliq) larni uyg‘ur va arab harflarida, shuningdek turkcha (yozuvda) ham yozgan. U Samarqandan Istanbulga kelgan bir kotib (baxshidir).

Shayxzoda Abdurazzoq Baxshining uchta uyg‘ur va oltita arab harflari bilan yozgan nusxalari ichida Adib Ahmadning “Atibat ul-haqoyiq”ning, Mir Haydarning “Maxzan ul-asror”i (“Gulshan ul-asror”), Lutfiyning 9 va Sakkokiyning 3 g‘azali bilan Fotih Sulton Mahmudning yorliqlar bor. Abdurazzoq Baxshining hayoti haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q. Uning tahallusi “Baxshi”, “Baxshi qul”, “Turkiston baxshisi” va “Baxshiyi Turkistoniy” nomlari bilan ataganlar”.³

Sakkokiy va Haydar Xorazmiydan keyin Mirzo Ulug‘bekga bag‘ishlab qasida yozgan shoirlardan yana biri Abdurazzoq Baxshidir. Sakkokiy qasidasi qirq bir bayt, Haydar Xorazmiyniki o‘ttiz bayt, Abdurazzoq Baxshiniki esa o‘n yetti baytdan tashqil topgan.

Komila Chetin Haydar Xorazmiyning mazkur qasidasini Nizomiyning qasidasiga nazira sifatida yozilganligi haqida ma‘lumotlar beradi. U Haydar Telbaning 850/1450-yil istinsohlari bilan “Muntahab ul-ash‘or” nomli to‘plamda 30 baytdan iborat qasidasi aniqlangan va Eron Milliy kutubxonasida ro‘yxatga olingan yagona ma‘lum asari.⁴

Biroq, turkiyalik olim Ayshagul Sertqoya tomonidan “Shaxzoda Abdurazzoq baxshi hayoti va asarlari” nomli kitobida Mir Haydar Xorazmiyning Sakkokiy qasidasiga nazira yozilganligi haqida ma‘lumot beriladi va Haydar Xorazmiyning 30 baytli qasidasi turk tilida transkripsiyasi keltiriladi. Shu bilan birga, Sakkokiy va Haydar Xorazmiy qasidalarini qiyoslash natijasida qasida Sakkokiyning qasidasiga bag‘ishlanganligini aniqlashtiradi.

Asar qo‘lyozma holatda Eron milliy kutubxonasida 647-raqam ostida saqlanadi. Mirzo G‘ofur Tabriziy Boyso‘ng‘urning hijriy 850-yili (1450-melodiyda) “Muntahab ul-ash‘or” nomli majmuasiga kiritilgan.

Tehron milliy kutubxonasi mudiri doktor Mehdi Bayoniy tomonidan Tarxon Ganjaviy tayyorlagan matn transkripsiyasini “Taqizoda armug‘oni” nomli to‘plamda nashr qildirdi.⁵ Usmon Fikriy Sertkaya tarafidan uyg‘ur yozuvidan transkripsiyasi tayyorlagan.⁶

Haydar Xorazmiyning bu qasidasi Sakkokiyning Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlab yozilgan 41 baytli qasidasiga naziradir. Shuningdek, Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi tomonidan ham Sakkokiy va Haydar

¹ Саккокий. Танланган асарлар. ЎзССР давлат адабиёт нашриёти, Тошкент, 1958, 5 – 6-бетлар.

² Хасанова М. XV аср туркий шеърятда қасида жанри. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, 2018, 83-бет.

³ Ayşa Gül Sertkaya. Şayh-zade Abdurrazak bahshi hayati va eserlari. Istanbul, 1997, 3, 5-бет.

⁴ Kamile Çetin. Haydar tilbe, Mir Haydar. Divan. Yazılı Edebiyat. Başlangıç-15, Yüzyıl, Çağatay. 06.11.2020.

⁵ Gandjei T. Not on an unknown poem of Haidar in Uighur characters. A Locust’s Leg, Studies in Honour of S. T. Taqizade, p. 64 – 69.

⁶ Ayşa Gül Sertkaya. Şayh-zade Abdurrazak bahshi hayati va eserlari. Istanbul, 1997.

Xorazmiylarning qasidasidan ta'sirlanib, Mirzo Ulug'bekga atab o'n yetti baytli qasida yozgan. Uchala qasida qiyoslaganda quyidagi o'xshashliklar ko'zga tashlanadi:

Sakkokiy:

*Torumtay, qarqunaq, qirg'iy-u bayg'u-y, gar solur bo'lsang,
Olur cherig'-u aylar nasr-u tutar fath-u zafar ovlar.¹*

Haydar Xorazmiy:

*Torumtay, ko'ykanak, qirg'i boquga tarbiyat qilsang,
Uqob-u, karkash-u, burgut qachirni eslamas ovlar.²*

Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi:

*Torumtoy, ko'kanak, qirg'u boqug'a tarbiyat qilsang,
Uqob-u karkas-u, burgut, qachirni eslamay ovlar.³*

Ijodkorlarning ushbu baytlarining shakl va mazmun jihatdan bir xil bo'lishini Haydar Xorazmiy va Shayxzoda Abdurazzoq Baxshilarning Sakkokiy qasidasidan ta'sirlanib yozganligini yuqoridagi misollardan ko'rinib turibti. Ushbu bayti uch ijodkor qasidalarining turli o'rinlarida keladi. Sakkokiyda 33 bayt, Haydar Xorazmiyda 28 bayt, Abdurazzoq Baxshida 3 baytda.

Sakkokiy:

*Sening alqobu ism-u kunyat-u avsofi zotingdin,
Muzayyan nomavu tavqi', muzahhab yorlig'-u daftar.*

Haydar Xorazmiy:

*Ulug' alqob-u avsof-u duoi midhating birla,
Musharraf sikkavu xutba, muzayyan masjid-u minbar.*

Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi:

*Ukush alqob-u avsof-u duoi midhating birla,
Musharraf sikkav-u xutba, muzayyan masjid-u minbar.*

Bu bayt uch shoir qasidasida ham bir xil vaznda kelgan. Biroq, har bir shoirning baytlarida o'ziga xos ravishda ijodiy yondashganligini kuzatish mumkin. Ijodkorlarning qasidadagi g'oyasini ikki xil taxmin qilish mumkin.

Birinchi talqin. "Sikka" so'zining "tanga", "muhr" kabi ma'nolari bor. "Musharraf sikkavu xutba, muzayyan masjidu minbar" misra'sini shunday tushunish mumkinki, "Musharraf sikka"—"sharafli tanga", "xutba muzayya"—"masjidda juma va hayit kunlari xutba o'qiladigan joy", "masjidu minbar"—"masjid va minbar tayyorlangan". Ya'ni, Mirzo Ulug'bek shohlik taxtiga o'tirgandan keyin, uning nomidan tanga zarb qilinishi va juma kuni xutbada shohning sha'niga uchun maqto'vlar nazarda tutilgan.

Ikkinchi talqin. Sakkokiyda "Sening" so'zi Haydar Xorazmiyda "Ulug'" shaklida va Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi qasidasida "Ukush" shaklida yozilgan. Yana Sakkokiyda "Muzayyan noma", Haydar Xorazmiy va Shayxzoda Abdurazzoq Baxshida "Musharraf sikka" deb ifodalangan. Misradagi "sikka" so'zini arab tili qoidasiga "sakka" tarzida ham o'qilishi mumkin. Shu bois so'zni "sakka" tarzida o'qilsa, ikki ijodkor o'zlaridan oldin ijod qilgan Mavlono Sakkokiy izdoshligining izhori sifatida uning tahallusini bildiruvchi so'zni qo'llagan deyish mumkin.

"Sakka" so'zini X.K.Baranovning "Arabsko-russkiy slovar" lug'at kitobida سَك "Sakkun" so'zining bir necha ma'nolarini keltirgan. Birinchisi "kesmoq", ikkinchisi "mix", "eshikning zulfi", "tanga", "yo'l" kabi ma'nolari berilgan. Yana bir ma'nosi "havo qobig'ining yuqori qatlami" mazmuni borligi keltirilgan.⁴

Sakkokiy devonini nashrga tayyorlagan tadqiqodchi Kamol Eraslon "Sakkokiy taxallusini qo'llagan shoirning to'liq oti aniq emas", deydi va "Sakkokiy" so'zining ma'nosini ta'riflaydi. Sakkokiy arabcha سَكَا (sakka) "kezdi, esti" sho'laning hidi mubolag'asidan olingan سَكَاك (sakkok) ismi olingan. Yana "sakka" so'zini "pichoqchi, bosan, temir halqa" kabi ma'nolari borligini ta'kidlaydi.⁵

Bizningcha, ushbu misrada keltirilgan "Sakka" so'zi ham ustozning hurmati uchun qo'llanilgan va "yo'l" ma'nosida qo'llanilgan. "Musharraf sikkavu" so'z birikmasi "Sharafli yo'l" mazmunini ifodalashi-

¹ Shu manba. 74-bet.

² Mevlana Sekkakı divanı. Hazırlayan Kemal Eraslan. Ankaraö, 1999, 35-bet.

³ Shu manba. 36-bet.

⁴ X.K.Баранов. Арабско-русский словарь. Москва, 2006, 363 стр.

⁵ Mevlana Sekkakı divanı. Hazırlayan Kemal Eraslan. Ankaraö, 1999, 14-бет

ni tushinishimiz mumkin. Shu tariqda, Haydar Xorazmiy va Shayxzoda Abdurazzoq Baxshilar “Sakkokiyning izidan boruvchi yo‘l”ni “Sharafli yo‘l”–“Musharraf sakka” deb ataganlar.

Haydar Xorazmiy:

*Manga tegmas bu hadkim vasf-u hamd-u madh-u na't aysam,
Bu til, bu so'z, bu iste'dod-u bu donish birla, ey dovar.*

Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi:

*Manga tegmas bu hadkim vasf-u hamd-u madh-u na't aysam,
Bu til, bu so'z, bu iste'dod-u bu donish birla, ey dovar.*

Haydar Xoazmiyning mazkur bayti hech o'zgarishsiz Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi o'z masnaviy-siga tazmin sifatida qasidasiga kiritgan. Bunday holatning bo'lishi, bizningcha, Shayxzoda Abdurazzoq Baxshining Haydar Xorazmiy ijodiga hurmat ma'nosida o'z ifodasini topgan. Bayt Haydar Xorazmiyning qasidasida o'n beshinchi o'rinda to'rgan bo'lsa, Shayxzoda Abdurazzoq Baxshining qasidasida o'n ikkinchi o'ringa joylashtirilgan.

“Tazmin” (lug'atda: bir nimani bir nima orasiga qo'ymoq) – mushtarak san'atlar jumlasidan. Tazminning mohiyati quyidagicha. Shoir biror she'rdan bir misra', bir yoki ikki baytni o'z she'ri tarkibida muayyan maqsadda (oriyatga qarz olgandek) keltiradi. Keltirilgan she'r mashhur bo'lmasa, o'g'rilikda ayblanmaslik uchun, uning muallifiga ishora qilish lozim.¹

Quyidagi baytlarda ham Haydar Xorazmiy va Shayxzad Abdurazzoq Baxshilarning Sakkokiy devoniga ergashish mavjudligi yaqqol ko'rinadi.

Sakkokiy:

*Aristotils-u Aflotun-u Batlimus-u Jolinus,
Ali Sinov-u Faylaqus, Aristuv-u Abu Mash'ar.*

Haydar Xorazmiy:

*Seni ilm-u amal fazl-u hunar birla og' o' bilgay,
Felinos, Arastus-u Buzurg Ummid-u Bu Mash'ar.*

Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi:

*Seni ilm-u amal fazl-u hunar birla og' o' bilgay,
Felinos, Arastus-u Buzurg Ummid-u Bu Mash'ar.*

Kamol Eraslan va Ayshagul Sertqoyalarning nashrlarida ham ba'zi farqlar bor. Masalan, Ayshagul Sertqoyanning nashrida “Qamar sayran, Zuhul javlon, bilig maydon, piri paykar”² mirasida “*peri-i peykar*” (pari paykar) deyilgan bo'lsa, Kamol Eraslan nashrida ushbu so'z birikmasi “*peri-i ferfar*” (pari farfar)³ shaklida ifodalangan. Yana “Humoyunbolu farruhbaxtu davlatvoru sad axtar” misrasida Kamol Eraslan nashrida “*dalat-var*” (dalatvor), Ayshagul Sertqoya nashrida “*davlat-var*” (davlatvor) shaklida berilgan. Balki, bu texnik tomonlama xato ham bo'lishi mumkin.

Quyida Kamol Eraslan va Ayshagul Sertqoyalarning nashrlari asosida Haydar Xorazmiyning Mirzo Ulug'bekga atalgan qasidasi keltiriladi:

Mavlo(no) Haydar aytur:

*Olur ko'nglumni bir dildori sho'x-u shang-u siminbar,
Ko'zi ohu, so'zi jodu, mingi hindu o'zi kofar.*

*Sochi ovchi, ruhi davri, boyi zayni, o'ngi rangi,
Shabi qadr-u, mohi badr-u, sahi sarv-u, guli ahmar.*

*Karashma-yu shevav-u shakl-u shamoyil bila har soat,
Olur sabr-u qaror-u, aql-u din ul turkiy g'oratgar.*

*Necha qilgay jafov-u arbada javr-u sitam, yo Rab,
Vafov-u hulq-u lutf-u marhamat fanninda ul dilbar.*

*Magar bilmazki, dod-u adl-u ehson-u karam birla,
Topibtur yer uza mutlaq safoyi din-u zeb-u far.*

¹ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. “O'zbekiston” нашриёти, Тошкент, 2014, 188 – 189-бетлар.

² Ayşa Gül Sertkaya. Şayh-zade Abdurrazak bahshi hayati va eserları. İstanbul, 1997, 74-бет.

³ Mevlana Sekkaki divanı. Hazırlayan Kemal Eraslan. Ankaraö, 1999, 34-бет.

*Agar qo'ymasa bu javr-u itob-u ko'k-u afg'onini,
Qilayin dod-u faryod fig'on-u nolalar yaksar.*

*Shahi shahzoda donoyi Sulaymon xatti olninda,
Beduk no'yon, adiz xoqon, ulug' sulton – shoh Iskandar.*

*Erur adl-u saxov-u din-u donish ichra jaddidek,
Bilik koni, jahon joni, ochun xoni – hunarparvar.*

*Nabiy yanglig', Aliy yanglig', Hasan yanglig', Husayn yanglig',
Shijoat vartasinda ul haqiqiy sher, haqiqatsar.*

*Chu Zaynul Obidin-u Bakr-u Sodiq bila Kozim,
Zamiring pok-u dining rost-u sidqing tuz, o'zung rahbar.*

*Riyoz-u badiy-u tab'i Ilohiyni,
Zamiring fikri halli darki kasb-u nashr aylar.*

*Muhiti birla Iqlidis rasad hikmat fununda,
Yozar andishasiz zehning, zamiring tak-tuman daftar.*

*Seni ilm-u amal fazlu hunar birla og'o bilgay,
Felinos, Arastus-u Buzurg-Ummid-u bu Mash'ar.*

*Duopardozu maddoh-u qo'shiqchi-yu sanoxoning,
Kerak Hassan-u yo Sahbon, yo Salmon yo Anvar.*

*Manga tegmas bu hadkim vasf-u hamd-u madh na't aysam,
Bu til bu so'z bu iste'dod-u bu donish birla, ey dovar.*

*Yurush, yo'rtish, yugurush, yuskalish birla kamayting tur,
Qamar sayran, Zuhal javlon, bilig maydon, piri paykar.*

*Egirmakda, yugurmakda, yengillikda, og'irlikda,
Tutungtek tund-u o'tdek tezi "fil-ayn"u yer-u langar.*

*Ushuqmoqda, oshiqmoqda, yovoshlikta, yengillikda,
Yollari yel, magari ot, yurushi suv tagi sar-sar.*

*Ne o'qshasun viqor-u mehnat-u tamkin-u hukmingda,
Yuz Elburz-u tuman Qof-u, ming Alvand-u mehani sar.*

*Ulug' alqob-u, avsofu, duoyi midhating birla,
Musharraf sakka-u xutba muzayyan masjid-u minbar.*

*Yurishingdin, turishingdin, yarog'ingdin, yasolingdin,
Ochun darham, jinon barham, malak hayron, falak muztar.*

*Hasud-u muddai-u dushman-u badxoh yasolinda,
Qo'yar javlon, solur qalqon, bo'lur bepo, qolur besar.*

*Sungungnung navaking, tiring hadanging zarbina tuzmas,
Tuman qat, kishilar qaftan, zirih javshan bila bektar.*

*Ko'rup gurzing, qiliching, hanjaring, o'qung bila zahming,
Ne tursun ajdaho-u zindapil, gurg-u sheri nar.*

*Sening rahshing erur xoshvar urush-sanchish kuni shaksiz,
Humoyunbol-u farruhbaxt-u davlatvor-u sad axtar.*

*Erur ojiz saxo-u judu dod-u adling alninda,
Tilim xotam, tuman chune boshi hoqon o'kush navdar.*

*Etulgung qarchig'aying, shunqoring, lochining uch birla,
Olur fil-u, ilar kiyik-u bosar arslan, tutar ajdar.*

*Turumtoy, ko'ykanak, qirg'-u boqug'a tarbiyat qilsang,
Uqob-u, karkash-u, burgut qachirni eslamas ovlar.*

*O'shal damkim tokush, tolg'ash, urush-sanchish kuni bo'lsa,
O'qung, gurzung, qiliching, xanjaringdin yer-u ko'k titrar.*

*Suroning, haybating, hamlang tegishingni ko'rub dushman,
Bo'lur hayron-u sargardon-u besamon-u ko'r-u kar.*

Xulosa qililib shuni ayti kerakki, Haydar Xorazmiyning turkiy adabiyotda o'zining "Gulshan ul-asror", "Gul va Navruz" hamda "Me'rojnomasi" va bir qasidasi ham borligi oydinlashdi. Sakkokiyning Mirzo Ulug'bekga atab yozgan qasidasidan ta'sirlanib, Haydar Xorazmiy va Shayx Abdurazzoq Baxshilar qasida yozganlar. Ba'zi o'rinlarda Haydar Xorazmiyning baytini hech o'zgarishsiz Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi o'z masnaviysiga tazmin tarzida keltirgan. Bunday holatning bo'lishi, bizningcha Shayxzoda Abdurazzoq Baxshining Haydar Xorazmiy ijodiga hurmat ma'nosida deb hisoblash mumkin. Haydar Xorazmiy qasidasida "Sakka" so'zining ishlatilishi "yo'l" ma'nosida qo'llanilgan. "Musharraf sakka" so'z birikmasi "Sharafli yo'l" mazmunini ifodalab, Sakkokiy tahallusini ulug'lash ma'nosidadir. Yana bir ma'nosi "Musharraf sikka"—"sharafli muhr", "xutba muzayya"—"masjidda juma va hayt kunlari xutba o'qiladigan joy" ma'nolarida. Ya'ni, Mirzo Ulug'bek shohlik taxtiga o'tirgandan keyin, unga atab muhr tayyorlangani yoki tanga zarb qilinganiga ishora qilinib, juma kuni xutbada shohning sha'niga uchun maqtovlar aytiladi.

**Rahmatova Dilfuza Ahmedovna (SamDU akademik litseyi oliy toifali o'qituvchisi;
dilfuzaahmedovna73@gmail.com)**

VOHID ABDULLAYEV VA FORS-TOJIK SHE'RIYATI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda Vohid Abdullayevning o'z adabiyoti va ixtisosligi bilan o'zbek, tojik va boshqa ko'p xalqlarning tili va adabiyotini chuqur bilishi, uning o'zbek va tojik tilida baravar ijod qilganligi, nafaqat respublika, balki Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari uchun o'nlab tajribali tadqiqotchilar, olimlar tayyorlashda o'z hissasini qo'shganligi ta'kidlangan. O'zbek adabiyotida fors-tojik, turkman, ozarbayjon ijodkorlari bilan munosabatlari olimning diqqat markazida turadi. Vohid Abdullayev 40-yillardan boshlab Sharq xalqlari adabiyotlari hamkorligi mavzusi bilan shug'ullanib kelardi. Maqolada bir adabiyotning ichida sodir bo'luvchi hamkorlik-ichki, qardoshlar badiiy so'z san'atiga murojaat qilish – tashqi aloqa va o'zaro ta'sir tarzida talqin qilish ta'kidlanadi. Vohid Abdullayev o'zbek hamda fors-tojik adabiyotining beqiyos bilimdoni, yuzlab yoshlarning mehribon murabbiysi, hamkasblarining jonfido do'sti, devkor munaqqid, o'zbek va tojik tilida baravar ijod qilgan hassos shoir ekanligi ushbu tadqiqotda aks ettirilgan.

Аннотация. В данном исследовании было отмечено, что глубокие знания Вохида Абдуллаева языка и литературы узбекских таджиков и многих других народов наряду с его литературой и экономикой, его творения на узбекском и таджикском языках способствовали подготовке тысяч опытных исследователей не только по нашей республике, но и по республикам Туркменистан, Кыргызстан и Таджикистан. В узбекской литературе взаимодействие персидских, таджикских, туркменских и азербайджанских художников находится в центре внимания ученого. Вахид Абдуллаев занимается темой сотрудничества литератур восточных народов с 1940-х годов,

делает акцент на интерпретации в форме внешнего общения и взаимодействия. В.Абдуллаев – несравненный знаток узбекской и персидско-таджикской литературы, добрый наставник сотен молодых людей, преданный друг своих коллег, творческий критик, чуткий поэт, много сотворивший на узбекском и персидско-таджикском языках.

Annotation. In this study, Vahid Abdullayev's deep knowledge of the language and literature of Uzbek, Tajik and many other peoples with his literature and specialization, his creations in Uzbek and tajik languages, not only in the republic, but also in Turkmenistan, Kyrgyzstan and it was noted that dozens of experienced researchers and scientists contributed to the training of the Republic of Tajikistan. In Uzbek literature, relations with Persian-Tajik, Turkmen and Azerbaijan artists are in the center of attention of the scientist. Vahid Abdullayev has been dealing with the topic of cooperation between the literatures of the Eastern peoples since the 40s. Reference to the art of speech-integration in the form of external communication and interaction is emphasized. It is said that V. Abdullayev is an outstanding scholar of Uzbek and Persian-Tajik literature, a king mentor of hundreds of young people, a devoted friend of his colleagues, a creative critic, a sensitive poet who has written a lot in Uzbek and Persian-Tajik languages.

Kalit so'zlar: qardoshlik, do'stlik, mulamma', sozanda, musavvir, munaqqid, g'azal.

Ключевые слова: братство, дружба, муламма, создана, мусавир, мунаккид, газель.

Key words: brotherhood, friendship, solution, composer, artist, critic, ghazal.

Vohid Abdullayev o'zbek adabiyotining tarixiga oid bo'lgan mavzularni ishlash bilan kifoyalanmaydi. U tojik, turkman, ozarbayjon, qozoq adabiyoti bo'yicha ham ilmiy ishlar olib boradi. Ana shu ilmiy asarlarga qarab, uni qardosh xalqlar adabiyotining ham yirik mutaxassisi deb bimalol aytish mumkin. Chunki u "Fuzuliy va o'zbek adabiyoti", "Sobir va Ajziy", "Hofiz", "Mirzo Bedil – buyuk shoir va mutafakkir", "Jomiy va o'zbek adabiyoti", "O'zbek va turkman adabiyoti aloqalari tarixidan" kabi maqolalarida ozarbayjon, tojik, qozoq va turkman adabiyotlarining bilimdoni sifatida qalam tebratib, qardosh xalqlar adabiyotiga oid, xususan, adabiy ta'sir va adabiy aloqalarga doir qiziqarli fikrlarni o'rta tashlaydi.

Vohid Abdullayev fors, tojik tillari va adabiyotini chuqur bilar edi. Ozar va turkman tillarini ham sevar, ularning rangin adabiyotlaridan to'kis xabardor edi. Sharq she'riyatida qo'llaniladigan nazariy san'atlarning katta bilimdoni edi. Olimda ikki qutb qo'shilib, ajib mo'jizalarning tug'ilishiga homiylik qilgan. Olimlik nazariy quvvatni ko'tarsa, shoirlik uni o'z tanasida, amaliyotda sinab ko'rish imkonini hozirlagan. Ijodkorlarimiz o'z ona tillaridan tashqari, fors-tojik tilida ham qalam tebratib kelganlar.

V. Abdullayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" asarida tojik tilidagi talay shoirlar joy olgan. Aytish kerakki, o'zga tildagi parchalar darslik uchun illat emas, fazilat bo'lib xizmat qilgan. Insof bilan aytganda, bu ikki adabiyotni bir-biridan ajratib o'rganib bo'lmaydi. Tillarning boshqa-boshqa ekanligi dillar birligiga raxna solmaydi. Chunki ikki tildagi bu badiiy yaratmalar bir zaminda, bir xildagi sharoitda vujudga kelgan.¹

O'zbek adabiyotining fors-tojik, turkman, ozarbayjon ijodkorlari bilan munosabatlari olimning diqqat markazida turadi. Vohid Abdullayev 40-yillardan boshlab Sharq xalqlari adabiyotlari hamkorligi mavzusi bilan shug'ullanib kelardi. Uning fors-tojik, turkman, ozarbayjon qalam ahli haqida mushohada yurituvchi 50 ga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalari matbuot yuzini ko'rdi. Nizomiy', "Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy", "Fuzuliy va o'zbek adabiyoti", "Sharqning ulkan shoiri" (Hofiz Sheroziy haqida), "Bezavol ulug nom" (Ali Akbar Sobir ijodi), "Sobir va Ajziy Samarqandiy", "Jomiy va o'zbek adabiyoti", "Adabiy hamkorlik kuchaymoqda" (turkman-o'zbek adabiy aloqalariga doir), "Klassik adabiyotlarimiz hamohangligi (turkman-o'zbek adabiy aloqalari tarixidan), "Nasimiy va o'zbek adabiyoti" kabilar shular jumlasidan. Adabiyotimizning nazariy muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarimiz adabiy aloqa va o'zaro ta'sir mavzusi bilan shug'ullanib, uning amal qilishida ikki yo'lning yetakchilik qilishini uqtiradilar. Bir adabiyotning ichida sodir bo'luvchi hamkorlik – ichki, qardoshlar badiiy so'z san'atiga murojaat qilish – tashqi aloqa va o'zaro ta'sir tarzida talqin qilinadi. Ichki ta'sir xususida gapirilganda, an'ana va uning davom ettirilishi tushuniladi. Bu jabhada ham akademik Vohid Abdullayev yetarli tajriba to'plashga ulgurgan, talaygina maqolalar chop ettirgan. "Alisher Navoiy traditsiyalarining xorazmlik shoirlar tomonidan davom ettirilishi masalasiga doir", "Furqat va Samarqand shoirlari", "Navoiy va XIX asr Kattaqo'rg'on shoirlari", "XVII–XIX asr o'zbek adabiyotini o'rganish masalalari", "Navoiy va tazkirachilikning ba'zi masalalariga doir", "Navoiy va Bobur". ...Bu dalillardan ma'lumki, "O'zbek adabiyoti tarixi" uzoq yillik tajriba, mashaqqatli ilmiy-ijodiy mehnatning samarasi sifatida dunyoga kelgan.

¹ Abdullayev V. Tanlangan asarlar. 2-jild, Toshkent, "Fan", 2002, 82-bet.

Vohid Abdullayev nafaqat jumhuriyatimiz, balki uning sarhadlaridan olisdagi adabiyotshunoslar olqishiga sazovor bo'ldi. "Qadrli Vohid, –yozadi Turkmaniston Fanlar akademiyasining muxbir-a'zosi, professor M.N.Xidirov olimga yo'llagan tabriknomasida, – biz sizni o'zbek filologiyasi faniga katta hissa qo'shgan atoqli adabiyotshunos olim, yirik jamoat arbobi, o'ziga xos maktab yaratgan mehribon ustoz va murabbiy sifatida bilamiz".¹

"Vohid Abdullayevich Abdullayev ilmiy maktab yaratgan olim, –deydi Aziz Qayumov. Uning rahbarligi ostida Samarqand, Buxoro, Kattaqo'rg'on, Xorazm va O'zbekistonning boshqa joylaridagi adabiy muhitlarga mansub ko'p ajdodlarning asarlari o'rganildi, tadqiq etildi, ilmiy istifodaga kiritildi. Uning ko'p shogirdlari ustoz ishini muvaffaqiyat bilan davom ettirib, o'zlari ustoz darajasiga ko'tarildilar".

Vohid Abdullayev nafaqat respublika, balki Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari uchun o'nlab tajribali tadqiqotchilar, olimlar tayyorlashda o'z hissasini qo'shdi. Tojikiston Respublikasidan Razzoq G'afurov, Atoxon Sayfullayev, Abdusalom Xalilov, Abubakr Zuhuruddinov, Abdulahad Mirsafayev, Aliqul Devonaqulov kabi ko'plab tajribali yosh olimlar nomzodlik dissertatsiyalarini yoqladilar.

Bular qardosh respublikalar miqyosida ko'zga ko'ringan filologlar darajasiga yetdilar. Jumladan, Razzoq G'afforov Tojikiston Respublikasi FA muxbir-a'zosi, Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi davlat mukofoti sovriniga sazovor bo'lgan. Mirzo Tursunzoda aytganidek, bir dutorning ikki tori bo'lgan tojik va o'zbek xalqlarining do'stligi juda qadimiydir. Biz sarzaminda egizakdek o'sib-unib voyaga yetgan o'zbek va tojik xalqlarining ajoyib do'stlik kitobida A.Navoiy va Jomiy do'stligi, ayniqsa, yorqin sahifalarni tashkil qilgan.

Vohid Abdullayev ulkan adabiyotshunos, matnshunos, tarixshunos olim sifatida nafaqat respublikamizda, balki butun sobiq ittifoq miqyosida Moskva va Peterburg, Tojikiston va Ozarbayjon, Turkmaniston va Qirg'iziston, Qozog'iston va boshqa qator respublikalarda hamda chet ellarda juda katta obro'e'tiborga ega bo'lgan ulkan olim sifatida tan olingan shuhrat topgan edi. Olim o'zbek va fors-tojik tillarida ijod qilgan:

*Hamma narsa qarisa ham, do'stlik sira qarimas,
Do'stlik qadrin bilganlarni do'st ko'tarsa boshiga...
Do'stlik shunday azim qudrat, shunday azim zanjirki,
Uning haftijo'sh devorlarin hech qanday kuch buzolmas.*

Vohid Abdullayev qadimiy, navqiron do'stlik mavzusiga murojaat etgan, o'z qarashlarini badiiy ifodalashga uringan. "Yangilik yarashadi" maqolasida olim o'tmish zamonlarning notekis va adolatsiz ijtimoiy tuzumida juda ko'p mashaqqatlarni boshlaridan kechirib, hamma vaqt ham yangilikka qarab intilganlardan Rudakiy, Ulug'bek, Leonardo da Vinchi, Jomiy, Navoiy, Nasimiy, Fuzuliy, Turdi, Belinskiy, Chernishevskiy, Ushiniskiy, Tolstoy, Muqimiy, Donish kabi peshqadam aql-fahm egalaridan juda muhim an'analar meros bo'lib qolgan. Ushbu maqolada Navro'z bayrami kishilarni yangi qadamlar tashlashga ilhom baxsh etganligi ta'kidlanib, zamonaviy mehnat va bahor bayrami ekanligi e'tirof etiladi:

*Kushoyishi kor-u bor-u omadimiz yor bo'lsin,
Navro'zi navbahori bor, odamizod bor bo'lsin,–*

deb aytamiz. Yoki:

*Har yili tark etmagay kelmakni Navro'z bayrami,
Bermangiz qo'ldan debon fursatni Navro'z bayrami, ²
deb fursat g'animatligi ta'kidlanadi.*

Vohid Abdullayev "Navoiyning o'z qo'lyozma devoni" maqolasida olima Badri Otaboy tomonidan tuzilib, 1976-yilda Tehronda nashr ettirilgan ikki tomlik "Fehrasti devonhoi xatti" (qo'lyozma devonlar katalogi)ning birinchi tomida Alisher Navoiy nomi bilan 7 qo'lyozma asar sobiq Eron hukumati kutubxonasida saqlangan ba'zi bir tavsiflar bilan zikr etilgan. Ulardan 1799-raqamli devon ustod Alisher Navoiyning o'z muborak qo'li bilan ko'chirilib, kitob so'ngida keltirilmish mana bu baytlar:

*Ziyo ul haq va-d-dunyoni, va-d-din,
Berib ikkinchi devonimg'a taz'yin.
Savod uzra savod ar qildi mastur
Vale ma'nidadur nur a'lo nur...*

¹Abdullayev V. Saylanma. Adabiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent, "G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyot, 1982, 34-bet.

²Miriy. Tanlangan asarlar. Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965, 420-bet.

va mana bu arab tilidagi: “Kataba al-abd-al faqir Alisher, al mash-hur b-in-Navoiy g’affara zubenubahi”, ya’ni, “Kitobning kotibi Navoiy sifatida mashhur bo’lgan banda va faqir Alisherdur”, deb kamtarona uqdirishlardan ham ravshanlanadi.

Vohid Abdullayev o’zbek xalqining katta-yu kichigigacha Hofiz Sheroziyni o’z shoiriday qadrlayotgani, ustod Alisher Navoiy esa “Shamsiddin Muhammad Hofiz—ma’no adosida lofiz” deb g’azalsarolikda Hofizdan ham, Xusrav Dehlayiy, Mavlono Jomiydan ham bahramand bo’lganliklarini uqdiradi. V. Abdullayev, B.Valixo’jayevlarning “Miriyligi va uning zamondoshlari” asarida Ochildimurod Miriy, Shavqiy Kattaqo’rg’oniyligi, Vola, Nodim kabi shoirlarning ikki tilda ijod qilganligi ma’lum qilinadi. Miriy o’zining tojik tilidagi g’azallarida ishq-muhabbat mavzusini mahorat bilan yoritadi. Miriyning tojik tilidagi lirik asarlari faqat oshiqona kayfiyatlarni tasvirlashgagina bag’ishlangan bo’lmay, balki ularda Miriyning avtobiografiyasiga doir ma’lumotlar ham (masalan, “Miyonkolam” radifli she’r) ifoda etilgan. Shuning bilan bir qatorda, tojik tilida yozgan kichik hajmli masnaviyalarida shoirning tush ko’rishlari ham aks ettirilgan .

Vohid Abdullayev Miriy ikki tilda g’azal yozish bilan qanoatlanmay, bir g’azalning o’zini mulamma’ shaklida yozganligi, shoir bir misraning birinchi qismini o’zbek tilida yozsa, ikkinchi misraning birinchi qismini tojik tilida yozganligi, natijada bu hol o’ziga xos tardu aks uslubini tashkil etib, g’azaldagi fikrning ravon va yoqimli tarzda bayon etganligini ta’kidlaydi:

Ayladim munlug’ ko’ngul holash ba on sinim badu

Az sarinozu itobam guft: Munlug’ sanmisan?

Dedim: “Ore, men erurman xasta az bedodu tu.

Guft bo sad noz: Ozoringni men qildim qachon?..

Turku tojik ishqingga oshufta, chun sharlash kunam,

Telbalardek Miriy ham gah turku, gah tojikdahan.¹

Olim Noqis va Sipandiylar ham mulamma’ yozganligi, Noqis g’azalida misraning birinchi qismi o’zbekcha, ikkinchi qismi tojikcha tarzida, ya’ni, bir misra o’zbekcha, bir misra tojikcha, Sipandiyan keltirilgan she’rda esa birinchi qismi tojik tilida, ikkinchi qismi o’zbek tilida yozilganligini ma’lum qiladi.² Vohid Abdullayevning Alisher Navoiy haqidagi tadqiqotlari orasida akademik B.Valixo’jayev bilan hamkorlikda yaratgan “Navoiyning o’z qo’lyozma devoni” maqolasi ahamiyatlidir. Unda o’tkir publitsistik ruh bilan ilmiylik qorishib ketgan. Maqolada eronda saqlanayotgan Navoiyning qo’lyozma devoni haqida xabar berilib, u Navoiyning o’z qo’li bilan ko’chirilgan ikkinchi devoni “Navodir un-nihoya“ ekanligi isbotlangan. Shunday qilib, shoir qo’li bilan ko’chirilgan devon haqida ma’lumotga ega bo’ldikki, uning taqdiri bilan qiziqish navoiyshunos olimlarimizning muqaddas burchidir.

Vohid Abdullayev Alisher Navoiyga bag’ishlangan deyarli barcha asarlarida ulug’ mutafakkir ijodining umumbashariy ahamiyatga ega bo’lgan mag’zini ochib berishga, undan xulosalar chiqarishga intilgan. U Navoiy ijodining saboqlariga bag’ishlangan maxsus maqolalar ham yozgan. Bu jihatdan, ayniqsa, “Navoiy va umrguzaronlik” maqolasi o’tkir publitsistik fazilati va mazmundorligi bilan ajralib turadi. Unda Alisher Navoiy ijodi, g’oyalari dunyosining asosiy nuqtalari, undan kelib chiqadigan xulosalar yoritilgan.

Zahmatkash olim XX asrning 40-yillaridan boshlab o’zbek adabiyoti tarixining kam yoki mutlaqo o’rganilmagan davr va muammolariga qo’l urdi. Bu mavzu XVII–XVIII asrlar o’zbek adabiyoti edi. Olim mashhur sharqshunoslar, olim-ijodkorlar maslahati bilan turli xil bahs-u muhazaralarga sabab bo’lib kelayotgan Xorazm sohasidagi adabiy hayotning, asosan, XVII–XVIII asrlardagi holatini tadqiq etishga qaratdi. Xazinalarning ko’zini ochishga astoydil kirishdi. 50-yillar oxiriga kelib, olim bu muammo ustidagi ko’p yillik samarali mehnatini yakunladi. Fundamental tadqiqot asari doktorlik dissertatsiyasi sifatida himoyaga taqdim etildi. Bu yirik tadqiqotning maydonga keltirish ustida olim qariyb 20-yillar XX asrning 40-yillari boshidan to 60-yillar bo’sag’asigachatinimsiz izlanishlar olib bordi. Xorazm shahar va qishloqlarini kezib chiqdi, qanchadan qancha adabiyot muxlislari, ziyolilar, ko’pni ko’rgan tarixni xotirga oladigan qariyalar bilan uchrashdi, ular yordamida o’z ilmiy kuzatishlari uchun materiallar yig’a bordi. Tadqiqotchi xorazmlik shoirlar, xattotlar, tarixchilar, lug’atshunoslar, musiqa ijrochilari hayoti va ijodiga oid boy qo’lyozma manbalarni qo’lga kiritdi. Hatto Xiva moddiy-madaniy obidalari peshtoqlariga, taniqli olim va shoirlar, ularning yaqinlari, maqbara va marqadlaridagi yodgorlik toshlariga yozib qoldirilgan

¹ Abdullayev V., Valixo’jayev. Miriy va uning zamondoshlari. 1997, 134-bet.

² Adabiyot ilmi allomasi. Akademik V.Abdullayev zamondoshlari nigohida. T., “Sharq”, 1997, 31-bet.

she'riy lavha va baytlargacha erinmay sobitqadamlik bilan yig'ib chiqdi, ulardan o'z ilmiy tadqiqotlaridan samarali foydalandi.

Vohid Abdullayevning bu yirik tadqiqotida xorazmlik Mavlono Vafo-Vafoiy, Pahlavonquli Ravnaq, Roqim, Nishotiy, Andalib, Nodir Umarboqiy, Xoksor kabi o'ndan ortiq iste'dodli shoirlar va adiblarning ijodiyoti adabiy aloqalar, adabiyotning kitobiyot, xattotlik, musiqa, xalq dostonchiligi kabi san'at turlari bilan bog'liq holda tadqiq etildi. U, jumladan, ikki asr davomida Xorazmda ko'chirilgan badiiy, tarixiy, ilmiy kitoblar ularning xattotlari haqida, xususan, bu qadimiy ilm-fan va madaniyat beshigida o'zbek va boshqa xalqlar adabiyotining qanday badiiy va ilmiy yodgorliklari ko'chirilgan va bunday ishlarining ilmiy-ma'rifiy ahamiyati to'g'risida bahs yuritib, qiziq va diqqatni jalb qiluvchi mulohazalarni bayon etdi. U, hatto XVIII asr olim va shoirlaridan bo'lmish Muhammad Xoksor va uning o'zbek tilida yozgan, turli fan va san'at sohalariga doir istilohlarni o'z ichiga oluvchi "Muntaxab ul-lug'at" asarini ham kashf etib, uning lingopoetik tahliligacha berdi. Shu asarga doir doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan ilmiy materiallar olimning 70-yillarga kelib chop etilgan "Xoksor va Nishotiy" monografiyasining maydonga kelishiga asos bo'ldi.

Vohid Abdullayev fors, tojik tillari va adabiyotini chuqur bilar edi. Ozar va turkman tillarini ham sevar, ularning rangin adabiyotlaridan to'kis xabardor edi. Sharq she'riyatida qo'llaniladigan nazariy san'atlarning katta bilimdoni edi. Olimda ikki qutb qo'shilib, ajib mo'jizalarning tug'ilishiga homiylik qilgan. Olimlik nazariy quvvatni ko'tarsa, shoirlar uni tanasida amaliyotga sinab ko'rish imkonini hozirlagan.

G'azallari ishq-muhabbat hamda ana shu lisoniy tuyg'u bilan bog'liq Nodim ham ikki tida ijod qilganligi, g'azallari ravon, o'ynoqi va soddaligi bilan diqqatni jalb qilishi ta'kidlab o'tiladi. Sharq adabiyotida, xususan, o'zbek adabiyoti tarixida Navoiy ijodi faoliyati o'zining sertarmoq, serfayz, serbaraka fazilatlarini bilan shu qadar ham ulug'vor, obro' va e'tibor qirralariga ega ediki, uning o'z zamonida ham, keyingi zamonlarda ham ma'naviyat olamining ko'pdan ko'p masalalari bo'yicha, jumladan, qalamkashlik xoh shoh, xoh gado, kimning kim bo'lishligidan qat'iy nazar, o'z maqsad, o'z g'oyalari doirasida unga murojaat qilmay o'tolmas edi.

Navoiyning zamondoshlari ustod Abdurahmon Jomiy va Shayxim Suhayliy, Muarrir Mirxon va Xondamir, xattot Sul-ton Ali Mashhadiy va Abdujamil, musavvir Behzod va Mahmud Muzahhib, sozanda va navozanda Qulmuhammad Udiy, Shayx Muhammad Noyi va hokazo. Shuning uchun unga katta ishonch va hurmat bilan murojaat qilar edilar, u, bir tomondan, o'zbek tilida ham adabiyotning rivojravnaqi uchun yalovbardorlik qilolgan bo'lsa, ayni zamonda madaniyat, maorif, san'atning hamma turlarini o'z imkoniyatlariga ko'ra butun choralar bilan rivojlantirish bobida iste'dod egalarining diqqatini tortadigan magnit maydonli mavqe qozona olgan edi.

Vohid Abdullayev o'zining serfayz va sermazmun umr yo'lini ezgulikka baxsh etgan edi. Bunday nodir va mo'tabar zotlarning nomlari, ilm-fan, oliy ta'lim rivojiga, el-yurt ravnaqiga qo'shgan ulkan hissalari mamlakat tarixida, insonlar dilida doim yashaydi, also, unutilmaydi.¹

Vohid Abdullayev o'zbek adabiyoti tarixining chuqur bilimdoni, fors tili va arab yozuvini mukammal egallagan alloma edi. O'zbek hamda fors-tojik adabiyotining beqiyos bilimdoni, yuzlab yoshlarning mehribon murabbiysi, hamkasblarining jonfido do'sti, devkor munaqqid, farishta inson Vohid Abdullayev o'zbek va fors-tojik tilida baravar ijod qilgan hassos shoirdir.

**Mizrabova Jeren Ismailovna (Buxoro davlat universiteti fakultetlararo Chet tillar kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD); mizrabovajerenismailovna@mail.ru)
SHEKSPIRNING "OTELLO" DRAMASIDA KALAMBURNING POETIK IFODA
XUSUSIYATLARI**

Annotatsiya. Mazkur maqola U.Shekspirning "Otello" dramasi tarjimalarida kalamburning o'ziga xos poetic xususiyatlari va ularning tarjimada aks ettirilishi muammolarini o'rganishga bag'ishlangan. "Otello" asaridan misol sifatida keltirilgan kalamburlarning o'zbek va rus tillari o'girmalarida qayta yaratish jarayoni bilan bog'liq murakkabliklar va so'z o'yini tarjimasi tahlillari amalga oshirilgan. Shuningdek, asliyat matni kalamburiy poetik xususiyatlarining tarjimada aks ettirishdagi ekvivalentlik masalasi o'rganilgan.

¹ Valixojayev B., Vohidov R. Ezgulik – umr mazmuni. "Fan", 1992, 57-bet.

Аннотация. Настоящая статья посвящена изучению поэтических особенностей каламбура и проблемам способов их воспроизведения в переводах драмы У.Шекспира “Отелло”. Рассматриваются основные сложности, связанные с передачей каламбура на узбекский и русский языки приведённых в качестве примеров а также, анализы переводов игры слов из произведения У. Шекспира “Отелло”. Более того, исследованы проблемы эквивалентности при передаче поэтических особенностей каламбуров текста оригинала.

Annotation. This article is dedicated to the study of the poetic features of the pun and the problems of ways in reproducing them in translations of drama “Othello” by W.Shakespeare. The main difficulties associated with the transformation of a pun into the Uzbek and Russian languages are considered, as well as analyzes of translations of a word play from W.Shakespeare’s work “Othello”. Moreover, the problems of equivalence in the translations of poetic features of the puns from the original text are investigated.

Kalit so‘zlar: poetik xususiyat, ekvivalent, Shekspir, kalambur, so‘z o‘yini, tarjima, tarjima usullari, kinoya, kulgi, muallif niyati.

Ключевые слова: поэтические свойства, эквивалент, Шекспир, каламбур, игра слов, перевод, способы переводов, ирония, смех, замысел автора.

Key words: poetic features, equivalent, William Shakespeare, pun, wordplay, translation, ways of translation, irony, laughter, author’s intention.

Ma’lumki, kalambur tarjmasi amaliyotida asliyatning mazmuni va shaklini birdek asrab qolish juda mushkul, ba’zida imkonsiz ham. Chunki asliyat so‘z o‘yinida qatnashgan birliklari tarjima tilidagi birliklarining ekvivalentlik munosabatlaridagi mazmuniy doiralari qamrovi bir-biridan farq qilishi mumkin. Xususan, turli tillardagi ekvivalent birliklari o‘rtasida ba’zida beixtiyor favqulodda bilinar-bilinmas ya’ni, ma’lum bir leksik birliklarning tildagi qo‘llanilishi darajasi, uslubiy yoki emotsional bo‘yoqdorligi, ularga xos sinonimlar va antonimlari doirasi, etimologiyasi yoxud so‘z yasashdani imkoniyatlaridagi tafovutlari kuzatilishi mumkin. Shuningdek, kalambur o‘girmasida ham ba’zida ahamiyatsiz bo‘lib ko‘ringan mazkur ixtiloflar asliyatdagi so‘z o‘yining tarjima tilida to‘laqonli qayta yaratishda to‘sqinlik qiladi. Agarda mutarjim o‘z o‘girmasini kalamburining faqatgina mazmuni doirasidagi so‘z shakllari sathida amalga oshirsa unda asliyatdagi so‘z o‘yini g‘oyib bo‘lishi va muallifning (kinoya, hazil, istehzo yoki grotesk kabilar) maqsadiga putur yetishi, tabiiy.

Demak, tarjimada Shekspirning qo‘pol hazilini nafis kinoya yoki o‘tkir zakovatini bachkana yoki o‘rinsiz hazil bilan almashtirish joiz etilmaydi. Shuningdek, agarda ma’lum bir asar muallifi kalamburidagi xulosaviy izohining ta’sirini oshirishni maqsad qilgan bo‘lsa, mutarjim ham o‘z o‘girmasida so‘z o‘yini vositasida bo‘lmasa-da, xuddi shu omilga tayanishi maqsadga muvofiq. Asliyatdagi kalamburning shakli va mazmunini tarjima tilida ham birdek qayta yaratishning imkoni topilmasa, mutarjim o‘z tarjimasida vositaning nokalambur shakli bilan chegaralanishga majbur bo‘ladi. Masalan, bunday holatlarda kompensatsiya, ma’noviy rivoj yoki boshqa tarjima usullarini qo‘llash imkoniyati qo‘l keladi ammo, mazkur asliyat vositaining ma’lum bir xususiyatlarining barham topishiga sabab bo‘lishi, tabiiy.

Masalan, U.Shekspirning “Otello” nomli taniqli tragediyasining ilk sahnasi Yago va Rodrigoning Venetsiya ko‘chalarida Otello haqidagi qizg‘in suhbat bilan boshlanadi. Unda Yago qora tanli generalni qanchalik yomon ko‘rishi va harbiy unvonlarni taqsimlashda xodimlarning jamiyatdagi mavqeyiga qarab emas, balki ularning aqli va xizmatlariga oid topshirayotganligi haqida achchiq g‘azab bilan gapiradi. Shuningdek, Otello Kassioni leytenant deb e’lon qilganida, aslida, bu martabaga Yago o‘zini ko‘proq munosib deb biladi va buning uchun Mavrdan o‘ch olishini aytadi. Ya’ni, sodiq do‘st ko‘rinishida Otello-ning ishonchiga kirib birinchi imkoniyatdayoq unga xiyonat qilishni rejalashtirib qo‘yadi va quyidagi xiazm shaklidagi kinoyali kalamburini keltiradi:

Iago

We cannot all be masters, nor all masters
Cannot be truly follow’d.¹

Яго

...Не всем дано

Господствовать, и не у всех господ

Надежные прислужники.² (M.Loziński tarjmasi)

¹ <https://shakespeare.folger.edu/shakespeares-works/othello/entire-play/>

² <http://lib.ru/SHAKESPEARE/othello2.txt>

(generalizatsiya, xiastik shakldagi modulatsiya)

Яго

Хамма бирдек бўлавермас хўжайин, илло,
Хаммага ҳам хўжайиндек хизмат этилмас.¹ (J.Kamol tarjimsi)
(alliteratsiya, almashtirish, modulatsiya, qo'shish)

Yuqorida asliyatdan keltirilgan misolning so'zma-so'z tarjimasini keltiramiz:

Yago. Balki hamma ham rahbar bo'lishga loyiq emasdir, zero, hamma rahbarlarga ham ishonchli yordamchi (xizmatkor) uchrermaydi (J.Mizrabova).

Asarda Kassioning leytenantlik harbiy unvoniga tayinlovi sabab alamzada bo'lgan Yago Otelloga faqatgina o'zining g'arazli niyatlari amalga oshirishni ko'zlab xizmat qilayotgani va birinchi qo'lay keladigan vaziyatdayoq undan o'ch olish payida ekanligi to'g'risidagi iqrorini keltiradi. Shuningdek, Yago Rodrigo bilan suhbat chog'ida agarda biror kim o'zi rahbarlikka da'vat etganida boshlig'iga bo'ysunmasligi, har kim ham rahbar bo'lishga loyiq emasligi hamda hamma rahbarlarning ham so'zsiz izmida bo'lish bu majburiyat emasligi to'g'risida gapirganda Otelloni nazarda tutadi. Dramaning mazkur sahna ko'rinishida Yago samimiy edi va Rodrigoni o'z tomoniga ag'darib birgalikda Otellodan o'ch olishda yordam berishini so'raydi hamda shu zahotdan o'zining "sodiq do'st" kabi ijrosini boshlashga qaror qiladi.

Asliyat kalamburida neytral stilistik buyoqdagi "masters" (rahbar, lider) birligi rus tarjimasida "господствовать" va "господ" kabi balandparvoz uslubdagi leksikasiga almashtirilgan. Asar muallifining mazkur kalamburida Yago tomonidan qora tanli Mavrga nisbatan aytilgan bepisand tahqirlarini izohlovchi kinoyasi "noloyiq rahbar" va "munofiq yordamchi, xizmatchi" kabi tushunchalar kontrastlarida qurilgan. Asliyat matnida soddadil, ishonuvchan, mard va mahoratli jangchi Otello xalq himoyasi maqsadidagi harbiy yurishlarida o'z hayotini qanchalik tahlikaga qo'ymasin, oq tanlilar nazarida, baribir, qora tanli Mavr bo'lib qolishi nazarda tutilgan, Yago nutqida esa "noloyiq rahbar" bo'lib M.Loziński tarjimasida "gospodin" ya'ni, "xukumdor"ga aylangan. Natijada Shekspir yaratgan neytral bo'yoqdagi badiiy obraz dabdabali xususiyatlarni o'zlashtirgan.

O'zbek mutarjimi J.Kamol mazkur asliyat kalamburini alliteratsiya kabi uslubiy vositasi yordamida o'girgan. Alliteratsiya orqali nafaqat tovushlar takrorlanishidagi ohangdoshlik, balki qahramonning murakkab ruhiy holatini aks ettirilishi kabi xususiyati ham kuzatiladi. Asliyat matnidagi "Cannot be truly follow'd" (sodiq (ishonchli) yordamchi (xizmatkor)ga uchramasligi mumkin) kabi iborasi o'zbek tarjimasida "xo'jayindek xizmat etilmas" birikmasiga almashtirgan. Asliyatda Yago har bir rahbarning faoliyatidagi muvaffaqiyati yoniga qanday yordamchi tanlay olish qobiliyatiga bog'liq deb belgilaydi. Chunki asarda Otello munofiq Yagoni o'ziga sodiq yordamchi deb biladi va unga qattiq ishonadi. Yago esa bundan foydalanib, Mavrni aldab Dezdemonaning tuban qotiliga aylanishiga sababchi bo'ladi, shuningdek, rahbarligiga ham nuqta qo'yishni uddalaydi. Ya'ni, ayyor Yago mazkur nutqida qora tanli Otelloni ishonuvchan laqmaligi uchun rahbar bo'lishga noloyiq deb biladi. O'zbek tarjimasida "truly" (sodiq, ishonchli) kabi ma'no tushirib qoldirilgan va o'rniga "Hammaga ham xo'jayindek xizmat etilmas" kabi mazmun qo'llanilgan. Mazkur gapdan "xo'jayinlarga" xos hurmat-izzat kabi mazmun anlashiladi va natijada asliyatdagi "sodiq, ishonchli" kabi mazmuni o'zbek tarjimasida "hurmat-izzat" tushunchasiga o'zgaragan.

U.Shekspirning "Otello" tragediyasidan keltirilgan Yago nutqidagi keyingi kalamburi "poor" va "rich" so'zlarining antonimik munosabatlarida qurilgan antitezasida asoslangan.

Iago

Poor and content *is rich* and *rich* enough,¹
But *riches* fineless is as *poor* as winter
To him that ever fears he shall be *poor*.²

Яго

Кто беден и доволен, тот богач.¹
Но бедны, как зима, богатства тех,
Кто одержим боязнью обеднеть.³ (M.Loziński tarjimasini)
(modulyatsiya^{1,2}, tushirib qoldirish,^{1,2} inversiya²)

Яго

¹ Shekspir V. Otello. Fojialar. Ingliz tilidan J.Kamol tarjimasini, Toshkent, Adabiyot va san'at, 1991, 194-bet.

² <https://shakespeare.folger.edu/shakespeares-works/othello/entire-play/>

³ <http://lib.ru/SHAKESPEARE/othello2.txt>

Қаноатли қашшоқ асли чин бадавлатдир,¹
Эртами-кеч қашшоқлашиб қолишдан кўркиб,
Қалтираб яшаган бойлар – юпун, камбағал.^{1,2} (Ж.Камол таржиамси)
(inversiya,^{1,2} generalizatsiya,¹ kompensatsiya,² tushirib qoldirish²)

Yuqorida asliyatdan keltirilgan misolning soʻzma-soʻz tarjimasini keltiramiz:

Yago. Asl boylik bu kambagʻallikdagi xotirjamlik va kifoyadir. Cheksiz boyliging boʻlsa-yu undan qachondir ajralib qolish vahimasi bilan yashaydiganlar ham, aslida, kashshoqga tengdir.

Asardagi Yago nutqidagi kalamburida pulning haqiqiy kuchi u orqali topilgan baxt-u iqbol yoki xavfzilikni taʼminlay olishi bilan belgilanishi kabi izohlari keltirilgan. Ammo, agarda mol-dunyo xotirjamlik va qanoat olib kelmasa, unda boyning tahlikali hayoti qashshoqning kun kechirishidagi xavotirli tashvishlari bilan almashadi. Qora tanli general Otello ham Dezdemonadan ajralib qolishidan qoʻrqib rashkdan va Kassioqa nisbatan qora hasad oʻtida yonib tuban qotilikka qoʻl uradi. Mavrni shu holatga keltirgan ayyor Yago oʻzining kalamburida insonning puli koʻp va martabasi qanchalik yuksak boʻlmasin, asl boylik bu baxt va xotirjamlikda ekanligini istehzoli kinoyasida taʼkidlaydi.

Yuqorida misol sifatida keltirilgan Shekspir kalamburi sermazmun hamda obrazli murakkab anitezasining keyingi “Poor and content”, “rich enough”, “riches fineless is as poor as winter”, “fears he shall be poor” kabi til vositalarida ifodalangan boʻlib boylik va kambagʻallik mavzusiga bagʻishlangandir. Asarda Yago Dezdemonaga qilgan tuhmatlari oqibatlarini xavfli ekanligini bilsa-da, oʻz gʻarazli niyatidagi harakatlarini davom ettiraveradi va nutqidagi kalamburida “poor” va “rich” (“boylik” va “kambagʻallik”) mavzularini qarama-qarshi qoʻyib Mavr va Kassio boshiga yogʻilayotgan balolar ularning erishgan martabasi tufayli ekanligini taʼkidlaydi. Dramada Yagoning bunday harakatlari asosiy sabablari uning gʻayir va baxil tabiatida va fojining asl manbai ham uning oʻzida, yaʼni, ruhiyatida chuqur ildiz otgan hasad, xudbinlik, faqatgina oʻz foydasini koʻzlab koʻrsatilgan ikkiyuzlamachilik va munofiqlik kabi harakatlaridadir.

“Otello” asaridan misol sifatida keltirilgan Shekspir kalamburi tarkibidagi antitezasi tarkibidagi “poor” va “rich” kabi tushunchalarida qurilgan ziddiyati rus tarjimasida “бедность” va “богатство”, shuningdek, oʻzbek tiliga oʻgirmasida ham “boylik” va “kambagʻallik” mazmunidagi qarama-qarshiliklari inversiya, modulyatsiya yoki tushirib qoldirishdek tarjima usullari yordamida qayta yaratilgan. Yaʼni, rus tarjimasida asliyatda qatnashgan “rich enough”, “fineless” va oʻzbek oʻgirmasida “and rich”, “as winter”, “fineless” kabi soʻz va iboralar tushirib qoldirilgan.

Mazkur asliyat kalamburida keltirilgan alliteratsiyasi “poor” va “rich” shuningdek, [t] tovushining takrorlari uslubiy vositaning vazniy xususiyatlari, shuningdek, taʼsiri va ifodadorligini oshirgan. Ayniqsa, asliyatdagi [t], [r], [p] tovushlarining takroriy qoʻllanilishi ogʻir havoli, salbiy kayfiyatni keltirib chiqaradi hamda momaqaldiroqdan oldingi sukut kabi katta havfdan ogohlantiruvchi xususiyatli sifatlarga ega-dir. “Otello” tragediyasidagi Yago salbiy obraz boʻlganligi sabab mazkur qahramon nutqi fonologik tuzilishining oʻziga xos xususiyatlari ham emotsional-negativ pragmatik saviyasiga ega boʻlib kitobxonda ham salbiy his-tuygʻularini uygʻotishi, tabiiy. Asliyat kalamburining mazkur xususiyatlarini rus mutarjimi “b” va “d”, shuningdek, oʻzbek tarjimoni ham oʻz oʻgirmalarida “q” va “sh” tavushlarining alliteratsiyasi yordamida qayta yaratishga uringanlar.

Demak, kalambur kabi uslubiy vositasini oʻgirmada qayta voqelantirish juda murakkab vazifadir, chunki unda adekvatlik, kinoya, istehzo, shakl va mazmun, shuningdek, hamohanglik kabi omillarni asrab qolish talab etiladi. Baʼzida, kalambur oʻgirmasi amaliyoti sohasida tarjima transformatsiyalari ish bermasligi ehtimolidan ham xoli emas, chunki har bir kalambur oʻziga xos alohida murakkab sanʼat asaridir.

Darhaqiqat, kalambur tarjimasini amaliyotida baʼzida yengib boʻlmas boʻlib koʻringan toʻsiqlarga qaramasdan, asliyat matnining taʼsiri, undagi implitsit maʼnolar, polisemik, omonimik va antonimik xususiyatlarni oʻz tarjimalarida qayta yaratishga harakat qilganlar. Modomiki, ishimizda tahlilga tortilgan yu-morga boy tarjimalaridagi soʻz oʻyinlari oʻziga kitobxon eʼtiborini jalb eta olgan ekan, ularni stilistik jihatdan oʻxshash, deb ayta olamiz.

¹ Shekspir V. Otello. Fojialar. Ingliz tilidan J.Kamol tarjimasini. Toshkent, Adabiyot va sanʼat, 1991, 268-bet.

Xo'jaev Alijon Atabekovich (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish Departamenti bosh mutaxassisi, p.f.f.d. (PhD), dotsent)

OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATI MONITORINGINI TAKOMILLASHTIRISHDA RISKLARNI OLDINI OLISH MEXANIZMLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'qitish samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish, ta'limdagi muammolarni oldindan ko'ra bilish va risklarni minimallashtirish yo'llarini izlash xususida fikr yuritiladi.*

***Аннотация.** В данной статье ведется речь об этапах развития эффективности обучения и качества образования в вузе, выявлении проблем и поисках путей минимизации рисков.*

***Annotation.** This article reflects the stages of development of the effectiveness of training and the quality of education at a university, the early identification of problems in education and the search for ways to minimize risks.*

***Kalit so'zlar:** oliy ta'lim tizimi, ta'lim sifati, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, innovatsiyalar, risklar, samaradorlik o'zlashtirish, refleksiya.*

***Ключевые слова:** система высшего образования, качество образования, государственные образовательные стандарты, образовательные программы, инновационная деятельность, риски, самоэффективность, мастерство, рефлексия.*

***Key words.** system of higher education, quality of education, state educational standards, educational programs, innovation activity, risks, self-efficacy, mastery, reflection.*

Ta'lim tashkilotining har qanday innovatsion faoliyati xavf bilan bog'liq. Xavf – bu mumkin bo'lgan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risk. Xavfning yuzaga kelishi ishonch bilan emas, balki tasodifiy harakatlar bilan amalga oshirilgan reja [1]. Ta'limdagi o'zgarishlar sharoitida oliy ta'lim muassasalariga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan noaniq vaziyat yoki holat sifatidagi xavflar maqsadli ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashi yoki yoki kutilgan natijalarga erisha olmaslikka olib kelishi mumkin. Xavfni noaniq oqibatlarga olib keladigan vaziyatning o'ziga xos xususiyati sifatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu salbiy oqibatlarining mavjudligi bilan birga bo'lishi mumkinligini tushunishimiz mumkin bo'ladi. Innovatsion jarayonga kirish bosqichida, ko'pincha, ta'lim munosabatlari ishtirokchilarining qarshiligi paydo bo'ladi, bu tashvishning kuchayishi, muvaffaqiyatga intilishning pasayishi bilan birga vujudga keladi. Amaliyotdagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarga qarshilikning pasayishi tadqiqot va tashkiliy-boshqaruv faoliyati ko'nikmalari shakllanganda yuzaga keladi. Ta'limdagi o'zgarishlar davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni tavsiflab o'tsak.

***Birinchi vaziyat.** Pedagog xodimlarni amaldagi me'yoriy hujjatlar, ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv-me'yoriy hujjatlar doimiy tanish bo'lishi zarurligi hamda fikrlash stereotipining namoyon bo'lishi olib keladi: "Talabalar oliy ta'limda tahsil olish davridagi imtihonlar va yakuniy davlat attestatsiyasini qanday topshiradi?" Zero, talabaning o'quv faoliyatini boshqarish, nostandart vazifalarni hal qilish qobiliyati uning uchun majburiy rejalashtirilgan va erishishi kerak bo'lgan natijalar sifatida qaralmaydi. Agar o'qituvchi ta'lim natijalari bo'yicha ta'lim islohotlarining yangi yo'riqnomalarini tushunmasa va qabul qilmasa, u ta'lim tashkilotining innovatsion faoliyatida ishtirok eta olmaydi. Natijada strategik xavf yuzaga keladi, buning natijasida o'qituvchilar tarkibining yangi ta'lim muhitiga o'tishga tayyorlik darajasi yuzasidan risklar kuzatiladi.*

***Ikkinchi vaziyat.** Ta'lim boshqaruvida yangi tendensiyalarni qo'llab-quvvatlash, xorijiy tajribani amaliyotga joriy etish, risklarni oldindan ko'ra bilish orqali qarorlar qabul qilinganda yangi me'yoriy hujjatlarni, o'z navbatida, o'quv yili o'rtasida emas, balki o'quv yili boshidan amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalari oldidagi majburiyatlar esa, o'z navbatida, pedagoglar va jamoaning kasbiy mehnatni faollashtirish zaruratini maqsad qilib qo'yadi. Muammo darajasi, qanchalik yuqori bo'lsa, bu o'qituvchining sog'lig'iga talabalarning psixologik, hissiy, somatik salomatligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.*

***Uchinchi vaziyat.** Ta'limda yangi innovatsion boshqaruv tamoyillarini joriy etishga o'tish oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar jamoasining uzluksiz ta'lim muhitining samaradorligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish uchun qisqa va tez suratlarda o'zgarayotgan jahon hamjamiyatidagi kadrlarga bo'lgan talabni bajara oladigan yangi mahalliy aklarni ishlab chiqishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati esa, o'z navbatida, ijodiy guruhlar faoliyatini tashkil etadi. Biroq, avtoritar o'qituvchi-*

ning mentaliteti aqliy, intellektual, hissiy va madaniy xususiyatlarning barqaror to'plami sifatida uning hamkasblari bilan yagona jamoaga birlashishiga to'sqinlik qiladi. Bunda o'qituvchining oliy ta'limda kadrlar tayyorlashning maqsadli strategiyasiga moslashuvi, so'rovlari, umidlari saqlanib qoladi va ular pedagogik jamoaning maqsadga intiluvchanligi, so'rovlari, umidlari, imkoniyatlari va vazifalari bilan mos kelmasligi mumkin. Bu, o'z navbatida, dispozitsiyaviy xavf mavjudligini anglatadi.

To'rtinchi vaziyat. Ta'limda o'zgarishlar oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchisidan ma'lum darajadagi kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrda "Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 1026-sonli qarorining 19-bandida shunday deyilgan: "Mustaqil o'qib bilim orttirish – pedagog xodimlar tomonidan kasb mahoratini oshirishga, kasbiy layoqat va ilmiy dunyoqarashni kengaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning o'z lavozimi va mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarni uzluksiz ravishda mustaqil o'zlashtirishini nazarda tutadi", deyilgan [2]. Oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilarning ta'limdagi o'zgarishlarga tayyorligi bir qator ko'nikmalarining mavjudligi bilan belgilanadi, jumladan, rivojlanishning hozirgi holati va dinamikasini baholashda ta'lim dasturining asosiy talabalari, sabablarni to'g'ri aniqlash yetarli darajada samarali emasligi talabaning ta'lim dasturini o'zlashtirishda faol rivojlanishi, har bir talabaning shaxsiy ta'lim traektoriyasidagi fanlar katalogida bo'lgan fanlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni to'g'ri (adekvat) aniqlash qobiliyati, zamonaviy ta'limni tanlash va qo'llashga qo'yilgan maqsadlarga mos keladigan texnologiyalar va baholash texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

Beshinchi vaziyat. Qobiliyatga ega professor-o'qituvchi yuqoridagi holatlar yuzaga kelishini oldindan ko'ra biladi va buning uchun zarur bo'lgan, kasbiy muammolarni ko'rib chiqadi va individual ta'lim yo'nalishini qurishga qodir hisoblanadi. Bunday holatda shaxsiy ta'lim dasturini amalga oshirish uchun professor-o'qituvchiga qo'shimcha resurslar ko'mak kerak bo'ladi. Odatda, professor-o'qituvchining kasbiy rivojlanishining moddiy-texnikaviy xarajatlariga tayyorlik darajasi iqtisodiy xavfni belgilaydi.

Ta'limdagi islohotlarning oliy ta'lim muassasalari tomonidan bosqichma-bosqich tatbiq etilishi professor-o'qituvchidan xavflarni oldindan bilishni kompetensiyasining shakllanganligini talab qiladi [1].

Agar pedagogik tavakkalchilik ta'lim munosabatlari ishtirokchilarining faoliyat usuli sifatida qaralsa, uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: o'quv mashg'ulotini amalga oshirishda o'qituvchining mas'uliyati, maqsadlar, pedagogik qarorni tanlash va qabul qilish vaziyatidagi noaniqlikni bartaraf etish; talabalar, ota-onalar, o'qituvchilar ishtirokchilar o'rtasidagi ta'lim munosabatlari tartibga solish; ta'lim oluvchilar, jumladan, pedagogik faoliyat a'zolarining o'quv harakatlarini rivojlantirish mantiqiy muvofiqlashtirishdir.

Faoliyat yondashuvi xavflarni aniqlash, prognozlash va minimallashtirish asosida yotadi. O'qituvchining o'quvchi bilan o'zaro munosabati, o'quv jarayoniga faol yondashuv asosida qurilgan, o'qituvchi va o'quvchi tomonidan ham refleksli bo'lishi kerak. Bu mumkin, agar:

– bolaning psixologik xavfsizligini ta'minlash uchun pedagogik vazifalar psixologiyaga bo'lgan ehtiyojni hisobga olganda;

– pedagogik muammolarni qo'yish va hal qilish uchun asos bo'ladigan axborotlarni ongli ijtimoiylashuv tajribasini o'zlashtirish g'oyasi ilgari suriladi va deviant xulq-atvor qadriyatlariga qarama-qarshi bo'lgan qadriyatlar bilan tarbiyalanadi. Xulq-atvor qadriyatlarini shakllantirish bolaning shaxsiyatining shakllangan qadriyatlari – ideallari va qadriyatlari, xususiyatlarisiz shakllanishi mumkin emas. Bu davlat ta'lim standartining asosiy vazifasi hisoblanadi [3].

Talabaning ta'lim faoliyati natijalari o'qituvchining pedagogik faoliyatiga bog'liq. Xavf sohasi – bu o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi refleksli o'zaro ta'sir hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda ta'lim munosabatlari ishtirokchilarining xavf-xatarlarini tuzatishi doim muhim hisoblanadi. Masalan, ayrim hollarda o'quvchilarning universal tarbiyaviy harakatlarini shakllantirishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan no'anaviy o'qitish usullari psixologik xavf tug'dirishi mumkin. An'anaviy mashg'ulot olib boradigan professor-o'qituvchilarning dars o'tish usullariga o'rganib qolgan ba'zi ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatining faol shakllarini qabul qilishga tayyor emaslar–ular bunday darslarda adashib qolishadi, hech narsaga vaqtlari yo'q, ko'pincha, o'quv faoliyatining maqsadlarini tushunmaydilar. Bu esa, o'z navbatida, quyidagi ko'rinishdagi noqulayliklar tug'diradi.

Birinchidan, maksimum mumkin bo'lgan kutilgan va kutilmagan risklarni oldini olishda riskli vaziyatlarni chetlab o'tish, bunda darsni rejalashtirishda maksimal darajada ehtiyotkorlik qilish; noto'g'ri qarorlar qabul qilishdan qochish, oldindan ma'lum vaziyatlarni o'zgartirishga harakat qilmaslik uchun o'qituvchi vaziyatning jiddiylashib ketmasligi, bularni oldini olish zarurligini o'zi tushunishi va ta'lim

oluvchiga tushuntirmaguncha, darsning rejasining keyingi moduligi o'tish har doim samara bermaydi. Bunday holatlarda dars mashg'ulotiga ajratilgan vaqtdan samarasiz foydalanish o'qituvchining asosiy yordamchisiga aylanadi [4].

Ikkinchidan, qaror qabul qilishni kechiktirish, yuzaga kelgan muammolarni o'z vaqtida hal qilmaslik, keyinga qoldirish kabi holatlarda talabalarni eshita bilishi muhim. Masalan, talabalarga o'z muammolari bo'yicha o'z pozitsiyasini yozma ravishda bayon qilish, keyingi darsda yoki darsdan keyin muhokama qilishni davom ettirish, uni alohida muhokama qilish taklifini bildirish zarur. Bu darajada asosiy urg'u o'qituvchining nizolarning oldini olish qobiliyati shakllanganligi bilan o'lchanadi [5].

Uchinchidan, yuzaga kelgan vaziyat yuzasidan qabul qilingan qarorning yumshatilishi salbiy oqibatlarini maksimal daraja minimallashtiradi. Masalan, o'quv mashg'uloti paytida qisqa muddatli (1–3 minut) turli misollardan, pedagogik mahoratidan samarali foydalanish yoki ta'lim oluvchi tomonidan berilgan keskin savolni butun auditoriyaga yoki savol muallifiga yo'naltirish texnikalari bilan bog'liq. O'qituvchi ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish usullarini yaxshi egallagan bo'lishi zarur [6].

To'rtinchidan, vaziyatga qarab mutloq (o'zgarimas) qaror qabul qilish uchun pedagogikada, o'z navbatida, natijaga erishi uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf holatini ishlab chiqish zarurligini anglatadi. Mavjud holatdan boshqa vaziyatga o'tish uchun, odatda, bitta kichik qadam kifoya qiladi, ammo pedagogik improvizatsiya rejimida o'qituvchi, ko'pincha, qaysi birini aniqlashga vaqt topolmaydi. Natijada o'qituvchi talabalarining o'zlari pedagogik maqsadga erishish uchun ishlaydigan xulosa chiqarmaguncha, pedagogik xavf holatini "yumshatishda" davom etishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арламов А.А. Педагогический риск как проблема методологии социальной педагогики. Вестн. Адыгейского гос. ун-та. Серия 3, "Педагогика и психология", 2010, № 1, с. 12–21.
2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.12.2017. 09/18/1026/0497-сон; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.09.2019. 09/19/822/3840-сон; 08.04.2021.09/21/189/0303-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси 21.05.2021. 09/21/320/0482-сон; 18.01.2022. 09/22/25/0033-сон; 05.04.2022. 09/22/153/0266-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг буйруғи. «Олий таълимнинг давлат таълим стандарти. Асосий қоидалар». Ўзбекистон Республикасининг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида [Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2021 йил 27 октябрда ҳисобга олинди, ҳисоб рақами 43]. О'z DSt 3556:2021.
4. Михайлова Е.Н. Рискологические факторы и качество исследовательской деятельности педагога. "Вестн. Томского гос. пед. ун-та", 2009, № 10, с. 59 – 63.
5. Сабинина Н.Н. Профилактика профессиональных рисков педагога в условиях инновационной деятельности образовательного учреждения [электронный ресурс]. Дис. ...канд. пед. наук, 13.00.01. М., РГБ, 2012 (Из фондов Российской государственной библиотеки).
6. Хохлова Е.А. Предупреждение конфликтных ситуаций во взаимодействии учителей, учеников и родителей [электронный ресурс]. Дис. ...канд. пед. наук, 13.00.01. М., РГБ, 2003 (Из фондов Российской государственной библиотеки).

Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich (Qo'qon davlat Pedagogika instituti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

e-mail: jasurvodiy@mail.ru)

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV METODIKANING SAMARADORLIGI

***Аннотация.** Мақоллада hozirgi davrda dunyoda shiddat bilan kechayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot ta'limga, xususan, oliy ta'lim tizimiga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo qilayotganligi, har qanday mamlatning kelgusi istiqboli undagi raqobatbardosh kadrlarning yuksak intellektual salohiyatiga bog'liqligi, bo'lg'usi kadrlarning intellektual-ijodiy faoliyatining intellektual madaniyat asosida shakllanishi ularning kelgusi faoliyatining yuksak gumanistik xarakter kasb etishining eng muhim sharti va asosi bo'lib, talabalarda intellektual madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida falsafa fanidan oqilona foydalanishning pedagogik jihatlari haqida so'z yuritiladi.*

***Аннотация.** В статье подчеркивается, что в настоящее время в мире бурно идущее научно-техническое развитие требует серьезного внимания к образованию, в частности к системе высшего образования, что будущее любой страны зависит от высокого интеллектуального по-*

тенциала ее конкурентоспособных кадров, формирование интеллектуально-творческой деятельности будущих кадров на основе интеллектуальной культуры является важнейшим условием и основой дальнейшего гуманистического характера их деятельности, речь идет о педагогических аспектах рационального использования философии в формировании и развитии интеллектуальной культуры у студентов.

Annotation. *In the article, the scientific and technical development in the world, which is going on in the current period, requires serious attention to education, in particular the higher education system, the future prospects of any country, its dependence on the high potential of competitive cadres, the formation of future cadres on the basis of traditional culture, is the most important condition and basis, the students talk about the pedagogical aspects of rational use of philosophy in the formation and development intellectual culture.*

Kalit so'zlar: бўлгуси кадр, фалсафа фани, интеллект, маданият, фан, глобал муаммолар, интеллектуал маданият, интеллект механизми, интеллектуал капитал, интеллектуал саводхонлик, инновацион гоялар, интеллектуал қобилиятлар, интеллектуал маданият тузилмаси, интеллектуал маданият функциялари.

Ключевые слова: будущая ценность, философская наука, интеллект, культура, наука, глобальные проблемы, интеллектуальная культура, интеллектуальный механизм, интеллектуальный капитал, интеллектуальная грамотность, инновационные идеи, интеллектуальные способности, структура интеллектуальной культуры, функции интеллектуальной культуры.

Key words: *future personnel, philosophy of science, intelligence, culture, science, global issues, intellectual culture, intelligence engine, intellectual capital, intellectual literacy, innovative ideas, intellectual ability, intellectual culture, structure, intellectual culture functions.*

Davlat ta'lim standartining bosh maqsadi oliy ta'lim muassasasi bo'lajak o'qituvchilarining bilim olish davrida yetarli falsafiy malaka va muayyan bilimlar bazasini shakllantirish orqali jahon standartlariga javob beradigan kadrlarni tarbiyalashdir. Kuchli salohiyatli kadrlarni yetishtirishning asosiy omili yuksak pedagogik faoliyat va jarayonni tashkil qilishdir. Har bir davlat o'z rivojlanish darajasi va milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim tizimini shakllantiradi va uni yuqori saviyada tashkillash uchun ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtiradi. Bugungi kunda jamiyatimizdagi asosiy muammolardan biri ta'lim tizimini isloh qilish, xorij tajribasini o'rganish va olib kirish, milliy tadqiqotlar orqali yangicha pedagogik jarayonni tashkil qilishdir.

Ushbu tadqiqot ishi ham milliy ta'lim tizimini isloh qilish negizida yuksak intellektual madaniyatli bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalashning pedagogik jihatlarini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot ishi bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini rivojlantirishda falsafa ta'limi, falsafiy fanlar – falsafa, etika, estetika va mantiq ilmlari asosidagi ta'lim-tarbiya va pedagogik jarayonning samaradorligini aniqlashni maqsad qilgan.

Disseratsiya ishi doirasida tajriba-sinov ishlarining umumiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini rivojlantirishning innovatsion usullarini falsafa ta'limi misolida tahlil qilish, ularda falsafiy dunyoqarash, tanqidiy tafakkur va mantiqiy xulosa chiqarish, analitik tahlil ko'nikmalarini shakllantirishning samarali metod va vositalarini pedagogik amaliyotda sinab ko'rishdan iborat.

Tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari kreativ pedagogik faoliyatni tashkil etish, falsafa ta'limidagi tanqidiy fikrlash ko'nikmasi, mantiqiy tahlil qilish usuli, shuningdek, axloqiy, estetik va mantiqiy tafakkur va keng dunyoqarash – bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilishi tasdiqlandi.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida axborot oqimining ko'payib borayotganligi, hozirgi zamon bilimlari fanlararo xususiyatga ega ekanligi, xususiyl tor bilimlar mazmunining jadal o'zgarishi, fan-texnika faoliyatining zamon sharoitida mutaxassis tez moslashishi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi fundamental-konseptual bilimlar salmog'ini oshirishni talab etadi.

Maxsus ta'limda mutaxassis, barcha fanlarni o'rganish orqali emas, balki, eng avvalo, yangi bilimlar olishning umumilliy metodlarini yoki ma'lum bilimlarni turli sohalarida qo'llashning umumiy tamoyillarini o'rganish natijasida to'liq bilim olishi va ma'lumotli bo'lishi mumkin.¹ Bo'lajak o'qituvchilar uchun barcha ilmlarni o'rganishi (buning iloji ham yo'q) emas, balki bilim olish metodikasini va falsafiy dunyoqarashni rivojlantirish dolzarb vazifadir.

¹ Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. Toshkent, "Aloqachi", 2008, 207-bet.

Ushbu tadqiqot ishida ilgari surilgan farazni nazariy asoslash bilan birga, uni amaliy faoliyatda tajriba-sinov orqali isbotlash ham zarur. Shuning uchun oliy ta'lim jarayonida o'tkazilgan tajriba sinov va anketa so'rovlarni natijalarini tahlilini keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini o'sish darajasini ilg'or xorijiy va salohiyatli oliy ta'lim muassasalari bo'lgan Tailand ilmiy tadqiqot fondi (Thailand research fund), Janubiy Kaliforniya universiteti (University of Southern California), Shimoliy Karolina universiteti (North Carolina State University), Milliy ta'lim assotsiatsiyasi (National Education Association)ning tajribalari o'rganildi va umumiy xulosalar chiqarildi.

Xorij tajribasida bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini aniqlash va ularni rivojlantirish uchun analitik fikrlash, tanqidiy fikrlash, sintez qila olish, kreativ fikrlash, muammoni hal qilish sifatlariga alohida e'tibor qaratiladi.¹

Tailandning Ho'nKein universitetining Ta'lim fakulteti bo'lajak o'qituvchilar intellektual qobiliyatini aniqlashda ushbu shakllarni qo'llaydi va shu asosda o'qitadi. Bitiruvchi talabani intellektual qobiliyati yuqoridagilar bo'yicha imtihon asosida tekshiriladi va unga diplom beriladi. Bo'lajak mutaxassis oliy ta'lim muassasasi talablari asosida emas, ish beruvchi qo'ngan sifat, ko'nikma va malakalar bo'yicha baholaydi.

Janubiy Kaliforniya universitetida bo'lajak o'qituvchilarda intellektual tolerantlikni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Tadqiqotchi Harri Brod ta'kidlashicha, Janubiy Kaliforniya universitetida bo'lajak o'qituvchilar fikrlash tarzi, tanqidiy tafakkuri, analiz-sintez qilish layoqati yuksak tarbiyalanadi va intellektual tolerantlik, ya'ni ongda to'g'ri fikr, g'oya va nazariyaga, haqiqatgagina emas, boshqa fikrlarga ham joy shakllantirishga harakat qilinadi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarda dogmatik dunyoqarash shakllanmaydi va teran tafakkur rivojlanadi.²

Agar ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgansak, yangicha kadrlarni shakllantirishdagi innovatsion usul ularga faqatgina bilim berish, fanlarni o'rgatish emas, ularda tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, analitik tafakkur va muammoni hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish ekanligi namoyon bo'ladi. Tanqidiy fikrlash, analitik tafakkur va muammoni yechish ko'nikmasini faqatgina falsafiy fanlar, xususan, falsafa va mantiq fanlari rivojlantirishini hisobga olsak, ushbu fanlarni bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni aniq bo'ladi.

Mamlakatimizga, oliy ta'lim muassasalariga innovatsion texnika-texnologiyani emas, innovatsion fikrlashni, tafakkurni olib kirish zarur. Jamiyatdagi barcha muammolarni, global o'zgarishlar sharoitidagi masalalarni yangicha tafakkurga ega intellektual madaniyati yuksak kadrlarigina bartaraf eta oladi.

Dissertatsiyaning statistik tahlil qilish jarayonida u yoki bu gipotezani tekshirish uchun maxsus tajribalar o'tkazish yo'li bilan aniq ma'lumotlar va shu farazga muvofiq nazariy jihatdan kutilayotgan ma'lumotlar bilan taqqoslandi.

Bo'lajak mutaxassislarning intellektual madaniyatini rivojlanganlik darajasi, dunyoqarashi, tafakkur qilish tarzi, muammoni yechish ko'nikmasi tadqiqot ishiga doir maxsus tayyorlangan testlar va savollarni asosida aniqlandi.

Qo'qon davlat Pedagogika institutidan tanlab olingan guruhda bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy tafakkur qilish ko'nikmasi falsafa ta'limi va falsafiy metodlar asosida rivojlantirildi. Bunda suqrotcha bahs, dialektik, sinergetik, induktiv va deduktiv metodlar samarali foyda berdi va uch oylik mashg'ulotlardan so'ng bo'lajak o'qituvchilar tanqidiy fikrlashini aniqlash uchun qayta 10 ta savoldan iborat test o'tkazildi. Guruhdagi 15 nafar talabadan 8 nafarining tanqidiy fikrlashi va dunyoqarashi yuqori darajaga ko'tarilganligi ma'lum bo'ldi va o'zgargan holat 53%ni tashkil qildi. Qolgan bo'lajak o'qituvchilarda ham o'zgarishlar bo'ldi, ularni masalaga va savollarga yondashuvlari o'zgardi. Ular ijtimoiy jarayonlarga boshqa tomondan qarashni o'rganishdi. Bundan kelib chiqadiki, bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini negizini tashkil qiluvchi tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishning samarali va tezkor usuli falsafa ta'limi va falsafiy metodlardir.

¹ Sompong Punturat, Paisan Suwanno, Jatuphum Ketchaturat. Intellectual Skills Assessment for the Teacher Students at the Faculty of Education, Khon Kaen University. *Procedia – Social and Behavioral Sciences* 116 (2014), p. 1704 – 1708.

²Changwong K., Sukkamart A., Sisan B. (2018). Critical thinking skill development: Analysis of a new learning management model for Thai high schools. *Journal of International Studies*, 11(2), p. 37-48. doi:10.14254/2071-8330.2018/11-2/3.

Shuningdek, Qo‘qon davlat Pedagogika instituti, Farg‘ona davlat universiteti, Namangan davlat universiteti va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetlarida falsafiy fanlar keng hajmda va alohida e‘tibor bilan tashkillangandan so‘ng bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash, analitik tahlil va muammoni hal qilish ko‘nikmasini rivojlanganlik holatini aniqlash uchun qayta tajriba-sinov o‘tkazildi.

Qo‘qon davlat Pedagogika instituti, Farg‘ona, Namangan va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetlari bo‘lajak o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlash, analitik tahlil va muammoni yechish ko‘nikmasini falsafa ta‘limi asosida o‘zgargan holatini aniqlash uchun qayta 20 ta savoldan iborat tajriba-sinov o‘tkazildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash, analitik tahlil va muammoni hal qilish ko‘nikmasi o‘zgargan holati ko‘rsatkichlari

Tajribadan oldingi holat

OTM nomi	Mantiqiy fikrlash ko‘nikmasi	Analitik tahlil ko‘nikmasi	Muammoni yechish ko‘nikmasi
Qo‘qon davlat Pedagogika instituti	29%	26%	23%
Farg‘ona davlat universiteti	33%	34%	29%
Namangan davlat universiteti	30%	33%	35%
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti	35%	36%	34%

Tajribadan keyingi holat

OTM nomi	Mantiqiy fikrlash ko‘nikmasi	Analitik tahlil ko‘nikmasi	Muammoni yechish ko‘nikmasi
Qo‘qon davlat Pedagogika instituti	48%	46%	53%
Farg‘ona davlat universiteti	53%	54%	59%
Namangan davlat universiteti	50%	53%	55%
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti	55%	56%	54%

Tajriba-sinov ishlarini qayta o‘tkazish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash, analitik tahlil va muammoni hal qilish ko‘nikmasini falsafa ta‘limini yangicha usulda o‘tish asosida o‘zgargan holatini aniqlash edi va bu holat Qo‘qon davlat pedagogika institutida 49%ni, Farg‘ona davlat universitetida 55% ni, Namangan davlat universitetida 53%ni va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida 55%ni tashkil qildi. Albatta, bu natijalar ushbu ta‘lim muassasalarining umumiy holatini ko‘rsatib bera olmaydi. Shunday ekan, biz dissertatsiyada ilgari surgan yangicha falsafa ta‘limi texnologiyalari mavjud holatni o‘zgartirdi va oliy ta‘lim muassasasi umumiy salohiyatini oshirishga ozgina hissa qo‘shdi.

Farg‘ona davlat universitetidan tajriba guruhi uchun 76 nafar, nazorat guruhi uchun 74 nafar, Qo‘qon davlat Pedagogika institutidan tajriba guruhi uchun 74 nafar, nazorat guruhi uchun 75 nafar, Namangan davlat universitetidan tajriba guruhi uchun 75 nafar, nazorat guruhi uchun 72 nafar, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetidan tajriba guruhi uchun 74 nafar, nazorat guruhi uchun 75 nafar bo‘lajak o‘qituvchilar tanlab olindi. Bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual madaniyatini innovatsion usulda falsafa ta‘limi asosida rivojlantirishni tajribada sinash uchun jami 595 nafar talaba qamrab olindi.

Xulosa va tavsiyalar

1. Tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual madaniyatini falsafa ta‘limi asosida innovatsion usulda rivojlantirish texnologiyasi tahlil etildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyati aqliy-ruhiy qobiliyatga asoslangan gnoseologik faoliyat turi bo‘lib, talabaning aqliy qobiliyati, bilimi, fikrlash darajasi, tanqidiy tafakkuri, dunyoni ilmiy bilishi va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati, turli masalalarni individual hal qilishi, oqilona ish tutishi, voqea-hodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqatining yuksak ko‘rinishi ekanligi aniqlandi.

2. Salohiyatli xorijiy ta‘lim muassasalarida talabaning bilimlilik darajasi emas, uning tanqidiy fikrlashi, analiz-sintez qilish qobiliyati, kreativligi va muammoni hal qilish layoqatiga chuqur e‘tibor qaratilishi aniqlandi va mamlakatimizdagi oliy ta‘lim muassasalarida ham strukturaviy o‘zgarishlar bilan birga bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual madaniyatini yuksaltiruvchi fanlar va amaliy faoliyat mezonlarini

ishlab chiqish zarurligi ko'rsatib berildi. Eng asosiy ustuvor vazifa bo'lajak o'qituvchilarni yangicha tafakkur va teran dunyoqarash sohiblari qilib tarbiyalash ekanligi asoslandi.

3. Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlar davrida intellektual salohiyati yuksak kadrlar, yangicha tafakkur va dunyoqarashga ega mutaxassislar ehtiyojning mavjudligi bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning obyektiv ijtimoiy-pedagogik zaruratini asoslandi. Bu esa falsafa ta'limining bosh pedagogik vazifasi teran fikrlashga o'rgatish va mantiqiy tafakkurni o'stirish tamoyilining ahamiyatini ko'rsatib berdi. Bugungi kunda falsafa fani bo'lajak o'qituvchilarda bilimning faqatgina bir darajasi – chiziqli ratsional tafakkur, nazariya bilangina cheklanmasdan, nochiziqli tafakkurni hamda ilmiy va estetik intuitsiyani shakllantirishi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi.

4. Falsafa ta'limidagi induksiya, deduksiya, suqrotcha bahs, dialektik, sinergetik, germenevtik, analitik tahlil metodlari bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullari bo'lib, ular tafakkur qilishning eng umumiy qoidalarini, bosh strategiyasini belgilaydi. Bugungi kunda bo'lajak kadrlar intellektual madaniyatini innovatsion usulda falsafa ta'limi asosida yuksaltirish dolzarb, lekin ko'r-ko'rona, dogmatik ravishda emas, ongli tanqidiy tafakkur asosida bo'lishi kerakligi asoslandi.

5. Tadqiqot ishi doirasida tajriba-sinov ishlari orqali bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini rivojlantirishning innovatsion usullarini falsafa ta'limi misolida tahlil qilindi, ularda falsafiy dunyoqarash, tanqidiy tafakkur va mantiqiy xulosa chiqarish, analitik tahlil ko'nikmalarini shakllantirishning samarali metod va vositalarini pedagogik amaliyotda sinaladi va samarali natijalar olindi. Tajriba-sinov ishlari kreativ pedagogik faoliyatni tashkil etish, falsafa ta'limidagi tanqidiy fikrlash ko'nikmasi, mantiqiy tahlil qilish usuli, shuningdek, axloqiy, estetik va mantiqiy tafakkur va keng dunyoqarash – bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilishi tasdiqlandi.

6. Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual salohiyatini bazaviy fanlardan bilimlilik darajasi, mantiqiy fikrlashi va ilmiy-falsafiy bilimliliigi, ilmiy-badiiy va falsafiy asarlar va adabiyotlarni ta'lim jarayonida va mustaqil ta'limda o'rganish, tanqidiy tafakkurini namoyon qilish bo'yicha mavjud holat va falsafa ta'limi texnologiyalari asosida olib borilgan mashg'ulotlardan keyingi natijalarda aniqlandi va qiyosiy-tahliliy ishlari olib borildi.

7. Tajriba-sinov ishlari orqali bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash, analitik tahlil va muammoni hal qilish ko'nikmasini aniqlashni maqsad qilindi va bu holat Qo'qon davlat Pedagogika institutida 26%ni, Farg'ona davlat universitetida 32%ni, Namangan davlat universitetida 33% ni va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 35%ni tashkil qildi. Falsafa ta'limidan so'ng tajriba-sinov ishlarini qayta o'tkazish orqali mavjud holat Qo'qon davlat Pedinstitutida 49%ni, Farg'ona davlat universitetida 55%ni, Namangan davlat universitetida 53%ni va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 55%ni tashkil qildi.

8. Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning innovatsion texnologiyasiga doir xorij va milliy tajribalarni o'rganish va ularni ommalashtirish zarur. Bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni inobatga olgan holda milliy metodika va muayyan shart-sharoitlar muhitini yaratish lozim.

Axtamov Djamshed Baxromovich

(Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti Jismoniy madaniyat kafedrasini mudiri)

MUTAXASSISLIK TERMINLARINI O'QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada turizm va xizmat ko'rsatish sohasiga oid mutaxassis kadrlarga dars berish jarayonida maxsus izohli lug'atlardan foydalanish, turistik terminlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish va ta'lim jarayoniga "Hamkorlikda ishlash" innovatsion texnologiyasini tatbiq etish qonuniyatlari haqida so'z boradi. Maqolada so'zlarni bog'lash va terminlarni kalkalash usullaridan hamda tahlil va sintezdan foydalanilgan.*

***Аннотация.** В данной статье рассказывается об использовании специальных толковых словарей, лингвистическом анализе туристских терминов и применении инновационной технологии «Работаем вместе» в образовательном процессе обучения специалистов туризма и сервиса. В статье используется метод анализа и синтеза, связывание слов и сопоставление терминов.*

***Annotation.** This article describes the use of special explanatory dictionaries, the linguistic analysis of tourist terms and the application of the innovative technology "We work together" in the educati-*

onal process of training tourism and service specialists. The article uses the method of analysis and synthesis, linking words and comparing terms.

Kalit so'zlar: terminologiya, innovatsion tizimi, lingvistika, innovatsiya, ta'lim, integratsiya, turistik innovatsiyalar, nutq madaniyati.

Ключевые слова: терминология, инновационная система, лингвистика, инновация обучение, интеграция, туристические инновации, культура речи.

Key words: terminology, innovation system, linguistics, innovation training, integration, tourism innovations, culture of speech.

Turizm va xizmat ko'rsatish sohasi sharofati bilan dunyoning barcha mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi va aholining turmush farovonligi qo'llab-quvvatlanib turiladi. Shu sababli ko'pgina mamlakatlarda turizm va xizmat ko'rsatish sohasiga mutaxassis kadrlarni tayyorlash ishiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Turizm va xizmat ko'rsatish sohasini izchil o'rganishga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda va turizm sohasi bo'yicha zamonaviy, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash davr talabi bo'lib qolmoqda. Shunga qaramay, hozirgi kunda turizm va xizmat ko'rsatish sohasida kasbiy ta'limni o'rganish jarayonida anchagina qiyinchiliklarga duch kelinmoqda.¹ Buning sababi shundan iboratki, turizm va xizmat ko'rsatish ilm-fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida kundalik hayotimizga kundan kunga xorijiy turli xil atamalar, iboralar kirib kelmoqda va ularning soni borgan sari ko'payib bormoqda, shu sababli respublikamiz oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayonlarida va xalqimiz leksikasida xorijiy tillardagi atamalar va iboralar sonining ortib borishi turizm va xizmat ko'rsatish sohasiga oid mutaxassis kadrlarga dars berish jarayonida maxsus izohli lug'atlardan foydalanish va mutaxassislik terminlar bilan ishlash jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.²

Hozirgi kunda bir qator ilmiy maktablar shakllangan bo'lib, ular kognitiv lingvistika muammolari bilan shug'ullanadi. Ushbu maktablarning har biri kalit terminning o'ziga xos talqini bilan xarakterlanadi. Ulardan Moskva (E.S.Kubryakova, V.A.Vinogradov, V.F.Novodranova, E.V.Raxilina va boshqalar), Irkutsk (A.V.Kravchenko va uning shogirdlari), Tambov (N.N.Boldrev, A.L.Sharandin, T.A.Fesenko va boshqalar), Voronej (Z.D.Popova, I.A.Sternin, A.P.Babushkin va boshqalar) maktablarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu maktabda "Краткий словарь когнитивных терминов" nashr etilgan.³

Termin yasalishidagi ichki imkoniyatlar deganda, har bir tilning mavjud ifoda vositalaridan va materiallaridan to'liq foydalanish nazarda tutiladi. Muayyan til terminologik tizimi asosan o'sha tillarning liasoniy bazasida so'z yasash, so'zlarning leksik ma'nosini o'zgartirish va ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni olib kirish maqsadida, maqolamizda "Hamkorlikda ishlash" metodi, tahlil va sintez, so'zlarni bog'lash va terminlarni kalkalash usullaridan foydalanilgan.

O'zbekistonda sodir bo'layotgan ulkan o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan tub islohotlar, fan-texnika taraqqiyoti, boshqa davlatlar bilan olib borilayotgan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tilda o'z ifodasini topmoqda. Darhaqiqat, jamiyat hayotida ro'y beradigan har qanday o'zgarish tilda o'z aksini topishi tabiiy. Bugungi kuni turli sohalarni terminologiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jamiyatdagi barcha o'zgarish va yangilanishlar, avvalo, tilda aks etar ekan, jarayonlar tilshunoslar oldiga qator vazifalarni qo'yadi. Ushbu vazifalardan biri lingvistik jihatdan tahlil qilish va rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish masalasidir.

Olimlarning aniqlashlaricha, bugungi kunda 500 dan ortiq yirik sohalar va ularning o'nlab yirik bo'limlari mavjudki, har biri o'ziga xos terminologik tizimga ega. Mamlakatimizda ham turli sohalar shiddat bilan rivojlanib borayotgani, buning natijasida terminologik tizimning ham boyib borayotgani sir emas. Terminologik tizimda turizm terminologiyasi ham salmoqli o'rinni egallaydi.

Shu bilan birga, pedagogik yangilanish predmeti yangilanish jarayoni samaradorligi va ularni aniqlovchi omillar orasidagi bog'liqlik, shuningdek, o'zgarishlar samaradorligini oshirish maqsadida shu omillarga ta'sir etish usullaridan iborat.⁴ Innovatsion jarayonlar quyidagi bosqichlarga ajraladi.

¹ Виноградова Л. Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах. Автореф. дисс... канд. филол. наук, Великий Новгород, 2011.

² Маматкулов Х.М. Туризм ва хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар. Изохли луғат. Т., "Иқтисод-молия", 2010.

³ Белан Э. Особенности формирования новых терминосистем (на материале английской и русской терминологий международного туризма). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук, Москва, 2009.

⁴ Махкамова М.А. Инновацион менеджмент. Ўқув қўлланма, Т., "Фан ва технология", 2013.

1. Yangi g'oyalarning tug'ilishi va yangilanish konsepsiyasining paydo bo'lish bosqichi. Bu shartli ravishda fundamental va amaliy izlanishlar natijasi tarzida yangilik yaratish deyiladi.

2. Yaratish bosqichi. Muayyan obyektga amalga oshirilgan yangilik–moddiy yoki ma'naviy narsa-namuna.

3. Yangilik kiritish bosqichi. Yaratilgan yangilik amaliyotga tatbiq etiladi, qayta ishlanadi. Bu bosqich kiritilgan yangilikdan yuqori samaraga erishish bilan yakunlanadi. So'ng yangilikning mustaqil harakatlanishi boshlanadi. Yangiliklar qo'llanilish jarayonida yanada boshqa bosqichlarga ajraladi.

4. Yangiliklarni hayotga tatbiq etish bosqichi. Yangiliklarni boshqa sohalarga ham keng qo'llashda namoyon bo'ladi.

5. Muayyan sohada yangilikning turg'un xizmat qilish bosqichi.

Dars jarayonida talabalar mutaxassislik terminlarini o'zlashtirish uchun "Hamkorlikda ishlaymiz" innovatsion texnologiyasini tatbiq qilishi mumkin. 4 ta kichik guruh tashkil qilinadi, har bir guruhda 4–5 talaba ishtirok etishi mumkin.¹

Har bir kichik guruhga bir xil topshiriq beriladi: turizm terminologiyasiga oid glossariy tuzish yoki 1-jadvalni to'ldirish:

1-jadval

Bozorni segmentlash	Iste'molchilarni ularning ehtiyojlarini, imkoniyatlari yoki xulq-atvorlariga asosan guruhlarga ajratish jarayoni.	Market segmentation	Сегментация рынка	Процесс асигнования групп исходя из потребностей, возможностей и поведения потребителей.
Turizm	Jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, jismoniy shaxsning istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda, uzog'i bilan, bir yil muddatga jo'nab ketishi.	Tourism	Туризм	Выезды или туристские поездки физических лиц в другую страну или местность, от места постоянного жительства, с целью, кроме трудоустройства.
Turist	O'zbekiston respublikasi hududi bo'ylab yoki boshqa mamlakatga sayyohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo'nab ketgan) jismoniy shaxs.	Tourist	Турист	Физическое лицо совершающее туристическое путешествие в пределах или за пределами Узбекистана.
Turistik faoliyat	Sayyohat va ular bilan bog'liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyat.	Tourist activities	Туристская деятельность	Деятельность связанная с организацией всех форм выезда людей с места постоянного жительства.
Turistik industriya	Turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi turli sub'ektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ov-qatlanish, transport korxonalar, madaniyat, sport muassasalari va boshqalar) majmuyi.	Tourism industry	Индустрия туризма	Это совокупность гостиниц и иных средств размещения, средств транспорта, объектов, познавательного, делового, оздоровительного, спортивного и иного назначения, организа-

¹ Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари. Т., "Фан", 2016, 76-бет.

				ция осуществляющих туроператорскую и турагентскую деятельность.
--	--	--	--	---

Kichik guruhdagi har bir talabaga alohida topshiriq beriladi: 1 ustunda o'zbek tilida turizmga oid terminlar ko'rsatilgan, 2 ustunda mazkur terminlarga o'zbek tilida ta'rif berish kerak (bir raqam ostidagi talaba bajaradi), 3 ustunda xalqaro miqyosidagi nomi yozilishi kerak (ikki raqam ostidagi talaba bajaradi), 3 ustunda rus tilidagi tarjimasi (uch raqam ostidagi talaba bajaradi), 4 ustunda rus tilida terminga berilgan ta'rifi yoziladi (to'rt raqam ostidagi talaba bajaradi).

Mazkur texnologiyani tatbiq etishda quyidagilarga e'tibor beradi: har bir guruhda aktiv va passiv talabalar ishtirok etishi kerak, guruh yuqori ball to'plashi uchun passiv talaba aktiv talabani fikrini eshishga harakat qiladi va terminlarni (o'zbek, ingliz va rus) tillarida yozilishi, aytilishi va tarifiga alohida etibor beradi va eslab qoladi. Bu texnologiya hamkorlikda ishlashni talab qiladi, samaradorligi ham shunda.

Termin yasashidagi ichki imkoniyatlar deganda, har bir tilning mavjudifoda vositalaridan va materiallaridan to'liq foydalanish nazarda tutiladi. Kuzatishlardan ma'lumki, muayyan til terminologik tizimi asosan o'sha tillarning lisoniy bazasida so'z yasash, so'zlarning leksik ma'nosini o'zgartirish, ushbu tillarning ichki imkoniyatlari asosida so'zlarni bog'lash, mavjud terminlarni kalkalash orqali rivojlanadi.

Ijtimoiy psixologik tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, turizm va servis sohasida mutaxassislar faoliyatida muloqot juda muhim o'rin tutadi. Chunki ular o'z faoliyatlarini, asosan, muloqot orqali amalga oshiradilar. Odatda, muloqot deganda kishilarning o'zaro ma'lumot, mutaxassislik terminlarini bilish va fikr almashish asosida bir-birlari bilan nutqli aloqalar o'rnatish va rivojlantirish jarayoni tushuniladi.¹

O'rganishlar asosida, ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni qo'llash bir qadar murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayonda mutaxassislik yo'nalishlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish taqozo etiladi. Shu bilan birga, quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1) turizm va xizmat ko'rsatish sohasiga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda matn, terminologik va izohli lug'atlar o'stida ishlashni takomillashtirish;

2) turizm va xizmat ko'rsatish sohasida kasbiy ta'limni o'rganish jarayonida pedagog noan'anaviy ta'lim asoslarini hamda o'qitishning interfaol, reproduktiv va muammoli izlanish noan'anaviy ta'lim usullarini puxta o'zlashtirishi hamda o'z faoliyatlarida ulardan samarali foydalanish malakasi (tajribasi)ga ega bo'lishi;

3) noan'anaviy ta'lim usullari nazariyasi va uning asoslari borasida ma'lumotlar bera oluvchi manbalarni chop etish, ya'ni, turizm yo'nalishiga oid fanlarni o'qitishda "Hamkorlikda ishlaymiz", "Davra suhbat", "Blits so'rov", "Ta'limiy o'yin", "Pinbord", "Vaziyatlar usuli", "O'quv loyihalari" va "Keys-stadi" noan'anaviy ta'lim usullari borasida ma'lumotlar bera oluvchi manbalar (o'quv qo'llanma, elektron darsliklar)ni chop etish;

4) ta'lim jarayonida ta'lim shakliga mos holda xonalarning jihozlanishi, noan'anaviy ta'lim usullarini qo'llaganda vaqt chegarasini standartlashtirishga hamda texnik jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasiga e'tibor berish.

Seytkasimov Dauletnazar Beknazarovich (QQDU Qoraqalpoq Tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori)

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA QORAQALPOQ TILI BO'YICHA FILOLOG TALABALARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MODUL TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Pedagogika fanining rivojlanishi tahlili shuni ko'rsatadiki, bu barcha operatsiyalarning zamonaviy talabalariga javob beradigan uslubiy, didaktik va uslubiy jarayonlar bilan ta'minlangan, shuningdek, samarali bo'lgan jarayondir. Talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirish, o'qish va uslubiy yordamni amalga oshirish bajarilishi va e'tiborga olinishi kerak bo'lgan vazifadir. Tadqiqot ja-

¹Маматкулов Х.М. Туризм ва хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар. Изохли луғат, Т., «Икки-сод-молия», 2010.

rayonida maxsus o'qitish usullarini o'qitishda filolog talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish amalga oshirildi.

Аннотация. Анализ развития педагогики показывает, что это процесс, обеспеченный методическими, дидактическими и методическими процессами, отвечающий современным требованиям всех операций, а также эффективный. Развитие языковых компетенций учащихся, осуществление читательского и методического обеспечения – задача, которую необходимо выполнять и учитывать. В ходе исследования развитие лингвистических компетенций студентов-филологов проводилось при обучении специальным методикам обучения.

Annotation. An analysis of the development of pedagogy shows that this is a process provided with methodological, didactic and methodological processes that meets the modern requirements of all operations, and is also effective. The development of the language competencies of students, the implementation of reading and methodological support is a task that must be performed and taken into account. In the course of the study, the development of linguistic competencies of students-philologists was taught while teaching special teaching methods.

Kalit so'zlar: tajriba-sinov ishlari, pedagogik jarayon, takomillashtirish yo'li, izchillik, uzluksizlik, mukammallik, samaradorlik, filolog talaba, modellashirish, namunali model, xulq-atvor, ijtimoiy sharoit, ta'lim darajasi, ijtimoiy faollik.

Ключевые слова: экспериментальная работа, педагогический процесс, протекание совершенствования, системность, преемственность, совершенство, эффективность, студент-филолог, моделирование, образцовая модель, поведение, социальные условия, уровень образованности, социальная активность.

Key words: experimental work, pedagogical process, flow improvement, consistency, continuity, perfection, efficiency, philologist-student, modeling, exemplary model, behavior, social conditions, level of education, social activity.

Qoraqalpoq oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasi ta'lim berish jarayonining sifati va samaradorligini belgilaydigan zarur omillardan hisoblanadi. O'zining zamonaviy talablariga mos bo'lgan yangi darslik va o'quv qo'llanmalar, o'quv dasturlarini ishlab chiqish oliy ta'lim tizimining dolzarb vazifasidir.

Pedagogika fani taraqqiyotining tahlili, fan va amaliyotning zamonaviy talablariga javob beradigan metodologik, didaktik va metodik ishlanmalar bilan ta'minlangan jarayon bo'lish bilan birga, samarador bo'lishini ham ko'rsatadi. Talabalarning lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish, o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish – murakkab va mas'uliyatli ish.

Tadqiqot ishi doirasida filolog talabalarning lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishda oliy o'quv yurtlarida fanlarning maxsus metodikalarining dasturiy ta'minoti muammosi o'rganib chiqildi. Ishlab chiqilgan o'quv dasturlaridan foydalanish bilan O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonining xususiyatlarini o'rganib chiqamiz. Bunda o'quv dasturi, oliy ta'lim standartlari, oliy o'quv yurtlari o'quv rejasi asosida ishlab chiqilgan. Materialning aniq mazmunini, uning hajmini, o'rganish gipotezasi, mavzular va bo'limlar bo'yicha soatlarning aniq miqdorini aks ettiradi.

O'quv dasturlarini ishlab chiqishda talabalarning bilimlarni faol o'zlashtirishlari prinsipi asos qilib olindi. Ushbu tamoyil qator izlanishlar ko'rsatganiday, P.Y.Galperinning aqliy xulqlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasini qo'llash orqali amalga oshirilgan.

Biz talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalari va u yerdagi o'quv soatlari bilan tanishib chiqdik. O'rganish jarayonida Qoraqalpoq davlat universitetida 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (qoraqalpoq tili), Nukus davlat Pedagogika instituti 5111300 – Ona tili va adabiyoti (Qoraqalpoq tili va adabiyoti) va Navoiy davlat Pedagogika instituti 6011500 – Qoraqalpoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarining lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishda olib boriladigan o'quv rejalari bilan tanishib chiqdik.

Tajriba-sinov ishlari Qoraqalpoq davlat universiteti filolog talabalarining lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish pedagogik shart-sharoitlar kompleksidagi tizim hosil qiluvchi element bo'lib, «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o'qitish metodikasi» fani, o'quv-metodik kompleksining va modulli o'qitish pedagogik texnologiyasini kiritish xizmat qildi.

Loyihalangan pedagogik protsessda «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o'qitish metodikasi» nomli yozuvga o'rgatish metodikasi bo'yicha o'quv dasturi asosiy metodik hujjat hisoblanadi.

Ta'kidlagan o'quv dasturini ishlab chiqishda biz quyidagilarga asoslandik:

– ushbu o'quv-metodik jamlanmaga obyektiv zarurat mavjudligi;

– o‘quv dasturi uning mazmunini amalga oshirish va qo‘yilgan maqsadga erishishda aniq pedagogik texnologiyaga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

«Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» o‘quv-metodik kompleksi bo‘lajak o‘qituvchining metodik, kasbiy, intellektual ishga layoqatlilikni amalga oshirishga muhayyo ekanligini, tushunishga mos turda ishlab chiqildi.

Talabalarining lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarador yondashuvlar sohasidagi o‘tkazilgan izlanishlar natijasida o‘qituvchining moyillashuvini hisobga olib tayyorlandi:

◆ ilmiy bilimlar taraqqiyotining kumulativ xossasi: psixologiya, fiziologiya va metodikaning yangi ma’lumotlar avvalgilari bilan to‘ldirib birlashtirildi.

«Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» o‘quv dasturini tuzishda biz quyidagi prinsiplarga suyardik.

Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi o‘quv dasturini tuzishda foydalanilgan tamoyillar

№	Tamoyillar	Tamoyillarning mazmun-mohiyati
1.	Ilmiy konseptual asoslangan	Maxsus ilmiy qoidalarga yo‘naltirish
2.	Qadriyatli va maqsadli yo‘naltirish	Belgilangan natijalarga erishishga yo‘naltirish
3.	Prognozlik va faollik	O‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta‘minlash, shu bilan birga, ertangi kun zaruratini avvaldan ko‘ra olish
4.	Shaxsiy yo‘naltirilgan yondashuv	Talabani shakllanish bosqichida bo‘lgan to‘la rivojlanuvchi shaxs sifatida yo‘naltirish
5.	Holatli va optimallashtirilgan yondashuvlar	Yagona turmush holatlari uchun muhayyo nazariya va amaliyotlarni bekor etish, ma’lum holat uchun eng yaxshi konsepsiyalar va izlanishlarga tayyorgarlik

O‘tkazilgan pedagogik texnologiyalarning tahlili, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va talabalarining «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» o‘quv dasturi asosidagi ishlari farqli pedagogik texnologiya hisoblanishi haqidagi yakunga kelish imkonini berdi. Shu sababli «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» o‘quv dasturi mazmunini aniqlash uchun asos bo‘lib, filolog o‘qituvchining lingvistik kompetentligi professiogrammasi va tuzilmasi xizmat qiladi. Bunda quyidagi asoslarga suyardik:

a) tizimlilik – mantiqiy tartiblilik, avvalgi ma’lumotlarga tayanish, axborot bloklari o‘rtasidagi aloqalarni ochib berish;

b) uzluksizlik – tinimsiz va mustaqil izlanuvchilik;

d) umumiylik – aniq fanlarni umumlashgan bilimning bo‘lagi sifatida qabul qilish qobiliyati, har xil fanga tegishli bilimlarni yagona majmualarda birlashtirish;

e) tezkorlik – turli holatlarda bilimlarni qo‘llashga tayyorgarlik;

f) moslashuvchanlik – o‘z bilimlarini o‘zgargan holatda qo‘llash usullarini mustaqil topish qobiliyati.¹

Ishlab chiqilgan «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» fani maxsus fan sifatida bo‘lishi sababli uni o‘quv dasturining tipologiyasini fanga tegishli turdagi dastur sifatida o‘rganib chiqildi:

– jadval shaklidagi tuzilmaga ega dastur sifatida qayd etdik, sababi o‘quv materiali takrorlashlarsiz va ilgari o‘tilganlarga qaytishlarsiz joylashtirilgan;

– o‘quv vaqtida bir marotaba ishlab chiqiladigan bir-biri bilan bevosita bog‘langan uzluksiz ketma-ketlikni hosil qiladi.

Dastur amaldagidan farqi takomillashtirish asosida ishlab chiqilgani sababli, «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» fani bo‘lim va modullarga ajratilgan.

Modullarning har biri bo‘yicha talabalarining lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda nimani bilishi va muammoni yecha olishi, qanday tajribalarni egallashi kerakligi ochib berilgan.

Fanni o‘qitish jarayonida keltiriltgan mavzular nazariylik qoidalardan uning aniq metodik amalga oshirishga o‘tishni ketma-ket ochib beradi. Ushbu mavzu to‘satdan emas, u talabalarining lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishning sifatini yaxshilash talabi bilan belgilangan.

¹ Allaniyazova Sh., Tan‘irbergenov J. Qoraqalpoq tilin woqi‘ti‘wda innovatsiyali‘q texnologiyalar. No‘kis, “Bilim”, 2015, 60-bet.

**Qoraqalpoq davlat universiteti filolog talabalarining lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishda
Qoraqalpoq tili va adabiyotini o'qitish metodikasi faniniing modul tuzilishi**

Modul	№	Amaldagi mavzular	Taklif etilgan mavzular
1-modul Qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi	1.	Qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi	Qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi fan sifatida. Qoraqalpoq tilini o'qitishda qo'llaniladigan metodlar va usullar
	2.	Qoraqalpoq tilini o'qitishning prinsiplari	O'quvchilarning yozma savodxonligini rivojlantiruvchi metodikalar
	3.	Qoraqalpoq tilini o'qitishda qo'llaniladigan metodlar va usullar	Diktant, insho, bayon yozish usullari
	4.	Qoraqalpoq tili darsida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish usullari	Qoraqalpoq tilida fonetikani o'qitish usullari
	5.	Qoraqalpoq tilini o'qitishni tashkil etish va o'tkazish usullari	Qoraqalpoq tilida leksikologiyani o'qitish usullari
	6.	Qoraqalpoq tili darslarini ta'minlash	Qoraqalpoq tilida so'z yasaliş usullarini o'qitish
	7.	Fonetika va leksikologiyani o'qitish metodikasi	Qoraqalpoq tilida so'z turkumlarini o'qitishda qo'llaniladigan interfaol mashg'ulotlar
	8.	Morfologiya va sintaksisni o'qitish metodikasi	Gap a'zolari, oddiy gaplardi o'qitishda qo'llaniladigan usullar
	9.	Yozma ishlarning turlari, o'tkazish va baholash usullari	Qo'shma gaplarni o'qitishda qo'llaniladigan usullar
	10.	O'quvchilarning so'z boyligini rivojlantirish yo'llari	Matnni o'qitishda qo'llaniladigan usullar
	11.	Qoraqalpoq tili bo'yicha darsdan tashqari ishlar va amaliyotni o'tkazish	Stilistikani o'qitishda qollanladigan interfaol mashg'ulotlar
2-modul Qoraqalpoq adabiyotini o'qitish metodikasi	12.	«Qoraqalpoq adabiyotini o'qitish metodikasi» fanining maqsadi va vazifalari	Tinish belgilarini o'qitishda qo'llaniladigan usullar
	13.	Qoraqalpoq adabiyotini o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi	Qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda innovatsion texnologiyalar
	14.	Adabiyotni o'qitish metodikasining tarixiy rivojlanishi	Adabiyot darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma so'z madaniyatini rivojlantirish yo'llari
	15.	Dasturdagi materiallarni o'rganish tartibi	Folklor janrini o'qitish metodikasi
	16.	Kirish ishlarni o'rganish usullari	Mumtoz shoirlar ijodkorligini o'rganish metodikasi
	17.	Ifodali o'qish va uni tashkil etish yo'nalishlari	Qoraqalpoq yozuvchilari va shoirlari badiiy asarlarini o'qitishda qo'llaniladigan usullar
	18.	Dars turlari va uni tashkil etish usullari	Xorij adabiyotini o'qitishda interfaol mashg'ulotlardan foydalanish
	19.	Qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda innovatsion texnologiyalar	Mustaqillik davridagi yozuvchi-shoirlar badiiy asarlari va ularni o'rgatish metodikasi
	20.	Adabiyot darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma so'z madaniyatini rivojlantirish yo'llari	Hozirgi davr yozuvchi-shoirlar badiiy asarlarini o'rgatish metodikasi
	21.	Yozuvchining tarjimai holini o'rganish	O'quvchilarda badiiy asarlarni o'qish va tanqid qobilivatini rivojlantiruvchi metodikalar
	22.	Darsdan tashqari ishlar va amaliyot turlari	O'quvchilarning mustaqil ta'lim olishini tashkil etish metodikasi

«Qoraqalpoq tili va adabiyotini o'qitish metodikasi» fanining predmeti va vazifalari, Qoraqalpoq tili va adabiyoti fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, o'quv-metodik majmualar bilan tanishtiradi. Bunda fanning va o'quv-normativ hujjatlarning ahamiyati ochib beriladi. Talabalarning lingvistik

kompetensiyalarini rivojlantirishda yangi texnologiyalar tahlil etilgan. Bo'lajak filolog o'qituvchi lingvistik kompetensiyasini o'rgatish jarayonini qanday ratsionallashtirish mumkinligi ochib berilgan: o'qituvchining lingvistik kompetensiyasini o'rganishga tegishli qiziqishni rivojlantirish bo'yicha maqsadga yarasha ishlari, motivlar, ehtiyojlar va ta'lim olish usullarining rivojlanishiga yordamlashuvchi o'qitishning yangi texnologiyalarini kiritish hisobga olingan.

Ishlab chiqilgan o'quv dasturi talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish vazifasini o'rganadi, uning zaruratini zamonaviy maktabda yuz berayotgan o'zgarishlardan modernizatsiya qilishdan kelib chiqmoqda.

Bilishga tegishli mustaqil bilimlarini rivojlantirishning asosiy yo'li o'quv faoliyatini durust tashkil etish ham kiradi. Shunday ekan, o'qitishda asosiy o'quv usullarini ajratish zarur demakdir. «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o'qitish metodikasi» o'quv dasturi bo'yicha talabalarning mustaqil ishlaridagi aqliy ishga layoqatlilik usullari quyidagilardan iborat edi:

- materialdagi asosiy tayanch punktlarni ajratish, matnni bo'limlarga ajratish;
- reja, tezislar, konspektlar tuzish;
- materialning mantiqiy sxemasini tuzish, oqibatli aloqalarini ajratish;
- bor sxema, diagramma, jadvallarni tushinish;
- matn bo'yicha kerakli teoremlarni yod olish.¹

Modulli o'qitishda ma'ruza (mashq) zarur o'qitish shakli hisoblanib, talaba yangi holatlarning yechimini mustaqil topadi. Bundan tashqari, talabalar o'zlarini qiziqtirgan muammolar bo'yicha referatlar va ma'ruzalar tayyorlaydi, yangi materialni tahlil etishdi o'rganadi. Bularning barchasi talabalarning mustaqil bilim olishiga va lingvistik kompetensiyasining rivojlanishiga yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida filolog o'qituvchi lingvistik kompetensiyasini maxsus rivojlantirish shart-sharoitlarini ta'minlashning asosi bo'lib, ilmiy asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, shu jumladan, rejalashtirilgan ta'lim maqsadiga erishishni vakolatlaydigan samarador pedagogik texnologiyani tanlashga xizmat qiladi. Bu protsessda amalga oshirilayotgan har bir ishga layoqatlilik o'quv elementi sifatida qaraladi. U nazariy va amaliy bilim berish uchun zarur bo'lgan ishga layoqatlilikni ta'minlaydigan materiallar, o'qituvchi va talabalarning maqsadlari, o'quv material hajmi va o'quv sharoitini nazorat qilish shakl vositalaridan iborat bo'ladi.²

Xulosa qilib aytganda, filolog o'qituvchi lingvistik kompetensiyasini takomillashtirish texnologiyalar bugungi kunda farqli ahamiyatga ega bo'lib, ularni rivojlantirish va samaradorligini ta'minlash orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin, shahar bersa, kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda bosqichma-bosqich ta'minlab beruvchi kontent hisoblanadi. Talaba modullar bilan ishlash jarayonida o'quv-bilish faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga mustaqil to'la erishadi. O'qitiladigan fanlarning o'quv mashg'uloti va ularning loyihalarini ishlab chiqish izlanishimiz asli hisoblanadi. Bu esa talabalarni o'quv materialini samarador o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.

Azamov Sherzodjon Xusanboy o'g'li (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi; sherzodbekazamov95@gmail.com)

INNOVATION MAKTABDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada matematika fanini o'qitishning maqsad va vazifalari yoritib berilgan. Amaliy statistikada ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'zlashtirish darajasining sifat ko'rsatkichi tahlil qilingan.*

***Аннотация.** В статье освещены цели и задачи обучения математике. В прикладной статистике проанализирован качественный показатель уровня владения математикой в образовательном направлении.*

***Annotation.** This article shows the goals and objectives of teaching mathematics. In practical statistics, the quality indicator of the level of mastery has been analysed according to the directions of study.*

¹ Ахметов С., Пахратдинов Э., Пирназаров Э. Қарақалпақ әдебиятын оқытыў методикасы. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1988, 160-бет.

² Бердимуратов Е., Пирниязов Қ. Орта мектеплерде қарақалпақ тилин оқытыў методикасы. Нөкис, “Билим”, 1988.

Kalit soʻzlar: innovatsion maktab, matematik madaniyat, axborot, qobiliyat, rivojlanish, ijodkorlik, salomatlik maktabi.

Ключевые слова: инновационная школа, математическая культура, информация, способность, развитие, созидание, школа здоровья.

Key words: innovative school, mathematical culture, information, ability, creation, development, health school.

Kirish. Har qanday mamlakatning kuchi uning fuqarolarining maʼnaviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Soʻnggi yillarda mamlakatda taʼlim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, tahsil oluvchilarda zamonaviy bilim va koʻnikmalarni shakllantirish, taʼlim tizimlari hamda ilm-fan sohasi oʻrtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, taʼlimning uzviyligi va uzluksizligini taʼminlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Jahon mamlakatlari oʻz taraqqiyot yoʻllarini belgilab olishda taʼlim tizimiga jiddiy eʼtibor qaratishmoqda. Taʼlim, mamlakat kelajagini taʼminlashdagi ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida davlat siyosatida muhim oʻrin egallamoqda. Barcha ilgʻor mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy-madaniy sohaning rivojini raqobatbardosh kadrlar taʼminlashini inobatga olib, taʼlimga oʻqitishning zamonaviy va ijodkorlikka asoslangan usullarni joriy etish yoʻlidan bormoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida soʻnggi yillarda xorij tajribalari asosida olib borilayotgan taʼlim islohotlari oliy taʼlimda innovatsion yondashuvlarga asoslangan muhitni yaratishga yordam bermoqda. Taʼlim tizimida yillar davomida toʻplanib qolgan muammo va kamchiliklar zamonaviy taʼlimga ijodkorona yondashuvni zaruratga aylantirmoqda. Mazkur sohada chuqur ilmiy tadqiqot ishlari yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, ular yuksak kompetentli kadrlar tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni tadqiq etishga yoʻnaltirilgan.

Matematika oʻqitishning asosiy maqsadi har bir oʻquvchida yetarli darajadagi matematik madaniyatni shakllantirish, unga kasbiy jihatdan oʻzini-oʻzi belgilash va hayotga moslashish imkonini berishdir, chunki matematika fikrlashning qatʼiyligi uchun jahon standartlarini beradigan deduktiv fandır. Matematika oʻqitishning asosiy vazifasi, bizningcha, oʻylash, fikrlashga oʻrgatish, bilish faoliyatiga oʻrgatish, yuksak intellektual madaniyatni shakllantirishdan iborat. Bundan tashqari, matematikani oʻrganish shaxsning xarakterini shakllantirishga taʼsir qiladi.

Bularning barchasi matematika kafedrasida oʻqituvchilari ishlayotgan tajriba dasturlarida oʻz aksini topgan. Ushbu dasturlar mavjud anʼanaviy dasturlardan metodologik asoslar (matematikani polifurkatsiya va yigʻilishga asoslangan gumanistik taʼlim sohasida fan sifatida oʻrganish), mazmun tarkibiy qismlari (taʼlim jarayonini intensivlashtirish asosida matematik taʼlimni kengaytirish va chuqurlashtirish), taʼlim jarayonining yangi texnologiyalari (moddiy materiallarning blok-modulli taqdimoti, noanʼanaviy shakllar, tematik nazorat, ijodiy va amaliy vazifalar tizimi) bilan farq qiladi. Dasturlarda taklif etilgan maktab matematika kursini tizimlashtirishga tizimli yondashuv alohida qiyinchiliklarsiz bir sinf ichida yoʻnalishli taʼbaqalashtirilgan taʼlim gʻoyalari amalga oshirish imkonini beradi [2].

Asosiy qism. Maktabda oʻquvchilarning matematik taʼlim tizimi quyidagilardan iborat:

◆ umumtaʼlim maktablari bitiruvchilari va oliy taʼlim muassasalari abituriyentlarining matematik bilimlariga qoʻyiladigan talablardagi mavjud boʻshliqni kamaytirish;

◆ oʻquvchilarga dunyoni bilish shakli va metodi sifatidagi matematikaning gʻoyalari va metodlari haqida tushuncha berish;

◆ matematikaning ijtimoiy taraqqiyot uchun ahamiyatini tushunib, insoniyat madaniyatining bir boʻlimi sifatida matematika haqida tasavvur hosil qilish.

Shaxs uchun zarur boʻlgan bilimlarning doimiy oʻsib borishi, hayotning tez oʻzgaruvchan sharoitlari taʼlim jarayoniga tubdan yangi, noyob didaktik vositasi – kompyuterni toʻliq miqyosda kiritishni talab qiladi. Oʻquvchini oʻqitish va rivojlantirish vositasi sifatida kompyuterning mavjud potensial imkoniyatlari bilan kompyutergacha boʻlgan davrda shakllangan anʼanaviy taʼlim tizimi oʻrtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, taʼlimning jamoaviy shakli va oʻquvchi shaxsining individual rivojlanishi oʻrtasida, taʼlim jarayonida kompyuterdan foydalanish zarurati va maktab oʻquvchilariga ushbu vositadan foydalanish koʻnikmalarining yetishmasligi, koʻrgazmali va tushuntirish metodlaridan va faktik bilimlarni mexanik ravishda oʻzlashtirishdan zamonaviy bilimlarni axborotni taqdim etish va izlash metodlari, obyektlar va jarayonlar bilan fan sohasida axborot taʼsiri texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash qobiliyatini oʻzlashtirishga oʻtishni taʼminlash zarur [3].

Oʻquv bilimlarini integratsiyalashning real imkoniyati toʻrtta darajada: ichki (biologik va geografik sikl fanlari orasida), tabiiy-ilmiy fanlar (fizik-kimyoviy va matematik sikllar subʼektlari orasida), gumani-

tar va badiiy (biologik va geografik sikl fanlari orasida), badiiy-gumanitar (ijtimoiy va estetik sikl fanlari o'rtasida) amalga oshiriladi. O'quv kurslarining integratsiyasi o'quv materialini, uni taqdim etish shakllari va metodlarini aniq ilmiy yo'nalishlarda qabul qilingan organik o'zaro bog'liqlik va o'zaro boyitishga asoslanadi.

Ko'rinib turibdiki, "Rivojlanish, O'sish, Salomatlik maktabi" konseptual modeli ta'limning puxta o'ylangan mazmuni, ilmiy asoslangan dasturlari, ta'limni tashkil etishning individuallashtirilgan shakllari asosida amalga oshirildi [4]. Faqat 1997–1998-o'quv yilida maktabda o'qituvchilar tajribasi, mualliflik dasturlari, texnologik yondashuvlarni o'zida aks ettirgan 8 ta metodik tavsiyanoma nashrga tayyorlandi; fizika, adabiyot nazariyasidan darslik, chet tili bo'yicha grammatik mashqlar to'plamlari tayyorlandi.

"Yil o'qituvchisi – 1997–1998" tanlovida maktab o'qituvchilari ishtirok etishdi. 1997-yilda rus tili va adabiyot o'qituvchisi P.A.Kosenko yil o'qituvchisi, 1998-yil laureatlari – O.G.Guryanova va N.Y. Byalgojyevskaya, 9 kishi IDPning viloyat ilmiy-amaliy konferensiyasida (1995,1996) va (1998) 3 kishi xalqaro konferensiyada ishtirok etishdi. Ta'lim jarayonining natijalarini o'tgan o'quv yili oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra baholash mumkin [5].

Maktabda o'quvchilar uchun ta'lim muhiti yaratilgan, ular, asosan, ta'lim jarayonini qayta ko'rib chiqadilar, o'z ta'limiga ilmiy-ijodiy yondashuv, o'z-o'zini anglashning real imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Masalan, quyidagi dinamikada ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'zlashtirish darajasining sifat ko'rsatkichi keltirilgan.

Jadval

O'quv fanlari	1992–93 o'q.yili	1993–94 o'q.yili	1994–95 o'q.yili	1995–96 o'q.yili	1996–97 o'q.yili	1997–98 o'q.yili
Bosh. ta'lim	0.52	0.58	0.62	0.66	0.71.	0.75
Rus tili	0.47	0.48	0.51	0.55	0.58	0.61
Adabiyot	0.51	0.52	0.55	0.61	0.68	0.71
Chet tili	0.56	0.61	0.62	0.72	0.82	0.87
Tarix	0.62	0.63	0.63	0.76	0.84	0.82
Zamonaviy sivilizatsiya	0.63	0.65	0.63	0.76	0.84	0.82
Matematika	0.49	0.51	0.53	0.57	0.59	0.62
Informatika	0.71	0.71	0.76	0.88	0.87	0.88
Biologiya	0.61	0.62	0.64	0.81	0.84	0.89
Geografiya	0.62	0.62	0.65	0.75	0.79	0.84
Kimyo	0.57	0.60	0.61	0.68	0.75	0.79
Fizika	0.59	0.61	0.63	0.73	0.75	0.78
Astronomiya	0.6	0.63	0.64	0.75	0.80	0.83
Tasviriy san'at	0.82	0.80	0.82	0.94	0.98	1
Jismoniy tarbiya	0.82	0.85	0.87	0.94	0.98	1
Texnologik ta'lim	0.81	0.84	0.83	0.87	0.91	0.94
Kasb ta'limi	0.78	0.81	0.84	0.89	0.92	0.92
O'rtacha ko'rsatkich	0.63	0.65	0.67	0.75	0.80	0.82

Barcha ma'lumotlar maktabning sifat ko'rsatkichlari ijobiy dinamikasini ko'rsatadi.

Xulosa. Demak, ta'lim mazmunini yangilash maktab konsepsiyasi, "rivojlanish, o'sish, salomatlik maktabi" maqsadli dasturi bilan bevosita bog'liq. Moddiy-texnika bazasi, kadrlar tarkibi, ijodiy, tashabbuskorlik muhiti o'qituvchi shaxsini doimiy ravishda kasbiy takomillashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Integratsiyalashgan kurslarni joriy qilish, ta'limni tabaqalashtirish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning ortiqcha hissiy, jismoniy yoki aqliy yuklanmasligiga ishonch hosil qilishadi. Bu o'ziga xos usullar bo'lib, uni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashda o'quvchini matematika fanidan faolligini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.X.To'xtaxodjayeva. Pedagogika nazariyasi va tarixi. I qism, Toshkent, 2010.
2. M.H.Hakimova. Matematika o'qitish metodikasi. Toshkent, 2020.
3. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika. Toshkent, "Universitet", 2019.
4. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика. Москва "Педагогика", 1991.
5. Qorayev S.B. Pedagogika. T., "Zebo-Print", 2023.

Abilova Zulfiya Jalgasbayevna (Samarqand davlat Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va bitexnologiyalar universitetining Toshkent filiali O'zbek, rus va xorijiy tillar kafedrasida assistent o'qituvchisi; zulfiyaabilova.1991@mail.ru)

RAQAMLI TA'LIM VA AN'NAVYIY INGLIZ TILINI O'QITISH USULLARI TRANSFORMATSIYASI

***Annotatsiya.** Maqolada an'anaviy o'qitish usullarining tasnifi, zamonaviy ta'limga kompyuter texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, kompyuter o'qitish ilovalaridan foydalanish ko'rib chiqilgan.*

***Аннотация.** В статье рассматривается необходимость изменения определенных стандартов традиционного обучения английскому языку, вызванных внедрением цифровизации в современное образование, а также использование компьютерных обучающих приложений.*

***Annotation.** The article discusses the need to change certain standards of traditional English teaching, caused by the introduction of digitalization in modern education, as well as the use of computer learning applications.*

***Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, ilovalar, o'qitish, kompyuterlashtirish.*

***Ключевые слова:** цифровизация, приложения, обучение, компьютеризация.*

***Key words:** digitalization, applications, learning, computerization.*

Jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlarini raqamlashtirishning zamonaviy rivojlanishi ta'lim jarayonini tashkil etish, uni isloh qilish, ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatadigan paydo bo'lgan texnologik xususiyatlarni hisobga olgan holda, yangi uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Ingliz tilini o'qitishning yangi konsepsiyasiga bo'lgan ehtiyoj dolzarb bo'lib bormoqda, u muloqot muhitidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi va ularni an'anaviy ta'lim tizimiga joriy etishning asosiy tamoyillarini o'z ichiga olgan usullarni o'zlashtira oladi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarni tahlil qilish bizni shunday xulosaga olib keladiki, ularning yagona kompyuterga bo'lgan dastlabki e'tibori ulkan internet tarmog'ining alohida segmentlari sifatida global kompyuterlar tarmog'idan foydalanish bilan almashtiriladi.

Kompyuter texnologiyalari elektron va raqamli texnologiyalarga o'tmoqda, ta'lim tizimini o'zida mujassam etgan va "ochiq axborot tizimlari, shu jumladan, ta'lim jarayonining turli vazifalarini qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan tizimlar" bo'lgan raqamli ta'lim muhitini shakllantirmoqda [1,12]. Ushbu raqamli ta'lim muhitining asosiy yonalishi – ta'lim va malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini zamonaviy zamon talablariga muvofiqlashtirishdan iborat.

Biroq, o'quv dasturlarini alohida shaxsiy kompyuterda ishlatishning ahamiyati maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda muhim nuqta bo'lib qolmoqda. Bunday holda biz raqamli ta'lim tushunchasi haqida gapiramiz, uni turli xil ilmiy ishlarda tez-tez uchraydigan raqamli ta'lim tushunchasi bilan aralash-tirib yubormaslik kerak. Tafsilotlarga to'xtalmasdan, ta'lim tushunchasi kompyuterga kirish imkoni bo'lmagan ta'lim jarayonini o'z ichiga olganligiga e'tibor qaratsak. Shunday qilib, biz kompyuterdan maxsus o'quv maqsadlarida foydalanishning asosiy shakllarini ajratib ko'rsatishimiz kerak.

Mashhur olim A.A.Verbitskiyning fikricha, kompyuterdan o'quv maqsadlarida foydalanish mumkin:

- ◆muayyan ko'nikmalarni mustahkamlovchi simulator sifatida;
- ◆o'qituvchining individual funksiyalarini o'z zimmasiga oladigan repetitor sifatida;
- ◆muayyan muhitda o'quvchilarning harakatlarini modellashtirish vositasi sifatida.

Shunday qilib, raqamli ta'lim tizimida kompyuterdan foydalanishning uchta shakli ajratiladi va bu shakllarning har biri uchun ma'lum bir qo'llash sohasi ko'rsatilgan.

O'zlashtirilgan ko'nikmalar va ko'nikmalarni mustahkamlash va tizimlashtirish uchun simulatorlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu inglizcha so'zlarning lug'atini to'ldirish, grammatik qoidalarni xotirada o'rnatishni nazarda tutishi mumkin. Repetitorlik tizimlari ta'lim ma'lumotlaridan foydalanishning maqsadlari va shartlari aniq belgilangan va ehtimollik bo'lmagan hollarda eng foydali hisoblanadi.

Bunday vazifalarga o'tilgan materialni ingliz tilidagi matnlar shaklida og'zaki taqdim etish, belgilangan mavzu bo'yicha ma'lum mavzularni yaratish kiradi. Agar o'quv materiali tizimli bo'lmasa va uning chegaralari noaniq bo'lsa, simulatsiya modellashtirish eng mos keladi. U ingliz tilidagi ijtimoiy tarmoqdan foydalanishning kommunikativ tomonini o'rganishda qo'llanilishi kerak. Simulatorlar va repetitorlik tizimlari o'qituvchining funksiyalarini miqdoriy jihatdan oshiradi, o'rganish tezligini oshiradi.

Ilmiy maqolalarni o'rganish natijalari. Kompyuter texnologiyalari ko'rinishidagi fanlarni o'qitishning yangi shakllari, bizning fikrimizcha, an'anaviy dasturlarni o'rganishning ayrim turlarini tarkibiy

qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Eng avvalo, yakuniy maqsadga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladigan ma'lum avtomatik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun mexanik o'quv jarayonini o'z ichiga olgan sinflarni ajratib ko'rsatish kerak.

Misol tariqasida biz talabalarining ingliz tilida avtomatik qo'lyozma ko'nikmalarini rivojlantirishga sarflagan katta vaqtini keltirishimiz mumkin, bu umuman olganda, zamonaviy voqelikda yozma ma'lumotlar almashinuvida minimal o'rin egallaydi va kelajakda, ehtimol, amaliy axborot sohasidan butunlay chiqarib yuboriladi. Talabalar uchun yetarli bu harakatlarning algoritmini bilish va bu jarayonni bir necha maktab yillarida mexanik ravishda takrorlash mutlaqo kerak emas.

Albatta, ko'p asrlar davomida shakllanib kelgan o'rganishning bunday asoslarini o'zgartirish ushbu ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Odatda, bunday o'zgarishlarga qarshi bo'lganlar, o'quv vositalarini bunday almashtirish talabaning fikrlash jarayonlarining yomonlashishiga yordam beradi va yozish misolida barmoqlarning motorli ko'nikmalarini rivojlantirish yo'qoladi.

Bizning fikrimizcha, bunday taxminlar jiddiy tadqiqotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi va o'rnatilgan fikrga ko'ra inertial ravishda qo'llaniladi. Klaviaturada yozish aqliy qobiliyatlarga qo'l yozuvi kabi ta'sir qiladi, chunki bu holda ularning ta'siri minimaldir. O'n barmoq bilan terishda barmoqlarning harakat qobiliyatini pianinoning barmoqlari bilan solishtirish mumkin. Klassik o'quv jarayoniga ajratilgan juda ko'p vaqtni bo'shatish muayyan o'quv operatsiyalarini bajarishning mexanik vositalarini almashtira oladigan ilovalardan foydalanishning o'zi emas.

Bo'sh vaqtni ijodiy vazifalarni bajarishni o'rganish va bu maqsad uchun maxsus yaratilgan raqamli ilovalar bilan yana bajarishni o'rganish uchun muvaffaqiyatli ishlatish mumkin.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish. Raqamli ta'lim raqamli iqtisodiyot ehtiyojlariga, yoshi va geografik joylashuvidan qat'iy nazar, inson hayotining barcha bosqichlarida ta'lim olish yoki o'z makolasini oshirish imkoniyatiga javob berishi kerak.

Yana bir muammo shundaki, jamiyat va ta'lim tizimini axborotlashtirish davrida o'quv-tarbiya faoliyatini amalga oshirishning murakkab sharti yuqori ta'lim salohiyatiga ega axborot texnologiyalarini tahlil qilish, tanlash va qo'llash hisoblanadi.

Ta'lim salohiyati haqida gapiradigan bo'lsak, shuni tushunishimiz kerakki, ilgari ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiyatida, raqamli ta'lim jarayonida ta'lim usullari minimallashtirilganligi sababli endi to'g'ri qo'llanilmaydi. o'qituvchining mavjudligi bu jarayon tufaylidir.

Agar an'anaviy ta'limda ta'lim lahzasi o'quv mazmuniga biron bir material, masalan, diktant matni yoki kerakli adabiyotlarni tanlash shaklida kiritilgan bo'lsa, raqamli ilovalarning zamonaviy ishlab chiquvchilari bunga kam e'tibor berishadi.

Bu, asosan, dasturchilarning ta'lim dasturlarini yaratishda ma'lum bir buyurtma bo'yicha ishlamasligi, aniq texnik vazifalarga ega emasligi bilan bog'liq. Agar iqtisodiy, sanoat sohasida ma'lum bir ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirilgan ilovalar qo'llanilsa, u holda ta'lim tizimida, asosan, dasturchining o'zi bu muammoni qanday ko'rishiga e'tibor qaratiladi.

Ko'rib turganimizdek, bu dasturchilarning e'tiborsizligi emas, balki ular talabiga ko'ra ta'lim mazmunini yaratishi mumkin bo'lgan uslubiy ishlanmalarning yo'qligi. Masalan, kompyuter klaviaturasini tezda bosishni o'rgatuvchi klaviatura ilovasini olaylik. Agar dastur muallifiga o'quv jarayoniga ta'lim momentini kiritish vazifasi berilgan bo'lsa, u bosma materialni tanlashda kerakli matnni tanlashi mumkin edi. Bundan tashqari, talabnoma materialida talabalarining yoshini hisobga olish mumkin.

Uslubiy ishlanmalarni yaratish jarayonida raqamli axborot vositalarining o'quv jarayonidagi rolini diqqat bilan ko'rib chiqish kerak.

Bizningcha, zamonaviy metodologiya fanining asosiy vazifalaridan biri uni nazariy, fundamental tadqiqotlar sohasidan aniq amaliy muammolar sohasiga o'tkazishdir. Bundan kelib chiqadiki, ehtiyojlar uchun foydalaniladigan kontentni cheklash maqsadida raqamli ta'limning u yoki bu tomonlarining asosiy yo'nalishlarini aniqlash zarurati birinchi o'ringa qo'yiladi. o'qitishning o'ziga xos turi va bunday trening dasturlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan tarkibiy komponentni yaratish.

Dasturchilar va turli xil o'quv dasturlari va simulatorlarini yaratuvchilar elektron ta'lim vositalaridan foydalangan holda, samarali o'rganish uchun texnologiya yordamida ish muhitini, funksiyalarini va o'qituvchi harakatlarining mantiqini taqlid qilish kifoya qiladi, deb hisoblashadi. Shu asosda texnologiya asri zamonaviy pedagogikada o'qitish metodikasini o'rganuvchi kompleks intizom-didaktika yaratilmoqda. M.A.Choshanov elektron didaktikani "ta'lim fanlari, san'ati va injeneriyasi" deb ta'riflaydi [2.692].

U didaktik injeneriya konsepsiyasini kiritadi, u “o‘quv jarayonlarini batafsil loyihalashga qaratilgan va o‘quv mahsulotlarini tahlil qilish, ishlab chiqish va loyihalash va ulardan o‘quv jarayonida foydalanish bosqichlarini o‘z ichiga oladi” [2.694].

Bu yerda, ko‘p jihatdan, o‘qitishning tashqi tomondan boshqariladigan va o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni hisobga olmaydigan jarayon sifatida muhandislik tushunchasi mavjud bo‘lib, buning natijasida uzatiladigan va olingan ma‘lumotlarning umumiy ma‘nosi yaratiladi. Axborotning ma‘lum qismlarini uzatish ma‘lum bilimlarni olishdan tashqari, ta‘lim jarayonini, shuningdek, ushbu bilimlardan muayyan hayotiy vaziyatlarda foydalanishni o‘z ichiga olgan ta‘limning butun jarayonini qamrab olmaydi.

Bunday ta‘lim jarayonini elektron ta‘lim yaratuvchilari nuqtayi nazaridan kompleks ta‘lim modeli konsepsiyasiga kiritish mumkin. S.F.Sergeev ushbu sohadagi ishlarning hozirgi holatiga baho berar ekan, “elektron ta‘limning “kompleks ta‘lim” modellariga o‘tish haqida gapirish mumkin”, deb ta‘kidlaydi. Biroq, bunday o‘qitishni amalga oshiruvchi mavjud didaktik usul va vositalar yetarli emasligi aniq» [3.112].

Yuqorida aytilganlarning barchasini sarhisob qilsak, zamonaviy raqamli ta‘limning asosiy muammosi o‘quv dasturlarini tuzuvchilar uchun uslubiy tavsiyalarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Bu nafaqat ta‘limning jihatlarini, balki ta‘lim konsepsiyasini tashkil etuvchi butun spektrni qamrab oladigan tavsiyalarni nazarda tutadi.

Raqamli ta‘limni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri, bizning fikrimizcha, zamonaviy jamiyatning ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarni hisobga olmaydigan o‘quv jarayonining klassik turlariga inertial rioya qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н.Н.Елистратова. Современные проблемы информатизации высшего образования. Вестник Рязанского государственного университета им. С.А.Есенина, 2010, № 4, с. 12.

2. М.А.Чошанов. Е-дидактика: Новый взгляд на теорию обучения в эпоху цифровых технологий. Образовательные технологии и общество (Educational Technology&Society). 2013, t.16, № 3, с. 684–696. URL: <http://elibrary.ru/download/91807992.pdf>.

3. С.Ф.Сергеев. Методологические и дидактические проблемы электронного обучения. Сборник научных статей XVIII Объединенной конференции «Интернет и современное общество», ИМС- 2015, Санкт-Петербург, 23–25 июня 2015, с. 112.

Toshpulatova Dilraxon Sobirjonovna (QDPI o‘qituvchisi; dilyatoshpulatova6@gmail.com) BIOLOGIK TA‘LIMDA O‘QUVCHILARNING KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA PISA TESTLARINING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning kreativ fikrlashiga ta‘sir etuvchi omillar, o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda xalqaro PISA dasturining ahamiyati tahlil qilindi. Shu bilan birgalikda, PISA haqida umumiy tushuncha, PISA dasturining o‘quvchilar hayotidagi roli, mavzularga kreativ yondashuv ma‘lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье проанализированы факторы, влияющие на творческое мышление учащихся, значение международной программы PISA в формировании способности творческого мышления учащихся. При этом представлены общее понимание PISA, роли программы PISA в жизни учащихся, творческий подход к темам.

Annotation. This article analyzes the factors influencing the creative thinking of students, the importance of the international PISA program in shaping the ability of students' creative thinking. This presents a general understanding of PISA, the role of the PISA program in the lives of students, a creative approach to topics.

Kalit so‘zlar: PISA, OECD, kreativ fikrlash, kreativ yondashuv, tabiiy-ilmiy savodxonlik, test, kompetensiya, savodxonlik, xalqaro dastur.

Ключевые слова: PISA, ОЭСР, творческое мышление, творческий подход, научная грамотность, тест, компетентность, грамотность, международная программа.

Key words: PISA, OECD, creative thinking, creative approach, scientific literacy, test, competence, literacy, international program.

Kirish. Globallashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo‘ymoqda. Rivojlangan davlat-

lar qatoridan o‘rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarining o‘rni beqiyos hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli farmo-niga muvofiq, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgi-lash, o‘ziga keladigan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, ularning kreativ qobiliyatini rivojlanish, o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsi-on shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xal-qaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamalatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quv-chilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Metod va metodologiya. Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tor-tib, falsafa, san‘at va gumanitar fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Demak, kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba‘zan murakkab sha-roitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko‘nik-madir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuv-chanlikka tobora ehtiyoj sezmoqdalar, bu esa, o‘z navbatida, jamoaviy ish bo‘lgan innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Kreativ fikrlash ta’siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, ya’ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Darhaqiqat, ta’lim sohasidagi muta-xassislar va psixologlarning fikriga ko‘ra, ijodiy faoliyat bilan bog‘liq fikrlash jarayonlarida mashg‘ul bo‘lish deb tushunilgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko‘nikmalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o‘zini yax-shiroq anglash ko‘nikmalari, muammoni hal etish ko‘nikmalari kiradi. Ustiga-ustak, shaxs kamoloti, ta’-lim olishdagi muvaffaqiyati, kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamoatchilik orasidagi obro‘si ham in-sonning kreativ fikrlash ko‘nikmasiga bog‘liq.

O‘quvchida kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahal-liy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Shuningdek, kreativ fikrlash o‘quvchilarning ta’lim olishini, hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va mazmunli usulda talqin etish orqali qo‘llab-quvvatlaydi. O‘quvchining xayoli va qiziquvchanligi ta’lim jarayonida qo‘l keladi, ijodiy fikrlash, shu tariqa, o‘zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi.

Ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Bunda kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan eng muhim ko‘nikmalardan biridir.

PISAda ilmiy savodxonlik o‘quvchilar tomonidan savollar berish, yangi bilimlarni egallash, jara-yonga kreativ yondashish, ilmiy hodisalarni dalillar asosida tushuntirish hamda xulosalash asosida idin-difikatsiya qilinadi va tavsiflanadi.¹

Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligiga hayotiy hodisalar asosida ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kiradi. Bu xulosalar aso-sida o‘quvchilarda atrofimizdagi olamni tushunish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish, shunga ko‘ra, kerakli qarorlar qabul qila olish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. 1961-yilda ish boshlagan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) negizida dunyo ta’limining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme of International Student Assessment) – O‘quvchilar savodxonligini ba-holash bo‘yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta’lim sohasiga murojaat etishining boisi, har qanday soha uchun kadrlar maktablarda, oddiy sinfxonalarda ulg‘ayishidir. Shu ma’noda OECDdek ulkan tuzilma ham davlatlarning ta’lim tizimiga qancha mablag‘ sarflayotgani va ular nechog‘-li samara berayotgani reytingini tuzishga majbur bo‘ldi. Keyinchalik, bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqishi ortib, unda qatnasha boshladi.

PISA 2000-yildan buyon har uch yilda bir marta o‘tkazib kelinadi. PISA topshiriqlari yetuk tajri-baga ega bo‘lgan xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqiladi, bunga o‘xshash topshiriqlarni ishlab chi-

¹ Lucas B. A five-dimensional model of creativity and its assessment in schools. Applied Measurement in Educa-tion, 2016, Vol. 29/4, pp. 278 – 290.

qish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. PISA topshiriqlariga qo'yiladigan talablarga rioya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarga yordam berish o'rniga ularni chalg'itib ham qo'yishi mumkin. Shuning uchun PISA sinovlariga o'quvchilarni tayyorlash jarayonida, asosiy e'tiborni alohida olingan PISA topshiriqlarini yechishga emas, balki ularni va ularga o'xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo'ladigan o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

PISA tadqiqoti quyidagi xususiyatlarga ega:

–u butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan dastur;

–ta'lim sohasidagi yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri;

–tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli (15 yosh 3 oydan 16 yosh 2 oygacha bo'lgan) o'quvchilar ishtirok etadilar;

–o'quvchilarning "mustaqil hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni, ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayotda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;

–o'quvchilarning funksional savodxonligi, jumladan, o'qish (matni tushunish), tabiiy va matematik savodxonligi, shuningdek, ushbu yo'nalishlardagi hayotiy muammolarni hal eta olish ko'nikmalari baholanadi;

–tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan axborot to'planadi.¹

Bundan tashqari, PISA 15 yoshdagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha yagona xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanadi. Tadqiqotning 15 yoshli o'quvchilar orasida o'tkazilishiga asosiy sabab, OECDga a'zo bo'lgan aksariyat davlatlarda ushbu yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi.

PISA tadqiqotida topshiriqlar savollarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, o'quvchilar tomonidan berilgan javoblarning to'liqligiga qarab, "javob to'liq qabul qilinadi", "javob qisman qabul qilinadi", "javob qabul qilinmaydi" mezonlari bo'yicha baholanadi.

PISA tadqiqotida kreativ fikrlash yordamchi omillarining murakkab turkumi borasida ma'lumot yig'ish qiyin, lekin amalga oshirsa bo'ladigan ishdur. PISA ikki qismdan iborat: test va so'rovnomalar. Test qismi o'quvchilar g'oya berish, uni tahlil etish va takomillashtirish asosida ma'lumot beradi. So'rovnomalar ushbu ma'lumotni o'quvchi kreativ fikrlashining boshqa yordamchi omillari borasidagi ma'lumot bilan, jumladan, ijodiy yondashuv (ochiqlik, maqsad sari ishtiyoq va ishonch), maktab muhiti haqidagi tasavvurlari, maktab va uning tashqarisida shug'ullanadigan faoliyat kabi ma'lumotlar bilan to'ldiradi.²

Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligini aniqlash PISA dasturini bitta bo'limi bo'lib, bunda hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasiga ega ekanligi o'rganiladi. Bu bo'limning asosiy maqsadi atrofimizdagi olamni tushinish, inson faoliyati natijasida unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetish, shunga ko'ra, kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish hamda biologik hodisalarga kreativ yondashishdan iborat.

Tabiiy-ilmiy savodxonligini aniqlashda, birinchi navbatda, PISA tizmiga asoslangan o'quv materiallarini ishlab chiqish va ularni o'quvchilarga tatbiq qilish kerak. Tatbiq qilingan o'quv materiallari sinfda o'quv jarayonini yaxshilashga va o'quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Buning uchun o'quv materiallari ko'proq amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki amaliy mashg'ulotlar o'quvchilar bilimini boyitishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va kreativ fikrlashga olib keladi.³

Xulosa. Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta'lim siyosati va pedagogikasi-da ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi mutasaddilarga dalillarga asoslangan to'xtamga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshi-

¹ Anagnostopoulou K., Hatzinikita V., Christidou V. PISA and biology school textbooks: the role of visual material. *Procedia-Social and Behavioral Sciences* 46. 2012, pp. 1839 – 1845.

² Amabile T., Motivation and creativity: effects of motivational orientation on creative writers. *Journal of Personality and Social Psychology*, 1985, Vol. 48/2, pp. 393 – 399.

³ Toshpulatova D.S. Biologik ta'limda o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari. "O'zMU xabarlari", 2022, 1/5-son, 24 – 125-betlar.

rish mumkin bo'lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasidagi bahslarga sabab bo'ladi.

PISA xalqaro tadqiqotida yaxshi natijalar ko'rsatish uchun, hech bo'lmaganda, ikki maqsadga ega bo'lish kerak: birinchisi, o'qituvchilar va ular ishlaydigan, foydalanadigan materiallarni tayyorlashdir. Zero, xalqaro tadqiqotlarda bejizga maktablarda ta'lim sifati o'qituvchilarning kasbiy darajasiga bog'liq, deb aytishmaydi.

Xalqaro tadqiqotlardagi natijalarni yaxshilash uchun o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash va ta'lim jarayonida o'qitish metodikasi va ustuvor tamoyillarni o'zgartirish zarur. Buning uchun o'qituvchilar uchun rivojlantiruvchi ta'limning yanada faol tizimini tatbiq etishimiz va o'qituvchilarni ta'lim jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta'minlash kerak. Bu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirib, paydo bo'layotgan muammolarni hal qilish ustida ishlash lozim.

Maktab o'quvchilarni qobiliyat va ko'nikmalarining shakllanishida katta rol o'ynaydi. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur, bu, ayniqsa, ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin, ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Har qaysi boshqa ko'nikma kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va manzilli yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Ba'zi o'qituvchilarga o'quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish o'quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo'layotgandek tuyulishi mumkin. aslida, o'quvchilar barcha fanlarda kreativ fikrlashi mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko'r-ko'rona yodlash o'rniga tadqiqot va ixtironi qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi mumkin. O'qituvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o'zlari ham o'quvchilarga fikrlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak.¹

Shunday qilib, tabiiy ilmiy savodxonlikni oshirishda biologiya fanidan PISA dasturiga oid o'quv materiallarni ishlab chiqish va dars jarayoniga qo'llash, o'quvchilarning bilimini boyitishga, egallagan bilimlarini o'z hayotida qo'llashga hamda biologik jarayonlarga kreativ yondashishga olib keladi.

Abdurahmonov Umidjon Shoqosim o'g'li (QDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi) UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqola umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishda modellashtirish metodlari va ularning klassifikatsiyasi mavzusiga bag'ishlanadi. Maqolada ta'lim jarayonida o'quvchining turli vaziyatlarda ishtirok etishiga qarab o'quv materiallarini o'zlashtirishning bir qancha yo'llari va ularga oid modellarga alohida to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga, muammoli ta'lim modeli va uning amaliyotga tatbiq etish yo'llari ilmiy va amaliy asoslab berilgan.

Аннотация. Данная статья посвящена теме методов моделирования и их классификации в обучении математике в общеобразовательной школе. В статье рассматриваются несколько способов усвоения учебных материалов и связанных с ними моделей в зависимости от участия студента в различных ситуациях учебного процесса. При этом модель проблемного обучения и пути ее реализации научно и практически обоснованы.

Annotation. This article is dedicated to the topic of modeling methods and their classification in teaching mathematics in secondary schools. In the article, several ways of mastering educational materials and models related to them, depending on the student's participation in various situations in the educational process, are discussed. At the same time, the model of problem-based education and the ways of its implementation are scientifically and practically justified.

Kalit so'zlar: model, didaktik o'yin, axborot, tafakkur, muammoli ta'lim, tushuncha, ta'rif, matematik modellashtirish, pedagogik amaliyot.

Ключевые слова: модель, дидактическая игра, информация, мышление, проблемное обучение, понимание, определение, математическое моделирование, педагогическая практика.

Key words: model, didactic game, information, thinking, problem-based learning, understanding, definition, mathematical modeling, pedagogical practice.

¹ Тошпулатова Д.С. Развитие креативных способностей учащихся на уроках биологии. 4-я Международная научно-методическая конференция «Образование. Наука. Карьера». Курск, 2021, с. 16 – 19.

Ta'lim turlarining har biri muayyan modelga asoslangan bo'lib, ularning har qaysisi o'ziga xos qurilishga ega. Ta'lim o'ta murakkab jarayon bo'lib, uni o'qituvchi nuqtayi nazaridan ham, o'quvchi jihatidan ham, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro ta'siriga ko'ra ham tasavvur etish mumkin. Ta'lim ishtirokchilari jihatdan tasavvur etish yo'li bilan unda o'quvchi vaziyatlari, o'quvchi vaziyatlariga ko'ra esa ta'lim modellari ajratiladi. Ta'lim turlari ta'lim modellariga ko'ra belgilanadi.

O'quvchi o'quv faoliyatida uchta holatda ishtirok etadi: sust (passiv) vaziyat–o'qituvchi izohlarini tushuntirishlarini tinglovchi, ko'rsatmalarini ijro etuvchi, talab va topshiriqlarini bajaruvchi [1]. Bunday holatda ta'lim o'quvchilarning tafakkuriga mo'ljallab tashkil etiladi. Ta'lim ham xotiraga, ham tafakkurga mo'ljallab o'tkaziladi. Ta'lim jarayonida o'quvchining turli vaziyatlarda ishtirok etishiga qarab, o'quv materiallarini o'zlashtirishning bir qancha yo'llari va ularga oid modellari ajratiladi.

Birinchi yo'l–bilimlarni tayyor holda o'rganish. Bu jarayonda o'qituvchi nutqi asosiy ta'lim manbaiga aylanadi. Didaktik adabiyotlarda shu yo'sindagi ta'limni «izohli-ko'rgazmali ta'lim» deb yuritiladi [2]. Bilimlarni tayyor holda o'rganish jarayonining modeli quyidagi ko'rinishda bo'ladi: bolalarni axborotlarni o'rganishga tayyorlash, axborotlarni bayon etish, axborotlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etirish yo'li bilan mustahkamlash. Ta'limning bu yo'li eng qadimiy bo'lib, u o'quvchilar xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi.

Ta'limning navbatdagi yo'li kitob ustida mustaqil ishlashdir. Bu yo'l ham o'quvchilar xotirasiga mo'ljallangan bo'lib, uning markazida o'quvchi va darslikning o'zaro ta'siri yotadi. Bu yo'lda ta'lim quyidagicha model asosida tashkil etiladi: o'qituvchi ko'rsatmalari, mustaqil o'qish, esda qolgan bilimlarni turli sharoitlarga tatbiq etish. Hozirgi pedagogik amaliyotda bu ikkala modelni birlashtirish moyilligi ham mavjud [3]. Ta'limning uchinchi yo'li ham xotiraga mo'ljallangan bo'lib, unda ta'lim manbalari almashib turiladi. Ta'limning bu modeli quyidagi ko'rinishga ega: bolalarni yangi axborotlarni qabul qilishga tayyorlash; o'qituvchi tushuntirishi; o'qituvchi ko'rsatmalari, darslikning aytilgan bandlarini o'qish; o'qituvchi qutqidan va darslikdan o'rganilgan bilimlarni berilgan o'quv sharoitlariga tatbiq etish.

Ta'limning yana bir modeli o'quv materialini o'quv elementlariga ajratish va har bir o'quv elementini alohida-alohida o'rgatish, mustahkamlash, tekshirishni tashkil etish yo'lidir. Programmashtirilgan ta'lim shu model asosida yaratilgan. Yuqorida keltirilgan modelning o'zi ikki ko'rinishga ega: birinchi holatda o'qituvchi nutqi ta'lim manbasi vazifasini bajarsa, ikkinchi holatda darslik ta'lim manbasi sanaladi. Hozirgi paytda ta'limning muammoli, topshiriqli modellari maktablar tajribasida keng qo'llanilmoqda [4]. Muammoli ta'lim modeli o'quvchilar tafakkuriga mo'ljallangan bo'lib, chiqarilgan xulosani amaliyotga tatbiq etish yo'li bilan bilimlarni mustahkamlaydi.

Asrimizning 50-yillida Galperin ilmiy tadqiqotlarida ta'limning yana bir modeli–o'quvchilarda aqliy faoliyat usullarini bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga asoslangan edi. Bu nazariyaga ko'ra ta'lim quyidagicha tashkil etiladi:

1. O'quvchilarga aqliy faoliyatni amalga oshirish uchun ko'rsatmalar berish boskichi.
2. Narsalar (moddiy-berilgan narsa predmetlar, moddiylashgan-chizmalar jadvallar, matematik formulalar) bilan ishlash, ya'ni faoliyat ko'rsatish bosqichi.
3. Qilingan ishlarni, xatti-harakatlarni tashqi (og'zaki) nutq vositasida aytib berish bosqichi.
4. Ichki nutq bosqichi. Bu bosqichda qilingan ishlar obrazi ongda shakllanadi.
5. So'nggi etapda interiorizatsiya (faoliyat usullarini aqlan bajarish yoki ichda bajarish) hodisasi yuz beradi [5].

Hozirgi paytda o'zbek didaktlaridan I.A.Allayorov yuqoridagi model asosida faol ta'lim muammlarini o'rganmoqda. Ta'limning an'anaviy modeli «o'qitish o'qishdan katta» prinsipi asosida yaratilgan.

Muammoli ta'limning ilmiy pedagogik asoslarini 50-yillarda polyak pedagogi Vinsenti Okon, 60-yillarda tatar pedagogi M.I.Mahmutov, keyinchalik, rus pedagogi I.Y.Lerner o'rganishdi.

Muammoli ta'limda o'qitish va o'qish faoliyatlari quyidagicha amal qiladi. O'quvchilarga qo'yilgan muammoni tahlil etish uni bajarish yo'llari xususida o'ylash taklif etiladi. O'qituvchi o'quvchilardan qo'yilgan muammoni yechish yo'llari to'g'rsida o'z farazlarini aytib berishni so'raydilar, O'qituvchi aytilgan farazlardan birini muammoni bajarishga tatbiq etishni taklif qiladi. O'qituvchi muammoning yechimidan xulosa chiqarishni buyuradi. O'qituvchi o'quvchilar chiqargan xulosalarni to'ldiradi, aniqliklar kiritadi. O'qituvchi chiqarilgan xulosani turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'li bilan bilimlarni mustahkamlashni taklif etadi. O'qituvchi muammoni yechish yo'li bilan chiqarilgan xulosani amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatadi [6]. Bu esa muammoli ta'limning to'liq shakli, ya'ni modelidir.

Universal imkoniyatlarga ega bo'lgan EHMlarning paydo bo'lishi bilan dolzarb amaliy masalalarni yuqori aniqlikda yechish imkoniyati paydo bo'ldi. Ko'pgina ilmiy texnikaviy masalalarni yechishning

asosida qaralayotgan obyekt xususiyatlarini ifodalovchi matematik apparatni, ya'ni, matematik modelni yaratish hamda olingan yechimlar aniqligi va ishonchli raqamlar onini aniqlash masalasi yotadi [7]. Model–keng ma'noli tushuncha bo'lib, turli usullarda talqin qilinadi. Real obyekt modeli, hodisa yoki jarayonni modellashtirish – fan va texnikada ancha vaqtdan buyon ilmiy farazlar va gipotezalarni tekshirishda qo'llanilib kelinmoqda. Shunday ekan, bu tushunchalarni o'quvchilar ongida shakllantirish–tabiat qonunlari, hodisa va jarayonlarning to'liq mohiyatini anglashga, voqealar hamda obyektlarni ilmiy asosda tushunishga yordam beradi [8]. Matematik model tajriba ma'lumotlariga ko'ra yoki mantiqiy asosda tuziladi, so'ngra tajriba yo'li bilan tekshirib ko'riladi.

Matematik model tushunchasining ta'rifi manbalarda turlicha keltirilgan bo'lsa-da, uning mohiyatini ochib berish tanlangan jarayonning hayotiyiligiga va tushunarli bo'lishiga bog'liq. Matematik model tushunchasini o'qitishda ko'plab usullar taklif qilinayotgan bo'lib, bu usullarning imkoniyatlarini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

1. Tanlangan matematik jarayonning soddaligi, tushunarlilik, tabiiyligi va qiziqarliligi.
2. Ayni bir jarayon uchun tuzilgan matematik model bir nechta matematik formulalardan tarkib topganligi va ularning o'zaro bog'liqligini tushuntirish.
3. Yaratilgan matematik model qaralayotgan hodisa yoki jarayonni har doim ham to'liq, ifodalay olmasligini tushuntirish [9].

Matematik modellashtirish hozirgi paytda turli fan sohalarida qo'llanilib kelmoqda va bu sohada o'qituvchi mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaev M.E., Tadjiyeva Z.G. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik). Toshkent, "Fan va texnologiya", 2005.
2. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum (OO'Y uchun). T., "O'qituvchi", 2004.
3. Ишмухамедов Р.Ж., М.Мирсолиева. Ўқув жараёнида инновацион таълим технологиялари. Т., «Fan va texnologiya», 2014, 60-бет.
4. Педагогика. 1000 та саволга 1000 та жавоб. Методик қўлланма, У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М. Усмонбоева, Д.Иноғомова. Т., Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университети, 2012, 193-бет.
5. Муслимов Н.А ва бошқалар. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-методик қўлланма, Т., "Sano-standart", 2015, 208-бет.
6. Муслимов Н.А ва бошқалар. Педагогик компетентлик ва креатив асослари. Ўқув-методик қўлланма, Т., "Sano-standart", 2015, 120-бет.
7. Абдурахманов У., Тошматова О., Мелиева Х. (2022). Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari va muammoli ta'lim texnologiyasi. Общество и инновации, 3(3/S), 231–238-бетлар.
8. Sh A.U. (2022). The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), p. 142–150.
9. Shoqosim o'g'li A.U., Xafizaliyevna M.X., To'lqinjon G.O. (2022). Modern didactic means of teaching mathematics in secondary schools and problem educational technology. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10 (4), p. 460 – 467.

**Kunduz Karimova Ruzibayevna (Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti
katta o'qituvchisi (PhD))**

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MASALALAR YORDAMIDA TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

Аннотация. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumiy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish muammosi eng dolzarb masalalardan biridir. Umuman olganda, mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni tizimsiz tarzda davom etmasligi uchun maxsus sharoitlarni yaratish kerak. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish bo'laning yoshiga mos bo'lgan turli pedagogik vositalar va usullar orqali amalga oshirilishi ko'rsatib berilgan.*

Аннотация. *Формирование и развитие общей культуры мышления учащихся начальных классов является одной из наиболее актуальных проблем. В общем, необходимо создать особые условия, чтобы процесс формирования и развития логического мышления не продолжался бессис-*

темно. В данной статье рассматривается, что формирование и развитие логического мышления у школьников начальных классов осуществляется с помощью различных педагогических средств и методов, соответствующих возрасту ребенка.

Annotation. *The problem of forming and developing the culture of global thinking of primary school students is one of the most crucial issues. In general, it is necessary to create the best conditions so that the change in the form of logical thinking and resuscitation does not continue in reverse order. The article shows that the formation and development of logical thinking in younger schoolchildren is carried out with the help of various pedagogical means and methods corresponding to the age of the child.*

Kalit so'zlar: *rivojlanish, tafakkur, mantiqiy fikrlash, boshlang'ich sinf, matematika, murakkab masalalar.*

Ключевые слова: *развитие, мышление, логическое мышление, начальная школа, математика, сложные вопросы.*

Key words: *diversity, thinking, logical thinking, beginning class, math, complex problem.*

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yosh avlodni zamon talablariga mos ravishda ilmi, yuksak salohiyatli, kuzatuvchan va yetuk qilib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bugungi kunning mustaqil fikrlay oladigan, dunyoqarashi va tafakkuri keng yoshlari esa yurtimiz kelajagini hal qiluvchilardir. Bunday barkamol avlodni tarbiyalash uchun esa bolalarning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini orttirib ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish muhim. O'z fikrini aniq bayon qiluvchi, mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor, mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashda esa matematika fanining o'rni beqiyosdir. Odamning bilish va amaliy ehtiyojlari, tevarak-atrof va hayot to'g'risidagi o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga intilishi tafakkur qilish faoliyatini vujudga keltiradi va bu faoliyatni kuchaytiraveradi. Shu sababli tafakkur qilish jarayonlarining muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi shu jarayonlarning muhim xususiyatidir.

Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumiy lashtirib aks ettirish (bilish)ga, insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi.¹

Matematik terminlarga inson hayotining ilk davrlaridayoq duch kelishi, tabiiy. Bolalar keyinchalik, maktabgacha ta'lim muassasalarida matematika fanining dastlabki bilimlariga ega bo'ladilar. Ular sanay olishadi, katta, kichik, baland, past, teng kabi terminlarning mazmunini anglaydilar, hatto kichik sonlar bilan amallar bajara olishadi.

Maktab davri bilimni rivojlantirish uchun eng asosiy davr bo'lib, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishining ortishi yoki pasayishi o'qituvchiga bog'liqdir. Agar o'qituvchi mahoratli va bilimli bo'lsa, o'quvchining bilimi uning miyasida xuddi toshga o'yib yozilgan bitik kabi muhrlanib qoladi, aksincha esa xuddi qumga yozilgan kabi darrov o'chib ketadi.

Matematika fanlar ichida eng murakkabi, shu bilan birgalikda, eng qiziqarlisi hamdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ham fanlar orasidan matematika fanini o'zlashtirishda ancha qiynalishadi. Ular uchun, ayniqsa, murakkabroq bo'lgan masalalarni yechish jarayoni ancha qiyinchilik tug'diradi va ko'pgina o'quvchilar masalalarni yechishda to'g'ri fikrlay olmay, xatolikka yo'l qo'yadilar. Shakli va mazmuni o'zgargan masalalarni yechishda esa yuqoridagi jarayon tabiiy holdir.

Maktabda darslarning bir xil tartibda o'tilishi o'quvchilarni zeriktirib qo'yadi, tabiiyki, o'quvchi darsni majburiy ravishda o'qib o'tkazadi. Bir xillikda berilgan misol va masalalarni ishlatish o'quvchida yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun zarur. Lekin o'quvchini matematika faniga bo'lgan qiziqishi bilan ularni bu fanni sabrsizlik bilan kutishiga sabab bo'ladigan topshiriqlar yordamida ipsiz bog'lay olish kerak. O'quvchilarni darsni intizorlik bilan kutishiga qanchalik erishilsagina bilim berish shunchalik osonlashadi. Bu maqsadni amalga oshirish esa faqat o'qituvchiga bog'liq bo'lib, darsdagi bir xillikdan chetlashgan holda, o'quvchilar uchun turli xil savol, topshiriq va masalalardan foydalanish kerak. Masalan, quyidagicha masala boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda qiziq.

Masala. Magazinga ikki g'ildirakli va uch g'ildirakli velosipedlardan jami 18 ta keltirildi. Agar ularning g'ildiraklari soni 47 ta bo'lsa, har bir velosipeddan nechtdan keltirilgan?

Bunday masalalarni boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida ayrim iqtidor egalorigina faqat tanlash yo'li bilan masala yechimini topa olishadi va yechimdan foydalangan holda o'z fikrlarini isbotlab ham

¹M.X.Toxtaxodjayeva, S.Nishonova, J.Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S.Madiyarova, A.Koldibekova, N.Nishonova, N.Sayidahmedov. Pedagogika. T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010, 261-bet.

bilishadi. Bu masalalarni uyga vazifa qilib berilsa va ko'proq vaqt o'quvchilar muhokamasida qo'yilsa, ularning fikrlashlari uchun kenroq imkoniyat yaratilgan bo'ladi.


Har qanday matematik bilimlar mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun asos bo'la oladi. Ayniqsa, masalalar yechishga o'rgatishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasdan, uni har tomonlama tushuntirishga harakat qilish zarur. Avvalo, masalani hamma o'quvchi tushunadigan qilib, ravon o'qib berish va bolalarni xam shunga o'rgatish kerak. Ayrim o'quvchilar masalalarni o'qish jarayonida ishlab, darhol masalaning javobini aytib qo'yadi. Bolalarni dastlabki qadamlardayok masala haqida o'ylashga, masala shartini har tomonlama tekshirib fikrlashga o'rgatish zarur. O'quvchilardan har bir berilgan son nimani anglatishini, masala shartida berilganlar to'g'risida tushunchalarga egaligini va nimani topish kerakligi haqida har safar so'rash maqsadga muvofiq.¹

V.A.Onishuk, L.V.Chashko, N.M.Rozenberglar didaktik vositalar majmuini ko'rgazmali qurollar, modellar, audiovizual va kompyuter vositalaridan iborat deb biladilar hamda o'qitishning bu didaktik vositalari o'quvchining ko'rishi va eshitishi orqali ongiga ta'sir etib, ilmiy bilimlarni chuqur egallash, amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi uchun ishonchli asos bo'ladi deb izohlaydilar.²


Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mantiqiy masalalar yechimini topishda aynan ko'rgazmali qurollar va modellardan foydalandik. Masalalarni ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntirish usuli boshlang'ich sinf o'quvchilarchilari uchun juda oson va sodda bo'lib, ular masalani ifoda tuzib yechishlari uchun qulaylik tug'diradi. Chunki ularning xotirasida ko'rgan va o'zi ishtirok etgan jarayonlar ko'proq joylashadi. Masala yechimini o'quvchilar bilan birgalikda quyidagicha amaliy ravishda tushuntirish mumkin.

Keyingi mashg'ulot kunigacha topshiriqning yechimini o'quvchilarning ayrimlari topishgan. Shu o'quvchilar boshqa o'quvchilarga topgan javoblarini, hatto tanaffus vaqtida ham ancha tortishuv va qiziqish bilan tushuntirishga harakat qilishdi. Lekin masala yechimini ular tanlash yo'li bilangina topishgan. Shuning uchun ko'pchilik o'quvchilarda "nega aynan shu sonlar olindi ekan?" degan fikrlar paydo bo'ldi. Bu masala, hatto ko'pchilik o'qituvchilarni ham o'ylantirib qo'ydi va "o'quvchilar tenglamalar sistemasi-ni yechishni bilishmaydi" deya e'tiroz bildirishdi. Ayrim o'qituvchilar ham tanlash usuli bilan masala yechimini topishdi, lekin qanday ishlanishini tushuntirib bera olishmadi. O'qituvchilar ham bu masalani boshlang'ich sinf o'quvchilariga qanday usul bilan o'rgatishga juda qiziqishdi.

Yechish. Bu masalani amaliy yechishda plastilin va tarvuz urug'laridan foydalandik. Oquvchilar plastilindan 18 ta parallelepiped ko'rinishidagi bo'lakchalar kesib olishadi.




Masala shartiga ko'ra, velosipedlar 2 g'ildirakli va 3 g'ildirakli bo'lganligi uchun har birda hech bo'lmaganda 2 ta g'ildirak bor ekan. Shuning uchun bo'laklarga avval 2 tadan tarvuz urug'lari qo'yib chiqildi va 18 ta bo'lakka 36 ta urug' ishlatildi.



Natijada 11 ta tarvuz urug'i ortib qoladi. Bu urug'larni yana 1 tadan 11 ta plastilin bo'laklariga joylab qo'yiladi.

¹ K.R.Karimova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari matematik tafakkurini shakllantirishda mantiqiy masalalar tizimi. Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio'. № 3, 2020, 117-bet.

² Онишукa.В.А. Дидактика современной школы. Под ред. Академика. Киев, Рядянька школа. 140–174 с.



Qolgan 7 ta bo'lakda 2 tadan urug'lar bo'ldi. Demak, magazinga 11 ta uch g'ildirakli va 7 ta ikki g'ildirakli velosipedlar keltirilgan.

Amaliy tarzda yechim topgan o'quvchilarga masalani ifoda tuzib yechishga o'rgatish osonroq kechadi. Dastlab, o'quvchilarga "ikki g'ildirakli 3 ta velosipedda nechta g'ildirak bor?" "Uch g'ildirakli 6 ta velosipedda nechta g'ildirak bor?" "Ikki g'ildirakli nechta velosipedda 14 g'ildirak bor?" "Uch g'ildirakli nechta velosipedda 18 g'ildirak bor?" kabi savollar beriladi. Bu savollar o'quvchilar uchun qiziq va uning javobini topish qiyin emas. Keyin o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi masalani yechishni quyidagicha savol-javoblar yordamida amalga oshirish mumkin:

O'qituvchi: Magazindagi ikki g'ildirakli va uch g'ildirakli velosipedlar soni nechta?

O'quvchilar: 18 ta.

O'qituvchi: Agar velosipedlarning har birida 2 tadan g'ildirak bo'lsa, ulardagi g'ildiraklar soni nechta bo'ladi?

O'quvchilar: 36 ta ($18 \cdot 2 = 36$).

O'qituvchi: Masala shartida jami g'ildiraklar soni nechta?

O'quvchilar: 47 ta.

O'qituvchi: Demak, yana nechta g'ildirak yetishmadi?

O'quvchilar: 11 ta ($47 - 36 = 11$).

O'qituvchi: Bizga masala shartida magazinda ikki g'ildirakli va uch g'ildirakli velosipedlar borligi aytilgan edi. Biz ularning g'ildiraklari sonini 2 tadan qilib oldik va magazinda faqat ikki g'ildirakli bo'lib qoldi. Shu sababdan g'ildiraklar soni kam bo'lib qoldi.

O'quvchilar: (o'ylanib qolishadi).

O'qituvchi: Yana 11 ta oyoqni 1 tadan yana nechtasiga qo'yish mumkin?

O'quvchilar: 11 tasiga.

O'qituvchi: Magazinda velosipedlarning nechtasi ikki g'ildirakli va nechtasi uch g'ildirakli?

O'quvchilar: 7 tasi ikki g'ildirakli va 11 ($18 - 7 = 11$) tasi uch g'ildirakli.

O'qituvchi: Demak, magazindagi velosipedlarning 7 tasi ikki g'ildirakli va 11 tasi uch g'ildirakli ekan?

Yuqoridagi savol-javoblarni umumlashtirib yechim yozamiz:

$$18 \cdot 2 = 36$$

$$47 - 36 = 11 \text{ (uch g'ildirakli velosiped).}$$

$$18 - 11 = 7 \text{ (ikki g'ildirakli velosiped).}$$

Bunday mazmundagi masalalar bilan ishlash 1- va 2-sinf oquvchilari uchun amaliy va ifoda tuzib yechish qiyin bo'lmasligi uchun magazindagi velosipedlar va g'ildiraklar sonini kichikroq sonlar bilan tanlab olinadi. Masalan: Magazinga jami 8 ta ikki g'ildirakli va uch g'ildirakli velosipedlar keltirildi. Agar ularning jami g'ildiraklari soni 19 ta bo'lsa, har bir velosipeddan nechtadan keltirilgan?

Yuqoridagi masalani ifoda tuzib, quyidagicha ishlatiladi:

Yechish.

$$18 \cdot 2 = 36$$

$$47 - 36 = 11 \text{ (ta uch g'ildirakli velosiped).}$$

$$18 - 11 = 7 \text{ (ta ikki g'ildirakli velosiped).}$$

Masalalarning ko'rgazmali va amaliy yechilishining birga olib borilishi o'quvchilarni masalaga qanday yondashishga va masala yechimini qay tartibda izlash ko'nikmasini orttirish bilan birgalikda, ularni masalalarni matiqan fikrlab yechishga o'rgatadi. Tajriba-sinov ishlari davomida bunday masalalar

o'quvchilar o'rtasida o'zaro fikr almashish natijasida do'stlikning mustahkamlanishi va fikrini bayon qilishga qiynaladigan ayrim o'quvchilarning muloqotga kirishishi ham aniqlandi.



1-sinf



2-sinf

Masalani yechimini yuqoridagi kabi yechish orqali analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish, sistemalashtirish kabi tafakkur amallari asosida bajarilishiga guvoh bo'lamiz. O'quvchilar masalani diqqat bilan o'qish orqali masala shartida berilgan sonlar nimani bildirishini anglashadi, berilgan terminlar ma'nosini to'la tushunishadi, masala yechimini topishda qanday ketma-ketlikda oshirishni biladilar va bulardan to'g'ri xulosa chiqargan holda natijaga erishadilar.

O'quvchilar bunday masalalar ma'nosini tushungan holda ularning qanday usullarda yechilishini taqqoslay olishlari orqali ko'zlangan yechimga erishish osonlashadi. Masalalardagi belgi va xususiyatlarini umumlashtirish bilan fikrlar birlashtiriladi.

Yuqorida keltirilgan tafakkur amallarining bajarilishi esa o'quvchilardagi matematik tafakkur shakllanishi uchun bevosita xizmat qiladi. O'quvchilarda fikrlash qobiliyati rivojlanadi va mazmundor bo'ladi, masala yechishda har xil g'oyalar paydo bo'ladi. Fikrlash doiralari kengayadi, bilim saviyalari oshadi va ijodiy izlanishga moyillik kuzatilib, matematik tafakkur shakllanadi.

Nuraddinova Raviyaxon Sultanbayevna (Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti)

DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim va unda bolalar nutqini rivojlantirishning dolzarb masalalari haqida fikr yuritiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalar nutqini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish yo'llari ko'rsatiladi. Bolalar nutqini rivojlantirishda maqol mavzuli didaktik o'yinlarni tashkil etish ko'rsatib beriladi.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются актуальные вопросы дошкольного образования и развития речи детей в нем. Показаны способы использования дидактических игр в развитии речи детей на занятиях по развитию речи в дошкольных образовательных организациях. Показана организация дидактических игр на пословичную тематику для развития речи детей.*

***Annotation.** This article discusses the current issues of preschool education and the development of children's speech in it. Ways of using didactic games in the development of children's speech are*

shown in speech development classes in pre-school educational organizations. Organization of proverb-themed didactic games for the development of children's speech is shown.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim tashkiloti, kommunikativ kompetensiya, nutq, nutq o'qitish mashg'ulotlari, didaktik o'yin, maqol.

Ключевые слова: дошкольное образование, организация дошкольного образования, коммуникативная компетенция, речь, речевое обучение, дидактическая игра, пословица.

Key words: preschool education, preschool education organization, communicative competence, speech, speech training, didactic game, proverb.

XXI asrning ilk choragida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu bois Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi ham bevosita fanlar asoslarini puxta biladigan, huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan, jahon maydonida o'z bilimi orqali raqobatlasha oladigan, o'zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatani hamda millatiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini namoyon eta olish xislatlariga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning innovatsion tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish"¹kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq nutqini o'qitish, mustaqil fikrlashini shakllantirish bo'yicha ta'lim berish dasturlarini ishlab chiqish hamda bolalarning nutqini o'qitishga qaratilgan tizimli ishlarga innovatsion yondashish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarini o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.² Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. Maktabgacha yoshdagi (6 –7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalaridan biri kommunikativ kompetensiya, ya'ni, muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya bevosita nutq o'qitish mashg'ulotlarida shakllantiriladi. Shu bois bolalarning nutqiy faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga alohida e'tibor berilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan nutq o'qitish mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim berish samaradorligini oshirish, bolalarni mustaqil ta'lim olishga (maktab ta'limiga) tayyorlash, yangi jamiyatning ongli quruvchilarini tarbiyalash kabi muhim va hayotiy vazifalarni hal qilishda ona tili asosiy o'rin egallaydi.

Maktabgacha ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadlar bolalarga ona tilini o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. A.A.Leontyev bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantirish ekanligini ta'kidlaydi.³

Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda, pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kaliti hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.

² O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. Toshkent, 2022, 16-bet.

³ Леонтьев А.Н. Психическое развитие ребенка в дошкольном возрасте. Возрастная и педагогическая психология. М., изд-во Моск. ун-та, 1992, с. 42 – 50.

Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Binobarin, maktabgacha ta'lim bola so'g'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi. Unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi hamda uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Shu bois maktabgacha ta'limda bolalarga ta'lim va tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o'rgatish, nutqini rivojlantirishi, nutqiy munosabatga, muomalaga o'rgatish hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida og'zaki nutqni o'stirish natijasida bolalar aqlan rivojlanib, umumiy madaniy saviyasi oshadi. Ular tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradilar. Bolalarda nutqning rivojlanishi ularning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi.¹

Nutq o'stirish mashg'ulotlarini samarali tashkil qilishda didaktik (ta'limiy) o'yinlarning o'rni muhimligini ta'kidlash joiz.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning imitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir. Didaktik o'yinda bolalarning o'zlashtirishini hisobga olgan ta'limiy vazifalarning bo'lishi muhimdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o'yinlarning u yoki bu shaklini yaratar ekan, uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to'playdigan turlariga e'tibor qaratishlari lozim. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir.

Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o'yin mantiqi, o'yinning harakati, o'yin qoidasi. O'yin mantiqi, asosan, uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida bolalarning bilish faolligini oshirishga, bolalarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratiladi. O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U bolalar xulqini ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o'yinlarda ma'lum bir natijaga erishiladi, uning yakuni uning tugaganligini bildiradi. O'yinda ma'lum bir didaktik maqsad qo'yiladi va bu maqsadga erishilishi bolalarda ma'naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar hamma vaqt ham tarbiyachi uchun bolalarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash ko'rsatgichi hisoblanadi.

Didaktik o'yinlar bir qancha vazifalarni bajaradi:

- ta'limiy, tarbiyaviy (bola shaxsiga ta'sir ko'rsatadi, tafakkurini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi);

- qo'llanuvchanlik oriyentatsion (aniq vaziyatda har qanday o'quv topshiriqlarini bajarish uchun bilimlarni qo'llay bilish);

- motivni qo'zg'ash, qiziquvchanlikni oshirish (bolalarni bilish faoliyatiga qiziqtiradi, rag'batlantiradi, bilish qiziquvining rivojlanishiga yordam beradi).

Garchand ta'limiy o'yin texnologiyasini ishlab chiqish ancha mehnat talab qilsa-da, lekin ular bir qancha afzalliklarga ega:

- ◆ birinchidan, ta'limiy o'yinlarning maqsad va vazifalari maksimal darajada sodda va qulay holda ishlab chiqiladi va tashkil etiladi;

- ◆ ikkinchidan, bir marta tayyorlangan yaxshi namunaviy ta'limiy o'yin texnologiyasidan bir necha yillar davomida samarali foydalanish mumkin;

- ◆ uchinchidan, tarbiya berishning ta'limiy o'yin metodlaridan foydalanish tarbiyalanuvchi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishda juda qo'l keladi;

- ◆ to'rtinchidan, turli vaziyatlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmasini oshiradi;

- ◆ beshinchidan, ta'limiy o'yinlarda tadqiqotchilik qobiliyatini namoyish qilish imkonini beradi;

- ◆ oltinchidan, ta'limiy o'yinlar natijasida guruh a'zolarida birgalikda fikrlash qobiliyati rivojlanadi;

- ◆ yettinchidan, ta'limiy o'yinlar orqali boshqaruvning yangi shakl va qoidalari, tuzilmasi, me'yori va metodikasi sinovdan o'tkaziladi va hamda ularni o'zlashtirish uchun shart sharoit yaratiladi.

Bolalarning yetarli so'z boyligi to'planganidan, ular atrof-muhit haqida ma'lum darajada bilimga ega bo'lganlaridan so'ng didaktik o'yinlar o'tkazilsa maqsadga muvofiq va qiziqarli bo'ladi. Gapingiz o'yinaladigan o'yinlar ko'p bolalar bilan o'tkazilganda, bitta savol bir necha marta takrorlanishi, javoblar esa har xil bo'lishi mumkin. Bu talab o'yinning asosiy qoidasini tashkil qiladi. Masalan, "Shifokor nima qiladi?" degan savolga, "Kasallarni davolaydi", "Dori yozib beradi", "Ukol qiladi", "Eshitib ko'radi", "Operatsiya qiladi" kabi javoblar qaytarilishi mumkin. Bolalar bilan o'tkaziladigan so'zli didaktik o'yinlarda

¹ Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, "Istiqlol", 2006.

foydalaniladigan savollar tushunarli va tanish narsalar yuzasidan berilishi kerak. O‘yin jarayonida bolalarning savollarga qaytargan javoblari qisqa, ketma-ket va qo‘shimcha savolsiz bo‘lishi lozim. O‘yin paytida mazkur qoidaga amal qilinmasa, uning o‘yinlik xususiyati yo‘qoladi, oddiy suhbatga aylanib qoladi. Mana shuning uchun ham bolalarga beriladigan savollar oldindan puxta o‘ylab tuzilgan bo‘lib maqsadga muvofiqdir. O‘yin shaklida o‘tkaziladigan mashqlar bolalarning diqqatini o‘ziga jalb qiladi, qiziqishini oshiradi. Natijada ular takrorlash zarur bo‘lgan so‘z yoki harakatni o‘zlarini qiynamay, majbur qilmay osonlik bilan qaytaradilar.

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarini tashkil qilishga ijodiy yondashuvda didaktik o‘yinlarda maqollardan foydalanish ham ancha samarali bo‘ladi. Bunda “Maqolni tikla”, “Kim ko‘p maqol biladi?”, “Maqollar zanjiri”, “Marraga kim oldin keladi?” “Maqollar bozori”, “Maqollarning mavzuli estafetasi”, “Koptokni qaytar” kabi didaktik o‘yinlarni o‘tkazish mumkin. Xususan, “Koptokni qaytar” didaktik o‘yinida tarbiyachi maqolning bir qismini aytib, qo‘lidagi koptokni bolalardan biriga otadi, bu bola maqolni davom ettirishi kerak. Agar uddalay olmasa, o‘yindan chetlatib turiladi. O‘yinni oxirigacha olib borgan bola g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yin o‘quvchilarni sergak, ziyrak va chaqqon bo‘lishga o‘rgatishi bilan birga, ularning maqollarni qanchalik bilishlarini ham aniqlaydi.

“Maqollarni sharhlaymiz” o‘yinida bolalar guruhlariga bo‘linadi. Birinchi guruh maqol aytadi, ikkinchi guruh uni izohlab beradi. Bunda maqolni aniqroq, kengroq, tushunarliroq hamda ta‘sirchanroq tarzda sharhlashga e‘tibor qaratiladi. Bu o‘yinda bolalarda maqollarning mazmuni, uning qanday hayotiy vaziyatlarda qo‘llash malakalari rivojlanadi. Ularda nutqiy kompetentlik shakllana boradi.

“Maqollar zanjiri” didaktik o‘yini ham guruhlar o‘rtasida olib boriladi. O‘yinning asosiy qoidasi bir guruh aytgan maqol qaysi harf bilan tugasa, ikkinchi guruh ayni shu harf bilan boshlanadigan maqolni aytishi kerak. Masalan:

Yaxshi dam – mehnatga hamdam.

Maqtangan pand yeydi, Kamtarin qand yeydi.

Intilganga tole yor.

Rahmat olgan omondir, La‘nat olgan yomondir.

“Maqollarning mavzuli estafetasi” o‘yinida estafeta tayoqchasi maqol aytish navbatini belgilab beradi. O‘yinni tarbiyachi maqol aytib boshlaydi va tayoqchani bolalardan biriga beradi. U ham maqol aytib, tayoqchani navbatdagi bolaga uzatadi. O‘yin shunday davom etadi. To‘xtab qolgan bola o‘yindan chetlatiladi. Bu o‘yinda ham oldin aytilgan maqolni takrorlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

“Kim ko‘p maqol biladi?” didaktik o‘yini ham guruhlarda olib boriladi. Guruhlar galma-galdan maqollarni aytishadi. Qaysi guruh tutilmasdan, aniq javob berib borsa, shu guruh g‘olib hisoblanadi. Navbatdagi maqolni topolmay qolgan guruh mag‘lub bo‘ladi. O‘yin davomida bir guruh aytgan maqolni boshqa tomon takroran aytishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mashg‘ulotlarda bunday didaktik o‘yinlarni qo‘llash bolalarda maqollarning mazmun va mohiyatini teran anglash, mavzuli guruhlariga ajratish va tahlil etish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga oid malakalarini ham rivojlantirish uchun zamin hozirlaydi. Shu jarayonlarda ularning nutqlari boyib boradi, estetik didi ham kamol topadi. Bolalarda mana shunday go‘zal va bebaho tafakkur durdonalarini yaratgan ajdodlarga nisbatan mehr-muhabbat yanada kuchayadi.

Korinadiki, o‘yin faoliyati bolalarning asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanar ekan, tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etiladigan didaktik (ta‘limiy) o‘yinlar va mashg‘ulotlar ta‘limning faol shakllaridan biri sanaladi. Didaktik o‘yinlar orqali tashkil qilingan mashg‘ulotlarda bolalarning idroki rivojlantiriladi, ularning yoshiga mos ma‘lumotlar beriladi, ayrim muhim sifat va malakalar shakllantiriladi.

Hozirgi davrda maktabgacha ta‘limda bolalar nutqini rivojlantirishga juda yuqori talablar qo‘yilmoqda. Bu talablarni bajarish nutqni o‘stirishga oid yangi va chuqur izlanishlarni taqozo etmoqda hamda nutq o‘stirish mashg‘ulotlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa maktabgacha ta‘limda nutq o‘stirish mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilish yo‘llari va vositalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishning dolzarb pedagogik va metodik vazifa ekanligini ko‘rsatadi.

Ashirova Anorgul Ismoilovna (TATU Axborot xavfsizligi va ta'lim texnologiyalari kafedrası dotsenti; anorgul76@gmail.com),

Allaberganova Muyassar Rimberganovna (TATU Urganch filiali o'qituvchisi; amuvassar83@gmail.com),

Ollaberganova Muyassar Davlatboy qizi (TATU Urganch filiali o'qituvchisi; olloberganovamuyassar@gmail.com)

Ravshanqulov Abbas Ravshanqul o'g'li (TATU Urganch filiali o'qituvchisi; ravshanqulovabbos3@gmail.com)

INFORMATIKA FANIDAN ZAMONAVIY O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH USLUBI

Annotatsiya. Mazkur maqolada informatika fanidan zamonaviy darslarni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha didaktik, psixologik talablar keltirilgan. Innovatsion darslar haqida xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, informatika darslari tuzilishi, uslublari bo'yicha materiallar keltirilgan.

Аннотация. Данная статья содержит дидактические, психологические требования к организации и проведению современных уроков информатики. Имеются материалы о научных взглядах зарубежных ученых на инновационные курсы, структуру и методику занятий по информатике.

Annotation. This article contains didactic, psychological requirements for the organization and conduct of modern lessons in computer science. There are materials on the scientific views of foreign scientists on innovative courses, the structure and methods of computer science classes.

Kalit so'zlar: didaktik talablar, psixologik talablar, uslub, zamonaviy dars, innovatsiya.

Ключевые слова: дидактические требования, психологические требования, метод, современный урок, новаторство.

Key words: didactic requirements, psychological requirements, style, modern lesson, innovation.

Zamonaviy dunyo tobora tez sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Har yili ma'lumotlar miqdori ortib boryapti. Shu munosabat bilan, ta'limda ma'lumot qidirish ko'nikmalarini shakllantirish, uni tahlil qilish, qayta ishlash va saqlashga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. O'quv natijalarini aniq bilim ko'rinishida emas, balki o'rganish ko'nikmalari ko'rinishida berishga bugungi kunda talab ortib bormoqda.¹

Zamonaviy jamiyatga bilimli, axloqiy, tashabbuskor insonlar kerak, ular:

◆harakatlarni tahlil qilish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish, ularning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini bashorat qilish;

◆moslashuvchan bo'lish;

◆hamkorlik qila olish;

◆mamlakat taqdiri, uning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi uchun mas'uliyat hissini shakllantirishi kerak.

Shu munosabat bilan, maktab ta'limining vazifasi o'quvchilarni yuqori darajada rivojlangan axborot muhitida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta'limning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda keyingi ta'lim olish imkoniyat beradi.

Kompyuter texnologiyalari muloqot va hamkorlikning yangi yondashuvlari uchun sharoit yaratadi, ular o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot rejimi bilan tavsiflanadi.² Kompyuter va pedagogik dasturiy vositalar o'qituvchiga ko'plab muntazam vazifalarni (mashqlar, test nazorati va boshqalar) o'z zimma-siga olib, o'qituvchiga ta'lim, tarbiya va rivojlanish kabi eng ijodiy, chinakam insoniy vazifalarni qo'yib, ish uslubini takomillashtirishga yordam beradi. O'quv jarayonining munozaraga o'tkazish, mulohaza yu-ritishni rag'batlantirish, tartib-intizomni saqlash, turli o'quvchilarga materialni tushuntirishda kerakli da-rajadagi tafsilotlarni tanlash kabi muhim tarkibiy qismlarida o'qituvchi, uzoq vaqt davomida kompyuter insonga ko'ra yaxshiroq ishlaydi. Aytish kerakki, kompyuter hech qachon o'qituvchining o'quvchi va ota-onalar bilan shaxsiy muloqotini almashtirmaydi. Umuman olganda, har qanday sinf o'quvchilari in-formatika darslariga zavq bilan boradilar va bu hozircha kompyuterning o'zi fanni o'rganishga turtki bo'l-ganligi bilan bog'liq.

Informatika o'qituvchisi o'quv jarayonini kompyuterlashtirishda markaziy o'rin tutadi, shuning uchun u eng yangi yutuqlar haqida, tajriba almashishda, o'qitishning moddiy bazasini yaxshilashda doimiy ma'lumotga muhtoj.

¹ Гриценко В.И. Сущность информационных технологий. М., "Просвещение", 2006, 354 с.

² Кривошеев О.А. Информационные технологии. М., "Просвещение", 2006.


Informatika darsining tuzilishi. Shuni esda tutish kerakki, material taqdimotining vaqt o'tishi bilan taqsimlanishi darsda diqqatning barqarorligini o'rganishga asoslanadi:

0–7 min. dars – diqqatni jamlashga ketadi. Diqqatni jamlash uchun o'qituvchidan biroz harakat talab qiladi;

8–23 min. dars – eng katta barqarorlik va diqqatni jamlash davri;

24 – 30 min. dars – diqqatning barqarorligi pasayadi, diqqatning buzilishi kuchayadi, xatolar soni ortadi. Ishdagi stressni kamaytirishni, diqqatni bo'shashtirishni talab qiladi;

31– 45 min. dars – maqsad bilan bog'liq ravishda diqqatni jamlash (1-rasm).



1-rasm. Informatika darsida o'quv vaqtini taqsimlash.

Darsda o'qish vaqtini quyidagicha taqsimlash tavsiya etiladi:

Zamonaviy informatika darsiga qo'yiladigan didaktik talablar:

- ◆ umumiy ta'lim vazifalari va ularning tarkibiy elementlarini aniq shakllantirish, ularning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalar bilan bog'lanishi;

- ◆ umumiy dars tizimidagi o'rnini belgilash;

- ◆ o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi va tayyorgarligini hisobga olgan holda, dastur talablari va dars maqsadlariga muvofiq darsning optimal mazmunini aniqlash;

- ◆ darsda ham, uning alohida bosqichlarida ham o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirish darajasini, ko'nikma va malakalarning shakllantirishini bashorat qilish.

O'qitish, rag'batlantirish va nazorat qilishning eng oqilona usullari, uslublari va vositalarini tanlash, ularning darsning har bir bosqichida optimal ta'siri, kognitiv faollikni ta'minlaydigan tanlov, informatika darsida jamoaviy va individual ishning turli shakllarini birlashtirish va boshqalar.

- ◆ o'quvchilarni o'qitishda maksimal mustaqillik;

- ◆ informatika darsida barcha didaktik tamoyillarni amalga oshirish;

- ◆ o'quvchilarning muvaffaqiyatli bilim olishlari uchun sharoit yaratish.

Darsga qo'yiladigan psixologik talablaridan darsning psixologik maqsadi:

- ◆ informatika fanini o'rganish doirasida o'quvchilarning rivojlanishini loyihalash;

- ◆ darsning maqsadli qo'yilishida mavzuni o'rganishning psixologik vazifasi va oldingi ishda erishilgan natijalarni hisobga olish;

- ◆ o'quvchilarning rivojlanishini ta'minlaydigan uslubiy texnikaning psixologik-pedagogik ta'sirining alohida vositalarini ta'minlash.

Informatika dars uslubi:

◆rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga muvofiq, informatika darsining mazmuni va tuzilishini aniqlash:

- ◆o'quvchilar xotirasi va tafakkuriga bilimlarni o'zlashtirishi nisbati;
- ◆o'quvchilarning takrorlashi va ijodiy faoliyati hajmini aniqlash;
- ◆bilimlarni o'zlashtirishni rejalashtirish.

Innovatsion dars tuzilmasi.¹ Innovatsion darslar o'z yangiligi bilan an'anaviy mashg'ulotlardan farq qiladi. Innovatsion o'qitish tizimi L.V.Volan, N.P.Guzika, R.G.Xazankina metodikasi 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval

Innovatsion dars metodikasi bo'yicha ma'lumotlar

L.V.Volan metodikasi	N.P.Guzika metodikasi	R.G.Xazankina metodikasi
1. Mavzu bo'yicha umumiy hikoya. 2. O'quvchilarning o'qituvchiga savollari va qo'shimcha tushuntirishlar darsi. 3. Dars – amaliy ish. 4. O'quv materialining asosiy elementlarini tanlash va o'zlashtirishga qaratilgan topshiriq kartalari bilan umumlashtiruvchi turdagi dars. 5. Nazariy material bo'yicha yakuniy so'rov. 6. Kompyuterlar yordamida mavzuga oid masalalar yechish.	1. O'qituvchi tomonidan materialni nazariy tahlil qilish darslari. 2. Mavzuni o'quvchilar tomonidan (guruhlariga bo'lingan holda) berilgan dastur, rejalar, algoritmlar bo'yicha mustaqil tahlil qilish darslari. 3. Dars-seminarlar. 4. Amaliy darslar. 5. Nazorat va baholash darslari.	1. Butun mavzu bo'yicha dars-ma'ruza. 2. Asosiy muammolarni hal qilish darslari. 3. Dars bo'yicha maslahat. 4. Dars-test.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dars – bu yaxshi tashkil etilgan dars, yaxshi jihozlangan sinfda, yaxshi boshlanishi va yaxshi yakunlanishi lozim. O'qituvchi o'z faoliyatini va o'quvchilar faoliyatini rejalashtirishi kerak.² Zamonaviy darsning asosiy vazifalari:

• dars muammoli va rivojlantiruvchi bo'lishi kerak: o'qituvchining o'zi talabalar bilan hamkorlik qilishga intiladi va o'quvchilarni o'qituvchi hamda sinfdoshlar bilan hamkorlik qilishga yo'naltirishni biladi;

- ◆o'qituvchi muammoli va qidiruv vaziyatlarni tashkil qiladi, o'quvchilar faolligini oshiradi;
- ◆xulosani o'quvchilarning o'zlari chiqaradilar;
- ◆minimal takrorlash va maksimal ijodkorlik hamda birgalikda ijod qilish;
- ◆vaqtni tejash va sog'liqni saqlash;
- ◆darsning diqqat markazida bolalar;
- ◆o'quvchilarning saviyasi va qobiliyatini hisobga olish, bunda sinf profili, o'quvchilarning intilishlari, bolalarning kayfiyati kabi jihatlar hisobga olinadi;
- ◆o'qituvchining uslubiy san'atini namoyon eta olish;
- ◆fikir-mulohazalarni rejalashtirish;
- ◆darsda o'qituvchi bolalarga mehribon bo'lishi kerak.

Informatika fanidan zamonaviy, innovatsion darslarni tashkil qilish va o'tkazish jamiyatga yetuk, o'z sohasining bilimdon kadrlarini tayyorlashga zamin yaratdi.

Matkarimov Azamat Farhod o'g'li (Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi;

e-mail: azamat.m@urdu.uz)

TALABALARDA AMALIY SAN'AT VOSITALARI ORQALI ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalq amaliy san'atining tarixi keng yoritib berilgan. O'sib kelayotgan yosh avlodni jahon andozalariga javob beradigan barkamol etib tarbiyalashda xalq amaliy san'ati vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarga xalq amaliy san'ati vositalari haqida ma'lumot berish orqali ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirish muhim hisoblanadi. Talabalarda go'zallikni his*

¹ Суворова Н. Интерактивное обучение. Новые подходы. М., “Педагогика”, 2005, 186 с.

² Аширова А.И., Рузметов Ш.Ю. Mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishda uyin texnologiyalarining roli. “Высшая школа”, июль (спецвыпуск-1), 2018, 25 – 27-бетлар.

qila olishni rivojlantirish, yuqori estetik didni shakllantirish, san'at asarlarini, tarixiy va me'moriy yodgorliklarini, ona tabiat go'zalliklarini, boyligini tushuntirishda adabiyot, musiqa, ta'sviriy san'at, texnologiya, estetika kabi fanlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish lozim.

Аннотация. В данной статье освещается история народного творчества. Средства народного творчества играют важную роль в воспитании подрастающего поколения на уровне мировых стандартов. Важно развивать общий кругозор учащихся, знакомя их с орудиями народного декоративно-прикладного искусства, разъясняя их красоту и богатство, необходимо эффективно использовать возможности таких наук, как литература, музыка, изобразительное искусство, техника, эстетика.

Annotation. This article covers the history of folk arts. The tools of folk art play an important role in educating the younger generation to meet the world standards. It is important to develop students' general outlook by informing them about the tools of folk arts and crafts. In explaining its beauty and richness, it is necessary to make effective use of the opportunities of such sciences as literature, music, fine arts, technology, aesthetics.

Kalit so'zlar: san'at, xalq hunarmandchiligi, xalq amaliy san'ati, estetika, adabiyot, tas'viriy san'at, psixologik-pedagogik, badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, bezak, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, ganch o'yamakorligi, sopol buyumlar, tosh, metall.

Ключевые слова: искусство, народные промыслы, народно-прикладное искусство, эстетика, литература, изобразительное искусство, психолого-педагогическое, художественное мышление, творческие способности, украшение, Ташкент, Самарканд, Бухара, Хорезм, резьба по ганчу, керамика, камень, металл.

Key words: art, folk handicrafts, folk applied arts, aesthetics, literature, fine arts, psychological-pedagogical, artistic thinking, creative ability, decoration, Tashkent, Samarkand, Bukhara, Khorezm, ganch carving, ceramics, stone, metal.

Bugungi kunda jahonning qaysi bir rivojlangan mamlakatlarini olmaylik, ta'lim sohasida, ayniqsa, maktab yoshidan boshlab san'at, xususan, ta'sviriy va amaliy san'at haqidagi bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Mamlakatimizda o'rta ta'limning yana o'n bir yillik bo'lishi va unda kasbga yo'naltirish maqsadida o'quv markazlarining tashkil etilishi, shuningdek, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda ta'limni mazmuni va tuzilmasini yangilash, uni fan, texnika, texnologiya, iqtisod, madaniyat sohaslarida respublika hamda xorijda erishilgan yutuqlar asosida qayta ko'rib chiqish, ta'lim tizimini isloh qilish, uning yagona o'quv-ilmii ishlab chiqarish majmuyi tarzida muttasil rivojlanib borishini ta'minlash, davlat ta'lim standartlarini yaratish va amalga kiritishning ilmiy asoslarini, ishlab chiqish, ta'lim tizimi, ilm-fan, ishlab chiqarishga mutaxassislar va ularning malakasini oshirishning o'zaro ta'sir ko'rsatish mexanizmini ishlab chiqish, milliy uyg'onish mafkurasi asosida talaba-yoshlar hamda mutaxassislarni tarbiyalashning keng dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlaridagi o'quv-tarbiya jarayonlarini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish, mutaxassislar tayyorlash jarayonini o'quv-dasturiy hujjatnomalar, didaktik va uslubiy jihatdan ta'minlashni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini fundamental hamda amaliy ilmiy tadqiqot ishlari asosida rejalashtirish va ishlab chiqish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'quv jarayonining axborot bilan ta'minlanishini yuksaltirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, talabalarning shaxsiy xususiyat va qobiliyatlarini, shuningdek, yetuk mutaxassisning shakllanishi, o'qishi, tarbiyasi va mehnatini baholash muammolari bo'yicha psixologik-pedagogik tadqiqotlar olib borish, ta'lim jarayoni sifatini xolis baholash tizimini yaratish va amaliyotda qo'llash hamda shunga o'xshash boshqa yechimini kutib turgan muammolarni bartaraf etish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan

oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish borasida izlanishlar olib borilmoqda va mavjudlari bartaraf qilinmoqda.¹

O'sib kelayotgan yosh avlodni jahon andozalariga javob beradigan barkamol etib tarbiyalashda xalq amaliy san'ati muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga badiiy ma'lumot berishda tabiat unsurlarini stillashtirish mashg'ulotlarining ahamiyati benihoya katta bo'lib, bu ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda muhim.

Xalq amaliy san'atini o'rganish yoshlarga badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko'rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish, san'at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go'zallikka bo'lgan muhabbatni rivojlantirish, amaliy va badiiy bezak san'atida kompozitsiya masalalari, naqsh turlari, badiiy naqqoshlikda zamonaviy ramzlar, o'quv va tarbiyaviy jarayonda badiiy bezak san'atining o'rni, amaliy bezak san'atida kompozitsiya, shriftlar, reklama, e'lon, shior, tabrik matni namunalari, interyer va eksteriyerda badiiy bezash bilan tanishtirish orqali nazariy jihatdan o'rgatadi hamda ularning estetik didlarini o'stirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etib, pedagoglar, olimlar, ustalar va rassomlar zimmasiga mashaqqatli, ayni paytda, sharaflil va yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Talabalarga inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqonliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson hayoti jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar borliqqa go'zallik va nafosat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi. Xalq amaliy san'ati bilan tanishtirishda quyidagi texnik vositalardan foydalaniladi. Amaliy san'at namoyandalari, xalq ustalari, yetuk o'zbek va xorijiy ta'sviriy san'at usta rassomlarining jahon miqyosida tan olingan san'at asarlari namunalari hamda metodik jihatdan mukammal reproduktiv ishlari, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish taqozo etiladi. Buyuk san'at ustalari va ularning ijod etish jarayonlarini aks ettirishga bag'ishlangan kino lentalarini, chop etilgan namuna va elektron versiyalaridan keng foydalanilgan holda mashg'ulotlarni tashkil etish tavsiya etiladi.³

Amaliy san'at ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda, o'zining ko'rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari, badiiy qiymati bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xomashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi Amaliy san'atda estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir. Amaliy san'atda narsalarning nafisligiga ikki usul bilan erishiladi:

1) shakli oddiy, jo'n buyumlarga bezak ishlab badiiy qiymati oshiriladi;

2) shakli chiroyli qilib ishlanadi. Narsalarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassamotida muhim rol o'ynaydi. Xomashyoning go'zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta'sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir. Ta'sirchan mazmunli shakllar, ko'pincha, taqlidan yaratilganda mazmuni ortadi. Buyumda hosil bo'layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum amaliy san'at asariga aylanadi. Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qo'llaniladi. Ba'zan naqsh yoki ta'svir buyumlarni shakllantiruvchi asosga aylanadi (panjara guli, to'r, gilam, mato gullari va hokazo). Amaliy san'at asarining uyg'unligi, avvalo, badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o'zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon bo'ladi. Bezakning shakl, tasvirning buyum ko'lami va xususiyati, uning amaliy va badiiy vazifasi bilan uyg'unlashtirishning zarurligi tasviriy bo'laklarni o'zgarishiga, talqinda shartlilikka va narsa qismlarini o'xshatib yaratishga olib keladi. Uning rivojida xalq yashagan joyning jug'rofiy sharoiti, xalqining mashg'uloti, etnik va milliy jihatlari, turmush tarzi, madaniy darajasi, qo'shni xalqlar bilan aloqalari va boshqa muhim rol o'ynagan.

¹ 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. T., 2017.

³ X.X.Muratov, R.R.Jabbarov. Amaliy va badiiy bezak san'ati fanidan o'quv qo'llanma, Chirchiq, 2020, 7-bet.

Undan tashqari, ispan elektron OAVdan *comentario* (izoh) va *crítica* (tanqid) ham o‘rin olgan bo‘lib, unda keng jamoatchilik dolzarb masalalar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi. Mazkur jarayon ham fikr janriga oid bo‘lib, saralab olingan jamoatchilik fikri plyuralizmga xizmat qiladi.

Quyida Ispaniyaning yetakchi nashrlaridan biri hisoblangan “El Mundo” gazetasi misolida ruknlarni va ularda aks etgan janrlarni ko‘rib chiqamiz.



España (Ispaniya). Mazkur rukn ostida mamlakatning har bir hududiga doir axborotlar joylanadi. Ispaniya rukni ostida, asosan, axboriy hamda tahliliy janrdagi materiallar joylashtiriladi.

Opinión (fikir) rukni yuqorida qayd etilgan manbalarni o‘zida jamlaydi. Elektron OAVning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy sohalarida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga munosabati, shuningdek, taniqli blogerlarning materiallari, fuqarolarning axborot maydonidagi o‘z pozitsiyasi aynan mana shu janrlar guruhida o‘z ifodasini topadi.

Economía (iqtisodiyot) rukni, asosan, sharh janridagi materiallarni qamrab oladi.

Internacional (xalqaro) rukni xorijiy mamlakatlarda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar haqidagi axboriy hamda sharh materiallarini, tahliliy suhbatlar va sharhli reportajlarni o‘z ichiga oladi.

Deportes (sport) ruknining har bir elektron va bosma nashrda alohida ajratib ko‘rsatilishi an‘anaga aylangan. Mazkur ruknda, asosan, sharh janrlar guruhidan foydalaniladi.

Cultura (madaniyat), asosan, sharhli reportaj hamda tahliliy suhbatlarni qamrab oladi.

LOC (*La otra crónica*), ya‘ni, “yana boshqa xronika” deb nomlangan mazkur rukn, aynan mashhur shaxslarning shaxsiy hayotiga oid materiallarni qamrab oladi. Mazkur rukn ispan mediamakonida faol bo‘lgan barcha janrlar guruhini o‘z ichiga oladi.

Televisión (televizioniya). Bugungi elektron OAV, nafaqat bosma nashrlar (gazeta yoki jurnallar)ning onlayn ko‘rinishi, balki videokontentlar orqali telekanallar o‘rmini bosuvchi, “podkast”lar orqali ra-

dioning vazifasini bajaruvchi vositaga aylanib ulgurdi. Ushbu rukn bilan teledasturlar va namoyish etiladigan filmlar, seriallar haqida materiallar sharh hamda fikr janrida berib boriladi.

Ciencia y Salud (fan va salomatlik) rukni o'zida sharh janriga oid materiallarni birlashtiradi.

La Lectura (adabiyot) rukni o'zbek jurnalistikasida hamon publitsistika deb hisoblangan ocherk, felyeton, hajviya, pamflet kabi janrlarga o'rin ajratadi. Bu rukn badiiy jihatdan boyitilgan matnlarni jamlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, axborotlashgan bugungi jamiyatimizda omma fikrini OAVda rasman faoliyat yuritayotgan jurnalistlar emas, balki blogerlar hamda axborot saytlari rivojlantirayotganini inobatga olgan holda Ispaniya tajribasini O'zbekistonda ham qo'llash, ayniqsa, blogerlarni ham OAV vakili sifatida qabul qilish, ularning aksariyati yozgan materiallarni jurnalistik fikr janri sifatida qabul qilish zarur. Shuningdek, jurnalistik matnlarning hajmiga emas, balki unda muallif ishtirokiga ko'ra janrlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bakiyeva G.X., Teshabayeva D.M. Mediamakonda matn. T., 2019.
2. Nuñez Ladeveze, L. El lenguaje de los "media". Pirámide, Madrid, 1991.
3. Jurnalistika, reklama, publik rileyshnz lug'ati. T., "Zar-qalam", 2003.
4. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari. 5-jild, T., "O'zbekiston", 2019.
5. Cómo clasificar los géneros periodísticos? <https://escuelainenka.com/como-clasificar-generos-periodisticos/>
6. Clasificación géneros de opinión http://descargas.pntic.mec.es/recursos_educativos/It_didac/Leng_ESO/4/10/02_subjetivos_prensa_escrita/clasificacin_gneros_de_opinin.html

Usenov Jiengaliy (Nukus davlat Pedagogika instituti katta o'qituvchisi; jiengaliy@mail.ru) YOSHLARNING MILLIY MENTALITETINI SHAKLLANTIRISHDA OAV O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning milliy mentalitetini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniya, radio, internetning o'rni tahlil qilingan. Yanada maqolada globallashuv sharoyitida yoshlarni zararli illatlardan himoya qilish, ular o'rtasida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, axborot xavfsizlik va internet madaniyati haqida fikrlar bildirilgan.

Аннотация. В данной статье анализируется роль средств массовой информации, особенно телевидения, радио и интернета, в формировании национального менталитета молодежи. Кроме того, в условиях глобализации в статье освещается мысль о защите молодежи от вредных заболеваний, здоровье социальной и духовной среды, информационной безопасности и интернет-культура.

Annotation. This article analyzes the role of the mass media, especially television, radio, and the Internet in shaping the national mentality of young people. In addition, in the context of globalization, protection of young people from harmful diseases, health of social and spiritual environment, information security and Internet culture are expressed in the article.

Kalit so'zlar: axborot, telekommunikatsiya, texnologiya, globallashuv, innovatsiya, axborot xavfsizlik, axborot madaniyati, axborot-psixologik xavfsizlik, internet, zo'ravonlik, tubanlik.

Ключевые слова: информация, телекоммуникация, технология, глобализация, инновация, информационная безопасность, информационная культура, информационно-психологическая безопасность, интернет, насилие, подрывная деятельность.

Key words: information, telecommunications, technology, globalization, innovation, information security, information culture, information-psychological security, internet, violence, subversion.

Hozirgi davr tezkor, axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hayotning deyarli barcha jabhalarida inson faoliyatida ham keng namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, axborot makoni globallashuv jarayoni butun jahon rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etilmoqda. E'tiborli tomoni shuki, bugun mamlakat ichidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga insonlar ehtiyojining juda ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning imkoniyatlarining o'sishi, jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo'nalishlarda keng tarzda ishlatilishi, yangi XXI asrda inson taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillardan biri bo'lmoqda hamda undan samarali foydalanish yo'llarini aniqlashni davr taqozo qilmoqda.

So'nggi yillarda axborot va innovatsion tafakkur fenomeni bilan bog'liq amaliy hamda nazariy tadqiqotlar ko'plab olib borilmoqda. Jumladan, inson va innovatsiya muammosi, jamiyat ijtimoiy taraqqiyo-

uning yangi axborotlashgan davr bilan bog'liqligi, yoshlarda axborot xavfsizligi, axborot madaniyati bilan bog'liq ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda odamlar, ijtimoiy guruhlar, ayniqsa, yoshlar ongi ma'lum darajada axborot vositalari va resurslarining ta'sir doirasiga tushib qolmoqda. Shuning uchun axborotlashgan jamiyat sharoitida aholining, ayniqsa, yoshlarda milliy mentalitetini shakllantirish orqali ularning ilmiy va innovatsion tafakkurini oshirish, shaxs, jamiyat va davlatning axborot, axborot-psixologik xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish zaruriyatini saqlab qolmoqda.

Mamlakatimizda global axborot jamiyatida aholi, ayniqsa, yoshlar milliy mentalitetini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shu ma'noda, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash, ularni ilm-fan cho'qqilarini egallash, yangiliklarni joriy etish, innovatsion jarayonlarga moslashtirib borish usul-vositalari va mezonlarini ilmiy tadqiq etish zaruriyatini davr tobora taqozo etmoqda.

Bugungi jamiyat taraqqiyoti va uning ichki va tashqi omillar uzviyligi natijasida yuzaga kelmoqda. Ichki va tashqi omillar, asosan, axborot vositasi bilan ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari – radio, televizor, gazeta, jurnal va internet orqali axborot ayirboshlash rivojlanib bormoqda. Hatto, ba'zida mobil telefonlarni internetga ulash hodisalari ham uchray boshladi. Olimlarning fikricha, inson 85 foiz axborotni ko'rish orqali oladi va qolgan 15 foiz axborotni eshitish orqali olar ekan. Demak, bu o'rinda televideniya va internetning roli har qachongidan ham ortib bormoqda.

Hozirgi kunda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o'z kelajagini o'ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, hatto his etmasligi mumkin emas. Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida eng qudratli va ta'sirchan targ'ibot quroliga aylanmoqda. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy mentalitet, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

Biz jamiyatda chetdan bo'ladigan turli g'oyaviy va mafkuraviy tazyiqlarga hamisha ogoh bo'lishimiz, odamlarda Vatanimizga, jamiyatga nisbatan milliy va umuminsoniy munosabatlarni shakllantirishimiz lozim. Shuni unutmashimiz kerakki, "globallashuv jarayoni, uning milliy g'oyaga ta'sir etishi ham umumiy qonuniyatdir. Bu jarayon turli mamlakatlar, xalqlar hayotida ularning bir-biriga bog'liqligini, o'zaro ta'sirini oshiradi, ma'naviy, g'oyaviy hayotida aks etmasdan qolmaydi".¹ Lekin undan qay tarzda va qay darajada foydalanish, qanday javob berish har bir davlatning ichki muammosi va ijtimoiy taraqqiyotining belgisidir. Turli axborot oqimlarida suzib yurgan xilma-xil madaniyatlar va qadriyatlar ko'rinishlarining shaxsga nechog'li ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega ekanligini bilamiz. Bunday holatlar jahonda globallashuv jarayonida axborot oqimining tezlashishiga olib kelmoqda va matbuot, radio-televideniya, internet olami chegara bilmas darajada keng miqyosli bo'lib avj olmoqda.

"Demak, ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada liberallashtirish – davr talabi. O'zbekiston matbuotining jahon ommaviy axborot vositali tizimiga uyg'unlashuvi, internetning global axborot maydoniga integratsiyalashuvi yaqqol ko'zga tashlanmoqda".² Biz bularning yoshlar uchun xizmat qiladigan, uning istiqboli va kelajagiga keng imkoniyatlar yaratib beradigan, jamiyatda milliy mentalitetni yuqori pog'onaga chiqarishga undaydigan samarali tarkibiy qismlaridan foydalanishimiz lozim.

Ayni paytda, ommaviy axborot vositalari yoshlar milliy mentaliteti shakllanishida, bir tomondan, yaxshi samara berib, barkamol avlod ongi va tafakkuri, madaniyatida shakllanib, ijtimoiy muhitga milliy va umuminsoniy ruh baxsh etayotgan, ularning bir-biriga yaqinlashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, axborotlarning ko'pligi yoshlarga biror-bir davlat yoki xalqlarning taqdiri va ularning turmush tarzi shu jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etishini taqqoslab ko'rishga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda, uchinchidan, bu axborotlarning milliy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan g'oyalarda ba'zida millat va jamiyat ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi niqoblangan madaniyatlarning kirib kelish xavfi ham sezilarli tug'ilmoqda.

Shunday ekan, jahondagi mavjud bo'lgan barcha vosita va qurollar ichida hozirgi kunda axborot vositasi har qanday muhim harbiy quroldan ham dahshatli bo'lib bormoqda. Har qanday bomba cheklangan miqdordagi odamlarni birdaniga o'ldiradi yoki jismonan zaiflashtiradi. Axborot xuruji esa har kuni

¹ Milliy istiqbol g'oyasi va rahbar faoliyati. T., "Akademiya", 2007, 17-bet.

² Shu manba. 118 – 119-betlar.

million-million odamlarni, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy-ruhiy majruh va mayib qilib boradi. Ularni o'z ota-onasi, Vatani va milliy qadriyatlaridan voz kechgan, har qanday g'ayriinsoniy ishlarga qodir, xudoni ham tanimaydigan yoki diniy mutaassiblikka berilgan, fahsh, zo'ravonlik va tubanlik ularning odatiy xislatiga aylanib qolgan tirik holdagi mayit qilib qo'yish xavfi ko'zga tashlanmoqda.

Bunday millat va jamiyat taqdiriga tahdid solayotgan muammolarni tahlil etish, yechimini topish, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida hayotimizning muhim bo'lagiga aylanishi lozim. Demak, yoshlarimiz ruhiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlardan doimo ogohlik bilan munosabatda bo'lish, ularning ma'naviy dunyosidagi bo'layotgan yangiliklarda milliy ruhning namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratish har birimizning doimiy vazifamizga aylanmog'i lozim.

Kallibekova Gulnara Palbekovna (Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti (PhD))

MEDIALINGVISTIKANI TAKOMILLASHTIRISHDA GAZETA TILINING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Medialingvistika – bu gazeta tili, radio tili, televideniya tili va internet tilining umumiy jamlanmasi. Jahonda medialingvistika sohasiga keng e'tibor qaratilib, tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Medianing bir turi sifatida gazeta olib qaraladi. Gazeta tili medialingvistikaning tayanch manbalarining biri. Adabiy tilning barcha uslublari gazeta tilida namoyon bo'ladi.*

Аннотация. *Медиалингвистика – это совокупность языка газеты, радио, телевидения и интернета. В мире медиалингвистике уделяется большое внимание и проводятся ряд исследования. Газета рассматривается как разновидность медиа. Газетный язык – один из основных источников медиалингвистики. Все стили литературного языка проявляются в языке газеты.*

Annotation. *Media linguistics is a general combination of newspaper language, radio, television and Internet language. Nowadays wide attention is paid to the field of mediallynguistics in the world and much research work is being carried out. Newspapers are used as a type of media. Newspaper language is one of the basic sources of mediallynguistics. All styles of literary language are reflected in newspaper language.*

Kalit so'zlar: *media, mediamakon, medialingvistika, gazeta, gazeta tili, termin, leksika, morfologiya, sarlavha, affiks.*

Ключевые слова: *медиа, медиасреда, медиалингвистика, газета, газетный язык, термин, лексика, морфология, заголовок, аффикс.*

Key words: *media, media space, media linguistics, newspaper, newspaper language, term, lexicon, morphology, title, affix.*

Axborot asrida axborotlarni to'liq va ixcham shaklda yetkazib berish zarurligi ortmoqda. Zamona-viy mediamakonda medialingvistika omma e'tiborida bo'lib, targ'ivot-tashviqot ishlarini olib borishda asosiy vazifani bajaradi. Medialingvistika – bu gazeta, radio, televideniya va internet tilining umumiy jamlanmasi. Jahon jurnalistikasida, tilshunosligida medialingvistika sohasiga doir qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Medianing bir turi – gazeta. Gazeta tili medialingvistikaning tayanch manbasi. Adabiy tilning barcha uslublari gazeta tilida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan ham tilshunos olimlar davriy matbuotning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganib kelmoqda. Qoraqalpoq filologiyasining masalalari bo'yicha qator ilmiy seminarlarda ham bu mavzu keng muhokama qilinmoqda. Mazkur ilmiy seminar Qoraqalpoq Gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutidagi qoraqalpoq tilshunosligi, qoraqalpoq adabiyoti va folkloristika bo'limlari tomonidan muntazam o'tkazib kelinmoqda va har yili ilmiy to'plamlar nashrdan chiqarilmoqda [5].

Gazeta tilining rivojlanish jarayonlari axboriy janrlar tili bilan uzviy bog'langan. Yangiliklar orqali yangi leksik birliklar kirib keladi. Axboriy janrlarning klassifikatsiyasi, qollanilayotgan sarlavhalar, neologizmlar, atamalar va leksik birliklar haqida O.Tog'ayev, M.Xudoyqulov, F.Nesterenko, Q.Ibnazarov, Y.Mamatova, N.To'xlijeva, T.Masharipova [1], Z.Orazimbetova [3], A.Najimov [2], G.Kallibekova [7], D.Qurbaniyazov [6] singari olim va tadqiqotchilarning qo'llanmalarida alohida to'xtab o'tilgan.

Auditoriya rasmiy ma'lumotlarni rasmiy internet sahifalaridan oladi. uza.uz, kknews.uz saytlarida jurnalistlar xilma-xil mavzulardagi materiallarni auditoriyaga yetkazib kelmoqda.

Yurtimizdagi barcha voqea-hodisalar jurnalistlar, muxbirlar va fotojurnalistlar tomonidan faol yoritilmoqda. Ularning ijodini biz barcha OAV misolida ko'rsatishimizga bo'ladi. uza.uz saytida O'Imas Barotov, Jamshid Norqobilov, Abror Xon, Nasiba Ziyodullayeva, Muhtarama Komilova, A.Qayumov, Ikrom Avvalboyev va Shuhrat Suyarov kabi jurnalistlar faoliyat yuritmoqda. Jurnalistlar obyektlardan tahliliy ma-

qolalar, shu bilan birga, foto fakt, fotoreportaj, fotocherk ham tayyorlaydi. Shularning ishida maxsus fotomuxbirlarning biri Jamshid Norqobilov, Shuhrat Suyarovni ko'rsatib o'tish mumkin.

Jamiyatda yangiliklarni yetkazib berishda davriy matbuot ham o'z faolligini ko'rsatmoqda. «Yangi O'zbekiston», «Ma'rifat», «Postda», «Vatanparvar» gazetalari, «Jahon adabiyoti», «O'zbekiston matbuoti», «Tafakkur», «Qalqon» jurnallari o'quvchilar, gazetxonlar orasida o'z auditoriyasiga ega. Ayniqsa, «Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!» shiorida chop etilayotgan gazeta «Vatanparvar» gazetasi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tashkillashtirishida chop etilayotgan gazetaga Ahror Ochilov bosh muharrirlik qilmoqda. Internetdagi rasmiy sahifasi: www.mv-vatanparvar.uz, www.mudofaa.uz. Mazkur gazeta 24 safida chiqariladi. Gazeta ruknlari: «Bu-gunimiz qahramonlari», «Mardi maydonlar», «Harbiy texnika», «Sog'lom turmush tarzi», «Ehtirom», «E'zoz», «E'tibor», «Ayollar bekati», «Kun mavzusi», «Uch avlod uchrashuvi», «Ajdodlar merosi», «Harbiy terminologiya», «Oramizdagi odamlar», «Tabiyat kuychisi», «Sport», «Huruqiy targ'ibot», «ArMI-2022», «Ajdodlar jasorati – yoshlarga ibrat», «Jasorat lavhalari». Gazeta jurnalistlari Rasul Juma-yev, Akbar Allamurodov, Sayyora Meliqo'ziyeva, Ro'ziqul Ochilov, Sherzod Egamberdiyev, Muattar Meliyeva, Zulfiya Yunusova, Inobat Ibrohimovalar o'z uslublariga ega bo'lgan jurnalistlardan hisoblana-di.

«Kun mavzusi» ruknida «Kiberjinoyatchilik, unga qarshi har birimiz kurashishimiz lozim» («Vatanparvar» 2022.07.10) sarlavhadagi maqola F.Sulaymanov tomonidan tayyorlangan. Muallif soha mutaxassislaridan biri. Maqolada faktlar keng tahlillar asosida bayon qilingan. Maqola matnida asosiy mazmuni ko'rsatib berishga harakat qilgan, qator terminlardan foydalangan. Masalan: «So'nggi vaqtlarda viruslar orqali amalga oshirilayotgan kiberhujumlar xatarli tus olmoqda. Viruslarning aksariyati bank-moliya xizmatlarini ko'rsatadigan axborot tarmoqlarini zaiflashtirish orqali u yerdan moliyaviy mablag'lar va ma'lumotlarni o'g'irlashga, yo'q qilishga qaratilganligini ko'rish mumkin. Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, xakerlarning asosiy diqqat markazida bank-moliya sohasidagi yirik muassasalar, onlayn to'lov jarayonlarini amalga oshiruvchi tizimlar, bank plastik kartalari va savdo terminallari bo'lib kelmoqda». Mazkur jumalalarda viruslar, kiberhujumlar, bank-moliya xizmatlari, axborot tarmoqlari, xakerlar, onlayn to'lov, plastik kartalar, savdo terminallari singari terminlar qo'llanilgan.

Muallif tahlillarni misollar orqali dalillab ko'rsata olgan: «Misol uchun, o'tgan yillar davomida jahonda «Carbanak» hamda uning «SWIFT» nomli kiber jinoyatchilik guruhi xakerlari bank va bir qator moliyaviy tashkilotlardan har yili 1 mln AQSH dollaridan ziyod mablag'ni o'g'irlab kelgan. Shunga o'xshash jinoyatlar xakerlarga «yengil» daromad manbai bo'lganligi sababli, ular bu turdagi jinoyatlarni sodir etish ko'lamini doimiy kengaytirib, bank-moliya tizimidagi tashkilotlardagi moddiy qiymatlarni o'g'irlab, talon-toroj qilib kelmoqda». Demak, soha mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalarda «Carbanak», «SWIFT» kiberjinoyatchilik, moliyaviy tashkilotlar, mablag', daromad, moddiy qiymat kabi leksik birliklardan faol foydalaniladi. Bu kabi leksik birliklar, terminlar Qoraqalpoq matbuoti materiallarida ham faol qo'llaniladi. Tilshunos olimlar ijtimoiy-siyosiy terminlar til taraqqiyotida ahamiyatli o'rinda turadi, deya ta'kidlaydi [4].

Qoraqalpoq jurnalistikasining taraqqiy etish jarayonlarida «Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tishimiz joiz. 1924-yilning noyabr oyidan boshlab o'z faoliyatini boshlagan gazeta orqali buyuk ijodkorlar o'z ijod yo'lini rivojlantirgan. Gazeta A-2 formatida haftaga 3 marta nashr qilinadi. Bosh muharrir–Qurbanbay Bayniyazov. «Eldiñ birligi hám abadanlıǵı ushın!» deya ta'kidlab ko'rsatilgan so'zlar gazetaning shiori sifatida tanlangan. Ruknlar tashkil etish jarayonlarida biz ijodiy jamoaning o'ziga xosligini, mahoratini, tajribasini dolzarb mavzularni ko'tarib chiqqanligidan anglaymiz. Masalan: «Ùsh áwlad ushırasıwı», «Aramızdaǵı adamlar» («Erkin Qaraqalpaqstan». 2023.11.02), «Ruwxıyılıq», «Salıqshı – isbilermenge kómekshi» («Erkin Qaraqalpaqstan». 2022.16.08), «Múnásibet», «Zamanagóy qolaylıq», «Qarar hárekette», «İnsanıyılıq pazylet» («Erkin Qaraqalpaqstan». 2023.24.01). Davriy matbuotda bir mavzu bóyicha ikkita muxbir yoki jurnalist maqola tayyorlash jaryonlari juda ko'p. Qoraqalpog'iston davriy matbuotida bunday misollarni ko'plab keltirishimizga bo'ladi. Ayniqsa, ular bayram kunlari, ijodiy jarayonlar, tashabbuslar va kasb fidoyilari ijodi, tug'ilgan kunlariga bag'ishlab yoziladi. Masalan, fotojurnalist Jumabay Jaqsimuratovning ijod yo'liga bag'ishlangan maqola taniqli yozuvchi Abdimurat Atajanov va jurnalist Orazbay Sátbayev muallifligida tayyorlangan. Maqola faktlarga boy, leksik birliklardan mahorat bilan foydalana olgan. Gazetalarda qahramonning o'ziga xos qobiliyatini gazetxonga yetkazib berishda yaxshi rukn tanlangan. Jurnalistlar ijodidan misollar keltiramiz.

«Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasida 2014-yil 9-dekabr sonida «Kásipten kamal» ruknida «Janlı shejireni jaratıw jolında...» sarlavhali yozuvchi Abdimurat Atajanovning maqolasi chop etilgan. Maqolada foto-

jurnalist Jumabay Jaqsimuratovning ijod yo'li va qahramon qiyofasi yaxshi ta'riflangan. Maqolaning mazmunidan misol keltiramiz: «Ol kúnlerdegi jas jigít Jumabay «Jetkinshek»te korrektor bolip islep júr edi... Ararasında fotoapparat asınıp kiyatırđanın kórdim... Uzun boylı, qolı, barmaqları da uzun... Súwretke túsi retuđın adamnıń ephsil qolı... Boysını da sođan sıbaylas». Jurnalist maqola mazmunida frazeologimlardan mahorat bilan foydalangan. Masalan: «Qorđasın menen háripler teriletuđın sol zamanda gazetada basılatuđın súwretti cinkografiyada shıđarıwǵa buyırtpa berip ótkergende de juwaplı xatker qattı qıynaladı. Azđana kemshiligin tapsa yamasa eregisse «shıqpaydı» dep kerek súwretti de almaydı. Bunnan keyin cinkografiyada súwret tapsıratuđın juwaplı xatker súwret tańlawǵa qırađılıqtı qırıq mártege asıradı. Fotoxabarshınıń *sirke* suwına tiyiledi. Redakciyanıń ózinde-aq biraz súwretti «brak»qa shıđarıladı... Jumabay usınday qabat-qabat sınaqtan súwretin ótkeriwdiń mashaqatın kóp kórdi. Bir súwreti asıra maqtalsa, geybir súwreti «jaramaydı» dep jerge urıldı. Sođan qaramastan ol bul talaptan waz keshpedi». Bu qatorlardagi «qırađılıqtı qırıq mártege asıradı; fotoxabarshınıń *sirke* suwına tiyiledi» frazeologizmlari matnga mos tanlangan va so'zni ekspressiv ma'nado yetkaza olgan. Á. Atajnovning mazkur maqolasining mazmunida bayon etilgan perifrazalarga e'tibor qaratamız. Masalan: «Jumabay Jaqsimuratov bunnan keyin «Vesti Karakalpakstana» gazetasına shaqırılđansha «Jetkinshek» gazetasında jemisli miynet etti. Baspasóz tarawınıń tarlanı dárejesine jetti. Búgingi kúnde aldınđı shamshıraq áwlad–R.Saidov, N.Dáwqarayev, M.Shirazov, K.Orazov, A.Muratov, B.Allashevlarđın úlgili jolın jalđastırıp, túsirgen súwretleri arqalı respublikamızdın janlı shejiresin jaratıwǵa azamatlıq úlesin qosıp kiyatır». Mazkur kontekstdagi «baspasóz tarawınıń tarlanı» so'zlari perifraza sifatida qahramonning ijod yo'liga mos va to'g'ri tanlangan.

«Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasining 2014-yil 30-avgust sonida «Toyxat ornına» ruknida «Fotoapparat asınđan insan» mavzusida Orazbay Sátbaevning maqolasi yozilgan. Maqolaning mazmuni yaxshi, qahramonning o'ziga xos xislatlari to'g'ri tasvirlab berilgan. Kirish qismi ta'sirchan matnlarda bayon etilgan. Masalan: «Paytaxtımdađı orta mekteplerdiń birinde oqıp júrip, oqıwshılar sarayındađı fotodógerikke qatnap júrgen boyshań, arıq-turaqtan kelgen bala oyda joqta balalardıń súyikli gazetası bolg'an «Jetkinshek»ke jumısqa aralastı. Anıđırađı, sol gazetada járiyalang'an jas háwesker súwretshilerdiń fototańlawlarına turaqlı qatnasıp, sıylı orınlardı alıp kelgen bul bala gazeta xızmetkerleriniń dıqqatın ózine tarttı. Redakciyađa jumısqa mirát etilgende, ol bul usınıstı quwana-quwana qabil etti». Jurnalist qahramonning ko'rinishini, yoshlik paytiga qaytgan holda tushuntirib berishga harakat qilgan. Masalan: «Onnan berli aradan biraz jıllar zımırıp ótti. Sol gezlerdegi qara bala búgin sol arıq-turaqlıđı menen boyshańlıđın saqlađan halda saldamlı kisige aylang'an. Qúdiretli waqt óz húkimin júrgizip, tislerin de, shashların da ádewir siyrekstiken. Lekin, buđan nalınıp júrgen ol joq. Qılshıladađan sol jaslıq dáwirindegidey ele qádemleri shaqqan-shaqqan basıp, zıńkildep juwirıp-jortıp islep júr. Bul jerde gáp «Vesti Karakalpakstana» gazetasınıń ottay xızmetkeri, fotoxabarshı Jumabay Jaqsimuratov haqqında baratır». «Qaraqalpaqstanda Jumabaydın onsha izi tiyemegen jerdiń ózi joq. İyninen fotoapparatı túspeytuđın bul miynetkesh insan sharlamađan túpkir qalmađan. Sol ushın da onı tanımaytu-đınlar shende-shen. Qay jerge barsa da, meyli ol geologlar ma, meyli ol sharwalar ma, burınnan tanıs-bilistey, ájik-gújik sóylesip kete beredi. Házil-dálkekti de kemine keltiredi. İreti menen jaqsı gúrriń beredi». Bu qatorlardagi búgin sol arıq-turaqlıđı menen boyshańlıđı, saldamlı kisige aylang'an, tislerin de, shashların da ádewir siyrekstiken, jaslıq dávirindegidey, ottay xızmetkeri, burınnan tanıs-bilistey, ájik-gújik sóylesip kete beredi deb ishlatılğan leksik birliklar orqalı qahramon qiyofasını tushuntirilğan. -day/-dey, -shań/-sheń, -tay/-tey affikslari orqalı qahramonning xarakteri oshib berishga erishilğan.

Xulosa qilib aytganda, medialingvistika va gazeta tili doim aloqada bo'ladi. Gazeta tilida qo'llanilyotgan leksik birliklar medianing boshqa turlarida ham asosiy mavzuga moslashtirilib qo'llaniladi. Zamonaviy mediamakonda medialingvistika va gazeta tili taraqqiyotni tezlashtiradigan resurs sifatida xizmat qiladi. Global axborot oqimlari shiddat bilan hududiy chegaralarni parchalab tashlayotgan bir paytda millat, mamlakat va davlat manfaatları ko'p jihatdan aynan axborot sohasidagi xavfsizlik bilan bog'liq bo'lib qoldi. Axborotning davlat va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etish omillari, axborot erkinligini ta'minlashda davlat va jamiyatning vazifalari media orqali keng tushuntiriladi. Yangiliklar – axborot janrlarining asosi sifatida olib qaraladi. Shu jihatdan olimlar tomonidan mediada janrlar konsepsiyasi, janrlar tuzilmasi, janrlar turlari, janrlar tili va uslubi tadqiq etib kelinmoqda. Mediayangiliklari nafaqat bir davlat va jamiyat taraqqiyotiga, balki xalqaro hamjamiyat taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Jamiyatga axborotni vaqtida yetkazib berayotgan davriy matubot ma'naviy dunyoqarashni kengaytiradi, bilim beradi, tarbiyalaydi. Yoshlarning nutq madaniyatini ham rivojlantiradi, til o'rgatadi. Shuning uchun ham medialingvistika sohasini yosh olimlar tomonidan o'rganish, tadqiqot olib borish uchun obyekt bo'ladigan dolzarb mavzularning biri sifatida ta'kidlab ko'rsatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Машарипова Т. Публицистика теориясының бир пүтин концепциясы. Илимий-методологиялык анализ (Қарақалпақстан баспасөзи материаллары мысалында). Тошкент, 2016.
2. Нажимов А. Мустақиллик йилларида ижтимоий-сиёсий лексиканинг ривожланиши. Филол. фан. фалс. д-ри (PhD), Нөкис, 2021, 54-бет.
3. Оразымбетова З.Қ. Қарақалпақ вақтли матбуоти тилининг шаклланиши (1924–1940 йй. матбуоти материаллари асосида). Филол. фан. ном. ...дис. автореф., Нукус, 2006; Оразымбетова З. Қарақалпақстан күнделикли баспасөзи тилинің стильлик өзгешеликтери. Филол. илим. д-ри (DSc) дис., Нөкис, 2019, 236-бет.
4. Пирниязова А. Қарақалпақ тилиндеги жәмийетлик-сиясий лексиканың қәлиплесиў хәм раўажланыў жоллары. Нөкис, 2019, 97-бет.
5. Қурбаниязов Д. Күнделикли баспасөзде мақала темаларының атқаратуғын хызмети. Қарақалпақ филологиясының мәселелери. Илимий семинар мақалалар топламы, Нөкис, «Илим», 2021, 71–76-бетлер.
6. Қурбаниязов Д. Қарақалпақ матбуотида сарлавханинг семантик-структуравий ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. фалс. д-ри (PhD), Нөкис, 2021, 52-бет.
7. Каллибекова Г.П. Tarawliq gazeta materiallariniñ tili hám stillik ózgeshelikleri. Нөкис, “Илимпаз”, 2022, 168-бет.

Rajabova Nilufar (Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

HAZRATI SHAYX MUXTOR VALI MAJMUASI VA UNING VOHA AHOLISI O'RTASIDA TARBIYAVIY AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Maqolada Xorazm viloyatida joylashgan Hazrati Shayx Muxtor Vali majmuasining tarixi va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Xususan, Hazrati Shayx Muxtor Valining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyati va bunyodkorlik ishlari faktlar bilan asoslanilgan.*

***Annotatsiya.** В статье анализируется история и просветительское значение комплекса Хазрат Шейх Мухтар Вали, расположенного в Хорезмской области. Особенно деятельность и творчество Хазрата Шейха Мухтара Вали освещены фактами в области образования.*

***Annotation.** The article analyses the history and educational importance of Hazrat Sheikh Mukhtar Vali complex located in Khorezm region. Especially, the activities and creative works of Hazrat Sheikh Mukhtar Vali highlighted with the facts in the field of education.*

***Kalit so'zlar:** maqbara, ta'lim-tarbiya, ziyoratgoh, valiy, fiqh, ziyorat, shariat, ruhiy tarbiya.*

***Ключевые слова:** мавзолей, образование, святыня, хранитель, юриспруденция, паломничество, шарият, духовное образование.*

***Key words:** mausoleum, education, shrine, guardian, jurisprudence, pilgrimage, Sharia, spiritual education.*

Xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatları va ko'nikmalarini, mavjud beqiyos ma'naviy boyliklarini har tomonlama o'rganish, ayniqsa, uning alohida olingan hududlarida, jumladan, Xorazm viloyatida ma'naviy qadriyatlarini tiklash va uni rivojlantirish borasida amalga oshirgan ishlarini atroflicha tahlil etish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xorazmning jahon ilm-fani, madaniyat va san'ati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilgan betakror bir o'lka ekanligini ta'riflab, «muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'ida unib-o'sgan, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan»,¹ deb ta'kidlagani bejiz emas.²

Xorazm vohasi qadim zamonlardan buyon o'zining muqaddas maskanlari, avliyo-anbiyolari, qadamjolari bilan mashhur bo'lib kelgan. Ayniqsa, VIII asrda Xorazmga Islom madaniyatining kirib kelishi bilan ulug' allomalar, karomatli avliyolar, muqaddas pirlarga e'tiqod kuchayadi. Ular olamdan o'tgach, esa ularning qabrlari obod qilinadi. Bu ishda xonlar, beklar, o'ziga to'q kishilar faoliyat ko'rsatadilar. Shu bois Xorazm diyorining ulug' avliyolar yaratgan maskan, “Ming gumbazli” mamlakat deya ulug'lanadi. Insonlarning avliyo-anbiyo va katta buzruklarining e'zozlashi va ularga e'tiqod qilishlari poklik, ma'na-

¹ Шавкат Мирзиёев. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017.

²<https://www.journalpro.ru/articles/musta-illikning-dastlabki-yillarida-khorazm-viloyatida-milliy-manaviy-adriyat-larning-ayta-tiklanishi/>

viyat, ma'rifat va imonni e'zozlashdir. Avliyo-anbiyolarning tabarruk ruhlarini yodlash, ularga duo yuborish orqali biz o'z qalbimizni, vijdonimizni poklash, hayot tarzimizni rostdash va ezgulik sari muvofiq-lashtirishni ham o'ylaymiz. Chunki avliyo-anbiyolarning hayoti, so'zlari va ko'rsatgan karomatlari bizga ibrat, saboq hamdir. Xorazm vohasida Islom dinini yoyishda jonbozlik qilgan shayxlardan biri Hazrati Shayx Muxtor valiydir.

Hazrati Shayx Muxtor valiyning qabri Xorazm viloyati Yangiariq tumanining Ostona qishlog'ida joylashgan. Shayx Muxtor Vali hijriyning 686-sanasida, ya'ni 1287-yili vafot etgan.¹ Maqbara katta va kichik xona hamda go'rxonadan iborat. Katta xonaning to'rt tomoni chuqur ravoqli, keyinchalik, yonlaridagi hujralarga eshik ochilgan. Kichik xonaning ham burchaklarida hujralar, shuningdek, ziyoratxona qurilgan. Orqasida 2 go'rxona, halimxona va omborxona bor. Maqbarada Shayx Muhtor Valiy, xotini Nigor bibi va yaqin kishilari qabrlari joylashgan.² Maqbara hajmi har xil to'rtburchak g'ishtlardan qurilgan.³ Umumiy maydoni 35,5x35,5 m²ni tashkil qiladi. Bu yerda 2 ta zal birinchisi to'rtburchak shaklda, ikkinchisi kichik zalni tashkil qiladi.⁴ Rivoyatlarga ko'ra, ushbu maqbara va Xivadagi Said Alovuddin maqbarasini qurilishini Amir Kulol tomondan amalga oshirilgan, tarixiy manbalarda maqbara Qozoqxon tomondan qurilgani va o'zi ham shu qabristonga dafn qilingani yoritilgan.⁵

Arxeolog Y.F.Fulomov "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida bu bino XIII–XIV asrlarga oidligi va Shayx Muxtor tomonidan qurilganligini, qabristonning o'zi bu yerda qadimgi katta aholi yashaydigan maskan bo'lganligidan darak berganini ta'kidlab o'tadi. 1937-yilda Janubiy Xorazmda arxeologik ishlar olib borgan me'mor marhum N.Zasipkin ham Y.Fulomov fikrini isbotladi. Bu ma'lumotlar maqbaraning juda qadimiyligidan darak beradi.⁶

Mug'ullar istilosidan keyin Oltin O'rda xoni Qutlug' Temur davrida (1321–1332) katta maqbara va atrofi hujralardan iborat binolar qurilgan.⁷ Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Xiva xoni Muhammad Rahimxon I (1806–1825) davrida Shayx Muxtor Valiyning qabri ustida g'ishtdan maqbara, baland pesh-toqli gumbaz, xonaqo, masjid va qorixonalar, ziyoratchilar, shayx va qoriylar uchun turar joylar qurdirgan. Shuningdek, xonning mulozimlari, badavlat kishilar ham bu insonga e'tiqod qilib katta yerlarni, katta miqdordagi mablag'larini vaqf qilib berganlar.⁸

1807–28-yillarda maqbara Zayniddin ibn Odina Muhammad usta tomonidan qayta ta'mirlangan.⁹ Maqbaraning ichki xonalarida XIX asrda to'p quyish ustaxonasi va porox saqlanadigan ombor joylashtirilgan, natijada maqbara vayronaga aylangan. Maqbara 1840-yilda qayta ta'mirlangan va 1975, 1991, 1997, 2011-yillarda restavratsiya qilingan.¹⁰

Majmua Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-son qaroriga asosan, turizmi marshrutlarida foydalaniladigan madaniy meros obyektlarining 2021–2025-yillarda ustuvor ravishda restavratsiya qilish dasturiga kiritilgan.¹¹ Dasturga asosan, «Shayx Muxtor vali» ziyoratgohi obodonlashtiriladi va qo'shimcha xizmatlar yaratish orqali sayyohlar oqimi oshiriladi.¹²

Muxtor Valiy diniy ilmlar – kalom, aqoid, fiqh va shariat ahkomlarini, farz va sunnatni, tariqat ilmlari – suluk va maqomni murshid-murid munosabatlarini ixlos bilan o'rgangan. Ayniqsa, fiqh ilmini chuqur egallab, dastlab, Ko'hna Urganchdagi madrasalardan birida ta'lim oladi va qozilik darajasiga ko'tariladi. Bir qancha muddat mushrif va muxtasib bo'lib ishlaydi. Shayxdan bizga "Manoqib" asarigina yetib kelgan. Muxtor Valiy to'g'risidagi ma'lumotlarni tarix, tazkira kitoblarida va vaqf hujjatlarida uchratish

¹ F.Хўжаниёзов. Норинжон қалъаси ва Норинжон бобо мажмуаси. "Tamaddun nuri", 2018, 2-son, 16-бет.

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-том, Т., 2005, 680-бет.

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. III ҳарфи, Тошкент, 10-бет.

⁴ Янгиариқ туман тарихи. К.Нуржонов, Н.Жуманиязова. Урганч, 2011, 17-бет.

⁵ Маньковская Л.Ю., Булатова В.А. Памятники зодчества Хорезма. Т., 1978, с. 153.

⁶ Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи: қадим замонлардан ҳозиргача. Т., Ўздавнашр, 1959, 90-бет.

⁷ Маньковская Л.Ю., Булатова В.А. Памятники зодчества Хорезма. Т., 1978, с. 153.

⁸ Ражабов Ш., Нуржонов К. Остона қишлоғи. Шайх Мухтор Валий ҳақида тарих, бадиъа, афсона ва ривоятлар. Урганч, 1993, 14-бет.

⁹ Ҳожи Исмаилов Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислам маданияти. Т., "Шарқ", 2005, 334-бет.

¹⁰ <https://yangiariqkhokimiyat.uz/investitsiya-va-turizm/turizm-salohiyati/63-ostona-qishlogida-joylashgan-shayx-muxtor-vali-ziyoratgohi.html>

¹¹ <https://lex.uz/acts/5315060?ONDATE=25.02.2021%2000>

¹² <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-turizm-industriyasi-zhadal-suratlarda-taraqqij-etyapti>

mumkin. Sharqshunos olim A.A.Freyman “Xorezmskiy yazik” kitobida Shayx Muxtor Valiyning “Istalganga erishish” asarini o‘rganar ekan, uni o‘lkaning bosh qozisi bo‘lgani va yangi topilgan “Fiqh amaliyoti” nomli asari esa bu fikrini to‘la isbotlashini yozadi.

Hazrati Shayx Muxtor valiy o‘z zamonasining olimi, muddorisi bo‘lib, ko‘plab yoshlarga ilm bergan, Pahlavon Mahmudga madrasa ilmidan saboq bergan ustozlaridan biri bo‘lgan. Mahmudning yoshlik payti ko‘chada o‘ynab yurgan kezlarida Shayx Muxtor vali Xiva ko‘chasidan eshak minib o‘tar ekanlar. Mahmud ul hazratning eshaklarining quyruqlaridan tutib turar, eshak yura bilmas ekan. Shunda Muxtor ota «Siz juda kuchlisiz, pahlavonsiz o‘g‘lim, qo‘yib yuboring» deb yolvorar ekanlar.¹

Shayx Muxtor Vali o‘z davrida muqaddas qadamjolarini izlab topib, ularning yiqilgan maqbaralarini qayta qurib obodonlashtirishga butun umrini sarflagan fidoyi shaxs bo‘lgan. Shayx Muxtor Vali qum bosib qolgan Abu Abdulloh an-Norinjoniy mozorini topib ustiga maqbara soldirgani ifodalangan:

*Shayx Muxtor suv tashib,
Gumbazni etdi bino.
Har odam etsa ziyorat,
Ranjimas, ko‘rmas balo.
Marhamat eting menga,
Abdullo Norinjoniy Vali.*

Ushbu satrlar yordamida biz, haqiqatan ham, Norinjon bobo gumbazi qaytadan solinganda shayx Muxtor Vali qatnashganligini bilib olamiz. Bundan tashqari, Akademik Y.G‘ulomov tadqiqotlarida,² Hasanmurod qori Laffasiy mazkur «Tazkirayi shuaro» asarida ham keltirib o‘tilgan.³

Bugungi kunda Hazrati Shayx Muxtor valiyning qabri muhim turizm obektiga aylangan. Xalqimiz orasida ulug‘ alloma-avliyolarning qadamjolariga borib, ularni ziyorat qilish orqali Xudodan o‘z niyatlarini so‘rash qadimdan qolgan udumdur. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) “Qabrlarni ziyorat qilishni istagan kishi ziyorat qilsin. Chunki qabr ziyorati bizga oxiratni eslatadi”, deb aytganlar.⁴ Oxiratni eslash esa kishini yovuzlikdan uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ziyoratdagi har bir marosim va amallar yurtimiz ma‘naviy hayotining yuksalishiga, xalq orasidagi ayrim salbiy odatlarga barham berilishiga, ijobiy xislat va urf-odatlarining shakllanishiga yordam beradi. Bugungi kunda vatanimiz tuprog‘ida xoki yotgan shaxslar hayoti, faoliyati, ziyoratgohlar tarixi, u yerdagi urf-odatlarini o‘rganish, ma‘naviy merosimiz sifatida yosh avlodga yetkazish, ularning ongida sog‘lom e‘tiqod, to‘g‘ri dunyoqarashni shakllantirish, respublika, viloyat, tuman miqyosidagi ziyoratgohlarning musulmon olamidagi mavqeyini oshirish, u yerga mahalliy va xorijiy ziyoratchilarni jalb etish, ziyorat turizmini rivojlantirish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Xidirov Otabek (Jizzax davlat Pedagogika universiteti, f.f.f.d. (PhD))

TIL KORPUSIDA IFODALANGAN LINGVISTIK AXBOROT DASTURLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korpuslar razmetkasida ifodalangan lingvistik axborotlardan foydalanish hamda matnga avtomatik ishlov berish, sintaktik razmetkalashning dasturiy ta‘minoti tahlil ostiga olingan.*

Аннотация. *В статье анализируется использование лингвистической информации, выраженной в корпусе и программном обеспечении для автоматической обработки текста, синтаксического разрешения.*

Annotation. *The article analyzes the use of linguistic information expressed in the corpus and software for automatic text processing, syntactic resolution.*

Kalit so‘zlar: *morfologik axborot, sintaktik axborot, korpus, dasturiy ta‘minot, matn razmetkasi, sintaktik tahlil dasturlari, korpus razmetkasi.*

¹Tohir Xushnubek o‘g‘li Ismailov. Hazrati Pahlavon Mahmud maqbarasi. “Science and Education” Scientific Journal Impact Factor 3. 848, March 2023, Volume 4, Issue 3.

² F.Хўжаниёзов. Норинжон қальаси ва Норинжон бобо мажмуаси. “Тамaddun nuri”, 2018, 2-son, 16-бет.

³ Ҳасанмурод Лаффасий. Тазкира-и шуаро. ЎзР ФА ШИ, № 12561/1, 105^b–106^a–бетлар.

⁴ Мирзо Аҳмад Хушназар. Қабристон зиёрати одоби. Т., “Мовароуннаҳр”, 2005.

Ключевые слова: морфологическая информатика, синтаксическая информатика, корпус, программное обеспечение, разметка текста, программно-синтаксический анализ, разметка тела.

Key words: morphological information, syntactic information, corpus, software, text markup, syntactic analysis programs, corpus marking.

Morfologik axborot. Morfologik tahlil har bir soʻzning turkumi, shu bilan birga, gapdagi vazifasini aniqlaydi, quyidagi morfologik kategoriyalar grammemasini koʻrsatadi (masalan, rus tilida jonli-jonsiz predmet, rod, kelishik, shaxs, son, nisbat, daraja, zamon, mayl, reprezentatsiya va h.k.).

Sintaktik axborot. Gapning sintaktik belgisi, shajara daraxti bilan ifodalanadi. Bu yerda har bir oʻq “hokim”dan “xizmatkor”ga yoʻnaltiriladi, sintaktik munosabatlardan birining nomi bilan belgilanadi.¹ Anʼanaviy holda tarkibda sintaktik guruh hamda tarkibiy qismlar mavjud emas, aslida, shajara daraxti-ning har qanday “tupi” guruh deb hisoblanishi mumkin. Uning tepasi “buta”ning tashqi aloqalarida uning vakili sifatida ishlaydi. Odatda, daraxt tuzilishidagi tugunlar soni jumladagi soʻzlar soniga teng. Bir tomondan, istisno holatini keltirib chiqaruvchi hodisalar ham mavjud: ayrim soʻz shakllari zanjiri leksik birlikni bildirganda, yuqoridagi qoidaga amal qilinmaydi, istisno holati yuzaga keladi. Bunday paytda, soʻz soniga qaraganda strukturada aʼzo soni kamayadi. Boshqa tomondan, biror-bir soʻz strukturaga “yopishtirilishi lozim” boʻlsa yoki real matnda mavjud boʻlmagan soʻz strukturaga kiritilishi kerak boʻlsa ham, matndagi soʻz shakllari zanjir bilan bir xil boʻlmasligi mumkin (Otam vrach boʻlib ishlardi, onam esa oʻqituvchi. Otam vrach boʻlib ishlardi, onam esa oʻqituvchi boʻlib ishlardi). Taʼkidlash kerakki, teglash jarayonida har qanday qayta ishlangan matnning leksik, sintaktik omonimiyasi toʻliq hal qilinadi. Agar buni avtomatik amalga oshirish imkoni boʻlmasa (tizim tomonidan tuzilgan, izohlovchi yoki muharirning fikriga koʻra, jumlada uchraydigan tuzilma mos kelmasa), albatta, qoʻl bilan tuzatiladi.

Teglovchi mutaxassis ham omonimiyani hal qila olmaydigan alohida holatlarda (masalan, *qasddan qichqiriq boʻlsa, ruh kabi ajoyib impuls mavjud*), jumla bir nechta tuzatish bilan taʼminlanishi mumkin. Razmetkalangan matnlar korpusi biron-bir tilning alohida lugʻati bilan uzviy bogʻliq emasligi sababli, muallif soʻzning aniq leksik maʼnosini maʼlum tarzda, noaniqlik va leksik omonimiyaga bilan belgilash gʻoyasidan voz kechadi. Masalan, *mexanik1* (shaxs oti) va *mexanik2* (fizik holat) soʻzi, *qalb1* (yurak) hamda *qalb2* (notoʻgʻri, egri) hech qanday indeks bilan taʼminlanmagan. Istisnolar baʼzi “ishchi” soʻzlar (xususan, old qoʻshimchalar)ga oid boʻlib, ularning leksik maʼnosi korpus hujjatlarida tasvirlangan.

Demak, matnga avtomatik ishlov berish annotatsiyalangan korpusdan foydalanish bilan aniqroq, xatosiz amalga oshirilishi oydinlashadi. Korpusning sintaktik teg(izoh)langan qismini sinab koʻrishni boshlagan birinchi turdagi dastur – etap-3 tizimida rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilinganida sintaktik noaniqlikni avtomatik hal qilish juda aniq natija bergan. Bundan kelib chiqadiki, matnni avtomatik qayta ishlash uchun lingvistik taʼminot va dasturiy tizim ishlab chiqilishi talab etiladi.

Sintaktik tahlil algoritmi ishlab chiqilganda qoʻshimcha filtr yaratish ham talab etilgan: 2–4 aʼzodan tashkil topgan ushbu vosita tahlil qilinayotgan gapni potensial tarmoqlar vositasida tahlildan oʻtkazadi. Bunday tajriba natijasini korpusning keyingi qismini qurishda ham qoʻllash mumkin, chunki yangi, avtomatik ravishda qurilgan gaplarni tahlil qilish yanada osonlashadi.

O.I.Babina, N.Y.Dyuminlarning taʼkidlashicha, har bir korpus razmetkasi asosida til nazariyasi yotadi, korpus asosidagi har qanday xulosa shu konsepsiyaga asoslangan holda xulosalanadi.² Har bir tadqiqotchi tilni modellashtirishda obyektiv-subyektiv sabablarga koʻra, maʼlum nuqtayi nazarni qoʻllab-quvvatlashi mumkin, masalan, til strukturasi kelib chiqib, tilni formallashtirish nazariyasi maʼlum bir tilga qoʻllanadi, boshqa tilga toʻgʻri kelmasligi mumkin. Til modeli, koʻpincha, hatto bir til doirasida ham, undagi xilma-xillik va koʻp maʼnolilikni aks ettirmaydi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, uncha katta boʻlmagan tadqiqiy korpuslarni lingvistik annotatsiyalash (razmetkalash) chuqur sintaktik va semantik razmetkani qamrab olishi, shuningdek, faqatgina morfologik izoh (razmetka komponenti) bilan cheklanib qolishi ham mumkin. Katta korpuslar razmetkasida ifodalangan mufassal lingvistik axborot nihoyatda katta mehnatni talab qiladi. Tadqiqot maqsadi mehnat sarfini kamaytirishga qaratilganda, faqat zaruriy izohlar majmuini oʻrganish maqsadga muvofiq.

Demak, bu nuqtayi nazardan, korpus razmetkasini chuqurlashtirish oʻzini oqlamaydi, razmetkani soddalashtirish yoʻlidan borish hamda qidiruv natijasini aniqlashtirishga eʼtibor qaratish kerak boʻladi.

¹ И.М.Богуславский, Н.В.Григорьев, С.А.Григорьева, Л.Л.Иомдин, Л.Г.Крейдлин, Н.Е.Фрид. Разработка синтаксически размеченного корпуса русского языка/http://cl.iitp.ru/bibitem/corpus_SPB.pdf

²Бабина О.И., Дюмин Н.Ю. Автоматизация лингвистической разметки корпуса текстов/<http://hellin100.narod.ru/pubs/AutomationBabinaDyumin.pdf>

Minimallashtirish konsepsiyasiga asoslanadigan bo'lsak, razmetka tizimiga faqat zaruriy axborotni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqa tomondan, korpusda qo'llanuvchi vositaning boshqa tadqiqiy korpusda qo'llash mumkin bo'lgan avtomatik razmetka metodologiyasi sifatida foydalanish samarali natija beradi. Shu konsepsiyadan kelib chiqqan holda, O.I.Babina, N.Y.Dyuminlar lingvistik razmetka vositalarini tuzish prinsiplari sifatida quyidagilarni sanab o'tishadi:¹

1. Dasturiy ta'minot vositasi turli xil tizimlar o'rtasidagi muvofqlik muammosining oldini olishga yordam beradigan Unicode belgilar kodlash tizimini qo'llab-quvvatlashi kerak, shu bilan kirill yoki lotin alifbosi bo'lmagan alifbolar diakritikasi yoki alifbodan foydalanadigan tillarni tasvirlash imkoniyatini berishi kerak.

2. Matnlar to'plami hamda tegishli lingvistik ma'lumot yagona ma'lumotlar bazasida saqlanishi kerak, bunda matn korpusi bilan ishlash uchun turli xil funksiyalarni amalga oshiradigan tizimning dasturiy komponentidan standartlashtirilgan kirish ta'minlanadi.

3. Korpusga ishlov berishga mo'ljallangan ma'lum vositalar undan alohida bo'lishi talab qilinadi. Shuningdek, tizimning umumiy universalligini ta'minlashiga erishi lozim. Ma'lumotning lingvistik bazadan boshqa tizimlarda ham takroriy qo'llashga erishish mumkin.

4. Tizimning har bir komponenti alohida lingvistik vazifa bajaradi, tizimning modul tashkilotini ta'minlaydi.

5. Til materialining matn reprezentatsiyasi asosiy omil, barcha hosilaviy lingvistik ma'lumotlar (xususan, leksikon) matn korpusidagi pozitsiyalarga bog'langan. Matn reprezentativligi prinsipi korpusdagi turli so'z shakl, so'z birikmasi leksik va grammatik kontekstiga erkin kirishga sharoit yaratadi.

6. Leksik birlikni matnga biriktirish esa omonim so'z shakl va so'z birikmalariga yoziladigan turli morfologik teglar majmuyi ajratib olishga yo'l ochadi.

Matnning avtomatik razmetka majmuyi dasturiy vositalari quyidagilardan tashkil topadi:

- 1) korpusni boshqarish moduli (CorpusManager);
- 2) avtomatik morfologik razmetka moduli (AutoPOSTagger);
- 3) morfologik razmetkaning avtomatik korrektori (Corrector);
- 4) avtomatik sintaktik razmetka moduli (SynTagger).

Aytish joizki, ushbu tizim matnga har tomonlama ishlov berishga mo'ljallangan. Shuningdek, turli vazifani bajaruvchi vositalar alohida ishlab chiqiladi.

SynTagger sintaktik tahlil dasturi xususida. O.I.Babina, N.Y.Dyuminlar tomonidan taklif etilgan *avtomatik sintaktik razmetka moduli* (SynTagger) matnning sintaktik jihatdan bir-biriga bo'ysunuvchi, tobe-hokim bo'lak bo'lib kelgan leksik birlikni qavslar bilan biriktirilgan qo'shilma sifatida o'z ichiga oladi.

The screenshot shows the SynTagger interface. The main window displays a Russian sentence with syntactic tree annotations. The sentence is: "S[изобретение VP[относится PP[к металлургии] в частности PP[к NP[производству стали]] PP[в NP[дуговых печак]]] PP[в способе] PP[перед NP[началом NP [опорожнения емкости]]] VP[осуществляют NP[NP[подъем NP[NP[уровня входа]]]]]".

The interface includes a list of words on the left, a central panel for syntactic groups, and a right panel for tag details. The word "изобретение" is selected, and its details are shown in the right panel:

Синтаксические группы	VP	Добавить синт. группу	Удалить синт. группу
S:изобретение..печак			
Тег	Часть речи	N	
	Число	единственное	
	Род	средний	
	Падеж	именительный	
	Лицо		
Гравить Тег	N		
	#sg#neu#Nom		
	[ВТНОК]		

¹ Shu manba.

Foydalunuvchi sintaktik blokning boshi va oxirini belgilashi, uning tipi (otli birikma, fe'lli birikma, sonni ifodalovchi birikma va h.k.)ni aniqlashi tavsiya etiladi. SynTagger moduli morfologik razmetka mavjud bo'lgan taqdirda avtomatik ravishda turli xildagi sintaktik struktura guruhlarini ajratishga imkon beradi. Turli funksional uslub yoki lahjaning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi sintaktik tadqiqotlarda foydalanish mumkin bo'ladi. Tavsiflanayotgan tizim maxsus qurilishga ega: undan bir vaqtning o'zida, bir necha tadqiqotchi foydalanishi mumkin (onlayn/oflayn formatda birdek ishlaydi). Lingvistik bazaning ma'lumotlar omboriga kiritilishi yoki undan foydalanish uchun ochiqlik tamoyili server so'rovlarini qayta ishlash va so'rovga javob berish uchun lingvistik ta'minot vazifasini bajaradi.

**Shomuradova Dilbar Abdishukurovna (O'zbekiston davlat San'at va madaniyat instituti
Jahon tillari va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi)**

O'ZBEK LOTIN YOZUVIDA ORFOGRAFIK MUAMMONING PAYDO BO'LISH SABABLARI

Annotatsiya. *Mamlakatimizda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining joriy qilinishi bilan o'zlashtirilgan so'zlar imlosida bir qator orfografik muammolar yuzaga keldi. Ushbu muammolarning aksariyati "yolashgan unlilar"ni o'zbek lotin alifbosiga transliteratsiya qilishda namoyon bo'ldi. Bu maqolada shu kabi muammolar va ularning yechimlari haqida so'z boradi.*

Аннотация. *С введением в нашей стране узбекского алфавита на основе латиницы возник ряд орфографических проблем в написании заимствованных слов. Больше всего эти проблемы проявились при транслитерации «йотированных гласных» в узбекский латинский алфавит. В статье рассказывается о таких проблемах и их решениях.*

Annotation. *With the introduction of the Uzbek alphabet based on the Latin alphabet in our country, a number of orthographic problems arose in the spelling of acquired words. Most of these problems were manifested in the transliteration of "loose vowels" into the Uzbek Latin alphabet. This article talks about such problems and their solutions.*

Kalit so'zlar: *lotin yozuvi, orfografiya, o'zlashgan so'zlar, transliteratsiya, alifbo, imlo, nutq, fonetika, lug'at.*

Ключевые слова: *латиница, орфография, заимствованные слова, транслитерация, алфавит, орфография, речь, фонетика, лексика.*

Key words: *latin writing, orthography, borrowed words, transliteration, alphabet, spelling, speech, phonetics, vocabulary.*

Kirish. O'zbek kirill alifbosida rus tili orqali o'zlashtirilgan so'zlarni aks ettirish jiddiy orfografik muammoga aylanmagan. Chunki bunday o'zlashmalarning aksariyati rus tilida qanday yozilsa, o'zbek kirill alifbosida ham o'sha tarzda yozilgan. "Biroq mamlakatimizda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining joriy qilinishi bilan o'zlashtirilgan so'zlar imlosida bir qator orfografik muammolar yuzaga keldi. Binobarin, kirillcha alifbomizda "yolashgan unlilar" deb nomlanuvchi *e, ë, ю, я* harflarini lotinchaga transliteratsiya qilishda, *и, ъ* harfli so'zlarni lotincha yozuvga o'girishda, *ь, ь* belgili so'zlarni lotincha harflar bilan aks ettirishda alohida yondashuv talab etiladi".¹

Asosiy qism. Ma'lumki, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi, dastlab, 1929–1940-yillarda qo'llangan. Mazkur alifbo asosida 1929-yilda va 1934-yilda o'zbek tilining imlo qoidalari ishlab chiqilgan. Tabiiyki, o'sha imlo qoidalarida rus tili va Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar imlosi ham ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, 1929-yilgi imlo qoidalarida o'zlashtirilgan so'zlar borasida quyidagi qoida berilgan: "15. Rus va Ovrupa so'zlari o'z harflarimiz bilan imkon qadar imlomizga tobe tutilib, asos shakllarining o'zgarimasligiga e'tibor qilinadir". Jami 29 qoidadan tashkil topgan 1929-yilgi imlo qoidalarining 9 tasi rus tili orqali o'zlashirilayotgan so'zlar imlosiga bag'ishlangan. Xususan, "yolashgan unlilar"ning yozilishi bo'yicha quyidagi qoida tavsiya etilgan: "22. Ruslarning "я, ë, ю, е"lari bo'g'in boshida eshittirishiga ko'ra, "йа, йу, йо, йе" blan, bo'g'un o'rtasida yo oxirida "а, у, о, е" blan yoziladir: *йашик, йубилей, иплина, галийа, маникур, ҳенре*".²

1929-yilgi imlo qoidalari bir qancha kamchiliklarga ega bo'lganligi sababli, bu borada ko'plab tanqidiy fikr-mulohazalar yuzaga keldi. Shu bois 1934-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan O'zbekiston imlo va terminologiya qurultoyida "O'zbek tilining birlashgan imlosi" qabul qilindi. Mazkur hujjat 31 qoidadan iborat bo'lib, shulardan 8 tasi rus-yevropa so'zlari imlosiga bag'ishlangan.

¹ Jomonov R. O'zbek tilida so'z o'zlashtirish va imlo muammolari. Toshkent, "O'zbekiston", 2013, 87-bet.

² 1929-yilgi Samarqanddagi til-imlo konferensiyasi materiallari. T., O'zbekiston davlat nashriyoti, 1932, 124-bet.

1929-yilda va 1934-yilda tasdiqlangan imlo qoidalarida “yolashgan unlilar” deb nomlanuvchi harflar imlosi juda oddiy tarzda hal qilingan. Masalan, 24-qoidada “yolashgan unlilar”ning yozilishi quyidagicha belgilangan: “...b) ruscha (э) va bo‘g‘un orasida “e” hama vaqt “e” blan yoziladi: *ekonom, telefon, Engels* kabi; “e” ruschada bo‘g‘un boshida kelganda bizda “je” blan yoziladi: *jenukidze, jevgeniy* kabi; d) ruscha bo‘g‘in boshida “ë” blan yozilaturg‘an so‘zlar (jo) bilan (ammo o‘rni blan “o” shaklida ham) yoziladi; e) ruscha bo‘g‘un boshidagi “ю” “ju”blan, bo‘g‘un orasida ba‘zan “u” blan ham yoziladi: *jurist, bjurokrat, manikur* kabi; f) ruscha “я” bo‘g‘un boshida “ja” bilan, ba‘zi ismlarda so‘z oxirida “a” blan ham yoziladi: *yaşik, Galja, knaz* kabi”.¹ Yuqoridagilardan shuni ko‘rish mumkinki, rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashtirilayotgan so‘zlar o‘zbeklar nutqiga mos tarzda, ya‘ni fonetik prinsip asosida yozilishi belgilab qo‘yilgan. “Rus tili orqali kirib kelayotgan har qanday so‘zning o‘zbek tili orfografik me‘yorlariga bo‘ysunishi, ya‘ni tobe tutilishi aniq va ravshan tarzda ko‘rsatib berilgan. Bu esa bunday tipdagi leksemalarning o‘zbek tiliga o‘zlashib, singib ketishini ta‘minlaydi”.²

1993-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. 1995-yil 6-mayda mazkur qonunga ayrim tuzatishlar kiritildi. 1995-yil 24-avgustda esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo‘llanma sifatida o‘zbek tilining imlo lug‘atini, kishi ismlari va joy nomlari lug‘atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralari ko‘rsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta‘lim va fan hamda Ijtimoiy masalalar va madaniyat bo‘limlariga yuklansin.

Ushbu hujjatlarning deyarli barchasida tilning og‘zaki va yozma ilmiy me‘yorlarini tartibga solish, savodxonlikni oshirish masalasiga jiddiy e‘tibor qaratildi. Shu tariqa, o‘zbek lotin alifbosi rasmiy davlat yozuvi sifatida amal qila boshladi. Bu voqea yurtimiz hayotida tub burilish yasadi, bir qator yengilliklar va imkoniyatlarga yo‘l ochib berdi. Shu bilan birgalikda, ba‘zi noqulayliklarga ham sabab bo‘ldi.

Qabul qilingan ushbu qonun va tuzatishlardan so‘ng, o‘zlashtirilgan so‘zlar imlosida ayrim qiyinchiliklar, noaniq holatlar va orfografik muammolar vujudga keldi. Jumladan, “yolashgan unlilar” masalasida ham bahsli o‘rinlar, ilmiy-nazariy jihatdan asoslanishi zarur bo‘lgan masalalar yuzaga keldi.

Professor Sh.Rahmatullayev, dastlab, “O‘zbek lotin alifbosi” (Toshkent, 1995), keyin “O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi” (Toshkent, 1999) qo‘llanmalarida o‘zbek kirill alifbosidagi э, ю, я harflari o‘rniga o‘zbek lotin alifbosida qaysi harflarni yozish ular bajaradigan vazifaga bog‘liq, deb ularni quyidagicha yozishni tavsiya etadi:

1. э, ю, я harflari ikki tovushni (й+unli) ifodalashga xizmat qilsa, bu harflar o‘rniga yo, yu, ya harflari yoziladi: *заём – zayom, юмор – yumor, ядро – yadro, ёмгур – yomg‘ir, ютук – yutuq, яхши- yaxshi* kabi.

2. э, ю, я harflari o‘zidan oldin kelgan undoshning yumshoq ekanini ko‘rsatishga xizmat qilsa:

1) asosan, э harfi o‘rniga o harfi, ю harfi o‘rniga u harfi, я harfi o‘rniga a harfi yoziladi: *стажёр – stajor, люстра – lustra, фляга – flaga* kabi;

2) so‘zning talaffuzi keskin o‘zgarib ketmasligi uchun qisman э harfi o‘rniga yo harflari, ю harfi o‘rniga yu harflari, я harfi o‘rniga ya harflari yoziladi: *актёр – aktyor, бюро – byuro, снаряд – snaryad* kabi.

Ko‘rinadiki, э, ю, я harflari o‘zidan oldin kelgan undoshning yumshoqligini ko‘rsatish uchun xizmat qilsa, o‘zbek lotin alifbosida ikki xil aks ettiriladi.³

¹ “Politexnik maktab va pedagogika” jurnali. 1934, 3-son, 33 – 34-betlar.

² Jomonov R. O‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish va imlo muammolari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2013, 87-bet.

³ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. Toshkent, “Universitet”, 1999, 15 – 16-betlar.

Aslida, *stajor* bilan *aktyor*, *lustra* bilan *byuro*, *flaga* bilan *snaryad* soʻzlarida mazkur **ё, ю, я** harflari bir xil pozitsiyada boʻlib, oʻzbekcha talaffuzda, umuman, farq qilmay, ikki tovush (yo, yu, ya) bilan aytiladi. Undoshlarning qattiq-yumshoqligi esa rus tili uchun xos boʻlib, hozirgi oʻzbek adabiy tilida bu holat deyarli farqlanmaydi. Bu masalada bir xillikka erishish qiyin shu sababli bunday harflar qatnashadigan soʻzlarning toʻgʻri yozilishi imlo lugʻatida koʻrsatiladi. "...Qoʻlingizdagi lugʻatning tuzuvchilari yuqoridagi kabi chalkashlik, anglashilmovchiliklarni hamda mazkur tavsiyalarga imlo amaliyotida nechogʻlik rioya qilinayotganligini (toʻgʻrirogʻi, u qadar amal qilinmayotganligini) hisobga olib (buni oʻzbek lotin alifbosida chop etilgan bir qator nashrlarni koʻzdan kechirib ishonch hosil qilish mumkin), institutning yetakchi tilshunoslari bilan maslahatlashgan holda, rus tili orqali kirib kelgan va tarkibida **ё, ю, я** harflari boʻlgan ruscha va baynalmilal soʻzlarni yangi imlodagi barcha oʻrinlarda bir xil, yaʼni **ё, ю, я** harflari bilan yozishni va shu orqali bu sohadagi har xillikni bartaraf etishni eng maqbul yoʻl deb hisoblaydilar va ushbu lugʻatda shunday yoʻl tutdilar ham".¹

Yuqorida keltirib oʻtilganidek, undoshlarning qattiq-yumshoqligi oʻzbek kirill yozuvi uchun xos boʻlib, hozirgi oʻzbek adabiy tilida bu holat deyarli farqlanmaydi. Buning asosiy sababi oʻzbek lotin yozuvida qattiqlik-yumshoqlik tushunchasining (zidlanishning) yoʻqligidir.

Masalan: *укол* va *пароль* (oʻzbek kirill yozuvida) – *ukol* va *parol* (oʻzbek lotin yozuvida), *плаг* va *плюс* (oʻzbek kirill yozuvida) – *plug* va *plus* (oʻzbek lotin yozuvida), *кислота* va *слёт* (oʻzbek kirill yozuvida), *kislota* va *slot* (oʻzbek lotin yozuvida) kabi. Lotin oʻzbek yozuvining bu xususiyati uning oʻziga xos jihatlaridan biri boʻlsa-da, rus tili va u orqali oʻzlashtirilgan soʻzlarni aks ettirishda baʼzi bir orfografik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Keling, shu oʻrinda baʼzi bir oʻzlashtirilgan soʻzlarni har ikkala yozuvda yozilishini qiyoslab koʻrsak: *мотор* va *актёр* (oʻzbek kirill yozuvida) – *motor* va *aktor* (oʻzbek lotin yozuvida), *парад* va *наряд* (oʻzbek kirill yozuvida) – *parad* va *narad* (oʻzbek lotin yozuvida), *футбол* va *бюро* (oʻzbek kirill yozuvida) – *futbol* va *buro* (oʻzbek lotin yozuvida) kabi. Bu borada professor Sh.Rahmatullayev Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalariga quyidagi ilovani kiritadi: "...soʻzning talaffuzi keskin oʻzgarib ketmasligi uchun baʼzan *yo, yu, ya* harflari yoziladi: *боксёр–boksyor*, *бюро – byuro*, *славян – slavyan* kabi". Ushbu qoʻshimcha "yolashgan unlilir"ni oʻzbek lotin yozuvida aks ettirish jarayonidagi baʼzi chalkashliklarga bir qadar oydinlik kiritadi, ammo *y yo, yu, ya* harflarining birikmali koʻllanishini aniq chegaralab bera olmaydi: yozuv amaliyotida oy nomlarining sentabr–sentyabr, oktabr–oktyabr kabi ikki xil yozila boshlanganligi ham shundan boʻlsa kerak.

Shuningdek, ayrim soʻzlarning yozilishida fonetik-grafik asimmetriya yuz bermoqda, yaʼni, harflar miqdori fonemalar miqdoridan ortmoqda: *senyor*, *aktyor*, *fenologiya*, *debyut*, *kinematografiya*. Bu holat ham yuqorida keltirib oʻtilgan baʼzi muammoli vaziyatlar qatorida salbiy jihat sifatida keltiriladi.

Xulosa. Aytish mumkinki, rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlarni oʻzbek lotin alifbosiga oʻgʻirish – transliteratsiya qilishda ayrim orfografik muammolar yuzaga keladi. Chunki oʻzlashtirilgan soʻzlarning aksariyati rus tili va oʻzbek kirill alifbosida bir xil shakllarga ega boʻlgan boʻlsa, oʻzbek lotin alifbosining grafik imkoniyatlari mazkur masalani oʻziga xos tarzda hal etishni taqozo etadi.

Namozova Feruza (Navoiy davlat Pedagogika instituti Oʻzbek tilshunosligi kafedrasida magistranti)
BADIIY MATNLARDA MONOLOGIK NUTQNING OʻRNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada monologik nutq va uning oʻrganilish tarixi, badiiy matnlarda, xususan, dramatik asarlardagi oʻrni hamda ahamiyati haqida maʼlumot berilgan. Monologik nutqning tuzilishi va ularning turlari misollar asosida yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается монологическая речь и история её изучения, роль и важность монологической речи в художественных текстах, в частности, в драматических произведениях. На примерах освещены виды и структура монологической речи.

Annotation. This article provides information about monologic speech and the history of its study, its place and importance in artistic texts, especially in dramatic works. The structure of monologic speech and their types are explained on the basis of examples.

Kalit soʻzlar: monologik nutq, lingvostilistik usul, taʼsir qiluvchi monologik nutq, dramatik monologik nutq, lirik monologik nutq, hikoya qiluvchi monologik nutq, ochiq nutq, ichki nutq.

¹ E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev. Oʻzbek tilining imlo lugʻati. Toshkent, "Akademnashr", 2013, 18-bet.

Ключевые слова: монологическая речь, лингво-стилистический метод, воздействующая монологическая речь, драматическая монологическая речь, лирическая монологическая речь, повествовательная монологическая речь, открытая речь, внутренняя речь.

Key words: monologic speech, linguo-stylistic method, effective monologic speech, dramatic monologic speech, lyrical monologic speech, narrative monologic speech, open speech, internal speech.

Monologik nutq – soʻzlovchining oʻziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini eʼtiborda tutmaydigan nutq shakli. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan oʻzaro bogʻliq, oʻziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega boʻlgan matnning maʼlum boʻlagi xos boʻladi. Monologik nutq ogʻzaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning ogʻzaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim oʻrin egallaydi, yozma monologik nutqda esa ohang matnning sintaktik konstruksiyasiga, mantiqiy urgʻu tushuvchi soʻzlarning joylashish oʻrniga bogʻliq.¹

Monologik nutq yuzasidan jahon tilshunoslikda qator tadqiqotlar amalga oshirilganligiga guvoh boʻlamiz. Xususan, rus tilshunosligida N.Y.Salova, A.N.Kudlayeva, A.Y.Zaxvatova, A.A.Isayeva, S.M.Rogojina, L.M.Goncharovalar tomonidan monologik nutq turli jihatlardan oʻrganilgan, tahlil qilingan. Oʻzbek tilshunosligida Sh.B.Gulyamova, G.Meliqoʻziyevlar mazkur mavzu yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borgan.

Monologik nutq notiqlarning asosiy nutqiy shakllaridan hisoblanadi. Lingvo-stilistik usul boʻlib, uning bir qancha turlari mavjud. Masalan, taʼsir qiluvchi (targʻib qiluvchi) monologik nutq, dramatik monologik nutq, lirik monologik nutq, hikoya qiluvchi (axborot beruvchi) monologik nutq.

Yuqoridagi fikrlardan maʼlumki, monologik nutq nasriy asarlarda ham, lirik va dramatik asarlarda ham mavjud. Ayniqsa, dramatik asarlarda monologik nutq personaj uchun muhim sanaladi. T.Boboyevning “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligida monolog va dialog, ularning badiiy asarda voqelanishi xususida quyidagilar keltiriladi: “Asar qahramonlari nutqi dialog va monolog shaklida ifoda etiladi. Dialog va monologlarda qahramonlarning ichki dunyosi, feʼl-atvori aks etadi. Ijodkorlar qahramonlar nutqida ular yashagan tarixiy davrga xos soʻzlash tarzini hamda ularning kasb-kori, maʼnaviy saviyasi (intellektuallik darajasi)ni gavdalantirishga harakat qilishadi. Chunki mantiq shuni taqozo etadi. Dialog va monologning asarni taʼsirchan etuvchi, uni yodda qoldiruvchi unsurlardan ekanligi sheʼriy, nasriy asarlardan ham koʻra, drama janriga mansub asarlarda yaqqol namoyon boʻladi. Drama, komediya, tragediya matni toʻlaligicha dialog va monologlardan tarkib topadi. Sahna asarlarini ularsiz tasavvur etib boʻlmaydi”.²

Monologik nutqning ochiq nutq va ichki nutq kabi koʻrinishlari mavjud. Ochiq monologik nutqda personaj oʻz nutqini ovoz chiqarib bayon etadi. Ichki monologik nutqda monolog personajning ichki nutqi, oʻylari shaklida namoyon boʻladi.

Ochiq monologik nutqiy vaziyat soʻzlovchidan alohida bir munosabatni va masʼuliyatni talab qiladi. Dastlab, soʻzlanadigan nutqning qolipi – rejasi boʻlishi, qayerda va qanday vaziyatda soʻzlanishidan qatʼiy nazar, har bir nutq maʼlum reja asosida boʻlishi, auditoriya, vaqt hisobga olinishi lozim. Boshqacha aytganda, nutq soʻzlashdan maʼlum maqsad boʻlishi va bu maqsad amalga oshishi zarur. Buning uchun tinglovchilarga taʼsir oʻtkazish, taʼsir oʻtkazish uchun esa tildan foydalanishning ham, oʻzini tutishning ham taʼsirchan vositalaridan foydalanish kerak boʻladi. Vaziyatga qarab kishilarga tantanavor ruh beradigan, ularni ilhomlantiradigan, safarbarlikka undaydigan, his-tuygʻularini junbushga keltiradigan, masʼuliyatini oshiradigan, tartib-intizomga chaqiradigan, taʼlim-tarbiya berishga qaratilgan yoki oddiy axborot berishga qaratilgan til vositalari tanlanadi.

Ijodkor Usmon Azimning “Kunduzsiz kechalar” tarixiy dramasidan olingan bir necha monologlarni tahlilga tortamiz. Dramaning bosh qahramoni tarixiy shaxs – Choʻponning ochiq monologik nutqi:

“Adabiyot yashasa millat yashar, adabiyoti gullamagan va adabiyotning taraqqiyosiga chalishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotidan, oʻyidan fikran mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz boʻlur”.³

Choʻlpon mazkur monologi orqali millatni adabiyotni sevishga, uni rivojlantirishga, buyuk ijodkorlarni tarbiyalab yetishtirishga chaqiradi. Nutq taʼsirchan, his-tugʻuga boy, qahramonning fikrlari teran, izchillik bilan bayon etilgan. Bunday ochiq monolog, albatta, tomoshabinga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi.

¹ OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.

² Boboyev.T. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, “Oʻqituvchi”, 1979.

³ Usmon Azim. Kunduzsiz kechalar. T., Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2001.

Monologning yana bir alohida turi ichki monolog bo'lib, uning maqsadi insonning hissiy va aqliy faoliyati jarayonini, "ong oqimi"ni ifodalash, taqlid qilishdir. Bunday monolog uchun nutqning uzilishi, tugallanmagan so'z birikmalari, bir-biri bilan tashqi bog'liq bo'lmagan sintaktik konstruksiyalar xosdir. Ushbu turdagi monologlar qat'iy adabiy shakllarda takrorlanishi mumkin, lekin ular nafaqat ong, balki ong osti ishini ko'rsatish uchun grammatik jihatdan shakllanmagan elementlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Masalan:

*Yo'q o'lim yo'qdir!
Yolg'iz bir o'chib, bir so'nish bordir.
Bir o'chib, so'nib... yana yonish bor,
Yana bahorlar,
Yana lolalar,
Yana siz... erkin tilaklar.¹*

Cho'plonning yuqoridagi fikrlari o'zining qat'iyiligi, ravonligi bilan tomoshabinlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu bilan birga, qahramon fikrlarida sobit holda ko'z o'ngingizda gavdalanadi. U yaratgan nutq bizda shunday tuyg'u hosil bo'lishiga turtki bo'ladi.

Rus olimi L.Vigotskiy: "Monologda nutq mazmuni va til dizayni tushunchasi dialogga qaraganda ancha murakkab va har doim ma'ruzachi nutqning mukammalligi yuqori darajada bo'lishi kerakligini" ta'kilaydi.²

Monologik nutqning uch asosiy turi mavjud. Ularga bayon monolog, mulohaza monolog va tavsif monolog kiradi. Ular, o'z navbatida, o'ziga xos lingvistik, kompozitsion va intonatsion-ekspressiv xususiyatlarga ega bo'lgan kichik turlarga bo'linadi.

Monologning bayon turi uchun iboralar xarakterlidir, ularda og'zaki predikatlarining aspektual – temporal shakllari harakatlar ketma-ketligini, hodisalarning harakatini ifodalaydi. Masalan, Cho'lpon: To'g'ri, so'nggi ikki-uch yil orasida shoirlik va yoshlik mayllari tufayli ba'zi bir xatolarim bo'ldi. Chunonchi, millatchilik va vatanparastlik ruhida she'rlar va narsalar yozib, ba'zi joyda, yo'lda so'zlaganlarim ham bo'ldi. So'nggi paytda bu xatolarimni o'zim ham tushundim... U yozgan narsalarim va so'zlong'on so'zlarim kambag'al va yo'qsillar dushmanlarining foydasiga xizmat qilganini bildim...³

Cho'lponga tegishli mazkur monologda uning ruhiy holati, iztirobi aks etgan. U majlis ahliga murojaat qilar ekan, jamiyatdagi mavjud tuzumga nisbatan kinoyaviy tarzda o'z ijodidagi kamchiliklarini ko'ra olgani, xatolarini tushungani haqida kechinmalarini bayon qiladi.

Mulohaza yurituvchi monolog uchun xulosalar, ko'plab so'roq jumalari, faktlarning bayonotlari, hodisalarning mantiqiy bog'liqligini bildiruvchi sabab, shart, konsessiv, tushuntirish kabi turli xil tuzilmalar mavjud. Masalan, Cho'lpon: (u "Hamlet" monologini eslayapti). Yo o'lish, yo qolish – gap shunda! Ajabo qaysi biri sharaflil va oliyjanob: dilozor falakning zarbalariga chidashmi yoki balolar dengiziga qarshi bel bog'lab, ularga qarshi qo'zg'olib ularni barham berishmi? O'lim – bir uyqu, xolos... Zamonning zarblari va xunuk basharalariga, zolimlarning zulmlariga, kiborlarning tahqirlariga, hukumatdorlarning zulmlariga va qobil odamlarning boshlariga noqobil odamlar tomonidan tushiriladigan butun kaltaklariga kimning toqati bor? Shunday qilib shuur degan narsa orqasida biz hammamiz qo'rqoq bo'lamiz! (Qo'lyozmalarini yoqa boshlaydi). O'lmak uxlamog demakdir! Chinakam uxlamog... balki, tush ko'rmak...⁴

Mulohaza yurituvchi monologik nutqning belgilarini yuqoridagi matn orqali ko'rishimiz mumkin. Unda bir necha ritorik so'roq gaplarning qo'llanilishi, uch va undan ortiq uyushiq bo'laklarning ishtirok etishi, to'xtam, ohangning semantik yuk olishi kabi unsurlar bosh qahramonning kuchli emotsiyasini ifodalashga, uning ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiladi.

Monolog–tavsif esa qoida tariqasida, nutqning hikoya shakllarini fikrlash shakllari bilan birlashtiradi.

Usmon Azimning "Xalil Sulton" tarixiy dramasidan olingan Xalil Sulton nutqidani olingan tavsifiy monologni keltiramiz.

*Mening hisobimda ular to'rttadir:
Biri – sho'rishimning sherigi – ayol:
Biri – Yahyo navkar xizmatimdadir:*

¹ O'sha asar.

² <http://www.hozir.org> > monol.

³ O'sha asar.

⁴ O'sha asar.

*Biri – Bobo Turmush – rahmatlig‘ vazir
Xiyonatkorlig‘ni ep bilmay, o‘zin
Hovuzg‘a otdi-da, uzlatg‘a ketdi,
Shohruh odamlari ko‘zi oldida!
Mard erdi – mardlarcha halok bo‘ldi ul!
To‘rtinchisi – sensan...¹*

Xalil Sulton vaziri Bobo Turmushni ta‘riflar ekan, uning nutqida “Mard erdi – mardlarcha halok bo‘ldi ul!” fikrlarini uchratamiz. Mard leksemasining takror qo‘llanilishi ta‘kid ma‘nosining kuchayishiga sabab bo‘lgan.

Xullas, monolog qahramon qiyofasini ko‘z oldimizda butun borlig‘i va murakkabligi bilan gavdalantirishga xizmat qila oladigan kuchli badiiy vosita bo‘la oladi. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, monologik nutq nasriy, she‘riy asarlarda ham keng qo‘llaniladi. Ammo dramatik asarlarda uning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif ilgari surgan g‘oyalarni ochib berishda asosiy vosita vazifasini bajaradi.

Zaripova Saida Shonazar qizi (Urganch davlat universiteti)
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING MA‘NOSI VA
ULARNI TARJIMA QILISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola frazeologik birliklarning birlamchi kontekstual xususiyatlarini aniqlashga va ularni ingliz tilida tasniflashga bag‘shlangan. Bundan tashqari, maqolada ingliz va o‘zbek tillaridan frazeologik konstruksiyalarni tarjima qilish jarayonida duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolar ko‘rib chiqiladi.

Аннотация. Данная статья посвящена выявлению основных контекстуальных признаков фразеологических единиц и их классификации в английском языке. Кроме того, в статье рассматриваются проблемы, с которыми можно столкнуться в процессе перевода фразеологических конструкций с английского и узбекского языков.

Annotation. This article is dedicated to identifying the main contextual features of phraseological units and their classification in the English language. In addition, the article deals with the problems that can be encountered in the process of translating phraseological structures from English and Uzbek.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, tilshunoslik, tarjima nazariyasi, til, kontekst, kontekstual xususiyat, tasnif, tarjima masalasi.

Ключевые слова: фразеология, лингвистика, теория перевода, язык, контекст, контекстуальный признак, классификация, проблема перевода.

Key words: phraseology, linguistics, translation theory, language, context, contextual feature, classification, translation issue.

Hozirgi zamon tilshunosligida tilda frazeologik birliklarning rivojlanishini madaniy jihatdan o‘rganishi til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi, chunki turg‘un iboralar tilning boshqa lingvistik birliklariga qaraganda xalq hayoti bilan bog‘liqdir. Ular ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an‘ana va marosimlar asosida shakllangan. Shunday qilib, aqliy fazilatlar aniq seziladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tarkibida onomastik komponentlar mavjud bo‘lganda, bu xususiyat yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Sababi, onomastik birliklar xalqning o‘tmishi bilan bugungi hayotini bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib qolgan. Binobarin, turli tizimli tillardagi frazeologik birliklarni, ularning etimologiyasi, tuzilishi, semantikasini alohida o‘rganish, tasnifini yaratish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.²

Ma‘lumki, jahon tilshunosligida frazeologik birliklar bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Binobarin, L.A.Bulaxovskiyning asarlari, A.V.Kunin, L.Quliyeva, K.Musayev, I.S.Stepanova, E.F.Arsenteva, I.N.Isabekov, A.V.Urazmetovanning asarlari bu borada katta ahamiyatga ega.³ Turli tillar tizimida E.F.Arsenteva inson tabiatini ifodalovchi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilgan. I.Stepanova esa gul nomlari bilan bog‘liq frazeologik birliklarning rus va ingliz tillari tizimini ko‘rib chiqqan. I.Isabekov qir-

¹ Usmon Azim, Xalil Sulton. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, T., 1991.

² Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasini haqida. T., O‘zMU, 2007.

³ Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik, T., “Fan”, 2005, 352-bet.

g'iz va rus tillaridagi frazeologik birliklarni tarjima qilish muammolarini o'rgangan.¹ Bu boradagi muhim tadqiqotlardan biri Z.K.Korzyukovaning "Ingliz tilidagi o'ziga xos nomlar bilan frazeologik birliklarning funksiyasining asosiy jihatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishidir. Uning tadqiqotida ingliz tilshunosligidagi frazeologik birliklarning eng muhim xarakteristikasi nomuvofiq komponentlar sifatida ko'rsatilgan bo'lib, Kuninning "Inglizcha-ruscha lug'at"i asosida tahlil qilingan. U o'z tadqiqotida iboralarning etimologiyasi, lingvistik va ruhiy xususiyatlari, tasnifiga ham katta ahamiyat bergan.²

O'zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev frazeologik birliklarning izohli lug'atini tuzgan. A.E. Mamatov o'zbek tilida frazeologik birliklarning shakllanish omillarini monografik shaklda tadqiq qilgan. B.Reimov odamning emotsional holatini ifodalovchi frazeologik birliklar ustida tadqiqot olib borgan. Biroq turli tillardagi joy nomlarini o'z ichiga olgan frazeologik birliklar to'liq o'rganilmagan.³

Ushbu tadqiqotda biz onomastik komponentli frazeologik birliklarning xususiyatlari va tuzilishini keng yoyish va tasniflashga alohida e'tibor qaratilib, turli tizimli tilshunoslik materiallari hamda ingliz, rus va o'zbek tilshunosligi bo'yicha olib borilgan monografiya va dissertatsiyalar asosida o'rganiladi.

Frazeologik birliklar butun dunyo xalqlarining o'ziga xosligi, turmush tarzi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini o'z tiliga yetkazishda beqiyos o'rin tutadi.

Frazeologik birliklar shaxslarning til birliklaridan qanday foydalanishi, shuningdek, ulardan foydalanishni tartibga soluvchi asosiy qoidalar va til normalari bilan bog'liq. Frazeologik birliklarning nutqda qo'llanilishi, ularning qo'llanilishini milliy-madaniy umuminsoniylik, differensial va paradigmatic xususiyatlar, xalq og'zaki ijodidan adabiy tilga o'tish yo'llari, semantik xususiyatlar, badiiy-uslubiy imkoniyatlar, shakl va ma'no jihatidan tarjima muammolari nuqtayi nazaridan tushuntirish, ularning milliy tildegi o'rnini yoritish muhimligi, zamonaviy tilshunoslikka mos lug'atning majburiylik keltirilgan.

Frazeologik birliklarning kontekstual xususiyatlari haqida gapirganda, frazeologik tuzilmalarni kontekstga ko'ra tasniflash mavjudligini aytish mumkin, ular frazeoma va idiomalar sifatida belgilanadi. Bu turdagi frazeologik birliklarni aks ettiruvchi kontekstual xususiyatlarni, dastlab, professor A.V.Kunin ajratgan. Frazeologik va frazeomatik birliklar erkin so'z birikmalari va qo'shma so'zlardan frazeologik barqarorligi bilan ajralib turadi. Barqarorlik nazariyasi professor A.V.Kunin tomonidan ham ishlab chiqilgan. A.V.Kunin barqarorlikni quyidagi elementlarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali tushuncha sifatida ko'rib chiqadi:

1. Foydalanishning izchilligi. Bu frazeologik birliklar nutqda hosil bo'lmay, balki tayyor holda takrorlanishini ko'rsatadi.

2. Leksik turg'unlik – frazeologik birliklarning frazeologik tafovut doirasida almashtirib bo'lmaydigan (masalan, qizil tasma, toychoq uyasi) yoki qisman almashtirilishini bildiradi: leksik, grammatik, pozitsion va aralash variantlar.

3. Frazeologik birliklarning leksik barqarorligi semantik barqarorlikni aniqlash uchun ishlatiladi. Frazeologik birlikning ma'nosi kichik o'zgarishlarga qaramay saqlanib qoladi. Uni faqat aniqlash, aniqlashtirish, kamaytirish yoki kuchaytirish mumkin.

4. Sintaktik izchillik.⁴

Kuninning fikricha, bu turg'unlik sifatlaridan biriga ega bo'lmagan har qanday frazeologizmni frazeologik birlik deb hisoblash mumkin emas.

Shu munosabat bilan, o'ziga xos xususiyat sifatida faqat idiomalarga ega bo'lgan, o'ziga xos buzilmaydigan frazeologik bir xil tuzilishga ega bo'lgan ingliz tilidagi idiomalarni boshqa tilga tarjima qilish masalasi mavjud. Idiomalarning leksik, semantik va lingvistik xususiyatlarini saqlab qolish juda qiyin ish. Genetika nuqtayi nazaridan ma'lumki, ingliz tilining tuzilishi o'zbek tilining tuzilishidan farq qiladi, ular alohida til oilalariga mansub. Natijada turli tillarning grammatik tuzilmalari bir-biridan farqlanadi. O'zbek tilida bir qancha affikslar mavjud, masalan, ibora ot bilan boshlanib, fe'l bilan tugaydi, predloglar, maqolalar yoki jins toifalari mavjud emas. Ingliz tilida esa artikl, predlog va affikslar mavjud.

¹ Мирзаева Д.И. Анализ дискурса учения и изучения. Актуальные научные исследования в современном мире. 2017 (4–2), с. 73 – 75.

² Safaraliyev B., Bakiyeva G., Nasrullayeva N. Ingliz va o'zbek idiomatik iboralarni tekshirishning lingvokultural aspekti. "Filologiya masalalari", 2020, 3-son.

³ Jalilova N.D. O'zbek va ingliz tillarida idiomalarni taqqoslashning lingual tahlili. "Вестник науки и образования", 2019, 20–2 (74), с. 48 – 52.

⁴ Mirzayeva D. Proverbs and Sayings as a Product of the Nation's Cognitive Thinking. Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference. 2021, Vol. 1, № 2.

Natijada soʻzlarni, iboralarni, jummalarni, ayniqsa, idiomalarni tarjima qilishga urinish baʼzi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Qolaversa, ingliz va oʻzbek idiomalarining shakl va maʼnodagi oʻzaro farqlari tarjimani muammoli qiladi. Masalan, “hot under the collar” soʻzma-soʻz “yoqa ostidagi issiqlik” (yoqa tagida issiq) deb tarjima qilingan boʻlsa, “tepa sochi tikka boʻldi” bu iboraning oʻzbekcha variantidir (hair stand on end). Misoldan koʻrinib turibdiki, idiomalarning oʻzlashtirilishidagi qiyinchilik shakl va maʼno jihatdan nomutanosiblik bilan bogʻliq.¹

Shuni taʼkidlash kerakki, idiomalarni bir tilidan boshqa tilga tarjima qilish juda qiyin. Tarjima qilishda iboraning mazmunini ifodalashgina emas, balki uslubiy maqsadni yodda tutgan holda, uning obrazlilikini ham koʻrsatish muhimdir. Idiomalarni tarjima qilishda tarjimon mahalliy tilda ekvivalent atama topib, idiomalarning stilistik vazifasini saqlab qolgan holda, ularning mazmuni va obrazlilikini uzatishi kerak. Mahalliy tilda bir xil tasvir boʻlmasa, tarjimon “taxminan moslik” bilan kifoyalanishga majbur boʻladi. Frazzeologik birliklarga misollar mavjud: At seventh hour – tepagi daqiqada, eng tepagi odamda.

Beat swords into plow-shares – qilichlarni boʻlgʻalab, oʻmoch yasamoq, tinch mehnatga oʻtmoq, tinch kunlarga yetib kelmoq.

The breath of the nostrils – hayotiy zarurat, suv va havodek zarur.

Cast one’s bread upon the waters – suvga non uloqtirmoq; tuzatishini oʻylamay biror ish qilmoq. The olive branch – zaytun shohi; tinchlik va osudalik timsoli. The root of evil – yovuzlikning ildizi; mol-dunyoga muhabbati.

Heap coals of fire on somebody’s head – uyaltirmoq, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarmoq.

Turli tillarda bir xil real maʼnoga ega boʻlgan soʻzlarning bajaradigan semantik va stilistik vazifalaridagi farqlar, shuningdek, bunday soʻzlarning turli tillarda kirib keladigan birikmalardagi farqlari ham amaliyot, ham tarjima nazariyasi uchun nihoyatda muhim. Ular, koʻpincha, katta amaliy qiyinchiliklar tugʻdiradi va katta nazariy qiziqish uygʻotadi, chunki ular bir xil real maʼnoga ega boʻlgan soʻzlarning turli tillarda bajaradigan semantik va stilistik vazifalaridagi farqlar va bunday soʻzlar turli tillarda kirib keladigan birikmalar farqlari bilan bogʻliq.

Мухамедова Феруза Баходир кизи (преподаватель УзГУМЯ; feruza9106@mail.ru)
МИФОЛОГИЧЕСКИЕ ЭЛЕМЕНТЫ АВТОРСКОГО ТЕКСТА В РОМАНАХ В.ПЕЛЕВИНА

***Annotatsiya.** Maqolada V.Pelevin romanlaridagi mifologik materialni muallif matning mifologik elementlariga badiiy aylantirish strategiyalari tahlil qilingan. Xususan, boʻri motivi timsolining oʻziga xos xususiyatlari koʻrib chiqiladi. “Boʻrining muqaddas kitobi” romanida postmodernistik uslublar yordamida afsonani qayta koʻrib chiqish arxetipik obrazlar va motivlarni oʻynoqi tushunishga olib kelishi aniqlangan. Pelevin muallifning neomifologiyasini yaratish uchun xitoy mifologiyasi (boʻri naqshlari, tulki va boʻri tasvirlari) va shimoliy nemis mifologiyasi (it Garm va boʻri Fenrir tasvirlari) motivlari va tasvirlari bilan oʻynaydi.*

***Аннотация.** В статье анализируются стратегии художественной трансформации мифологического материала в мифологические элементы авторского текста в романах В.Пелевина. В частности, рассматривается специфика воплощения мотива оборотничества. В романе “Священная книга оборотня” выявлено, что переосмысление мифа с помощью постмодернистских приемов приводит к игровому пониманию архетипических образов и мотивов. Пелевин играет с мотивами и образами из китайской мифологии (мотивы оборотня, образы лисы и оборотня) и северогерманской мифологии (образы пса Гарма и волка Фенрира), чтобы создать неомифологию автора.*

***Annotation.** The article analyzes strategies for the artistic transformation of mythological material into mythological elements of the author’s text in V.Pelevin’s novels. In particular, the specifics of the embodiment of the motive of wolf are considered. In the novel “The Sacred Book of the Wolf” it is revealed that the rethinking of the myth with the help of postmodernist techniques leads to a playful understanding of archetypal images and motives. Pelevin plays with motifs and images from Chinese mythology (the motifs of a werewolf, images of a fox and a werewolf) and North German mythology (images of the dog Garm and the wolf Fenrir) to create the author’s neo-mythology.*

***Kalit soʻzlar:** mifologiya, mif yaratish, transformatsiya, boʻri, motiv, postmodernizm.*

¹ Oʻsha manba.

Ключевые слова: мифология, мифотворчество, трансформация, оборотень, мотив, постмодернизм.

Key words: mythology, myth-making, transformation, wolf, motif, postmodernism.

Хорошо известно, что мифотворчество в литературе 20 и 21 века – явление весьма специфическое, представляющее определенные художественные средства и мировоззрения и являющееся одним из основных способов восприятия действительности определенными авторами. В связи с этим, создаются многочисленные мифы «нового времени», пропущенные «через индивидуальное сознание с его рефлексией и авторским свободным отношением к изображаемому».¹ Таким образом, некоторые писатели создают «неомифологию», которая не ставит своей целью воспроизведение мифологического мышления, но пытаются раскрыть внутренние структуры и механизмы современного социокультурного сознания. Следует отметить, что изучение мифологии – одной из универсальных категорий человеческого бытия, базовой составляющей человеческого мышления и одной из детерминант существования индивида в обществе – имеет в науке (не только в литературоведении, но и в философии и культурологии) давнюю историю. Российские и западные мифологи, от Э.М.Меретинского и В.Проппа до М.Элиаде и Р.Барта, занимались не только художественной литературой как опосредованным воплощением мифа, но и образами, мотивами, сюжетами и приемами мифотворчества в мифическом мире которые, поэты, прозаики и драматурги сознательно используют и переосмысливают анализируя его как постоянно меняющееся поле. Наиболее примечательна в этом отношении литература XX столетия, в рамках которой, как справедливо отмечает О.Ю.Осьмухина, «мифологический «компонент» становится частью поэтики авторского произведения».² Для русской прозы рубежа XX–XXI вв. (достаточно вспомнить романы В.Сорокина, Бориса Акунина, Дм.Липскерова и др.), использующей «аллюзии, интертекстуальность, цитатность, игру с претекстами, – актуально именно художественное преобразование исходного мифологического материала (античного, христианского и т.д.) в мифопоэтические элементы авторского текста», приводящее к созданию вполне конкретного авторского неомифа. Оговоримся, что под мифопоэтикой традиционно понимается сознательное обращение художников слова к различного рода художественным приемам «мифологического генеза», его образам и сюжетам, «подвергающимся творческому переосмыслению и, соответственно, перемещающимся из мифологической в мифопоэтическую сферу, то есть становящимся частью поэтики художественного произведения».³ Именно художественное преобразование исходного мифологического материала в мифопоэтические элементы авторского текста представляется наиболее значимым, поскольку именно в этом аспекте мифопоэтика демонстрирует способность к глобальным обобщениям на содержательном и структурном уровнях произведения.

Наиболее известными с точки зрения мифопоэтики являются произведения В.О.Пелевина. Известно, что большинство его романов, от «Омон Ра», «Ампир V» и «Бэтмен Аполлон» до «Любови трех цукербрин», «Смотрителя» и «Лампы Мафусаила», посвящены философским и религиозным дискурсам в контексте постмодернистской поэтики. В контексте постмодернистской поэтики используются философские и религиозные дискурсы, а также городской фольклор, кельтская мифология, германская мифология, норвежская мифология, китайские сказки и нумерология, буддизм и даосизм, шаманизм и техники йоги, классическая литература и популярная культура. Авторы рассматривают содержание и характер мифов, используют скрытый потенциал мифологического мышления, синтезируют различные мифологические мотивы, «переворачивают известные истории» и создают собственные мифы. Например, в романе «Священная книга оборотня» основными мотивами, развитыми и переосмысленными писателем, являются мотивы превращения, двойничества, силы поцелуя и оборотней.

Стоит отметить, что текст «Священной книги оборотня» организован без глав и хронологических этапов, которые часто встречаются в дневниковых романах, что создает ощущение цикличности композиции. Детали произведения играют определенную роль в развитии сюжета, но также работают на достижение главной идеи произведения. Название романа задает вектор восприятия. Название не только конденсирует содержание текста в символы. Словосочетание «Свя-

¹ Нехлюдов С.Ю. Оборотничество. Мифы народов мира: энциклопедия: в 2 т. М., Советская энциклопедия, 1992, т. 2.

² Осьмухина О.Ю. Мифопоэтический контекст романа В.Пелевина «священная книга оборотня».

³ Махрова Г.А. Проза Д.М.Липскерова в мифопоэтическом аспекте.

ценная книга» на обложке, пришедшее из сакральной культуры, сразу наводит на мысль о разнице между этими культурами. С одной стороны, для западного социокультурного сознания священным писанием считается только Библия, с другой стороны, эта фраза переносит читателя на Восток (точнее, в культурную сферу Дальнего Востока), где это словосочетание впервые было отмечено Т.И.Чепелевской,¹ традиционно определявшей рамки китайской классики. Таким образом, первое позиционирование оппозиции сакральное/светское дает читателю особое понимание этого семантического сигнала. Однако автор этой прозы вводит в заглавие понятие игры в оборотня, заимствованное из культурной традиции, отдельной от мифологии, и приходит к противоречивой семантике, в которой потенциально религиозное и сакральное оказывается рядом с мифологией. Конфликт между Востоком и Западом способен функционировать одновременно как общая рамка или как внутренняя рамка в рамках различных семантических полей произведения.

Роман рассказывается от лица главной героини, лисы-оборотня, которая занимается виртуальной проституцией и создает иллюзию близости в сознании своих клиентов. У нее древнее имя А Хули (Хули-китайское слово, обозначающее лису, А – короткий суффикс), которое можно перевести как «Лисичка». Однако у героини есть и «современный» псевдоним, который зарегистрирован на поддельных загранпаспортах. Алиса Ли, широко распространенная корейская фамилия, также может быть интерпретирована как «неподлинность», воображаемое существо, которое другие могут видеть, но принимают за настоящее – «Алиса ли?»² Здесь тоже есть отсылка к «Алисе в Стране чудес» Л.Кэрролла. Главная героиня подвергается сомнению в своей подлинности со стороны Труляля, который настаивает на том, что ее не существует, что она нереальна и что ей просто снится сон. Возвращаясь к роману Пелевина, отмечается, что игра главной героини с подлинностью (никто вокруг не подозревает о тождестве легко канонизированной, похожей на нимфу девушки) создает паттерны удвоения (результат расщепления взаимозаменимых имен, сокрытия реального человека под другим именем) и оборотничества (сокрытие своей истинной природы за ложной формой). В жизни виртуальной проститутки А Хули встреча с Александром, генералом ФСБ. Этот молодой генерал – статный красавец, хороший любовник и по совместительству волк-оборотень – центральный персонаж романа. Более того, если человеческие персонажи в романах напоминают животных с ограниченным разумом и желаниями, то оборотни символизируют то, что ассоциируется с человеком – их отличает богатый внутренний мир, глубокое знание жизни и хорошее образование (по совпадению, те же характеристики присутствуют в *Empire V* и *Batman Apollo* (которые ассоциируются с вампирами как высшей расой, незримо господствующей над миром людей).

Однако следует отметить, что теория оборотня в этом романе содержит обширные пласты мифологии как восточной, так и западной культуры. «Мотив оборотничества» связан с древней концепцией «переплетения» всех аспектов и проявлений реальности, определяя тем самым существование реального мира и «перевернутого» мира. Это позволяет В.Пелевину развить идею сосуществования разных миров в пространственно-временном континууме и продолжить традиционную тему возможности/невозможности перехода, то есть пересечения пространственных и временных границ между этими мирами. В то же время, рассматривая оборотня как метафору сокрытия сущности в «Священной книге оборотня», Пелевину удалось ввести тему «сверхоборотней», которая имеет решающее значение для идейного содержания романа в целом. Лиса А Хули живет на перекрестке разных миров, не принадлежа ни к одному из них и свободно перемещается между этими пограничными зонами. В реальном мире она вовлечена в цепь полукриминальных ситуаций, которые, как уже говорилось, приводят ее в спецслужбы и к генерал-лейтенанту ФСБ Александру (Саша Серый). Он оказывается оборотнем и читателя отсылают не только к раннему рассказу Пелевина «Проблема верволка в Средней полосе», но и к известному фольклорному персонажу (в том романе сама А Хули предстает перед Александром в красном халате с капюшоном и корзиной печенья и быстро превращается в человека в красном капюшоне. Последняя параллель развивается в эпизоде, где он рассказывает анекдот о Красной шапочке и волке. В этом отношении стоит отметить сближение восточного и западного культурных контекстов. Если лисы и оборотни чаще всего ассоциируются с Востоком и занимают видное место китайских, корейских и япон-

¹Чепелевская И.И. Творчество В.Пелевина в аспекте постмодернизма//культура сквозь призму идентичности. М., «Индрик», 2006, с. 227.

² Кэрролл Л. Алиса в зазеркалье (электронный ресурс).

ских мифах, то истории о волках-оборотнях, от мифологии до популярной культуры, чаще всего встречаются в европейских культурных контекстах.

Образ волка в фольклорных представлениях традиционно близок к мифу о собаке, который связан с культом воинов и племенных предков. Многие мифы о волках объединяет «идея, что люди становятся волками», когда они становятся одновременно «жертвами (изгоями, преследователями) и хищниками (убийцами, преследователями)». Волкам приписываются амбивалентные характеристики, такие как свирепость, хитрость, жадность и жестокость, с одной стороны, и мужество, преданность и воля к победе – с другой. Хотя образы волков и лисиц в мифологии имеют сильный негативный оттенок, эти два животных также способны превращаться в совершенно разных существ.

Героиня, в отличие от лис-оборотней, не живет в «стае», не приближается к кладбищам, свой хвост использует не с целью разжигания огня (как мифологические кицунэ), а для создания морока, погружающего в иллюзии. Это подчеркивает ее большую «человеческую» сущность.

Кроме того, оборотни у Пелевина способны любить духовно, а не телесно, лишь в облике человека, что также сближает их с обычными людьми. Для А Хули любовь становится тем ориентиром, который заставил ее вспомнить о собственной не мнимой, но подлинной сущности и миссии. Благодаря любви она стала сверхоборотнем и осознала, что истина – в любви; именно любовь оказывается для героини «ключом» к пониманию сути вещей и мира, который она искала две тысячи лет. В.Пелевин вновь переосмысливает традиционный миф о лисах, предстающих злыми демонами, наделяя героиню не только способностью к философствованию, способностью глубоко любить, но и чувством раскаяния: «Лиса чувствует всю тяжесть своих лихих дел; поток раскаяния, ужаса и стыда за содеянное». Благодаря любви, Лиса А обретает внутреннюю свободу, а потому входит в Радужный поток с облегченной душой, а не с горестными переживаниями.

Таким образом, в романе «Священная книга оборотня» переосмысление мифа посредством постмодернистских приемов приводит не только к игре со смыслами, но и абсолютно новому пониманию архетипических образов и мотивов. Посредством обыгрывания мотивов и образов китайской (мотив оборотничества, образы лис-оборотней) и северогерманской мифологии (образы пса Гарма и волка Фенрира, иронически раздваивающихся в образах пса П...ца и главного героя Александра) Пелевин создает собственный авторский неомиф, позволяющий, во-первых, осмыслить философскую и культурную оппозицию Восток–Запад, «снять» различия между которой способна лишь сила любви; во-вторых, «вечные» проблемы добра, зла, любви, смерти, а в-третьих, вновь рассмотреть одну из ключевых тем своего творчества «взаимопереходности» между мирами.

**Родина Ирина Витальевна (старший преподаватель УзГУМЯ; Irinka-tuchka@mail.ru)
СПЕЦИФИКА ВОПЛОЩЕНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ АВТОРСКИХ ДУХОВНО-
КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ В РЕЛИГИОЗНОЙ ПРОЗЕ**

Annotatsiya. Maqolada diniy nasrdagi asosiy mezon va axloqiy-g'oyaviy koordinatalarni tizimlashtirish, o'z vaqtida amalga oshirilayotgan adabiy jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Diniy nasr asarlari doirasida yangi ma'naviy va estetik "xudo izlash modellari"ning ahamiyatiga urg'u berish zamonaviy rus adabiyotidagi ekzistensial darajadagi jarayonlarni badiiy va axloqiy tushunishni anglatadi.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы систематизации ключевых критериев и этико-мировоззренческих координат в религиозной прозе, как важной составляющей своевременного литературного процесса. Акцент на значимости новых духовно-эстетических «моделей богоискательства» в рамках произведений религиозной прозы представляет художественно-нравственное осмысление процессов бытийного уровня в современной русской литературе.

Annotation. The article deals with the systematization of key criteria and ethical and ideological coordinates in religious prose, as an important component of the timely literary process. The emphasis on the significance of new spiritual and aesthetic "models of God-seeking" within the framework of works of religious prose represents an artistic and moral understanding of the processes of the existential level in modern Russian literature.

Kalit so'zlar: diniy nasr, diniy uyg'onish, dunyoni insonparvarlashtirish, madaniyat.

Ключевые слова: религиозная проза, религиозный ренессанс, гуманизация мира, культура.

Key words: religious prose, religious renaissance, humanization of the world, culture.

